

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Nuritdinova V.Sh.
Sharapova M.A.**

MOLIYAVIY NAZORAT

O'QUV QO'LLANMA

Toshkent – 2014

Taqrizchi:

Haydarov N.H. – Toshkent moliya instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori, iqtisod fanlar doktori, professor

Turabov B.T. – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Hududlar moliyasi Bosh boshqarma boshlig'i, iqtisod fanlari nomzodi

Moliyaviy nazorat: O'quv qo'llanma / Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. – Toshkent, 2014 – 380 bet.

MUNDARIJA:

KIRISH	12
---------------------	-----------

I bo'lim. Moliyaviy nazoratning nazariy va tashkiliy asoslari

1 bob. Moliyaviy nazorat va uni tashkil etishning nazariy asoslari

1.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati.....	14
1.2. Takror ishlab chiqarishning turli bosqichlarida davlat moliyaviy nazoratining vazifalari.....	19
1.3. Davlat moliyaviy nazorati tizimining elementlari	21
1.4. Davlat moliyaviy nazoratida metodik uslublar.....	23
1.5. Davlat moliyaviy nazoratni tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari.....	30

2 bob. Moliyaviy nazoratning turlari, shakllari va usullari

2.1. Moliyaviy nazoratning turlari.....	46
2.2. Moliyaviy nazoratning shakllari.....	55
2.3. Nazorat olib borish usullari	59

3 bob. Moliyaviy nazoratni tashkil qilish va o'tkazish bosqichlari

3.1. Nazorat chora -tadbirlarini rejalashtirish.....	67
3.2. Nazorat qilinayotgan ob'yekt faoliyatini tahlil etish.....	73
3.3. Nazorat chora-tadbirining yakunlovchi bosqichi.....	84

II bo'lim. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda davlat organlarining ahamiyati

4 bob. Umumdavlat nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirilishi

4.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	88
4.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	92
4.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi komissiyalarning moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	99
4.4. Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashning moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati.....	108

5 bob. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va uning moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi o'rni

5.1. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining maqsadi va tarkibiy tuzilmasi.....	112
---	------------

5.2. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining vazifa va funksiyalari.....	114
5.3. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi tomonidan tekshirishlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi.....	118
5.4. Hisob Palatasi tomonidan tekshirish materiallarini topshirish va tekshirish natijalari bo'yicha davlat organlari tomonidan chora ko'rish tartibi.....	121

6 bob. Moliyaviy nazorat olib boruvchi organlar va ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi o'rni

6.1.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning moliyaviy nazoratni tashkil etishi.	126
6.2.Moliya vazirligi huzuridagi Bosh Nazorat – taftish Boshqarmasi va uning xududiy boshqarmalarining tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari	137
6.3. Moliya vazirligi G'aznachiligining byudjet ijrosini nazorat qilishdagi faoliyatining xususiyatlari.....	147
6.4.Davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda soliq organlari roli	154

III bo'lim. Davlat moliyaviy nazorati turlari

7 bob. Soliq nazorati

7. 1. Soliq nazoratining asoslari va amalga oshirish shakllari.....	161
7. 2.Soliq tekshiruvlarining mohiyati va turlari.....	168
7.3 Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.....	174
7.4. Davlat organlarining soliq nazoratini olib borishdagi vazifa va vakolatlari.....	185

8 bob. Bank nazorati

8.1. Bank nazoratining mohiyati va zarurligi.....	193
8.2.Bank nazoratini amalga oshirish usullari.....	200
8.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining bank nazoratini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati.....	206
8.4. Tijorat banklarini lisenziyalash va davlat ro'yhatidan o'tkazish orqali nazorat qilish.....	211

9 bob. Sug'urta nazorati

9.1.Sug'urta faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari.....	216
9.2.Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning maqsad va vazifalari.....	221
9.3. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan sug'urta faoliyatini nazorat qilish tartibi.....	224

9.4.Sug`urta nazorati Davlat inspeksiyasining vazifalari, funksiyalari va huquqlari.....	235
--	-----

10 bob. Byudjet nazoratini tashkil etish

10.1.Moliya organlarida nazorat- iqtisodiy ishlarni tashkil etish.....	239
10.2. Byudjet tashkilotlari moliya-xo`jalik faoliyatini taftish etish amaliyoti..	250

11 bob. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirishdagi moliyaviy nazorat

11.1 Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasining mohiyati va ahamiyati.....	266
11.2. Xarajatlar smetasini tuzish, ko`rib chiqish va tasdiqlash jarayoni nazorati.....	273
11.3. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining tasdiqlanishi hamda ro`yxatdan o`tkazishning rasmiylashtirilishini to`g`riligini tekshirish.....	282

IV bo`lim. Nodavlat moliyaviy nazorati

12 bob. Auditorlik nazorati

12.1. Auditorlik nazorati va uning prinsiplari.....	290
12.2. Auditorlik tekshiruvining mohiyati va shakllari.....	295
12.3. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi.....	300
12.4. Auditorlik hisoboti va xulosalari.....	311

13 bob. Ichki moliyaviy nazorat tizimini moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishdagi ahamiyati

13.1. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni tashkil etish.....	317
13.2. Ichki audit xizmatini tashkil etish.....	324

V bo`lim. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazorat

14 bob. Rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyoti

14.1. Jahon hamjamiyatiga a`zo mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish.....	333
14.2. Rossiya federasiyasi davlat moliyaviy nazorat organlari vakolatlari.....	341

Glossariy	368
------------------------	-----

Adabiyotlar	378
--------------------------	-----

Содержание:

ВВЕДЕНИЕ	12
-----------------------	-----------

Раздел I. Теоретические и организационные основы финансового контроля

Глава 1. Теоретические основы организации финансового контроля

1.1. Сущность и значение финансового контроля.....	14
1.2. Задачи государственного финансового контроля на разных стадиях процесса воспроизводства.....	19
1.3. Элементы системы государственного финансового контроля.....	21
1.4. Методологические приемы государственного финансового контроля.....	23
1.5. Принципы организации и реализации государственного финансового контроля	30

Глава 2. Виды, формы и методы организации финансового контроля

2.1. Виды финансового контроля.....	46
2.2. Формы осуществления финансового контроля.....	55
2.3. Методы осуществления финансового контроля.....	59

Глава 3. Этапы организации и осуществления финансового контроля

3.1. Планирование контрольных мероприятий.....	67
3.2. Анализ деятельности контролируемого объекта.....	73
3.3. Завершающий этап контрольных мероприятий.....	84

Раздел II. Роль государственных органов в осуществлении финансового контроля

Глава 4. Осуществление финансового контроля органами общегосударственного контроля

4.1. Роль Олий Мажлиса Республики Узбекистан в осуществлении финансового контроля.....	88
4.2. Роль Кабинета Министров Республики Узбекистан в осуществлении финансового контроля.....	92
4.3. Роль специализированных комиссий при Кабинете Министров Республики Узбекистан в осуществлении финансового контроля.....	99
4.4. Роль Совета по координации деятельности республиканских органов контроля в осуществлении финансового контроля.....	108

Глава 5. Счётная палата Республики Узбекистан и её роль в организации финансового контроля

5.1. Цель и организационная структура Счётной палаты Республики Узбекистан.....	112
5.2. Задачи и функции Счётной палаты Республики Узбекистан.....	114
5.3. Порядок организации и проведения проверок Счётной палатой Республики Узбекистан.....	118
5.4. Порядок предоставления материалов и проведения мероприятий по результатам проверок осуществлённых Счётной палатой.....	121

Глава 6. Финансовые органы и их роль в организации финансового контроля

6.1. Министерство финансов Республики Узбекистан и его роль в осуществлении финансового контроля.....	126
6.2. Главное контрольно-ревизионное управление при Министерстве финансов и его территориальные подразделения, организационная структура, функции, задачи, права и обязанности.....	137
6.3. Особенности деятельности Казначейства Министерства финансов в осуществлении контроля за исполнением бюджета.....	147
6.4. Роль налоговых органов в осуществлении государственного финансового контроля.....	154

Раздел III. Виды государственного финансового контроля

Глава 7. Налоговый контроль

7.1. Основы и формы осуществления налогового контроля	161
7.2. Сущность и виды налоговых проверок.....	168
7.3. Порядок проведения налоговых проверок.....	174
7.4. Задачи и полномочия государственных органов в проведении налогового контроля.....	185

Глава 8. Банковский контроль

8.1. Сущность и необходимость банковского контроля.....	193
8.2. Методы осуществления банковского контроля.....	200
8.3. Роль и значение Центрального банка Республики Узбекистан в осуществлении банковского контроля.....	206
8.4. Порядок контроля коммерческих банков путём лицензирования и проведения государственной регистрации.....	211

Глава 9. Страховой контроль

9.1. Теоретическо-правовые основы страховой деятельности.....	217
9.2. Цель и задачи контроля государства за осуществлением страховой	

деятельности	221
9.3. Порядок контроля специализированным компетентным государственным органом организации страховой деятельности.....	224
9.4. Задачи, права и функции Государственной инспекции страхового надзора.....	235

Глава 10. Организация бюджетного контроля

10.1. Организация контрольно-экономической работы в финансовых органах.....	240
10.2. Проведение ревизий финансово-хозяйственной деятельности бюджетных организаций	250

Глава 11. Финансовый контроль за планированием и финансированием из бюджета смет расходов бюджетных организаций

11.1. Сущность и значение сметы расходов бюджетных организаций.....	266
11.2. Контроль за составлением, рассмотрением и утверждением смет расходов	273
11.3. Контроль за утверждением и регистрацией смет расходов и штатных Расписаний.....	282

Раздел IV. Негосударственный финансовый контроль

Глава 12. Аудиторский контроль

12.1. Аудиторский контроль и его принципы.....	290
12.2. Сущность и формы аудиторского контроля.....	295
12.3. Порядок лицензирования аудиторской деятельности.....	300
12.4. Аудиторский отчёт и заключение.....	311

Глава 13. Значение системы внутреннего контроля в эффективной организации финансового контроля

13.1. Сущность и организация системы внутреннего контроля.....	316
13.2. Организация службы внутреннего аудита.....	324

Раздел V. Государственный финансовый контроль в развитых странах

Глава 14. Практика организации финансового контроля в развитых странах

14.1. Организация финансового контроля в странах мира.....	332
14.2. Полномочия органов финансового контроля в Российской Федерации.....	341

Глоссарий.....	368
-----------------------	------------

Литература.....	378
------------------------	------------

Contents:

INTRODUCTION	12
---------------------------	-----------

PART I. Theoretical and organizational foundations of financial control

Chapter 1. Theoretical foundations of organization of financial control

1.1. Essence and significance of financial control.....	14
1.2. Tasks of the state financial control at the different stages of the reproduction process.....	19
1.3. System elements of the state financial control.....	21
1.4. Methodological techniques of the State Financial control.....	23
1.5. The principles of organization and implementation of the state financial control.....	30

Chapter 2. Kinds, forms and methods of organization of financial control

2.1. Kinds of the financial control.....	46
2.2. Forms of the financial control.....	55
2.3. Methods of the financial control.....	59

Chapter 3. Stages of organization and implementation of the financial control

3.1. Planning of the control measures	67
3.2. Analysis of the activity of the controlled object	73
3.3. Final stage of the control measures.....	84

PART II. The role of public authorities in the implementation of financial control

Chapter 4. Implementation of the financial control by the state control bodies.

4.1. The role of Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan in the implementation of financial control.....	88
4.2. The role of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan in the implementation of financial control.....	92

4.3. Role of the special committees under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan in the implementation of the financial control.....	99
4.4. The role of the Council on coordination of activities of National control bodies in the implementation of financial control	108

Chapter 5. The Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan and its role in the financial control

5.1. Objective and organizational structure of the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan.....	112
5.2. Tasks and functions of the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan.....	114
5.3. The system of inspection by the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan	118
5.4. The procedure of provision of materials and activities on the results of inspections carried out by the Accounts Chamber.....	121

Chapter 6. Financial bodies and their role in the organization of financial control

6.1. The Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan and its role in the implementation of financial control	126
6.2. The Main control-revision administration under the Ministry of Finance and its territorial subdivisions, the organizational structure, functions, tasks, rights and obligations.....	137
6.3. The activity features of the Treasury of the Ministry of Finance in the Implementation of the budget execution control.....	147
6.4. Role of the tax authority in the implementation of the state financial control.....	154

Part III. Kinds of state financial control

Chapter 7. Tax control

7.1. Foundations and forms of tax control.....	161
7.2. Essence and kinds of tax audits.....	168
7.3. Procedure of the tax audits.....	174
7.4. Objectives and competences of the state organs in the organization of the tax control.....	185

Chapter 8. Bank control

8.1. Essence and necessity of the bank control.....	193
8.2. Methods of the bank control.....	200

8.3. Role and importance of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan in the implementation of the bank control.....	206
8.4. The procedure for control of commercial banks by means of licensing and state registration.....	211

Chapter 9. Insurance control

9.1. Theoretical and legal foundations of the insurance activity.....	217
9.2. Objectives and tasks of the control of insurance activity by the government.....	221
9.3. The procedure for control on the organization of insurance activity by the special competent public authority	224
9.4. Tasks, rights and functions of the State inspection for insurance supervision.....	235

Chapter 10. Organization of the budget control

10.1. Organization of control and economic work in financial bodies	240
10.2. Auditing the financial-economic activities of the budgetary organizations.....	250

Chapter 11. Financial control of the planning and budget financing of the expenditure estimates of budget organizations

11.1. Essence and importance of the expenditure estimate of the budget organizations	266
11.2. Control on the preparation, consideration and approval of the expenditure estimates.....	273
11.3. Control on the approval and registration of such expenditure and staffing tables	282

Part IV. Non-state financial control

Chapter 12. Audit control

12.1. Audit control and its principles.....	290
12.2. Essence and forms of the audit control.....	295
12.3. The procedure for licensing of audit activity.....	300
12.4. Audit report and conclusion.....	311

Chapter 13. The importance of the internal control system in the effective organization of financial control

13.1. Essence and organization of the internal control system.....	316
13.2. Organization of the internal audit service.....	324

Part V. State financial control in the developed countries

Chapter 14. Practice of the financial control in the developed countries	
14.1. Organization of financial control in the countries of the world.....	332
14.2. Powers of the financial control bodies in the Russian Federation.....	341
Glossary.....	368
Literature	378

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiyalash, bozor islohotlarining yanada chuqurlashtirilishi natijasida yildan yilga salmoqli natijalar qo'lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o'sish yo'nalishi mustahkamlanib bormoqda. Hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy siyosat to'la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishida moliyaviy nazorat o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

«Moliyaviy nazorat» fani moliya sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida asosiy fanlardan hisoblanadi. Rejali iqtisodiyot davrida moliyaviy nazorat o'sha davrga mos holatda amalga oshirilgan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning takomillashganligi va o'ziga xosligini kuzatish mumkin. Shu sababli “Moliyaviy nazorat” o'quv qo'llanmasi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalarini qamrab olib, unda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiyalash sharoitida moliyaviy nazorat va uni amalga oshiruvchi organlar faoliyatining o'ziga xos jihatlari yoritib berishga harakat qilingan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning I bo'limi “Moliyaviy nazoratning nazariy va tashkiliy asoslari” deb nomlanib, unda moliyaviy nazoratning nazariy asoslari, turlari, shakllari va usullari hamda moliyaviy nazoratni tashkil qilish va o'tkazish bosqichlari yoritilgan.

II bo'lim 3 ta bobdan iborat bo'lib, unda davlat nazorat organlarining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati o'z aksini topgan.

III bo'lim “Davlat moliyaviy nazorati turlari” deb nomlanib, bunda soliq nazorati, bank nazorati va sug'urta nazorati hamda byudjet jarayonida moliyaviy nazoratni amalga oshirish, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasini rejalashtirish va byudjetdan moliyalashtirish nazorati qamrab olingan.

IV bo'lim 2 ta bobdan iborat bo'lib, bunda auditorlik nazorati hamda ichki moliyaviy nazoratning moliyaviy nazorat samardorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

V bo'limda rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyoti o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanmaning II bobi, ya'ni "Moliyaviy nazoratning turlari, shakl va usullari"ni yoritishda iqtisodchi olimlarimiz professor A.V. Vahobov hamda professor T.S. Malikovlar hammuallifligida yozilgan "Moliya: umumnazariy masalalar" nomli o'quv qo'llanmadan keng foydalanildi.

"Moliyaviy nazorat" deb nomlangan ushbu o'quv qo'llanma o'zbek tilida ilk marta nashr etilayotganligini inobatga olgan holda, kamchiliklari yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda taklif va tavsiyalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz. O'quv qo'llanmaning 1,3,6,10,11,13,14-boblari V.Sh.Nuritdinova hamda 2,4,5,7,8,9,12-boblari M.Sharapova tomonidan tayyorlandi.

I bo'lim. MOLİYAVIY NAZORATNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1 bob. MOLİYAVIY NAZORAT VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati

Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi. Nazorat bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi obyekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir.

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obyektida mavjud bo'lgan haqiqiy holatni obyektiv o'rganish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratning boshqaruv tizimining asosiy elementi bo'lgan umumiy nazorat tizimidagi muhim o'rni va ahamiyati shundaki, birinchidan, moliya o'zi iqtisodiy kategoriya sifatida obyektiv tarzda nazorat funksiyasini bajaradi; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlarning roli oshib boradi. Barcha uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonlarini, xo'jalik

yuritishning barcha pog'onalari, davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab olar ekan, moliyaviy nazorat universal qurol sifatida amal qiladi.

Bozor iqtisodiyoti uchun davlat moliyaviy nazorati faoliyatning alohida bir sohasiga aylanib boradi. Davlat moliyaviy nazoratning obyekti bo'lib boshqarishning barcha darajalarida moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishidan taqsimlanish jarayonlari maydonga chiqadi. Bu boradagi davlat moliyaviy nazorati avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.

Davlat moliyaviy nazoratining mohiyatini ochib berishi uchun bir qator holatlarni hisobga olmoq lozim:

1. Moliyaviy nazorat davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini faoliyatining bir shakli, ko'rinishi sifatida namayon bo'ladi.
2. Moliyaviy nazorat ma'lum darajadagi moliyaviy ishlab chiqarish munosabatlarini boshqarish va tartibga solish shaklida amalga oshiriladi.
3. Moliyaviy nazoratning ta'sirchanligi uni moliyaning boshqa barcha funksiyalari bilan o'zaro bog'likda amalga oshirilgandagina ta'minlanadi.
4. Moliyaviy nazorat xo'jalik sub'yektlari va aholi tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Haqiqatan ham, qat'iy va samarali moliyaviy nazoratsiz moliyaviy intizomni mustahkamlash qiyin. Moliyaviy intizom bo'lmagan joyda esa iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining yashash darajasini yaxshilashga qaratilgan muhim vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Ayniqsa o'sish harakteridagi iqtisodiyotda ilgari ma'lum bo'lmaganlar va uchramagan moliyaviy buzilishlarning aniqlanishi ularni amaliyotda moliyaviy nazoratning barcha dastak va vositalarini qo'llab bartaraf etish talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati o'z ichiga davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari fondlari mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi ustidan quyidagi vakolatga ega:


- Pul muomalasini tashkil etish ustidan nazorat;
- Davlatning ichki va tashqi qarzlari ustidan nazorat;
- Davlat kredit resurslaridan foydalanish ustidan nazorat;
- Davlat mulkidan foydalanish ustidan nazorat;
- Davlat zahiralari ustidan nazorat;
- Moliyaviy engilliklar va imtiyozlar berish ustidan nazorat.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: davlat moliyaviy nazorati davlat xokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shpkllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy tarzda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan ob'yektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) Davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish;
- 2) Davlat moliyaviy resurslarining maqsadga muvofiq ishlatilishini, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy ravishda va oqilona foydalanishini nazorat qilish;
- 3) Xo'jalik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobi va hisobotni to'g'ri yuritilishini nazorat qilish, xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya xujjatlarida to'g'ri aks etirilishini tekshirish;
- 4) Soliq va soliqqa tortish, valyuta, bojxona va bank faoliyatida amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish.


Bu ro'yxat bilan davlat moliyaviy nazoratining vazifalarini chegaradash mushkildir. Chunki moliyaviy qonunchilikning o'zgarishi bilan moliyaviy nazoratning vazifalari ham o'zgaradi va aniqlashtiriladi.



1-rasm. Moliyaviy nazoratning vazifalari

Ayrim adabiyotlarda moliyaviy nazoratning nazorat funksiyasi deyarli bir xil talqin etilishini kuzatishimiz mumkin, ya'ni moliyaning nazorat funksiyasi nazorat qiluvchi organlar faoliyatida o'z aksini topashi to'g'risidagi noto'g'ri tushunchalarga duch kelamiz.

Gap shundaki, moliya o'zining nazorat funksiyasini obyektiv tarzda barcha moliyaviy munosabatlarning amal qilish jarayonida bajarib keladi. Moliyaviy nazorat esa uning bu funksiyasining amalda namayon bo'lish shakli.



2-rasm. Moliyaviy nazoratning mazmuni va elementlari

Davlat moliyaviy nazoratni esa bu davlatning iqtisodiyotni boshqarish elementlaridan biri bo'lib, uning yordamida moliyaviy resurslardan foydalanishdagi qonunlarning bajarilishdagi kamchiliklar aniqlanadi bu kamchiliklarning omillari va sabablari tahlil qilinadi ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi va ularni amal chora tadbirlar belgilanadi va ularni amalga oshirish darajasi nazorat qilinadi.

Davlat moliyaviy nazoratning funksiyalarning mamlakatda ishlab chiqilgan va amal qiladigan qonuniy va me'yoriy -huquqiy hujjatlarda o'z aksini topadi va tegishli nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

1.2. Takror ishlab chiqarishning turli bosqichlarida davlat moliyaviy nazoratining vazifalari

Ijtimoiy mahsulotni taqsimlash bosqichida moliyaviy nazoratning vazifasi, jamiyatning turli ehtiyojlarida - bozor munosabatlariga muvofiq tarzda qayta yaratilgan mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va qayta taqsimlashga sarflangan mablag'larni qoplashda undan foydalanishni tekshirishdan iborat. Mehnat vositalari va mehnat predmetlari zaxiralari me'yorlarini qayta tiklash qismida ishlab chiqarish munosabatlari, jonli mehnatga uning soni va sifatiga muvofiq tarzda sarflangan to'lovga mablag' xarajat qilish, ijtimoiy jamg'arish va iste'mol fondlarini yangilash va to'ldirish, davlat byudjetiga, ijtimoiy sug'urtalashga mablag' o'tkazish nazorat qilinadi. Ijtimoiy mahsulotni taqsimlash qismida moliyaviy nazorat predmeti iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga taqsimlanadi.

Ijtimoiy mahsulotni ayirboshlash bosqichida, ya'ni bozor munosabatlari sharoitida tovarlar muomalasi, moliyaviy nazorat predmeti shartnomaviy

munosabatlar (ta'minot shartnomalarini tovarlar savdosi, tayyorlab berish taqsimoti tartibi bo'yicha bajarish), iqtisodiyotni moddiy-texnik ta'minot mablag'lariga va aholining xalq iste'moli tovarlariga xaridorlik talabini bozorni tovarlar bilan to'yintirish orqali qondirishdir. Bunda tovar ayirboshlanishida ayirboshlash jarayonida natural va qiymat ko'rsatkichlari tekshiriladi. Binobarin, ayirboshlash bosqichida iqtisodiyotni bozor tartibga solinishiga muvofiq tarzda ijtimoiy mahsulot muomalasining barcha shakllari nazorat qilinadi.

Takror ishlab chiqarish - iste'molning jarayoni bo'lgan yakuniy bosqichda – moliyaviy nazorat ishlab chiqarish fondlarini yangilash va kengaytirish hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq operatsiyalarni tekshiradi. Shaxsiy iste'mol qismida moliyaviy nazorat jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdagi nomutanosibliklarni, shuningdek shaxsiy ehtiyojlarni qondirish jarayonida me'yoriy-huquqiy xujjatlarni buzish orqali yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni aniqlaydi.

Moliyaviy nazorat qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlaydi va boshqaruv tizimi vositasi bilan ularni qondirilishiga ta'sir etadi, qondirilgan ehtiyojlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishning navbatdagi davri uchun qaytadan yangilanadi. Bunday nazoratda iste'molchilik talabini moliyaviy nazorat predmeti bilan qondirish ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishga bozorning ta'siri hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazorat qarama-qarshiliklarni iqtisodiy usullar (soliqqa tortish, kreditlash va h.k.) bilan tartibga solish maqsadida aniqlash vositasi hisoblanadi.

Ta'kidlab o'tilganlardan kelib chiqqan holda moliyaviy nazorat predmetini keng ma'noda, ya'ni takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlari va boshqaruv darajasi qamrovini hisobga olgan holda hamda tor ma'noda, ya'ni davlat byudjetiga tatbiqan ta'riflash mumkin.

Birinchi holatda, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlarini aks

ettiruvchi iqtisodiyot subyektlarining moliyasi moliyaviy nazorat predmeti hisoblanadi.

Ikkinchi holatda, shakllanishi bosqichidagi kabi, taqsimlash va foydalanish bosqichlarida ham konsolidasiyalashgan davlat byudjeti mablag'lari moliyaviy (davlat) nazorat predmeti hisoblanadi.

1.3. Davlat moliyaviy nazorati tizimining elementlari

Davlat nazorati tizimi yaxlit holatda qator elementlardan iborat:

- nazorat subyekti (kim nazorat qilsa);
- nazorat obyekti (kimni nazorat qilsa);
- nazorat predmeti (nimani nazorat qilsa);
- nazorat tamoyillari;
- nazorat usuli;
- nazorat mexanizmi;
- nazorat jarayoni.


Nazorat- taftish tadbirlarini o'tkazish samaradorligiga bog'liq bo'lgan nazoratning yanada muhim elementi nazorat subyektlari hisoblanadi (ya'ni yuqori kasbiy malakaga ega tekshiruvchi shaxslar, taftishchilar, inspektorlar, auditorlar va h.k). Ularning faoliyati me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan reglamentlanishi lozim, bu hujjatlar birlashtirilgan holatda moliyaviy huquqni hosil qiladi.

Moliyaviy huquq iqtisodiy subyektlarni moliyaviy intizomga rioya qilmaganliklari uchun javobgarlik chegarasini belgilaydi, chunki ma'muriy, byudjet-soliq qonunchiligini buzganlarga moddiy-moliyaviy ta'sir etish choralarisiz nazorat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish bo'yicha yuqori natijalarga erishishning iloji yo'q.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar davlat moliyaviy nazorati subyektlari hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati obyekti – bu Davlat

byudjet, davlat mulki, tabiiy resurslar yoki soliqqa tortish, eksport va import bo'yicha biror-bir imtiyozlardir.

Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotning turli bo'g'inlarining iqtisodiy faoliyatidagi yangi hodisalarni yoritib beradi, ushbu faoliyatni takomillashtirish maqsadida uning qonunchiligini belgilaydi.



3-rasm. Davlat moliyaviy nazorati mexanizmi

Mahsulot ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'molini qamrab olgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazorat qarama-qarshiliklar va ularni jamiyat tomonidan tartibga solish maqsadida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'rganadi. Ushbu yirik doirada aynan ular nazorat obyekti hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini nazorat qilgan holda moliyaviy nazorat, insonning shaxsiy mehnati, mehnat predmeti va vositalarini o'z ichiga oluvchi maqsadga muvofiq faoliyati sifatida ijtimoiy mehnatdan samarali foydalanishi, uning amaldagi

qonunchilik, me'yoriy-huquqiy xujjatlarga mos kelishini aniqlaydi. Xususan, respublika va mahalliy darajalardagi byudjet va byudjetlararo munosabatlari tekshiriladi. Korxona va tashkilotlar darajasida jonli va ashyoviy mehnat sarflarining samaradorligi, asosiy fond va mablag'lardan foydalanish tekshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat predmetiga iqtisodiyot amal qilishini ta'minlovchi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha tarkibiy qismlari va qonuniy me'yoriy asos kiritiladi.

Nazorat tamoyillari- nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatdan o'tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo'lib, ularga amal qilishligi nazoratning samaradorligini ta'minlaydi. Nazorat tamoyillari moliya sohasidagi nazoratning umumiy tartibini maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi. Ko'p yillik tajriba asosida jahonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning asosiy tamoyillari ishlab chiqarilgan bo'lib, har bir sivilizatsiyalashgan davlatlarga amal qilingan va intiladi. Bu tamoyillar qonuniylik, daxlsizlik, obyektivlik, malakalilik, oshkoralikni talab qiladi.

Nazorat jarayoni – nazorat subyektlarining nazoratini oldiga qo'yilgan maqsadlarini eng samarali usullari bilan amalga oshirishga qaratilgan faoliyati jarayonidir. Mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining tarmoq va sohalarida amalga oshirilayotgan va samarali hal etilishi ko'p jihatdan moliyaviy nazorat turlarini tashkil qilishga, uni o'tkazish shakl va usullariga bevosita bog'liqdir.

1.4. Davlat moliyaviy nazoratida metodik uslublar

Davlat moliyaviy nazorati jarayonida induksiya va deduksiya kabi uslublardan keng foydalaniladi. Ichki xo'jalik (avvalambor buxgalteriyada) nazoratida tadqiqotning induktiv uslublaridan foydalaniladi. Idoraviy va tashqi nazoratda, umumlashtirilgan sintetik ko'rsatkichlardan xususiy va yagona dalillarga o'tish yo'li bilan asoslagan xulosalar olishga mo'ljallangan deduksiya usullari nisbatan samaralidir. Bu yerda nazorat harakatlarining muntazamligi

boshqacharoq ko'rinishga ega: sintetik va tahliliy buxgalteriya hisobi registrarlari orqali buxgalteriya va statistika hisobotlarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlaridan birlamchi hujjatlarni yaxlit yoki ayrim qismlarini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Taftishda deduksiya usullaridan foydalanish iqtisodiyotni boshqarish samaradorligi va huquqiy me'yorlarga rioya qilishni har tomonlama o'rganish imkonini beradi.

Ta'kidlab o'tilganlarni hisobga olgan holda davlat moliyaviy nazoratini nazorat ob'yekti haqiqiy holatini tadqiq etish bilan uyg'unlikda hisob, hisobot, me'yoriy va boshqa iqtisodiy ma'lumotlardan foydalanish asosida xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar hamda jarayonlarning qonuniyligi, to'g'riligi, maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy samaradorligini kompleks, bir-biriga bog'liq tarzda o'rganish kabi ta'riflash mumkin.

Nazorat usullarining mohiyati to'g'risidagi adabiyotlar tahlili ular orasidan ikki guruhni ajratib olish imkonini beradi:

- umummilliy usullar;
- o'ziga xos nazorat usullari.

Umummilliy usullar tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, o'xshashlik va modellashtirish, tizimli tahlil, funksional- miqdoriy tahlil kabilardir.¹

Tahlil (analysus-joylashtirish) – predmetni tarkibiy (uning xususiyatlari, belgilari, munosabatlari bo'yicha) qismlarga ajratgan holda fikriy yoki amaliy o'rganishni o'z ichiga olgan tadqiqot usuli. Ajratilgan qismlarning har qaysisi yagona birlik doirasida alohida-alohida tahlil qilinadi (birlashmaning ishlab chiqarish va moliyaviy- xo'jalik faoliyatini kompleks taftishi).

Sintez (synthesys – birlashtirish, uyg'unlashtirish, tuzish) – ob'yektni yaxlit holatda, birlikda va uning qismlari bilan o'zaro aloqasida o'rganish usuli. Moliyaviy nazoratda sintez tahlil bilan bog'liq, chunki u tahlil jarayoniga ajratilgan ob'yektlarni birlashtirish, ular orasida aloqa o'rnatish va predmetni

¹ Степашин С.В Столяров Н.С., Шохин С.О., Жуков В.А. Государственный финансовый контроль. Учебник. - СПб.: Питер, 2004 й.

yagona birlik sifatida anglash imkonini beradi (ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qilish va h.k.).

Induksiya (induktio – xususiyydan umumiyga o'tkazish) – ob'yekt elementlarining ko'plik alomatlari to'g'risida umumiy xulosa barcha alomatlarni emas, balki mazkur ko'plikning alohida muayyan elementlarini o'rganish asosida chiqariladi, ya'ni xususiy omillarda umumiy xulosalargacha aqliy xulosa chiqarish (masalan, debitorlik qarzlari tekshiruvi dastlab tahliliy hisob ma'lumotlari bo'yicha, so'ng – sintetik ma'lumotlar bo'yicha o'tkaziladi).

Deduksiya (deduction umumiydan xususiyyga o'tkazish) – ob'yektning holati yaxlit tadqiq etiladi, mantiqiy fikrlar asosida uning tarkibiy elementlari to'g'risida xulosa chiqariladi, ya'ni umumiydan xususiyyga aqliy xulosa (masalan, debitorlik qarzlari tekshiruvi dastlab sintetik hisob ma'lumotlari – so'ng tahlil bo'yicha o'tkaziladi).

O'xshashlik (analogia - o'xshashlik) – bir ob'yektni boshqasi bilan o'xshatish asosida o'rganishga erishiladigan ilmiy xulosa chiqarish usuli. O'xshatish usuli turli ob'yektlarning ba'zi tomonlari o'xshashiga asoslangan holda moliyaviy nazoratda qo'llanilgan standartlashtirish va modellashtirish asosini tashkil etadi.

Modellashtirish - ilmiy o'rganilayotgan ob'yektni o'xshashi bilan, aslining muhim qirralariga ega bo'lgan modellar bilan almashtirishga asoslangan ilmiy o'rganish usuli. Moliyaviy nazoratda nazorat–taftish o'tkazish jarayonlari standartlari (modellari) qo'llaniladi.

Tizimli tahlil- tadqiqot ob'yektni tizimni hosil qiluvchi elementlar yig'indisi sifatida o'rganishdir. Moliyaviy nazoratda tizimli tahlil ob'yektning xulq- atvorini ularning amal qilishiga ta'sir etuvchi barcha omillarga ega tizim sifatida baholashni ko'zda tutadi. Ushbu usul moliyaviy nazoratda keng foydalaniladi, chunki iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarining ishlab chiqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini baholashga tizimli yondashuvga ko'maklashadi.

Funksional-miqdoriy tahlil tadqiqotning amal qilish jarayonida loyihalashtirish va murakkab tizimlar sintezini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarishni injener tayyorlash bosqichida ob'yektlarni o'rganishdir (texnologik jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini loyihalashtirish va baholash).

Moliyaviy nazoratning shaxsiy uslubiy usullari iqtisodiy fan yutuqlari asosida amaliyotda ishlab chiqilgan o'ziga xos nazorat usullarini o'zida namoyon etadi. Bu usullar nazoratning maqsadli vazifasiga bog'liq holda shakllanadi.

Moliyaviy nazoratning shaxsiy uslubiy usullarini quyidagi guruhga birlashtirish mumkin:

- Organoleptik;
- hisob-tahliliy;
- hujjatli umumlashtirish;
- nazorat natijalarini amalga oshirish.²

Organoleptik (leptikos- olish, qabul qilishga moyil) – sezgi organlari yordamida aniqlanadi. Moliyaviy nazoratning organoleptik usullari quyidagilar kiradi:

- inventarizasiya;
- nazorat o'lchovi;
- tanlangan va yalpi kuzatishlar;
- texnologik va kimyo-texnologik nazorat;
- ekspertizalar;
- xizmat tekshiruvlari.

Inventarizatsiya – organoleptik usullar natijasida nazorat obyektlarini tekshirish. Ushbu jarayonning mohiyati ko'rik, qayta hisoblash, salmoqlash, o'lchash yo'li bilan ob'yektlarning mavjudligi va holatida o'tkaziladi. Moliyaviy nazoratda tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'larining saqlanganligini, shuningdek, hisob-kitob munosabatlari va boshqa xujjatlar va passivlarning birlashtirilganligining haqiqiy

² Степашин С.В Столяров Н.С., Шохин С.О., Жуков В.А. Государственный финансовый контроль. Учебник. - СПб.: Питер, 2004 й.

nazoratining asosiy usuli sifatida qo'llaniladi. Inventarizasiya usuli moliyaviy nazoratning barcha turlarida foydalaniladi. Davlat mulkining saqlanishini ta'minlashda inventarizasiya joriy nazorat asosiy usuli hisoblangan holda ichki xo'jalik nazoratini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Ishlarning nazorat o'lchovi - qurilish-montaj ishlari tabiiy bajarilganligi tekshirish jarayonida, shuningdek boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan ishlar va turli xizmatlar hajmini nazorati o'tkazilishida qo'llaniladigan haqiqiy nazorat usuli.

Tanlab kuzatish—xo'jalik faoliyatining sifat tavsiflarini statistik tadqiq etish usuli. Yalpi nazorat texnik jihatdan bajarilishining iloji bo'lmagan holatlarda moliyaviy nazoratda foydalaniladi. Masalan, savdoga tushuvchi tovarlarni kamchiligini aniqlashda tovarlar sotib olish uchun xaridor tomonidan sarflangan vaqt.

Yalpi kuzatish o'rganilayotgan ob'yektning haqiqiy holatini statistik tadqiq etish usuli (hisobot davrida ish vaqtidan foydalanish, ishlab chiqish me'yorlarini nazorat qilishda xronometraj kuzatishlar o'tkazish va h.k.).

Texnologik nazorat - ishlab chiqarish injener texnik tayyorligi, shuningdek chiqarilgan mahsulot sifati, ishlab chiqarishning dastlabki, joriy va ishlab chiqarishning kelgusi nazorati jarayonida korxonaning boshqa xizmatlari va texnik nazorat (OTK) bo'limi tomonidan amalga oshirilgan, uning texnik sharoitlar va davlat standartiga muvofiqligini nazorat qilish usuli. Texnologik nazorat turlaridan biri ishlab chiqarish texnologiyasining qulayligi, moddiy resurslar sarflanishi va tayyor mahsulot chiqarish me'yorlarining asoslanganligini tekshirish uchun qo'llaniladigan ishlab chiqarishga xom ashyo va materiallarni nazoratda kiritilishi hisoblanadi.

Kimyo-texnologik nazorat - mahsulot ishlab chiqarish uchun, shuningdek buyumlarning sifat tavsiflari uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarning dastlabki sifatini nazorat qilish usulidir. Umumiy ovqatlanishda u qandolatchilik mahsulotlarining kaloriyasini aniqlash, tam sifatleri, taom va mahsulotlarning

boshqa sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlari resepturasiga to'liq rioya qilish uchun qo'llaniladi. Nazoratning ushbu turi laboratoriya tahlili, texnologik konveyerda, konveyerning yakuniy lentasi va boshqa usullar bilan mahsulotni tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Ekspertizaning turli ko'rinishlari- texnologik, sud- buxgalteriya, kriminalistika va texnologik nazorat bilan o'zaro aloqaga ega bo'lgan maxsus masalalarni tadqiq etishda boshqa ekspertiza bilan qo'llanilgan ekspertiza baholash usuli.

Loyihalar va smeta hujjatlari ekspertizasi - montaj talab va talabga ega bo'lmagan jihozlar sotib olish va qurilish ob'yektlarini ko'tarishga loyiha-smeta hujjatlarida aks ettirilgan qurilishni tashkil etish va sanoatlashtirishning me'yor va normativlari ilg'orligi, texnologik darajani tekshirishdir. Ekspertizani loyiha-smeta hujjatlarining buyurtmachi - korxona, yirik qurilishlar bo'yicha esa - muassasa, ularni moliyalashtiruvchi maxsus bo'limlar o'tkazadilar.

Xizmat tekshiruvlari – mansabdor shaxslar tomonidan, shuningdek xalq xo'jaligining turli bo'g'inlarida ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy xujjatlarga xizmatchilar va ishchilarni rioya qilishlarini yalpi tekshirish usullaridir. Bu usullar asosan amaldagi qonunchilik buzilishi, moddiy zarar yuzaga kelishini tekshirishda qo'llaniladi.

Tajriba - rejalashtirilgan yoki bajarilgan jarayonlar natijalarini tekshirish uchun moliyaviy nazorat maqsadiga muvofiq tarzda ilmiy qo'yilgan tajriba. U rejalashtirilgan jarayonni borishini kuzatish yoki berilgan sharoitlarda uning takrorlanishini kuzatish imkonini beruvchi aniq hisobga olingan sharoitlarda o'tkaziladi.

Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishda foydalaniladigan hisob-tahlil usullari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy tahlil;
- statistik hisob-kitoblar;
- iqtisodiy- matematik usullari.

Iqtisodiy tahlil- hodisa va jarayonlarning natijalarini shartlovchi sababli aloqalarni yoritib berish uchun moliyaviy nazoratda foydalanilgan usullar tizimi. Iqtisodiy tahlil tashkilotning ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining dastlabki, joriy va kelgusi nazoratini o'tkazishda qo'llaniladi.

Statistik hisob-kitob iqtisodiy axborotda bevosita ishtirok etmaydigan qiymat va miqdoriy tavsiflarni olish usuli. Ular miqdoriy aloqa va munosabatlarning bir qiymatidan boshqa aniqroq tavsiflariga o'tishda yoki tahminiy qiymatlarni tuzatishda real miqdoriy munosabatlar yoki aniqlashtirishlarda takror ishlab chiqarish ehtiyoji yuzaga kelganda qo'llaniladi. Moliyaviy nazoratda statistik hisob-kitoblar vositasi bilan ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish dinamikasidan foydalanish koeffitsienti aniqlanadi.

Iqtisodiy-matematik usullar - byudjet loyihasini ishlab chiqishda, rejalashtirish va rejalashtirish bosqichida ularni optimallashtirish maqsadida, shuningdek, xo'jalik jarayonlari takomillashtirilgandan so'ng xo'jalik jarayonlari natijalariga omillarni ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Xususan, bu mahsulotning tannarxi, ishlab chiqarishdagi qo'shimcha xarajatlari, ishlab chiqarish rejasi bajarilishi korrelyasiya tahlilidir.

Davlat moliyaviy nazoratida qo'llaniladigan hujjatli usullar quyidagilardan iborat:

- informatsion modellashtirish;
- hujjatlarni tadqiq etish;
- kameral tekshiruvlar;
- me'yoriy-huquqiy tartibga solish.

Informatsion modellashtirish - model ko'rinishida nazorat qilinadigan ob'yektni namoyon etuvchi ma'lumotlar yig'indisi. Informatsion modellarni shakllantirishda nazorat ob'yektlari tavsifining to'liqligi, mavjud o'zgaruvchilarni va ularni qabul qilish va tahlil qilish uchun qulayroqligini ta'minlash zarur. Nazoratda modellashtirishning maqsadi, rejali o'lchamlar doirasida tartibga solish qarorlarini ishlab chiqish, og'ish va shubhalarni aniqlash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish

jarayonlarida ishtirok etish, navbatdagi holatni o'rganish uchun ob'yekt to'g'risidagi zaruriy ma'lumotni olish hisoblanadi. Modellashda ob'yektlar to'g'risida me'yoriy-huquqiy, shartnomaviy, hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlardan foydalaniladi. Bunday tasavvurda moliyaviy oqimlar, asosiy fondlar ob'yektlari, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari, shartnomaviy, me'yoriy-huquqiy va hisob ma'lumotlari tizimidagi ifodasini informatsion model deb hisoblash mumkin.

Hujjatlarni tadqiq etish – xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligi, maqsadga muvofiqligi, samaradorligi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy xujjatlarga ularning mosligini hujjatli nazorat qilish usulidir.

Kameral tekshiruvlar - kapital qo'yilmalar, shuningdek nazorat organi tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan bajarilgan qurilish-montaj ishlarini loyiha hujjatlarining sifatini hujjatli nazoratidir.

Me'yoriy- huquqiy tartibga solish – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida me'yoriy-huquqiy xujjatlarning buzilishini aniqlash uchun moliyaviy nazoratda foydalaniladigan usullar tizimi.

1.5 Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari

Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining qat'iy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi asosiy nizomlariga asoslanadi. Konstitusiyada qo'yilgan asosiy vazifalar, ayniqsa: inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish, demokratiya va fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirish – barcha davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining asosi va mazmuni hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari nazorat- hisob organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy hujjatlarda aniq va

keng mustahkamlangan. Odatda, nazorat –hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda ular faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari ta'kidlab o'tiladi:

-qonuniylik, tizimlilik, dahlsizlik, ob'yektivlik, malakaviylik, oshkoralik³.

Biroq, tamoyillarning boshqa to'plami ham uchraydi. Masalan, RF Hisob palatasi qonuniylik, tizimlilik, ob'yektivlik, erkinlik, oshkoralik tamoyillari asosida federal byudjetni ijro etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Umuman, davlat moliyaviy nazorati organlarining faoliyati va tashkiloti tuziladigan Rossiya qonunchiligida o'zining keng aksini topgan ikki guruh tamoyillarni ajratish mumkin. Agar faoliyat tamoyilini muhokama qilsak, u holda bu qonuniylik, ob'yektivlik, oshkoralik va mustaqillik demakdir. Umuman, davlat nazorati organlari, ularning ichki tarkibi va oldidagi vazifalarni amalga oshirish tamoyillarini tashkil etishda va olib borishda tizimlilik yoki rejalilik tamoyiliga, shuningdek, qarorlar qabul qilishda jamoaviylik tamoyilini ta'kidlab o'tish zarur. Nazorat organlarini qonuniy ta'minotida so'nggilari sof ko'rinishda hamda turli qiyoslarda uchraydi.

Qonuniylik tamoyili davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining asosi sifatida.


Qonuniylik tamoyili biror-bir shaklda ularning faoliyatini tartibga soluvchi barcha me'yoriy huquqiy xujjatlarda ishtirok etadi.

Hisob palatasi to'g'risidagi qonunchilik xujjatlarida faoliyat tamoyillaridan biri sifatida qonuniylik bevosita belgilab berilgan. Hisob palatasi faoliyatida qonuniylikning asosiy elementlari: faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya etish; Hisob palatasi to'g'risidagi qonunchilik xujjatlariga qat'iy rioya qilish; Palata va uning mansabdor shaxslarining qonuniylikka rioya qilish mas'uliyati hisoblanadi. Bu kabi nizomlar barcha nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda mavjud.

³ Степагин С.В Столяров Н.С., Шохин С.О., Жуков В.А. Государственный финансовый контроль. Учебник. - СПб.: Питер, 2004 й.

Hisob palatasi faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik xujjatlariga tayanishi lozim. Qonun nizomlarini buzuvchi yoki unga muvofiq bo'lmagan mansabdor shaxslar harakatlari uchun qonunosti xujjatlari asos hisoblangan holatlarda faqat mas'uliyat kontekstida hisobga olinishi lozim.

Palataning asosiy vazifalaridan biri esa tizimli va barqaror tabiatga ega bo'lgan iqtisodiy puxta o'ylangan, asoslangan harakatlarni qonuniy tan olish va



4-rasm. Moliyaviy nazoratning tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari

mustahkamlashga ko'maklashish hisoblanadi. Undan tashqari, nazorat ostiga olingan tashkilotlar va shaxslarning harakatlari qonuniyligini baholash ixtiyoriy, mantiqiy va shu bilan birga hayotiy va yuqori izohlanishini bekor qilishi lozim.

Hisob palatasi va uning yuqori mansabdor shaxslarini siyosiy, populistik, guruhiy yoki g'arazli maqsadlarga ega tashqi ta'sirlardan himoyalash qonunda ko'zda tutilgan. Qonunchilik xujjatlarida belgilab berilganidek, Palataning mansabdor shaxslariga ular xizmat majburiyatlarini ijro etishlarida ularga to'sqinlik qilish yoki kimningdir foydasiga qaror qabul qilishga erishish, zo'rovonlik harakatlari, haqoratlar hamda ular xizmat majburiyatlarini bajarayotganliklari to'g'risida noto'g'ri ma'lumot tarqatish yoki tuxmat tarqatish maqsadida ularga salbiy ta'sir etishga uringanlar qonunchiligida belgilangan javobgarlikka tortiladi.

Qonuniylik tamoyilining boshqa muhim qismi Palata hodimlari tomonidan qonunchilik xujjatlariga qat'iy rioya qilish hisoblanadi. Bu birinchidan, Hisob palatasidan belgilangan layoqat (kompetensiya), uning masalalari, vazifalari va vakolatlari doirasida, Palataning mansabdor shaxslari uchun esa – ularga berilgan huquq va majburiyatlarga muvofiq tarzda qat'iy harakatlanish talab etiladi. Palata hodimlari, shuningdek biror bir harakat uchun qonunda belgilangan tadbirlarga rioya qilishlari lozim. Umuman, Hisob palatasi va uning mansabdor shaxslari o'zlarining amaliy va hukmronlik vakolatlari oshib ketishiga yo'l qo'ymasliklari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ham o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va buyruqlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari va buyruqlariga bo'ysunadi.

Qonuniylik tamoyili to'g'risidagi masala soliq organlari to'g'risidagi qonunchilikda o'zining mufassal aksini topdi.

Soliq to'lovchilarga (yig'implarni to'lovchilar) ularning huquq va qonuniy manfaatlarini sud va ma'muriy himoya qilish kafolatlanadi. Soliq to'lovchilarning huquqlari soliq organlarining mansabdor shaxslarining muvofiq majburiyatlari bilan ta'minlanadi. Soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaganligi uchun qonunda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

O'z navbatida soliq organlari soliq va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilish, shuningdek, ularga muvofiq tarzda qabul qilingan me'yoriy huquqiy xujjatlar ustidan nazoratni amalga oshirish, soliq sirini saqlashlari lozim. Soliq organlarining mansabdor shaxslari soliq kodeksi va boshqa qonunlarga qat'iy muvofiqlikda o'z mas'uliyatlari doirasida soliq organlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari zarur.

Qonun bilan soliq organlari, bojxona organlari, davlat nobyudjet fondlari organlari, shuningdek, ularning mansabdor shaxslarining soliq organlarining yoki ularning mansabdor shaxslari soliq nazoratini olib borishda nohuquqiy harakatlari orqali yetkazilgan zararni qoplab berishgacha bo'lgan majburiyatlari belgilangan.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan qonuniylik tamoyiligi rioya qilish nafaqat konstitutsion va qonunchilik nizomlari, balki ularning ishlari tarkibi, ayniqsa, natijalarining o'xshashligi uchun ham qat'iy ahamiyatga ega. Faqatgina amaldagi qonunchilik nizomlariga qat'iy rioya qilgan holda davlat moliyaviy nazorati organlari davlatning moliyaviy faoliyati va uning organlari, byudjet va boshqa davlat mablag'larini taqsimlovchilar va oluvchilar, moliyaviy

oqimlarning qulayligi, mamlakatning byudjet va umuman moliyaviy tizimi amal qilishining samaradorligiga real ijobiy tasvir berishlari mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati organlari ishida ob'yektivlikning qonuniy ta'minoti.

Ob'yektivlik samarali nazorat ishining belgilovchi shart hisoblanadi. Ob'yektivliksiz boshqaruv funksiyasi sifatida nazorat, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'z ma'nosini yo'qotadi. Aynan moliyaviy-iqtisodiy faoliyat ob'yektiv aksini ta'minlash uchun nazorat organi tomonidan tashqi ta'sirdan qochish uchun tashkiliy va amaliy mustaqillik va oshkoralik zarur. Nazorat ob'yektlari va subyektlarining faqat qonuniylik asosida harakatlanishlarini ob'yektiv baholash mumkin, qonuniylik – ob'yektivlikning asosiy mezonidir. Olingan ma'lumotni umumlashtirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliyaviy nazorat organlari xulosasining ob'yektivligi shunchalik ortadi, bu nazorat ishining tizimlilik bilan ta'minlanadi.

Ob'yektivlik yaqqol ifodalangan ko'rinishda faoliyat tamoyili sifatida nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunchilikka biriktiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xulosasining ob'yektivligi bir necha usullar bilan ta'minlanadi. Ulardan biri – mas'ul lavozimlarga da'vo qiluvchi shaxslarga yuqori malakali talablarni belgilashdir. Hisob palatasi Raisi, Rais muovini, inspektorlar oliy ma'lumot va davlat boshqaruvi, davlat nazorati, iqtisodiyot, moliyasi sohasida kasb faoliyati tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarosi bo'lishi kerak. Hisob palatasi ishining yakuniy natijasiga javob beruvchi mansabdor shaxslarning bu guruhi Hisob palatasining vazifalarini bajarishga qat'iy kasbiy yondashuvni ta'minlashi lozim.

Undan tashqari, Hisob palatasi va uning faoliyatiga yuqori mansabdor shaxslarning maksimal darajada shaxsiy va korporativ ta'sirlarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan talablar qonunda belgilangan.

Ob'yektivlikni ta'minlash uchun Hisob palatasi Hay'ati a'zolarining alohida fikrni aytish huquqlari katta ahamiyatga ega. Tekshiruv va taftish

natijalari to'g'risidagi hisobotlari Hisob palatasi Hay'atini, ularning xatti-harakatlariga mas'ul bo'lgan inspektorlar tomonidan ko'rib chiqilishga taqdim etiladi. Ularning muhokama xulosalari bo'yicha Hisob palatasi Hay'ati Hisob palatasi Hay'ati majlisida raislik qiluvchi tomonidan imzolanadigan qarorni qabul qiladi. Bunda uning qaroridan norozi bo'lgan Hay'at a'zosi yoki Hisob palatasi Hay'ati a'zolari guruhi uch kunlik muddatda Hisob palatasi Raisiga Hisob palatasi Hay'ati qaroriga ilova qilinadigan alohida fikr bildirish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tekshiruv va taftish materiallarini taqdim etishda Hisob palatasi Hay'ati a'zolarining alohida fikrlari majburiy tartibda e'lon qilinadi. Agar alohida fikr bilan Hisob palatasi Raisi yoki Hisob palatasi Rais muovini so'zga chiqsa, ularga qo'shma ma'ruza uchun so'z beriladi.

Hisob palatasi ishining ob'yektivligini ta'minlashda nazorat tadbirlari natijalarining to'g'riligi uchun javobgarlikni, shuningdek, hali aniq bo'lmagan axborotga ega bo'lgan tekshiruv va taftishning oraliq materiallarini tarqatishga cheklovlar belgilash muhim ahamiyatga ega.

Hisob palatasi ob'yektivlikni oshirish maqsadida o'z ishiga boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va mustaqil ekspertlarni, shuningdek, ichki idoraviy nazorat organlarining malakali hodimlarini jalb etish huquqiga ega.

Nazoratning ob'yektivligiga erishish uchun Hisob palatasini adekvat ma'lumot bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega, chunki to'liq bo'lmagan va xato ma'lumot asosida to'g'ri xulosa chiqarishning iloji yo'q. Qonunda barcha nazorat ob'yektlari Palataga uning faoliyatini ta'minlash uchun hamma ma'lumot va hujjatlarni taqdim etish qayd etilgan. Olingan ma'lumotni maksimal darajada ijobiy baholash uchun Hisob palatasi moliyaviy nazoratning asosiy tamoyillarini belgilovchi standartlar va tekshiruv hamda kuzatuvlar o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Ob'yektivlikni ta'minlash maqsadida qonunda tadbirli kafolatlar ko'zda tutilgan. Ularning mohiyati sub'yektiv bo'lishi mumkin bo'lgan bir xil qarorlarni qabul qilishga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Hisob palatasi natijalashtirish materiallarini oddiy rasmiylashtirish tadbirlari, muayyan ishlarni (guruh rahbari, inspektorlar) bajarish uchun mas'ul mansabdor shaxslar xujjat, ma'lumotnoma yoki ekspert xulosalarini imzolashlarini ko'zda tutadi, ularning to'g'riligi shaxsiy javobgarlikka ega.

Ijroiya hokimiyatining davlat nazorati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me'yoriy – huquqiy hujjatlarda ob'yektivlik tamoyil sifatida yaqqol ko'rinishda uchramaydi. Biroq, bu tekshirilgan tashkilotning moliyaviy faoliyatini ijobiy baholash o'tkazilgan taftish va tekshiruvlarning asosiy maqsadi hisoblanmasligini anglatmaydi. O'z faoliyatini huquqiy ta'minlash ma'nosi, ijroiya hokimiyatining kuzatish, nazorat-taftish organlarini tartibga soluvchi nazoratning tarkibi va vazifalari bo'yicha maksimal ob'yektivlikka intiladilar, unga erishining muvofiq me'yoriy-huquqiy mexanizmlari ta'minlangan. Xuddi nazorat- hisob organlari kabi ular tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarining natijalari to'g'riligi uchun javobgardirlar.

Davlat moliyaviy nazoratining ommaviyligi (oshkoraligi)ga nisbatan talablari.

Davlatning moliyaviy faoliyatida va davlat moliyaviy nazorati organlarining ishida oshkoralik tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida bevosita namoyon bo'lishi hisoblanadi. Demokratik jamiyatda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari ishlari to'g'risida ma'lumot olishda fuqarolarning huquqlarini asosiy amalga oshirish vositalaridan birini namoyon etgan holda oshkoralik tamoyili davlatning moliyaviy faoliyatiga ham taqsimlanadi.

Oshkoralik tamoyili quyidagilarni anglatadi:

- tasdiqlangan byudjetlar va ularning ijrosi to'g'risida hisobot ochiq matbuotda majburiy nashr etilishi, byudjetlar ijrosining borishi to'g'risidagi ma'lumotni to'liq taqdim etish, shuningdek davlat hokimiyati qonunchilik

organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qarori bo'yicha boshqa ma'lumotlarning qulayligini;

- jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun byudjet loyihalari bo'yicha, shu jumladan davlat hokimiyati qonunchilik organlarining ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o'rtasida kelishmovchilikni keltirib chiqaruvchi masalalar bo'yicha qarorlar muhokamasi va qabul qilish tadbirlarini anglatadi.

Bunda hatto sir tutiluvchi byudjet moddalar ham qat'iy ravishda davlat byudjet tarkibida tasdiqlanishi lozim, faqat buning uchun maxsus tadbir ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat moliyaviy nazoratining oshkoralik tamoyili yanada muntazam ravishda nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda aks ettirilgan. Ta'kidlash zarurki, oshkoralik nazorat-hisob organlariga ularning mavjud bo'lish ma'nosi bo'yicha xosdir, chunki ular soliq to'lovchilar tomonidan bevosita yoki bilvosita hosil bo'ladi va ularning manfaatlarini namoyon etadi, bularning orasida davlat xizmatchilarining faoliyati to'g'risidagi ijobiy, to'g'ri ma'lumot ma'lum ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidan kelib chiqqan holda aholi kim va qay tarzda umumiy moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishni bilishga haqlidir. Ushbu ma'lumotga tayangan holda fuqarolar davlat apparati ishiga ommaviy axborot vositalarida, ijroiya hokimiyati organlariga murojaat qilish yoki qonunchilik va vakolatli hukumat organlari deputatlariga o'z shikoyatlarini berish, shuningdek turli daraja va hukumat bo'g'inlariga mansabdor shaxslar, deputatlar saylovlari davomida to'g'ridan-to'g'ri ixtiyoriy tarzda o'z munosabatlarini ifodalashlari mumkin.

Oshkoralik O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va boshqa nazorat – hisob organlarining samarali ishlashiga ma'lum ijobiy ta'sir etadi. Chunki oshkoralik sharoitlarida hisob palatalari tomonidan o'tkazilgan nazorat

tadbirlarining natijalarini sir tutish qiyin, ular jamoatchilik nazorati ostiga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ishida oshkoralik tamoyili birinchi navbatda Hisob palatasining yillik hisoboti jamoatchilik tomonidan tanishib chiqilishi uchun qonunda belgilangan majburiy nashr etish yo'li orqali amalga oshiriladi, bunda Palata tomonidan o'tgan yili o'tkazilgan barcha nazorat tadbirlarining natijalari kichraytirilgan shaklda taqdim etiladi, davlat hokimiyati organlarining xatolik va kamchiliklarini aniqlashga ta'sirlari baholanadi, ularni bartaraf etish va butun moliya tizimini takomillashtirish bo'yicha umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar taklif etiladi. Undan tashqari, Hisob palatasining yillik hisoboti Oliy majlis yig'ilishlarida ommaviy axborot vositalari vakillar ishtirokida tinglanadi va muhokama etiladi. Hisob palatasining hisoboti majburiy tarzda chop etilishi lozim.

Hisob palatasi ishida oshkoralik tayyorlanayotgan materiallarning sifati, ob'yektivligi va to'g'riligiga alohida yuqori talablar qo'yadi. Hisob palatasi va tekshirilayotgan tashkilotning ishbilarmonlik nufuziga asoslanmagan tarzda putur yetkazish va ularning mansabdor shaxslariga ma'naviy zarar yetkazish, shu jumladan, noto'g'ri ma'lumotni tarqatganligi uchun uning mansabdor shaxslarining harakatlari sud tartibida shikoyat ostiga olinishi mumkin.

Palata hodimlari ishiga jalb etilgan mutaxassislar faqatgina Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan ishlarni bajarishdagina tekshiruv va kuzatishlar davomida olingan ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Shular bilan bir qatorda tekshiruv va kuzatishlar davomida Palata hodimlari o'z xulosalarini oshkor qilmasliklari lozim. Hisob palatasining mansabdor shaxslari, birinchi navbatda inspektorlar davlat organlariga taqdim etilgan va oshkora tarzda berilgan, o'tkazilgan tekshiruv va kuzatishlarning natijalari to'g'riligi, shuningdek, qonun bilan himoyalangan davlat, tijorat va boshqa sirlarni oshkor qilmaslik uchun mas'uldirlar.

Ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanishdan himoyalash talablarini ko'rsatuvchi qator shartlar ham qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Qonunga muvofiq tarzda davlat hokimiyati organlari, takshirilayotgan tashkilot, muassasa, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va moliya-kredit tashkilotlari nazorat tadbirlari davomida va alohida so'rovnomalar bo'yicha Hisob palatasiga uning faoliyatini ta'minlovchi va uning kompetensiyasiga kiruvchi barcha zaruriy ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari shart.

Hisob palatasi, shuningdek, boshqa nazorat organlarining ular tomonidan o'tkazilgan tekshiruv va taftish xulosalari bo'yicha materiallaridan foydalanishi mumkin. Tabiiyki, Hisob palatasining muvofiq mansabdor shaxslari ularga berilayotgan materiallarning saqlanishi uchun shaxsan javobgardirlar. Undan tashqari Hisob palatasi boshqa tashkilotlardan olingan material va hujjatlarni, ularni taqdim etgan tashkilotda ko'zda tutilgan foydalanish tartibini ta'minlashlari lozim.

Oshkoralik tamoyili davlat, soliq, bank, tijorat va boshqa qonun himoyasidagi sirlarni saqlash zaruratini sharhlaydi. Nazorat - hisob organlarida ma'lumotlarni himoyalash tizimining qonuniy ta'minoti to'g'risida yuqorida eslatib o'tdik. Qonunchilik sirli xarakterdagi ma'lumotlarni saqlash bo'yicha qat'iy talablarga parlament va ijroiya tuzilmalarida ham ega.

Maxsus sirli dasturlarni qabul qilish va ularni biror - bir byudjet xarajatlari tarkibiga kiritish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti orqali amalga oshiriladi. Maxsus sirli dasturlar xarajatlari tartibi Prezident tomonidan belgilanadi. Maxsus sirli dasturlarni amalga oshirishda mablag' sarflanishi nazoratini faqat Prezident tomonidan yuklatilgan organlar amalga oshiradi. Bunday dasturlarga mablag' xarajatlarini tekshirish yakunlari faqat Prezident, Oliy majlis raisi va maxsus komissiyaga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi soliq sohasida konfidensial ma'lumotlar himoyasini ko'zda tutadi, binobarin soliq siriga alohida e'tibor qaratiladi. Soliq organlariga davlat nobyudjet fondlari organlari yoki bojxona

organlariga kelib tushgan soliq sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar maxsus saqlanish va foydalanish tartibiga ega, soliq sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlarni yo'qotish yoki bu kabi ma'lumotlarni tarqatish soliq organlari va uning mansabdor shaxslarini qonunda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortadi.

Davlat moliyaviy nazorati organlarining mustaqilligini huquqiy ta'minlash

Nazorat organlari, ayniqsa, umumdavlat va mahalliy darajalardagi yuqori moliyaviy nazorat organlari sifatida mustaqilligi (ma'muriy erkinlik) samarali moliyaviy nazorat o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Siyosat va moliyalarda alohida yopiq aloqalar va bog'liqliklar mavjudligini hisobga olgan holda nazorat organlarining yetarlicha erkinligi qonuniy darajada mustahkamlangan bo'lishi lozim. Erkinlik hukumat bo'g'inlarini davlat-amaliy taqsimoti tizimida davlat instituti sifatida nazorat organining o'ziga, shuningdek, uning a'zolari va inspektor hodimlari qoidalariga tarqatilishi lozim.

«O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonda belgilanganidek, amaldagi qonun bilan o'rnatilgan vazifalar doirasida Hisob palatasi tashkiliy va amaliy erkinlikka ega. Hisob palatasi faoliyatining tashqi ehtimoliy bosim yoki davlat hokimiyati - qonunchilik hamda, ayniqsa, ijroiya organlari ta'siridan ozodligi – Palata amal qilishining asosiy tamoyillaridan birini ma'lum qiladi. Anologik tarzda erkinlik tamoyili ko'pgina sub'yektlarining nazorat-hisob to'g'risidagi qonunlarda mustahkamlangan.

Nazorat-hisob organlarining tashkiliy (institutsional) va amaliy mustaqilligi

Moliyaviy nazorat organlarining mustaqilligini ta'minlash ularning qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlari bilan munosabatlari haqidagi masalalar bilan uzviy bog'liq.

Umuman ta'kidlash mumkinki, konseptual nazorat-hisob organlari, odatda davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlaridan tashkiliy va amaliy erkinlikka ega bo'lgan holda hukumatning ushbu bo'g'inlariga o'z vazifalarini amalga oshirishda ko'maklashishga qaratilgan.

Albatta, moliyaviy nazorat organlari parlament va hukumatdan butunlay ozod bo'la olmaydi. Ba'zi soha (masala)larda ularning – masalan, qonun loyihalari bo'yicha maslahatlarda yoki tekshiruvlar natijalarini ma'lum qilishda, yohud qonunchilik va siyosiy qarorlarning oqibatlarini baholashda, ayniqsa, uzviy o'zaro ta'siri talab etiladi. Bunday hamkorlik nafaqat ijroiya yoki qonunchilik hokimiyati uchun foydali, balki u moliyaviy nazoratning qulay shakli hisoblanadi. Biroq, nazorat-hisob organi uchun bunday munosabatdan ular nazorat vazifalarini bajarishlariga xalaqit beruvchi biror-bir salbiy majburiyatlar kelib chiqmasligi lozim.

Nazorat-hisob organlarining ijroiya yoki qonunchilik hokimiyatidan mustaqilligi avvalambor tekshiruv uchun mavzu tanlash va taftish dasturlarini amalga oshirishda mustaqil harakatlanishlarida namoyon bo'ladi. Taftish dasturining tuzilishi qat'iy tarzda nazorat-hisob organi tomonidan o'tkazilishi va boshqa davlat organlari ta'sirida qolmasliklari lozim. Nazorat-hisob organlari kimningdir buyrug'iga bo'ysunmasliklari yoki ma'lum tekshiruvlar o'tkazmasliklari, ularning maqsadi yoki ob'yektini o'zgartirmasliklari lozim.

Nazorat-hisob organlarining mustaqilligini ta'minlash ijroiya yoki qonunchilik hokimiyati tomonidan ma'lum tekshiruvlar o'tkazish to'g'risida takliflar olishni cheklamaydi, biroq, nazorat-hisob organlari qonunda belgilangan bu kabi takliflarni qabul qilmaslik va taftish dasturlari doirasida nazorat tadbirlari bo'yicha qarorlarni shaxsiy ixtiyoriy ravishda qabul qilish huquqiga ega bo'lishlari lozim.

Hisob palatasining tashkiliy mustaqilligi birinchi navbatda Hisob palatasi apparatining shtat jadvali va tarkibini hech qanday tashqi ta'sirsiz Hisob palatasini ta'minlash uchun mablag'larni Hisob palatasi Raisining topshirig'i bo'yicha Hisob palatasi Hay'ati tasdiqlashida namoyon bo'ladi. Hisob palatasi inspektorlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash, Hisob palatasi faoliyatining ichki masalalari Hisob palatasi apparatining tarkibiy bo'linmalarining vazifalari va o'zaro ta'sirlari, ishlarni yuritish tartiblari, nazorat va boshqa faoliyatning

barcha shakl va turlarini tayyorlash va o'tkazish tadbirlarini Hisob palatasi tomonidan uning Hay'ati bilan tasdiqlangan reglament bilan belgilanadi.

Funksional ko'rinishda nazorat tadbirlarini o'tkazish muddati, hajmi va usullari Hisob palatasi tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi juda muhim.

Hisob palatasining tashkiliy mustaqilligi qonuning qator nizomlari bilan ta'minlanadi. Palata yuridik shaxs maqomiga ega, davlat gerbi tasviriga ega muhri mavjud, ya'ni u o'zining tashkiliy-huquqiy shakli nuqtai nazardan boshqa davlat hokimiyati organlaridan ajratilgan. Bu Hisob palatasining tashqi faoliyatiga tashqi ta'sir imkoniyatini pasaytiradi. Boshqa tomondan yuridik shaxs maqomi Palataga zarurat yuzasidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining qarorlari va harakatlarini sud tartibida hal etish imkonini beradi.

O'z navbatida, Hisob palatasining amaliy mustaqilligi qonunda belgilangan tartibda nazorat ob'yektlarini tanlash, nazorat tadbirlarini tayyorlash va o'tkazish, aniqlangan kamchiliklar va xatoliklarni tuzatish ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Bir vaqtning o'zida tashqi so'rovlar asosida ekspert ishlarini bajarish imkoniyati ko'zda tutilgan. Hisob palatasi shaxsiy vakolatlar doirasida ekspertiza o'tkazadi va xulosa chiqaradi.

Nazorat-hisob organlarining mansabdor shaxslarining shaxsiy dahlsizligi

Nazorat-hisob organlarining mansabdor shaxslari va uning inspektor-nazoratchi hodimlarining shaxsiy dahlsizligi ham kafolatlanishi lozim. Bu maqsadlarda nazorat-hisob organlarining yuqori mansabdor shaxslarini mansablaridan ozod qilish va tayinlash mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, nazorat vazifalarini samarali bajarish uchun nazoratchilarning va birinchi navbatda nazorat organi shaxslaridan qarorlarni qabul qiluvchi hodimlarning ma'lum darajali personal dahlsizligi zarurligini tan oladi. Shu maqsadda qonunchilik tartibida nazorat-hisob organlari hodimlarining huquqiy maqomlari kafolati belgilanadi.

Moliyaviy dahlsizlik mustaqil ishlash uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri hisoblanadi, chunki nazorat-hisob organlarining moliyaviy cheklovlari bir vaqtning o'zida uning faoliyati cheklovlarini keltirib chiqaradi.

Ijroiya hokimiyati organlarining nazorat faoliyatida dahlsizlik tamoyili ikki muhim xususiyatga ega. Bir tomondan ma'muriy tuzilmalarning bir qismi hisoblangan holda ular to'g'ridan-to'g'ri yuqori tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarga bo'ysunadilar. Boshqa tomondan, ular muayyan tekshiriladigan ob'yektlardan tashkiliy tarzda asoslangandir. Shunday qilib, ijroiya hokimiyatining davlat moliyaviy nazorati organlari ikkilamchi mohiyatga ega: umumdavlat tuzilmasida ular ijroiya hokimiyatining ichki nazorat organlari hisoblanadilar, tekshirilayotgan ob'yektlarga nisbatan esa tashqi nazorat vazifasini bajaradilar. Undan tashqari shuni nazarda tutish kerakki, ularning faoliyati ma'lum maqsadga bo'ysundirilgan – boshqaruv davrining yakuniy bosqichini amalga oshirilishini ta'minlash, ayniqsa teskari aloqa doirasida avval qabul qilingan moliyaviy qarorlarning real oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotni rahbariyatga yetkazishdan iborat.

Bu hukumat vazirliklar va boshqa organlar, shu jumladan ijroiya hokimiyatining nazorat organlari ishini to'g'ridan-to'g'ri boshqaradi va ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Ta'kidlash joizki, umumdavlat miqyosida davlat moliyaviy nazorati organlari hodimlarining huquqiy maqomiga ma'lum qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Qonun nafaqat nazorat organi hodimlariga, balki ularning yaqin qarindoshlari uchun ham davlat himoyasi choralariini targ'ib etadi.

Davlat nazorat organlari faoliyatini tashkil etishda tizimlilik (rejalilik) tamoyili

Tizimlilik tamoyili ma'lum vaqt davomida, mazkur holatda moliyaviy yil davomida moliyaviy nazorat organlari nazorat tadbirlari yordamida nazorat ob'yektlarining barcha asosiy guruhlarini qamrab olishlari lozim. Boshqa tomondan barcha xo'jalik majmualarining va ushbu asosiy majmualarga

kirmaydigan ijroiya tuzilmalarining moliyaviy ishi ustidan nazoratni ta'minlash zarur.

Nazorat ob'ektlarining nazorat tadbirlarini qamrovi hajmi moliyaviy nazorat organlari ishi samaradorligining muhim omili va ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tizimlilik tamoyili bir tashkilot va muassasaning o'zida nazorat tadbirlarini davriy ravishda o'tkazish, shu jumladan avval aniqlangan kamchilik va xatolarni bartarf etish bo'yicha qayta tekshiruv o'tkazish zaruratini belgilaydi. Bu bir tomondan nazorat samaradorligini oshiradi, boshqa tomondan esa, uning ijobiyligini ta'minlaydi, chunki moliyaviy ishda ijobiy va salbiy yo'nalishlarni dinamikada kuzatish imkonini beradi.

Tizimlilik va rejalilik O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ishini tashkil etishning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. U o'zining ish rejasini tuzish va bajarish uchun mas'uldir, yillik reja loyihasi Hisob palatasi Hay'ati tomonidan muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan nazorat yo'nalishlari bo'yicha nisbatan to'liq ma'lumot olish uchun ularning o'zaro ta'sirlashish imkoniyati, shu jumladan, qo'shma nazorat tadbirlarini o'tkazish va axborot almashuvi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv tahlil uchun asosni ma'lum darajada kengaytiradi, mamlakat va mintaqada byudjet- moliya ishlarini takomillashtirish bo'yicha nisbatan to'liq va asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Moliyaviy nazoratning mohiyati nimada?
- 2.Moliyaviy nazorat vazifalari qanday?
- 3.Moliyaviy nazoratning nazariy asoslari nimadan iborat?
- 4.Moliyaviy nazorat elementlarini izohlang.
5. Moliyaviy nazoratining metodik uslublar qaysilar?

6. Moliyaviy nazoratni tashkil qilish tamoyillarini izohlab bering.
7. Davlat nazorat organlari faoliyatini tashkil etishda tizimlilik (rejalilik) tamoyilini ahamiyati qanday?
8. Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishda foydalaniladigan hisob-tahlil usullari nimalardan iborat?

II bob. MOLİYAVIY NAZORATNING TURLARI, SHAKLLARI VA USULLARI

2.1. Moliyaviy nazoratning turlari


Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida ham moliyaviy nazoratga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o'zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi va byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi.

Moliyaviy nazorat amal qilish sohasiga ko'ra davlat va nodavlat moliyaviy nazoratidan iborat⁴.

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitutsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning sotsial-siyosiy yo'naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllariga bog'liq.

Davlat moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan. Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq bo'lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga tegishli hisoblanadi.

⁴Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 712 bet.



5-rasm. Moliyaviy nazoratning sohalari

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporatsiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo'lsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va ham xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ham qo'shib olgan holda davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalarini, ularga ajratilgan byudjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi va shuningdek, hukumat tomonidan o'rnatilgan (belgilangan) pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Davlat moliyaviy nazoratining obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi byudjeti va boshqa qonunchilikka rioya qilinishini tahlil qilish va tekshirish orqali uning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, buzilish holati sodir bo'lsa, aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati quyidagicha guruhlashtiriladi⁵:

- nazoratni amalga oshiruvchi organning bog'liqligiga qarab, ichki va tashqi davlat nazorati;
- byudjetning tegishli darajasiga bog'liq holda, davlat boshqaruvi va mahalliy darajada.

Davlat moliyaviy nazorati tizimiga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi byudjet bajarilishini nazorat qilsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalari, Moliya vazirligi nazorat taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari respublika va mahalliy darajada byudjet nazoratini amalga oshiradi.

Davlat nazorati haqida gap borar ekan, shu o'rinda xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat tomonidan nazorat qilinishiga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Bunday nazorat O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi 717-I-son Qonuniga asosan olib boriladi. Mazkur qonunga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;

⁵ Ibragimov A., Sugirbaev B. Byudjet nazorati va auditi, o'quv qo'llanma, T.2010, infoCOM.UZ

- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;
- idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini statistika va boshqa axborotlarini tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish, shuningdek idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari esa quyidagilardan iborat:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik;
- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik.

Nazorat tartibida tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi⁶.

Davlat moliyaviy nazorati organlari o'zlarining vakolatlari doirasida quyidagi nazorat turlarini amalga oshiradilar⁷:

- 1) kompleks nazorat - aniq davr bo'yicha hamma masalalar bo'yicha nazorat obyektlarini tekshirish va faoliyatini baholash;
- 2) tematik nazorat - aniq davr bo'yicha ayrim masalalar bo'yicha nazorat obyektlarini tekshirish va faoliyatini baholash;
- 3) muqobil nazorat - uchinchi shaxs nazorati, tekshirilayotgan savol doirasida asosiy nazorat obyekti bilan bog'liq faqat o'zaro munosabatlar savollari qarab chiqiladi;

⁶ Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi N 717-I Qonuni 4,5, 15-moddalar

⁷ Ibragimov A., Sugirbaev B. Byudjet nazorati va auditi, o'quv qo'llanma, T.2010, infoCOM.UZ

4) qo'shma nazorat – davlat moliyaviy nazorati organlari boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda o'tkazadigan nazorat.

Xo'jalik aloqalarining kengayishi hususiyatlarining va davlat tasarrufidan chiqarilishi jarayonlarini jadallashuvi natijasida turli mulk shakllariga asoslangan korxona va tashkilotlarning paydo bo'lishi, xo'jalik faoliyatlarining erkinlashuvi nodavlat moliyaviy nazoratning shakllanishini va rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko'rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish metodlarining o'xshashligiga qaramasdan, o'zlarining pirovard maqsadlari bo'yicha bir-biridan tubdan farq qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo'lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazoratining (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasiga ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o'zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo'yilgan.


Moliyaviy nazoratni tashkil etishda uning turlarini to'g'ri belgilash muhim hisoblanadi. Shu jihatdan moliyaviy nazoratni 3 turga bo'lish maqsadga muvofiq hisoblanadi: byudjet moliyaviy nazorati, moliyaviy-xo'jalik(tadbirkorlik, tijorat) nazorati , mustaqil audit⁸ (6-rasm).

Byudjet moliyaviy nazorati	Moliyaviy- xo'jalik (tijorat, tadbirkorlik nazorati)	Mustaqil audit
Taftish va tekshirish natijalarini kamomad hamda o'g'irliklar sodir bo'lganda yuqori tashkilotga taqdim etish		Auditorlik firmasining maslahat xizmatlari

⁸ Ibragimov A., Sugirbaev B. Byudjet nazorati va auditi, o'quv qo'llanma, T.2010, infoCOM.UZ

6-rasm. Moliyaviy nazorat turlari

Moliyaviy nazorat amalga oshiruvchi subyektlarga ko'ra umumdavlat, idoraviy, xo'jalik ichidagi, jamoatchilik va mustaqil nazoratga bo'linadi⁹ (7-rasm).



7-rasm. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarga ko'ra turlari

Umumdavlat hamda idoraviy moliyaviy nazoratlar birgalikda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etib, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib boriladi. Bunda davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek davlat va mahalliy mulkdan qonuniy foydalanish ustidan moliyaviy qonunchilik asosida tartibga solinadigan faoliyat tushuniladi.

⁹ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 712 bet.

Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat obyektlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va mansabdor shaxslarni jazolashgina emas, balki ogohlantirish va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklarni oldini olishdan iborat.

Umumdavlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyat organlari (Prezident, hukumat, Oliy Majlis, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladi. Bu turdagi moliyaviy nazoratning bosh maqsadi daromadlarning tushib turishi va davlat xarajatlarining sarflanishi bo'yicha davlat va jamiyatning manfaatlarini ta'minlashdan iborat.

Idoraviy moliyaviy nazorat mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining barcha soha va tarmoqlaridagi davlat vazirliklari, ularning nazorat-taftish boshqarmalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat turi bo'lib, unda tegishli vazirlik qo'mita yoki idoralar(mahkamalar) doirasidagi markazlashgan va markazlashmagan moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishi bevosita nazorat qilinadi. Idoraviy moliyaviy nazorat davlat moliyaviy nazorati vazifalarini tarmoqlar doirasida kokretlashgantiradi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan o'tkaziladi. Bu erda moliyaviy nazoratning obyekti sifatida korxona, tashkilot va muassasalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati maydonga chiqadi.

Xo'jalik ichki moliyaviy nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-iqtisodiy xizmatlari tomonidan subyektning moliyaviy faolitini: pul mablag'larining harakatini buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishi faoliyatini korxonaning davlat, moliya-bank muassalari xamkorari va o'z hodimlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarish holatlari korxonalarning likvididlik darajasini, moliyaviy barqarorligini nazorat qilishdir. Xo'jalik ichki moliyaviy nazoratini amalga oshirishda ichki auditning ahamiyati katta.

Ichki audit – bu firma ichidagi auditorlik xizmati bo'lib, bosh firma markazida faoliyat ko'rsatish bilan bir qatorda filiallar va bo'linmalar tarkibida ham faoliyat qilishi ichki auditni faoliyat qilishi mumkin. Ichki auditni faoliyati korxonalarda moliya-xo'jalik faoliyatini takomillashtirish, to'g'ri va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashish hamon minimal mavjud resurslardan foydalangan holda maksimal foydalilik va rentabegillikni ta'minlashga qaratilgan.

Ichki xo'jalik nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli resurslari va potensialini saqlab qolish va ulardan samarali foydalanishda, ularning moliyaviy faoliyatida qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Biroq davlat manfaatlarini himoyalash nuqtai nazaridan byudjet tashkilotlarida ichki moliyaviy nazoratni tegishli tarzda tashkil etish bundan kam bo'lmagan, muayyan ma'noda esa, bundan ham ko'proq ahamiyatga ega. Chunki bu davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'larni xarajat qilishda qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shu sababli moliyaviy nazorat umumiy tizimida faqat xo'jalik ichki nazoratini uning bir qismi sifatida ajratish o'zini to'liq oqlamaydi. Shu sababli ichki moliyaviy nazorat tizimi nazorat xo'jalik yurituvchi subyektlar, umuman byudjet tashkilotlari va muassasalari va ularning ayrim tuzilmaviy bo'linmalari moliyaviy faoliyati ustidan xo'jalik yurituvchi subyektlar, byudjet tashkilotlari va muassasalarining o'z maxsus xizmatlari (buxgalteriya, moliya bo'limlari) tomonidan moliyaviy munosabatlarda qonunchilik va intizomga rioya etilishi masalalari bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvdan iborat.

Jamoatchilik moliyaviy nazoratini nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik asosida tashkil topgan turli jamoat tashkilotlari hamda alohida shaxslardan tashkil topgan guruhlar amalga oshiradilar. Nazoratning obyekti uning oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2010 yil 30 dekabrda N 235-II qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzuida qilgan ma'ruzasida bayon etilgan qoidalarni amalga oshirish yuzasidan 2011 yilga va keyingi yillarga mo'ljallangan Harakat Dasturi tasdiqlandi.

Ushbu Dasturda nodavlat notijorat tashkilotlari bilan davlat tuzilmalari o'zaro hamkorlikda harakat qilishining samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yaratishga, davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonunlarni, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning juda muhim dasturlarini so'zsiz ijro etish bo'yicha faoliyati ustidan fuqarolik institutlari nazorati, jamoatchilik nazorati tizimini yaratishga qaratilgan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi nazarda tutilgan.

Davlat boshlig'ining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonunlarni takomillashtirishga, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini yangi tahrirda qabul qilishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslarida fuqarolarning ijtimoiy faolligini ta'minlashda mahallaning rolini yanada oshirish, mahallani aholini manzilli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning markaziga aylantirish, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab beriladi, bu sohadagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun mansabdor shaxslar javobgarligining yuzaga kelishi shartlari nazarda tutiladi.


Mustaqil moliyaviy nazorat auditorlik faoliyati asosidagi nazorat bo'lib uning asosiy maqsadi xo'jalik subyektlarida yuritalayotgan buxgalteriya hisobotlarining aniq va to'g'riligini aniqlash va ular tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining qonuniy va me'yoriy-

huquqiy xo'jaliklarga mosligi haqida xulosalar berishdan iborat. Mustaqil moliyaviy nazoratni mahsus auditorlik firmalari va idoralari amalga oshiradilar.

2.2. Moliyaviy nazoratning shakllari

Moliyaviy nazoratning shakllarini quyidagi mezonlar bo'yicha klassifikatsiya qilish qabul qilingan¹⁰:

- amalga oshirilish reglamenti;
- o'tkazilish vaqti;
- nazoratning subyektlari;
- nazoratning obyektlari.




8-rasm. Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, byudjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratga, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga tegishli bo'lishi mumkin.

¹⁰ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 712 bet.

Tashabbuskorli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasada, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.



9-rasm. O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operatsiyalarning sodir bo'lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larning tejamsiz va samarasiz sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo'lishini ko'zda tutadi. Dastlabki moliyaviy nazorat moddiy va moliyaviy resurslarni samarasiz ishlatilishining oldini olishga xizmat qilib, bu nazoratni amalga oshirish jarayonida qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari, ko'zda tutilgan xarajatlarning asoslanmaganligini aniqlash mumkin. Nazoratning bu shaklida xo'jalik operatsiyalarining moliyaviy yoki byudjet yilining

boshlanishidan oldinroq qonunlar va me'yoriy xujjatlar talablarini buzilishini oldi olinadi.

Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni va nobyudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko'rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo'limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to'g'risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo'lishi mumkin.

Joriy (operativ) moliyaviy nazorat pul bitimlari, moliyaviy operatsiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo'lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustahkamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu erda buxgalteriya xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi.


Navbatdagi moliyaviy nazorat moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajatlarni ularning bashoratlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo'ljallangan.

Nazoratning subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo'lishi mumkin¹¹:

- Prezident moliyaviy nazorati;
- hokimiyat qonunchilik organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining moliyaviy nazorati;

¹¹ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: "Noshir", 2012. – 712 bet.

- ijroiya hokimiyat organlari moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlarining moliyaviy nazorati;
- firmaviy-ichki moliyaviy nazorat;
- auditorlik moliyaviy nazorati;
- va boshqalar.



10-rasm. Nazorat sub'ektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari

Byudjet va nobyudjet fondlar ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat barcha darajadagi byudetlarning, nobyudjet fondlarning shakllanishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Soliq nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonidan davlat oldidagi soliq majburiyatlarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Bojxona nazorati birinchidan, mamlakatning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlash, ikkinchidan, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalaridan tushumlar, to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida, qonuniy asosda tushishini nazorat qiladi.

Pul-kredit nazorati mamlakatdagi pul-kredit munosabatlarini qonuniyligini, ya'ni bu sohada qonunchilikning buzilish holatlarini, jumladan valyuta aktivlarini noqonuniy asosda xorijga chiqib ketish va inflyatsiyani kuchayib ketish holatlari oldini oladi va nazoratini ta'minlaydi.

Sug'urta nazorati orqali sug'urta bozori va uning ishtirokchilarini hatti-harakatlarini qonunchilik talablariga mos bo'lishini ta'minlanadi va sug'urtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlari himoya qilinadi.

Investitsiya nazorati orqali mamlakatda investitsion muhit yaratiladi va iqtisodiyotimizga tashqi va ichki investitsiyalarni jalb qilishda qonunchilikka rioya etilayotganligi nazorat qilinadi.

2.3. Nazorat olib borish usullari


Moliyaviy nazoratning maxsus uslublari: doimiy monitoring-kuzatuv, markazlashgan topshiriqlar bo'yicha tekshirish, xarajatlar smetasining ijrosi yuzasidan hujjatli taftish, xo'jalik faoliyati tahlili singari usublarga bo'linadi. Oraliq vazifalarni bajarish uchun muqobil tekshirish, pul mablag'lari va moddiy boyliklarni ro'yxatga olish, miqdor hisobni tiklash va boshqalardan foydalaniladi.

Nazorat samardorligiga qarab rasmiy va mantiqiy, xujjatlar va faktlar asosidagi tekshirishlar kabi xilma-xil usullarni qo'shib foydalanish orqali erishiladi. Bundan tashqari, byudjet ijrosining nazoratini to'liq yoki qisman, yoppasiga yoki tanlab o'tkaziladigan nazorat turlariga bo'lish tekshirish hajmi yoki tekshirilayotgan obyektning to'liq qamrab olinishiga bog'liq.

Amaldagi qonunchilikda tekshiruvga quyidagicha ta'rif berilgan: "tekshiruv nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ularning

faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va boshqa qonunchilik hujjatlarini ijro etishlari ustidan bir marta o'tkaziladigan nazoratdir".

Tekshirish deganda, alohida nazorat protseduralari faoliyatining ayrim uchastkalari holatini tekshirish hujjatlarida (soliq, hisobot, balans, xarajat) va registrlar aks ettirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali tekshirish tushuniladi. Tekshirish o'tkazilayotganda moliyaviy intizomning ayrim buzilishlari, buxgalteriya (moliyaivy) hisobni yuritishdagi xatoliklar, buxgalteriya (moliyaiviy) hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatilishini aniqlaydi.



11-rasm. Moliyaviy nazoratning usullari¹²

Tekshirish o'tkazish joyiga ko'ra, soliq hamda bojxona organlari o'tkazadigan tekshirishlar, davlat va ijtimoiy byudjetdan tashqari fondlar va boshqa organlar amalga oshiradigan moliyaivy nazorat kameral va joyida o'tkaziladigan tekshirishlarga bo'linadi.

¹² Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: "Noshir", 2012. – 712 bet.

Kameral tekshirish taqdim qilingan hisobotlar va hujjatlar asosida moliyaviy nazorat (tekshiradigan organ) subyekti joylashgan joyda tekshiriladigan obyektga chiqmasdan amalga oshiriladigan hujjatli tekshirish turi hisoblanadi.

Joyida o'tkaziladigan tekshirish tekshiriladigan obyekt joylashgan joyning o'zida amalga oshiriladi va moliyaviy-iqtisodiy nazoratni amalga oshirishda hujjatli hamda haqiqiy nazorat metodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Hujjatlar va moliya-xo'jalik operatsiyalarni to'liq qamrab olinishiga ko'ra yalpi hamda qisman (tanlanma) tekshirish turlariga bo'linadi.

Yalpi tekshirishda tashkilot, korxona, muassasaning hamma moliya-xo'jalik operatsiyalari va hujjatlari to'liq tekshiriladi, qisman tekshirishda faqat uning bir qismi (tanlanma tartibda) hujjaatlar, operatsiyalar, material qiymatliklar tekshiriladi.

Qisman (tanlanma) tekshirishda faqat uning bir qismi tanlanma tartibda hujjatlar, operatsiyalar, material qiymatliklar tekshiriladi.

Tekshirilayotgan masalalar qamrab olinishiga ko'ra kompleks, tanlanma va tematik (maqsadli) turlarga bo'linadi.

Kompleks tekshirish bu xo'jalik subyekti moliya-xo'jalik faoliyatini ma'lum davrda har tomonlama tekshirishdir. Bunday tekshirish jarayonida tashkilot faoliyatining o'zaro bog'langan iqtisodiy va yuridik tomonlarini o'rganish uchun o'tkaziladi, bunda hujjatli hamda haqiqiy tekshirishning turli metodik usullaridan maksimal foydalangan holda amalga oshiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi, ishonchliligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi malakali mutaxassislar tomonidan kompleks tekshirish amalga oshirilayotganda aniqlanadi.

Tanlanma tekshirish xo'jalik subyekti buxgalteriya hisobi bo'limlari yoki moliya-xo'jalik faoliyatining ayrim masalalarini tekshirishdir. U mustaqil tekshirish orqali yoki kompleks tekshirishning bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Tanlanma tekshirish natijalari alohida umumlashtiruvchi hujjatda

yoki kompleks tekshirish natijalari bo'yicha umumiy yig'ma jamlanma hujjatda aks ettirilishi mumkin.

Tematik (maqsadli tekshirish) nazorat obyekti bo'lgan moliya-xo'jalik faoliyati turining yoki aniq yo'nalish (mavzu)ni tekshirishdir, moliya-xo'jalik faoliyatining tomonlari va oldindan aniqlangan savollar doirasini izlanish yo'li bilan tekshirishni o'tkazish hisoblanadi. Tanlanma tekshirish, tematik tekshirish natijalari alohida yoki umumiy hujjatda aks ettiriladi.

Tekshirishning yuqoridagi turlaridan tashqari yana quyidagi turlarini qayd etish lozim¹³ :

1. Qisqa muddatli tekshiruv nazorat organlari tomonidan bir ish kuni davomida o'tkazilib, xo'jalik yurituvchi ssubyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshiruvdir.

2. Rejali tekshiruv Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir.

3. Rejadan tashqari tekshiruv nazorat organlari tomonidan qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda rejaga kiritilmagan ravishda o'tkaziladigan tekshiruvdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini rejadan tashqari tekshirish uchun maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan obyekt nomini, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruv o'tkazish maqsadi, muddatlari hamda uni o'tkazish sabablarining asosiligi ko'rsatilgan holda rejadan tashqari tekshirish o'tkazish to'g'risida chiqargan qarori, shuningdek tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli mansabdor shaxslar tarkibi va tekshiruvni o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i asos bo'lib xizmat qiladi¹⁴.

Rejadan tashqari tekshirishlar nazorat qiluvchi organlar tomonidan quyidagi hollarda o'tkaziladi:

¹³ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: "Noshir", 2012. – 712 bet.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi N 717-I Qonuni, 12-modda

- tekshiruvlarni o'tkazish zarurati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiqqanda;
- nazorat qiluvchi organga xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushganda;
- favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldi olinayotganda;
- sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

4. Muqobil tekshiruv turli xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki bir xo'jalik yurituvchi subyektning turli bo'linmalarida bo'lib, yagona operatsiya bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni o'zaro solishtirishdan iborat bo'lgan tekshiruvdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlar jinoyat ishlari yuzasidan tergov olib borish jarayonida tekshirish tayinlash to'g'risidagi qaror asosida yoxud nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organning qaroriga binoan amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlar xo'jalik yurituvchi subyektlarga bormasdan turib amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muqobil tekshirishlarga ularning tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt bilan o'zaro munosabatlari yuzasidangina yo'l qo'yiladi, ulardan muqobil tekshirish predmetiga taalluqli bo'lmagan moliya-buxgalteriya hujjatlarini yoki boshqa hujjatlarni talab qilib olish taqiqlanadi¹⁵.

Barcha turdagi tekshiruvlarni moliyaviy nazoratning samarali usullari sifatida tan olib, ularning ahamiyatini kamsitmagan holda, shuni qayd etish zarurki, taftish alohida ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazoratning mazkur usuli o'zining maqsadi

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi N 717-I Qonuni, 14-1-modda

va obyektlari nuqtai nazaridan ham, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan ham eng muhim nazorat bo'lib hisoblanadi.

Tadqiq etish korxona va tashkilotlar faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. Tadqiq etish jarayonida bajarilgan ishlar, materiallar, yoqiligi va energiyaning sarflanish hajmlari nazorat tarzida o'lchanadi. Shuningdek, tadqiq etish so'rash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Boshqaruv nazorati (nadzor) moliyaviy faoliyatning ma'lum bir turiga (masalan, sug'urta, investision, bank va boshqa faoliyatlar) litsenziya olgan iqtisodiy subyektlar ustidan nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U buzilishi litsenziyaning chaqirib olinishiga olib keladigan o'rnatilgan (belgilangan) qoidalar va normativlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni ko'zda tutadi.

Moliyaviy holat tahlili usulida xo'jalik faoliyatining natijalariga, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o'rganish, tahlil qilish amalga oshiriladi.

Taftish moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini o'zaro bog'langan kompleks tekshiruvdan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya'ni sodir etilgan xo'jalik operatsiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Subyekt xo'jalik faoliyatini qamrab olishning to'liqligiga qarab taftishning quyidagi turlari bo'lishim mumkin:

- to'liq;

- qisman;
- mavzuli;
- kompleksli.

Taftish bu keyingi nazorat usuli bo'lib, qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tekshirish bo'yicha majburiy nazorat harakati tizimini o'z ichiga oluvchi nazorat bo'lib, tekshirilayotgan davrda sodir bo'lgan xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar, ularning qonuniyligi hamda tekshirilayotgan davrda nazorat obyektni boshqarish bo'yicha mansabdor shaxsning harakat faoliyatini to'g'riligi tekshiriladi.

Taftishda xo'jalik subyektining hamma operatsiyalari tekshiriladi, bunda zarur hamma usul va uslublardan foydalangan holda tekshirilayotgan tashkilot xujjatlarining mavjudligidan boshlab, o'zaro uchrashib tekshirishgacha amalga oshiriladi.

Taftish moliyaviy iqtisodiy nazoratning usuli sifatida nazorat organlarining amaliyotida keng tarqalgan. Moliyaviy qoidabuzarliklarni aniqlash bo'yicha taftish birinchi o'rinda turadi, chunki uning moliyaviy-iqtisodiy mazmunini va natijalarni rasmiylashtirishning tashkiliy-huquqiy asosini tashkil etadi. Taftish tashkilot moliya-xo'jalik faoliyatini hamma yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Taftish jarayonida hal qiluvchi asosiy masala moliyaviy intizomga rioya qilish, buxgalteriya hisobini yuritishning to'g'riligi va hisobotni tuzish, pul mablag'lari hamda moddiy qiymatliklarni saqlanishini ta'minlaydi.

Taftish vaqtida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, kredit va hisoblashlar operatsiyalari, hisob-kitob, smetaning belgilanishi daromad hamda xarajatlar smetasi ijrosi, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bilan hisoblashlar bo'yicha operatsiyalarning asoslanganligini haqiqatda va hujjatlar asosida tekshiriladi.

Taftish - moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini

o'zaro bog'langan kompleks tekshiruvdan iborat bo'lib, nazorat dasturi mazmuni bo'yicha tasniflash birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliyaviy nazoratning qanday sohalarini bilasiz?
2. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarga ko'ra uning qanday turlari mavjud?
3. Moliyaviy nazoratning shakllarini qanday mezonlar bo'yicha klassifikasiya qilish qabul qilingan?
4. Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
5. O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari o'z ichiga nimalarni oladi?
6. Nazoratning sub'ektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning qanday shakllari bo'lishi mumkin?
7. Nazoratning obyektlariga muvofiq ravishda moliyaviy nazoratning qanday shakllari mavjud?
8. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday usullardan foydalaniladi?

III bob. MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH BOSQICHLARI.

3.1.Nazorat chora -tadbirlarini rejalashtirish

Moliyaviy nazoratni metodologiyasi uning bosqichlarini ilmiy asoslangan holda amalga oshirishga qaratilgandir.Ularga quyidagilar kiradi¹⁶:

- 1.Nazorat chora- tadbirlarini rejalashtirish;
2. Nazorat chora- tadbirini o'tkazish bo'yicha muayyan xatti harakatlar;
- 3.O'tkazilgan nazorat chora tadbirlarining hisobotini tayyorlash.

Nazorat tadbirlarini o'tkazish albatta hujjatlashtirilishi, ya'ni tekshiruvchilarning ishchi hujjatlarida olingan ma'lumotlarni aks ettirilishi lozim. Ishchi hujjatlari uch maqsadga mo'ljallangan. U hisobot uchun asos hisoblanadi, nazorat o'tkazishda yordam beradi va boshqa shaxslarga o'tkazilgan nazorat sifatini tekshirish imkonini beradi. Bu uchinchi maqsad davlat tashkilotlari va dasturlarini nazorat qilishda ayniqsa muhimdir. Ishchi hujjat, tekshiruvchiga yozma isbot taqdim etgan holda nazorat sifatini tekshirish imkonini beradi.

Nazorat tadbirlarining ishchi hujjatlariga quyidagilar kiradi:

- nazorat tadbirlarini o'tkazish rejasi va dasturi;
- nazorat tadbirlari va ularning natijalaridan foydalanish ta'riflari;
- tekshirilayotgan ob'yektning tushuntirishlari, izohlari va arizalari;
- tekshirilayotgan ob'yektning hujjatlarining nusxalari va foto nusxalari;
- uning ichki nazorat va buxgalteriya hisobi tizimlari yoritilishi;
- tekshiruvchining tahliliy hujjatlari;
- boshqa hujjatlar.

¹⁶ Родионова В.М.,Шлейников В.И. Финансовый контроль.Учебник.-М.:ИД. ФБК.- ПРЕСС,2002.-155стр\

Nazorat tadbirlarining ishchi hujjatlariga kiruvchi hujjatlarning tarkibi, soni va mazmuni tekshiruvchilar tomonidan quyidagilardan kelib chiqqan holda belgilanadi:

- o'tkazilgan nazoratning xususiyatlaridan;
- tekshirilayotgan ob'yektning faoliyatining xarakteri va murakkabligidan;
- uning buxgalteriya hisobining holatidan;
- uning ichki nazorat tizimining ishonchliligi;
- alohida tadbirlar bajarilishida muayyan guruh ishtirokchilari ishi uchun nazorat va rahbarlikning zaruriy darajasidan.

Ishchi hujjati quyidagilar uchun yetarli va zaruriy barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim:

- nazorat tadbirlarini rejalashtirish;
- o'tkazilgan nazorat tadbirlari bo'yicha hisobot va xulosalar tuzish .

Ishchi hujjatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- nazorat tadbirlarini o'tkazish maqsadi, miqyosi va uslubi;
- bajarilgan ishni qayta ko'rib chiqish isboti.

Ishchi hujjatlari tarkibiga kiruvchi hujjatlar, odatda quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi lozim:


- hujjatning nomi;
- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'yektning nomi;
- nazorat tadbirlari o'tkaziladigan davr;
- nazorat tadbirlarini bajarish sanasi yoki hujjat tuzish;
- hujjatning mazmuni;
- hujjatni yaratuvchi shaxsning shaxsiy imzosi;
- hujjatni tekshirish sanasi;
- hujjatni tekshiruvchi shaxsning shaxsiy imzosi.

O'tkazilgan yoki o'tkaziladigan nazorat tadbirlarini belgilab boruvchi ishchi hujjatlarini tekshiruvchi tashkilotga berish.

Taftish va tekshiruvlar nazorat tadbirlarining yillik rejasiga muvofiq o'tkaziladi. Rejada quyidagilar ko'rsatiladi:

- nazorat ob'yekti (departament, tashkilot, davlat dasturi, mablag'larning maqsadli ajratilishi);

Nazorat tadbirlarining ishchi hujjatlariga quyidagilar kiradi



12-rasm. Nazorat tadbirlarining ishchi hujjatlari tarkibi

- nazorat (taftish, tekshiruv);
- nazorat chora-tadbirlari maqsadi;
- javobgar ijrochi (guruh rahbari);

- nazorat chora-tadbirlarini o'tkazish muddatlari;
- izohlar.

Moliya vazirligining Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi (NTBB) reja loyihasi NTBB tomonidan tayyorlanib, NTBB boshlig'i tomonidan imzolanib Moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Muayyan nazorat chora-tadbirlari bo'yicha javobgar ijrochi (guruh rahbari) uning rejada belgilangan boshlanishidan o'n kun avval quyidagi hujjatlarning loyihasini boshlig'iga tasdiq uchun taqdim etadi:

- taftish yoki tekshiruvlarni o'tkazishing reja-topshirig'i;
- taftish va tekshirishlar o'tkazish dasturi;
- zarur axborotni taqdim etish talabnomalar;
- taftish va tekshirish o'tkazish buyruq loyihasi;
- hamkorlikda (zarurat tug'ilganda) taftish yoki tekshiruvlar o'tkaziladigan tashkilotdagilarga xatlar.

Reja-topshiriq nazorat chora-tadbirlarini tayyorlash va o'tkazishning keng miqyosli bosqichma-bosqich dasturini aks ettiradi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tekshirilayotgan tashkilot to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar (nomi, manzili, rahbarning F.I.Sh., telefoni, faks, tashkiliy-yuridik shakli va hokazo);
- taftish yoki tekshiruvlarni o'tkazishning maqsad va vazifalari;
- zarur axborot hajmi va ko'rinishi, uni olish manbalari (muddatlari ko'rsatiladi);
- guruh tarkibi (har bir ishtirokchi asoslanadi), o'zga tashkilotlar mutaxassislari va mustaqil ekspertlarni jalb etish zarurati;
- muddatlar ko'rsatilgan holda guruh harakatlarining bosqichma-bosqich tartibi.

Taftish va tekshiruvlar belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq va belgilangan muddatda o'tkaziladi. Nazorat chora-tadbirlarining har bir bosqichi NTBB rahbariyatiga reja-topshiriqni o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish


imkonini beruvchi taftish tekshirish yakuni bo'yicha oraliq dalolatnoma yoki ma'lumotnoma tuzish va hisobot topshirish bilan yakunlanadi.

Rejalashtirish nazorat chora-tadbirini bosqichi hisoblanadi.

Rejalashtirish paytida birinchi navbatda nazoratdan ko'zda tutilgan maqsad uning ko'lami va uni o'tkazish uslubi aniqlanadi, nazorat chora-tadbirini o'tkazish bo'yicha umumiy reja va nazorat ob'yekti to'g'risida ob'yektiv hamda asoslangan nuqtai nazarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan nazorat chora tadbirlarini amalga oshirishning turlari va ketma ketligini, uning hajmini belgilab beradigan dastur ishlab chiqiladi.

Rejalashtirish butun nazorat chora-tadbiriga tatbiq qilingan bo'lishi lozim. Nazorat maqsadi, uning ko'lami va uslubini alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Tekshiruv rahbarlari nazorat rejasining ana shu uchta elementini birgalikda ko'rib chiqadilar, chunki ularni alohida qarab chiqish natijasida takrorlanish holati ro'y berishi mumkin.

Rejalashtirish paytida yagonalik, uzluksizlik va optimallik tamoyillariga amal qilish lozim.



13-rasm. Nazorat chora-tadbirlarini rejalashtirish

Yagonalik tamoyili rejalashtirishning barcha bosqichlari - dastlabki rejalashtirishdan tortib umumiy reja va nazorat dasturigacha bo'lgan bosqichlarining bir-biriga bog'liqligi va mutanosib bo'lishligini nazarda tutadi.

Rejalashtirishning uzluksizlik tamoyili nazoratchilar guruhiga bir-biriga bog'lik bo'lgan vazifalarni topshirish va rejalashtirish bosqichlarini muddati va o'ziga yaqin

xo'jalik sub'yektlari (alohida balansga ega bo'lgan tashkiliy bo'limlar, filiallar, vakolatxonalar, sho'ba tashkilotlar) bo'yicha bog'lashni nazarda tutadi.

Optimallik tamoyili umumiy rejaning va nazorat dasturining optimalligini tanlash imkonini beradigan rejalashtirishning turli variantlari bor bo'lishini ko'zda tutadi.


Nazorat chora-tadbirini rejalashtirish quyidagi asosiy bosqichlarga ega bo'ladi:

- dastlabki rejalashtirish;
- umumiy rejani shakllantirish va uni tayyorlash;
- nazorat dasturini tuzish va uni tayyorlash.

Nazorat chora-tadbirining maqsadlari va vazifalarini belgilash

Nazorat chora-tadbirining maqsadlari — bu uni o'tkazish paytida bajarish lozim bo'lgan ishlar ko'lamidir. Aynan ular nazorat ob'yektlarini va tekshirish paytida ko'rib chiqiladigan amaldagi jihatlarini, shuningdek, tekshiruvchilar rivojlantirishni mo'ljallagan hisobotning xulosalari va unsurlarini belgilaydi.

Ixtiyoriy nazorat chora-tadbiri maqsadlarni ochiq-oydin qilishdan boshlanadi, ular esa o'z navbatida nazorat turini, uni o'tkazishning shakllari va usullarini, shuningdek, rioya qilish lozim bo'lgan standartlarni belgilaydi.



14-rasm. Nazorat chora-tadbirlarini rejalashtirishning asosiy bosqichlari

Nazorat chora-tadbirlari maqsadlari nazorat organi oldiga quyilgan vazifalarning tabiatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, sub'yekt xo'jalik faoliyatining nazorati ishlar ko'lamiga qaratilishi mumkin, ya'ni bu holda resurslar optimal qiymat va mos kelgan sifat bo'yicha olinganligini tahlil qilish lozim bo'ladi. Ratsionallikni nazorat qilish dasturni bajarish bo'yicha olib borilayotgan xatti-xarakatlar yoki ishlar hajmi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmi orasidagi munosabatlarni tadqiqot qilishga yoki erishilgan natijalarga qaratilishi mumkin. Dasturni nazorat qilish uning bajarilishi o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qanchalik yordam berishini yoki xuddi shu natijalarga dasturni bajarishsiz erishish mumkinligini aniqlashga qaratilishi mumkin. Agar tekshiruvchilar (nazoratchilar) uning muvaffaqiyati yoki sifatsiz bajarilishining sabablarini qidirishayotgan bo'lsa, ijro nazoratining ixtiyoriy turi dasturning bajarilishini ta'minlovchi xatti-xarakatlarni tekshirishga qaratilishi mumkin.

Nazorat chora-tadbirining maqsadlari, uning ko'lami va qo'llanilayotgan uslubning tanlanishiga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Ulardan biri bo'lib zarur mutaxassislarning mavjudligi va moddiy resurslarning yetarliligi hisoblanadi. Masalan, xizmat safari xarajatlarini cheklash ma'lum bir xududlarga tashrif buyurishga, mutaxassislarning yetishmasligi esa nazorat chora-tadbirining muayyan maqsadlariga erishishga halaqit berishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun mahalliy mutaxassislar yoki ekspertlarni taklif qilish mumkin.

3.2.Nazorat qilinayotgan ob'yekt faoliyatini tahlil etish

Nazorat chora-tadbirlarni rejalashtirishdan oldin, ya'ni dastlabki rejalashtirish paytida tekshirilayotgan xo'jalik sub'yektining faoliyati bilan tanishib chiqish lozim. Voqea hodisalar, operatsiyalar, ishlatilayotgan hisobat usullari to'g'ri baholash va birday qilish uchun nazorat chora-tadbirini o'tkazayotgan paytda

nazoratchilar ana shu faoliyatni yetarli darajada tushunib yetishlari kerak, chunki ular tekshirishni olib borishga yoki olingan natijalarga sezilarli darajada ta'sir o'tkazishlari mumkin.

Xo'jalik sub'yekti faoliyatini tushunib yetish uchun zaruriyatni belgilab beruvchi omillar bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Hisobot davri mobaynida xo'jalik sub'yekting iqtisodiy siyosati, uning strategiyasi va taktikasi;

- Xo'jalik sub'yekting hisob-kitob qilish siyosati va uning qabul qilingan moliyaviy siyosat yo'nalishlariga muvofiq kelishi;

- Xo'jalik sub'yekting Xo'jalik operatsiyalarining identifikatsiya qilish;

- Qo'llanayotgan me'yoriy huquqiy aktlarining to'g'riligi;

- Xo'jalik sub'yekti buxgalteriya hisobotining haqqoniyligi.

Nazorat chora-tadbirini o'tkazishning barcha bosqichlarida quyidagilarni o'rganish ahamiyatga molik:

- asosiy faoliyat;

- investitsion faoliyat;

- boshqa operatsiyalar.

Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini o'rganish nazorat chora-tadbirini o'tkazishning barcha bosqichlarida axborotni to'plash va uni qayta ishlashdan iborat bo'lgan uzluksiz jarayonni tashkil etadi. Bunda keyingi bosqichlarda olinadigan axborot oldingi bosqichlarda olingan axborotlarni to'ldiradi va aniqlashtiradi.

Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini o'rganish uning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan omillarni, hoh u tashqi bo'lsin - mamlakatdagi, xududdagi va tarmoqdagi iqtisodiy vaziyat, hoh u o'zining individual xususiyatlari bilan va u amal qilayotgan muhitning xususiyatlarini, shuningdek, u qanday harakat qilishini mukammal bilish bilan bog'lik bo'lgan omillarni o'z ichiga oladi. Biroq bu tushunib yetish nazorat paytida boshqarish uchun zarur bo'lganga nisbatan yanada chuqurroq bo'lishi mumkin.

Tashqi omillarga hususan quyidagilar kiradi:

Umumiqtisodiy omillar:

- Mamlakat iqtisodiyotining umumiy ahvoli (masalan ishlab chiqarishning o'sishi yoki pasayishi);

- moliyalashtirishning foizli stavkalari va uning imkoniyatlari;

- inflyatsiya darajasi, pul (valyuta) revalvatsiyasi;

- davlat siyosati, shu jumladan:

- pul-kredit;

- moliyaviy-byudjet;

- fiskal;

- moliyaviy ragbatlantirish;

- tariflar;

- savdo sohasidagi cheklanishlar:

- xorijiy valyutalar kursi va valyuta nazorati.

Sohaga oid omillar:

- bozor va raqobat;

- faoliyatning siklligi (mavsumiyligi):

ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirish:

- tadbirkorlik xavf-xatari (masalan, raqobatchilarning kirib kelishining osonligi);

- soha ko'rsatkichlarining pasayishi yoki ko'tarilishi;

- nomaqbul bo'lgan sharoitlar (talabning pasayib ketishi, ishlab chiqarish quvvatlarining yetishmasligi, narx borasidagi jiddiy raqobatchilik);

- xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisob-kitobining o'ziga xos xususiyatlari;

- asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va statistik ma'lumotlar;

- atrof muhitni saqlash bilan bog'liq bo'lgan asosiy talablar va muammolar;

- me'yoriy-huquqiy baza;

- energiya bilan ta'minlanish va sarf-xarajatlar.

Ichki omillarga hususan quyidagilar kiradi:

individual omillar:

- korporativ tuzilma - xususiy, jamoat, davlat tashkiloti (ro'y berayotgan yoki rejalashtirilayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda);

- aksionerlar — benefisiarlar va uchinchi tomonlar (mahalliy, xorijiy ish sohasidagi obru-e'tibori va tajriba);

kapital tuzilmasi (ro'y berayotgan yoki rejalashtirilayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda);

- tashkiliy tuzilma;

- faoliyatdan ko'zlangan maqsad, strategik boshqarish rejalari;

- sotib olish, qo'shilib ketish yoki qisqartirilishi bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik sub'yektning faoliyati (so'nggi paytda rejalashtirilgan yoki amalga oshirilayotgan);

- moliyalashtirish manbalari va usullari (joriy, dastlabki);

- direktorlar kengashi, shu jumladan:

- kengash tarkibi;

- kengashga kirgan rahbarlarning ish borasidagi obru-e'tibori va malakasi;

- ijro etuvchi rahbariyatdan mustaqillik va uning faoliyatini nazorat qilish;

- majlislar o'tkazishning davriyligi;

- korporativ xarakatlar xususida siyosatning mavjudligi.

- Xo'jalik sub'yektni boshqarishning sifati, shu jumladan:

- rahbariyatning malakasi va obru-e'tibori, personalning rotatsiyasi;

- mas'ul bo'lgan moliyaviy personal va uning tashkilotdagi mavqiy;

- buxgalteriyaning kadrlar bilan ta'minlanishi;

- mehnatga haq to'lashning bir ko'rinishi sifatidagi rag'batlantirish va mukofotlash tizimi (masalan, daromad hisobiga);

- prognozlar va smetalardan foydalanish;

- boshqaruvchilarga ta'sir ko'rsatish (masalan haddan tashqari ish bilan yuklash);

- bitta shaxsning ustunlik qilishi, aksiya narxlarini bir me'yorda ushlab turish, faoliyat natijalarini e'lon qilishning qabul qilib bo'lmaydigan muddatlari, boshqaruv axborot tizimlari.

Iqtisodiy faoliyatning xususiyatlari bilan bog'lik bo'lgan omillar:

- xo'jalik sub'yektining turi (ishlab chiqaruvchi; ko'tara savdo tashkiloti);
- moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot (import yoki eksport operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilot);

- ishlab chiqarish vositalari, omborlar, ofislarning joylashishi;
- ishga yollash bo'yicha olib borilayotgan faoliyat (joylashishi, oylik maosh miqdori, kollektiv shartnomalar, nafaqaviy majburiyatlar, davlat boshqaruvi);

- tovarlar yoki xizmatlar va bozorlar (asosiy mijozlar va shartnomalar, haq to'lash shart- sharoitlari, rentabellik, bozorning salmog'i, raqobatchilar, eksport, narx borasidagi siyosat, tovarlarning obru-e'tibori, kafolatlar, garantiya, buyurtmalar kitobi, tendrlar, bozor strategiyasi va uning maqsadlari, ishlab chiqarish jarayonlari);

- tovarlarni va xizmatlarni yetkazib beruvchilarning asosiylari (masalan, uzoq muddatli shartnomalar, ta'minlashning stabilligi, haq to'lash shart- sharoitlari, import, yetkazib berish usullari);

- zahiralar (ularning joylashishi, miqdori);
- tijorat konsessiyalari, lisenziyalar, patentlar;

- asosiy sarf-xarajatlar kategoriyalari;

- ilmiy-tadqiqot va tajribaviy-konstruktorlik borasidagi ishlar;

- valyuta fondlari, valyuta bo'yicha majburiyatlar va operatsiyalar (tekshirilayotgan sub'yekt moliyaviy ahvolini shakllantirishga kurs orasidagi farqning ta'sir qilishini hisobga olgan holda), valyuta almashish operatsiyalarini xedjirlashtirish ;

- xo'jalik sub'yektining faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan qonunchilik va yo'riqnomalar;

- axborot tizimlari — joriy paytdagi ahvoli va ularni o'zgartirish rejalari;

- qarzlarning tuzilmasi (shart-sharoit va cheklanishlarni hisobga olgan xolda)

Moliyaviy omillar:

- daromadlar va moliyaviy oqimlarni prognoz qilish tizimlari;
- lizing va boshqa moliyaviy kelishuvlar (kreditlar, qarzar);
- kreditlarga erishish mumkinligining ahvoli;
- boshqa moliyaviy manbalar;
- valyuta operatsiyalari va foizli stavkalar;
- qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiya qilish;
- ishlab chiqarish operatsiyalarining daromadliligi bilan taqqoslash;

Me'yoriy-huquqiy omillar:

- hisob-kitob siyosati, buxgalteriya hisobi va hisobotiga qo'yiladigan talablar;
- qonunchilik va me'yoriy hujjatlar, soliqqa tortish;
- davlat boshqaruvining usullari (vositalari, usullari va talablari);
- hisobotni taqdim etishga qo'yiladigan talablar;
- moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar.

Xo'jalik sub'yektining faoliyatini tahlil etish nazorat chora-tadbirida ishtirok etayotgan mutaxassislarning malakasiga bog'liq bo'ladi. U iloji boricha tekshiruvni sifatli o'tkazish uchun yetarli bo'lishi lozim. Tekshiruvni boshlashdan oldin tekshirilayotgan sub'yektning faoliyatiga tashqi omillarning ta'sir qilishini yaxshilab tushunib yetish lozimdir. Ichki omillarning mukammal tahlilini keyinroq, nazorat chora-tadbirini o'tkazayotgan paytda ham amalga oshirish mumkin.

Tekshirishni o'tkazishdan oldin xo'jalik sub'yektga sohaning hususiyatlari, uning egalik huquqlarini, boshqaruvning va u tomondan amalga oshirilayotgan operatsiyalarning o'ziga xos tomonlari anglab yetish kerak.

Xususan, nazorat qiluvchilar quyidagilar bilan tanishib chiqishlari lozimdir:

- xo'jalik sub'yektining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi;
- kapitalning tuzilmasi va aksiyalar kursi (tekshirilayotgan sub'yekt aksiyalari kotirovkaga moyil bo'lgan holatda);

- ishlab chiqarish faoliyatining turlari va ishlab chiqarilayotgan maxsulotlar nomenklaturasi;

- mahsulotni ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari;
- rentabellik darajasi;
- asosiy xaridorlar va yetkazib beruvchilar;
- xo'jalik sub'yekti ixtiyorida qoladigan daromadning taqsimlanish tartibi;
- shu'ba va o'ziga bog'liq bo'lgan tashkilotlar;
- ichki nazorat tizimi;
- personalga haq to'lashni shakllantirish tamoyillari.

Bunday axborot manbai bo'lib quyidagilar bo'lishi mumkin:

- xo'jalik sub'yektining nizomi;
- uni qayd qilish to'g'risidagi hujjatlar;
- direktorlar kengashi, aksionerlar yig'ilishi yoki boshqa boshqaruv organlarining yig'ilishlarining bayonotlari

- hisob-kitob siyosatini belgilab beruvchi xujjatlar va ularga kiritiladigan o'zgartirishlar;

- buxgalterlik xisoboti;
- statistik xisobot;
- faoliyatni rejalashtirishga oid hujjatlar (rejalar, loyihalar);
- shartnomalar, bitimlar;
- ichki auditorlarning, maslahatchilarning hisobotlari;
- ichki yo'riqnomalar;
- soliq tekshiruvlari materiallari;
- sud va arbitraj da'volari;
- xo'jalik sub'yektining ishlab chiqarish va tashkiliy tuzilmasini
- belgilab beruvchi hujjatlar, uning filiallari va shu'ba kompaniyalari ro'yxati;

- rahbariyat va ijrochi personal bilan bo'lgan suhbatlardagi ma'lumotlar;
- asosiy ishlab chiqarish uchastkalari, omborlarni ko'rib chiqish

natijalari to'g'risidaga ma'lumotlar.

Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini o'rganishning asosiy usullariga quyidagilar kiradi:

- tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining umumiy iqtisodiy shart-sharoitlari

Nazorat qiluvchilar quyidagilar bilan tanishib chiqishi lozim	
XSning tashkiliy boshqaruv tuzilmasi	
Kapitalining tuzilmasi va aksiyalarining kursi	
Ishlab chiqarish faoliyatining turlari va ishlab chiqarish nomenklaturasi	
Mahsulot ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari	
Rentabellik darajasi	
Asosiy haridorlar va yetkazib beruvchilar	
XS ixtiyorida qoladigan daromadning taqsimlanish tartibi	
Ichki nazorat tizimi	
Personalga haq to'lashning shakllantirish tamoyillari	
XSning xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiladigan omillar	

15-rasm. Nazorat qiluvchilar tanishishi lozim bo'lgan jihatlar

(masalan, milliy iqtisodiy siyosat, soliq to'lash tizimi va bojxona nazorati, limitlarni va kvotalarni tadbiq etish);

•tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatiga ta'sir qiluvchi hududiy xususiyatlarni tahlil qilish (masalan, geografik joylashuvi, hududning iqtisodiy va soliq sharoitlari);

- tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining sohaga oid hususiyatlari;
- ishlab chiqarishning tashkil etilishi va uning texnologiyasi bilan tanishib chiqish;
- tekshirilayotgan sub'yektning personali to'g'risida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti to'g'risida, buxgalteriya hisobini olib borishning qo'llanilayotgan usullari (shakli, hisob-kitob siyosati, avtomatlashtirish darajasi) to'g'risida ma'lumot to'plash;
- shaxsiy kapital tuzilmasi to'g'risida ma'lumot to'plash, aksiyalarni joylashtirish va kotirovka qilishni tahlil qilish;
- tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilmalari, marketing siyosati, asosiy yetkazib beruvchilar va xaridorlar to'g'risida ma'lumot yig'ish;
- xo'jalik sub'yektining qimmatbaxo qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tahlil qilish (veksellarni berish, vekselar bilan amalga oshadigan operatsiyalar, aksiyalarni sotish va sotib olish);
- filiallar va shu'ba (bog'liq bo'lgan tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarning o'ziga xos hususiyatlarini, moliyaviy hisobotni konsolidasiya qilish usullarini, sub'yekt ixtiyorida qoladigan daromadni taqsimlash tartibini hisobga olish;
- tekshirilayotgan sub'yektning yuridik va moliyaviy majburiyatlari to'g'risida ma'lumot to'plash (rejalashtirish paytida ahamiyatlilik darajasini va ichki xo'jalik xavf-xatarini hisob-kitob qilishni aniqlash uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi);
- ichki nazorat tizimining tashkil etilishi bilan tanishib chiqish.
- Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining mahsus bilimlarni talab qiladigan jihatlarni aniqlagan paytda tekshiruv rahbari unga mutaxassis maslahati lozimligini yoki mutaxassisni ekspert sifatida taklif qilish zarurligini hal qiladi.
- Tekshirilayotgan sub'yektning faoliyati to'g'risidagi axborot manbalari sifatida quyidagilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

-tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini belgilab beruvchi qonunchilik va me'yoriy hujjatlari;

-yuridik nashrlar, professional, sohaga oid va hududiy jurnallarda, monografiyalarda chop etilgan rasmiy nashrlar;

– xo'jalik sub'yektlarining statistik ma'lumotlari, rasmiy hisobotlari, bank hisobotlari;

-maxsus seminarlar, konferensiyalar, boshqa shunga o'xshash chora-tadbirlarning materiallari;

-tekshirilayotgan sub'yekt personalini tomonidan olingan tushuntirishlar va tasdiqlanishlar, ichki nazoratchilar va boshqa mutasaddi shaxslar bilan bo'lib o'tgan suhbatlar;

Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini o'rganishning asosiy usullari quyidagilar

→ Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini umumiy iqtisodiy sharoitlari

→ Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatiga ta'sir qiluvchi hududiy xususiyatlarni tahlil qilish

→ Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining sohaga oid xususiyatlari

→ Ishlab chiqarishning tashkil etilishi va uning texnologiyasi bilan tanishib chiqish

→ XSning QQBdagi faoliyatini tahlil qilish

→ XSning yuridik va moliyaviy majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumot

→ Ichki nazorat tizimining tashkil etilishi bilan tanishib chiqish

→ va boshqalar

16-rasm. Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini o'rganishning asosiy usullari

- uchinchi tomonga yuborilgan so'rovnomalar;
- ana shu xo'jalik sub'yektini oldin tekshirgan nazorat organlari bilan maslahat qilish;
- ta'sis etish hujjatlari, direktorlar kengashi va aksionerlar yig'ilishlarining bayonnomalari, shartnomalar, oldingi davrlarning buxgalteriya hisobotlari, rejalar va byudjetlar, buxgalteriya, hisob-kitob siyosati, hujjat almashinuvi to'g'risidagi qonunlar;
 - schetlar va provodkalarining ishchi rejasi;
 - tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilmasining chizmalari;
 - tekshirilayotgan sub'yektning sexlarini, omborlarini va xizmatchi xonalarini tekshirish, shuningdek, bevosita hisob-kitob bilan bog'liq bo'lmagan personal vakillari orasida so'rov o'tkazish;
- alohida balansga chiqib ketgan filiallar va tuzilmaviy bo'linmalarni, xo'jalik operatsiyalarini, ulardagi hisob-kitob usullari;
- jalb etilgan ekspertlar bilan ishlash natijalari, aksionerlar reestri bilan tanishib chiqish;
- nazorat guruhi ishtirokchilarining avvalgi tajribasini hisobga olish, soliq, tekshiruvlari va sud jarayonlari materiallari.

Nazorat chora-tadbiridan oldin va uni o'tkazish mobaynida barcha ishlab chiqarish tadbirlari va olingan ma'lumotlar nazorat qatnashchilarining ishchi hujjatlarida aks ettiriladi.

Tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining mohiyatini tushunib etish umuman olganda nazorat chora-tadbirini o'tkazishning barcha bosqichlarida qo'llanilishi lozim:

- nazorat chora-tadbirini o'tkazish uchun malakali sub'yektni tanlab olish;
- nazorat chora-tadbirini ratsional darajada rejalashtirish;
- nazorat chora-tadbirini samarali o'tkazish;
- nazorat riskini va uni tashkil etuvchilarning riskini aniqlash, shuningdek, ahamiyatlilik darajasini aniqlash;
- tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining ichki nazorat tizimini baholash;
- tahliliy tadbirlarning turini va usullarini tanlab olish;
- olinayotgan dalil-isbotlarning asoslanganligi va ularni baholash;
- tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining uzluksizligiga yo'l berishni baholash;
- maxsus bilimlar zarur bo'ladigan sohalarni aniqlash;
- uchinchi tomonni va u bilan bog'liq bo'ladigan operatsiyalarni aniqlash;
- bir-biriga zid keluvchi axborotni aniqlash.

Nazorat chora-tadbirini dastlabki rejalashtirish bosqichida tekshirilayotgan sub'yektning nazorat o'tkazilayotgan paytdagi va kelgusidagi mulki hamda majburiyatlarining ahvoli to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Nazorat chora-tadbirini rejalashtirish vaqtida bu axborot to'ldirib borilishi kerak. Xo'jalik sub'yektining faoliyati to'g'risidagi olingan ma'lumotlar tahliliy tadbirlarni tanlab olishda, tekshiruv rejasi va dasturini tuzib chiqayotganda, nazorat riskini va uning tashkil etuvchilarini hisob-kitob qilish paytida inobatga olinishi lozim.

Nazorat chora-tadbiri davomida yuzaga chiqadigan ma'lumotni bir xillikda talqin etish uchun ko'pincha tekshirilayotgan sub'yekt to'g'risida yanada to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish muhim hisoblanadi. Bunda tekshiruv rahbari tekshirilayotgan sub'yektning aynan qaysi hujjatlarini qo'lga kiritish lozimligini aniqlaydi.


Nazorat chora-tadbirini o'tkazish davomida oldin olingan ma'lumotni, shu jumladan nazorat qilinayotgan davrga taalluqli bo'lgan ma'lumotni aniqlashtirish lozim bo'ladi.

3.3. Nazorat chora-tadbirining yakunlovchi bosqichi

Nazorat chora-tadbirining yakunlovchi bosqichida tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatini chuqurlashgan holda aniqlash nazorat tahliliy tadbirlarni amalga oshirish va tekshirilayotgan sub'yekt moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi yakuniy xulosalarning to'g'riligini tasdiqlash uchun zarur bo'ladi.

Tekshiruv rahbarlari nazorat guruhining ishtirokchilari tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining mohiyati to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega ekanliklariga va zarur bo'lgan ishlar ko'lamini amalga oshirishga qodir ekanliklariga amin bo'lishlari lozim. Bundan tashqari tekshiruv rahbari yangi ma'lumotlarning kelib tushishini nazorat qilishi va nazorat guruhi ishtirokchilari orasida axborot almashinuvini nazorat qilib turilishini ta'minlash zarur.

Taftish va tekshiruv natijalari ma'lumotnoma yoki dalolatnoma yordamida rasmiylashtiriladi. Moliya-xo'jalik faoliyatida qoidabuzarliklar bo'lmasa, yakuniy hujjat ma'lumotnoma ko'rinishida guruh rahbari imzosi bilan rasmiylashtiriladi. Bunda tekshirilayotgan tashkilot rahbari va bosh buxgalteri (bosh buxgalter huquqiga ega katta buxgalter) ning imzosi qo'yiladi.




17-rasm. XS to'g'risidagi malumotlarni jamlovchi doimiy fayl tarkibi

Tekshirilayotgan tashkilotning moliya-xo'jalik faoliyatida qoidabuzarliklar va kamchiliklar aniqlanganda yakuniy hujjat guruh rahbari, tekshirilayotgan tashkilot rahbari va bosh (bosh buxgalter huquqiga ega katta) buxgalter imzolagan dalolatnoma ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Imzo chekishdan bosh tortilsa, dalolatnomada «imzo chekishdan bosh tortildi» degan eslatma qo'yilib, guruh rahbari va tekshirilayotgan tashkilot vakili tomonidan tasdiqlanadi.

Taftish, tekshirish o'tkazayotgan tashkilot rahbari yoki bosh hisobchisi e'tirozlar bilan deb imzolashi va dalolatnomaga o'zining e'tirozlari bo'yicha tushuntirish xatini ilova qilishi mumkin.

Dalolatnomaga albatta tekshirilgan hujjatlar ro'yxati va ma'lumotnoma, rahbarning tushuntirish xati ilova qilinadi.



18-rasm.Yakuniy dalolatnoma xulosasi

Nazorat tadbirini o'tkazish natijalari bo'yicha yakuniy hisobot taqdim etiladi. U ko'rib chiqilgan muammo bo'yicha taftish yoki tekshirishga yuborgan vakolatli organning yakuniy xulosasi namoyon etadi. Tekshirilayotgan sub'yekt to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va doimiy fayllar ko'rinishda saqlash tavsiya etiladi. Doimiy fayl tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

- faoliyat turlarining ro'yxati;
- hisob-kitob siyosati va uning ketma-ketlik bilan o'zgarib borishi;
- ayni paytda tekshirilayotgan sub'yektni faqatgina hozirgi emas, balki keyingi tekshiruvlari uchun ham ahamiyatli bo'lgan axborotlar.

Ushbu xo'jalik sub'yektining tekshiriluv natijalari bo'yicha yaratilgan doimiy faylning davriy ravishda yangilanib turilishini va to'ldirib borilishini kuzatib borish lozim.

Nazorat uchun savollar:

- 1.Moliyaviy nazorat o'tkazish bosqichlarini ayting.
- 2.Nazorat tadbirlari qanday rejalashtiriladi?
3. Nazorat dasturi qanday tuziladi?
4. Nazorat tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish tadbirlari qanday?
- 5.Nazorat chora tadbirlari natijalari qanday hujjat asosida rasmiylashtiriladi?
6. Dalolatnoma kimlar tomonidan imzolanadi?
- 7.Nazorat tadbirlarining choraklik rejasida nimalar aks ettiriladi?
8. Doimiy fayl tarkibini ayting

II bo'lim. MOLİYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING AHAMIYATI

IV bob. UMUMDAVLAT NAZORAT ORGANLARI TOMONIDAN MOLİYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRILISHI

4.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlanish prinsipi Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy byudjetlarni, davlat maqsadli nobyudjet fondlarining loyihalarini ko'rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo'yicha mamlakat byudjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o'rnatadi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy byudjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilishi mumkin¹⁷.

Parlament nazorati ham Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi .

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan, shakllanish va faoliyat ko'rsatish tajribasi bilan boyib bormoqda. Tabiiyki, har bir davlat parlamentning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish masalalarini o'zicha hal etadi.


¹⁷ Vahobov A. V., Malikov T.S., Moliya. Darslik. Toshkent Moliya instituti. – Toshkent: “Noshir”, 2012. – 712 bet.

O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi va ushbu dasturning nazorati amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati(yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasi bo'lib, 100 ta Senat a'zosidan iborat. Senat ishi yalpi majlislarga va uning qo'mitalari majlislariga to'planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi. Senat a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo'mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonunlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat faoliyati majlislarni birgalikda va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamotachilik fikrini hisobga olishga asoslanadi.



19-rasm. Milliy parlamentarizmning uchta asosiy davri

Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlarning amalga oshirilishi quyidagilar bilan izohlanadi:

- Senat, shuningdek senatorlar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlari kirgan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yuborishga haqli;

- Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Senat majlislarida beradilar;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo'jalik sudining raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlari nomiga yo'llangan parlament so'rovi ularning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarga taaluqli bo'lishi mumkin emas;

- Parlament so'rovlari bo'yicha axborot Senat majlisida muhokama qilinishi mumkin. Senat muhokama yakunlari bo'yicha qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasidagi boshqa vakolatlari quyidagilardan iborat:

- Senat har yili o'z majlisida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotini mazkur masala yuzasidan Qonunchilik palatasining qarori Senatga kelib tushgandan keyin eshitadi va muhokama qiladi;

- Senatning O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotlari yuzasidan qarorlari mazkur qarorlar qabul qilingandan e'tiboran 10 kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi;


- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvi raisining qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Senatga taqdim etgan har yilgi hisobotlari Senatning navbatdagi majlisida ko'rib chiqiladi;

- Senatning qo'mitalari, shuningdek senatorlar davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan xujjatlar, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishlari mumkin;

- Senatning qo'mitalari yoki senatorlar talab qilib oladigan axborotni tegishli davlat organi, boshqa tashkilot, mansabdor shaxs murojaat olingan kundan e'tiboran 10 kundan kechiktirmay taqdim etishi kerak;

- Senat qo'mitalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlarining ular tomonidan qonunlarga qanday rioya etayotgani, palata

qo'mitalarining qarorlari qanday bajarilayotgani to'g'risidagi axborotlarni eshitishi qo'mitalarning ish rejalariga muvofiq o'tkaziladi.




20-rasm. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining tuzilmasi

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo'lgan Oliy majlis soliqlar, yig'imlar, nosoliqli to'lovlarni belgilaydi (o'rnatadi), Davlat byudjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o'zida davlat ichki va tashqi qarzining tegishli (chegaraviy) darajasini belgilash (o'rnatish) ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi Hukumati O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgar bo'lib, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.



21-rasm. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida asoslanadigan prinsiplar

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hukumatining boshlig'i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'z lavozimi bo'yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish sohasidagi asosiy vakolatlari:

- iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg'unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni

monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

- xo'jalik yuritishning yangi shakllari — konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

- O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

- boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi;

- fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanihga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

- sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

- O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo'riqlanishini ta'minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

- davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariya va falokatlarining, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi;

- tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi. Shuningdek davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega.

Faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladigan masalalar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

- boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

- davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamini oshirish to'g'risidagi takliflar;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi takliflar;

- davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

- belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yxati;


- qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

- davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi takliflar.



22 -rasm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining boshqa organ va tashkilotlar bilan munosabatlari

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetini ko'rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida maydonda gavdalanadi.



23-rasm. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining apparati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet tizimini boshqarish sohasidagi vakolatlari quyidagicha belgilangan:

- Davlat byudjeti loyihasi ishlab chiqilishini tashkil etadi va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etadi;
- Davlat byudjetining ijrosini tashkil etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat boshqaruvi boshqa organlarining Davlat byudjetini ijro etish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;
- davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi;
- Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotni belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tasdig'iga kiritadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning birinchi apreliyigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga u tashqi audit va baholash o'tkazishi uchun hisobot yilidan keyingi yilning beshinchi aprelegacha yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotga doir xulosasini hisobot yilidan keyingi yilning o'ninchi mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tegishli xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning o'n beshinchi mayidan kechiktirmay O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi komissiyalarning moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha respublika komissiyasi hamda Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, ularga davlat moliyaviy nazorati sohasida katta vakolatlar berilgan.

Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha respublika komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 fevraldagi 61- sonli Qaroriga asosan tashkil etilgan .

Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha respublika komissiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida

o'zining mintaqaviy komissiyalariga ega. Mazkur Komissiya tomonidan uning vakolati doirasida qabul qilingan qarorlar vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, tijorat banklari, mulkchilik shaklidan qat'iyy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda ularning birlashmalari (xo'jalik uyushmalari), mansabdor shaxslar va fuqarolar ijro etishi uchun majburiy hisoblanadi.

“Muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risida Nizom”ga muvofiq quyidagilar uning asosiy vazifalari deb belgilangan:

- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar va tijorat banklari tomonidan to'lov intizomini mustahkamlash va hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish, soliqlar va majburiy to'lovlarni to'liq to'lash bo'yicha amaldagi qonunchilik me'yorlariga qat'iyy rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash;

- korxonalarning debitorlik qarzlarini ahvolini tahlil etish, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini, xo'jalik yurituvchi subyektlarning byudjetga to'lovlar bo'yicha boqimandalarini qisqartirish bo'yicha ta'sirchan choratadbirlar ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda tegishli soliqlar va majburiy to'lovlarning to'liq undirib olinishini ta'minlash;

- korxonalar va tashkilotlar aylanma mablag'larining ajratib olinishi, shu jumladan tayyor mahsulot zahiralariga va tugallanmagan qurilishga ajratilishi sabablari va yo'nalishlarini aniqlash hamda ularni qisqartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Komissiyaga keng vakolatlar berilgan bo'lib, u xususan, quyidagi huquqlarga ega:

- vazirliklar, qo'mitalar, idoralar, tijorat banklari, soliq organlari, xo'jalik uyushmalari, korxonalar va birlashmalar, davlat boshqaruv organlari rahbarlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari, soliq va to'lov intizomining ahvoli to'g'risidagi masalalar bo'yicha hisobotlarini eshitib borish;

- boqimandalarni to'lash, penya hisoblanishini tugatish bo'yicha muddatlarni kechiktirish yoki uzaytirish, byudjetga va nobyudjet fondlarga soliqlar va to'lovlar bo'yicha penyalarni hisobdan chiqarish;

- belgilangan tartibda moliya, soliq va bojxona organlari faoliyatini tekshirishni tashkil etish, Komissiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot, ma'lumotlarni vazirliklar, qo'mitalar, idoralar, uyushmalar, davlat boshqaruvi mahalliy organlaridan olish;


- bankrotlik va korxonalarni sanasiyalash masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasiga korxonalarni sanasiyalash yoki muntazam ravishda debitorlik va kreditorlik qarzlarga yo'l qo'yuvchi korxonalar va tashkilotlarni bankrot deb e'lon qilish uchun materiallarni xo'jalik sudiga berish to'g'risida qarorlar qabul qilish yuzasidan takliflar berish;

- soliq solish tizimi va xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni yaxshilash uchun yo'naltirilgan respublika qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish va h.k.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 1 avgustdagi PF-1827-sonli Farmoniga muvofiq "Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi to'g'risida Nizom" qabul qilinib, mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 11 iyuldagi PF — 1492-sonli Farmonining 5-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan va u Respublika pul-kredit siyosati komissiyasining maqsad va vazifalari hamda ishni tashkil etish shartlarini belgilab beradi.

Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi zimmasiga respublikada naqd pul muomalasi va xalq xo'jaligida hisob-kitoblarning ahvoli ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va ularni amalga

o'shish, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish va O'zbekiston iqtisodiyoti ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun ajratiladigan kreditlardan maqsadli foydalanish tartibiga qat'iyy rioya etilishini ta'minlash vazifasi yuklatilgan¹⁸.



24-rasm. Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi tarkibidagi ishchi guruhlar

Komissiya o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagilarni bajaradi:

— ishchi guruhlar hamda hududiy komissiyalar zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq holda, ular faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika Pul-kredit siyosati komissiyasi tarkibi to'g'risida» 1996 yil №UP-1492 – sonli Farmoni.

— o'z majlislarida ishchi guruhlar, hududiy komissiyalar hisobotini va Komissiya qarorlarining bajarilishi haqidagi axborotni, shuningdek, hokimliklar, vazirliklar, idoralar, tijorat banklari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z faoliyati natijalari va Komissiya qarorlarini bajarish to'g'risidagi hisobotlarini tinglaydi.

Pul-kredit siyosati komissiyasining asosiy vazifalari:

— Respublikada olib borilayotgan pul-kredit, moliya va valyuta siyosatini muvofiqlashtirish;

— pul muomalasi va xalq xo'jaligidagi hisob-kitoblar ahvoli, valyuta operatsiyalarini bajarish tartibiga rioya qilish hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun ajratilayotgan kreditlardan, shuningdek byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan vakolatli idoralar tomonidan samarali nazorat o'rnatish;

— barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar va tashkilotlarning pul muomalasi, kreditlash va hisob-kitoblar, tashqi iqtisodiy faoliyat va valyutani tartibga solish, investitsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish hamda iste'mol bozorini muhofaza qilish borasida amalda bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilishi;

— valyuta tushumlarining o'sishi, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining valyuta resurslaridan samarali foydalanishlari;

— mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish va ulardan samarali foydalanish;

— ichki iste'mol bozorini rivojlantirish, uning yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iboratdir.

Komissiya o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq holda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Valyuta resurslari manbalari va ularni to'ldirish zaxiralari bo'yicha:

— vazirliklar va idoralarning valyuta siyosatini shakllantirish va uni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy majmuaning samaradorligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, eksport-import tarkibini yaxshilash hamda O'zbekiston Respublikasiga valyuta resurslari oqimini ko'paytirishga doir ishlarini muvofiqlashtiradi;

— Respublikada, valyuta resurslarining yangi manbalarini shakllantirish va mavjudlarini kengaytirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi hamda Hukumatga taqdim etadi;

— vazirliklar va idoralarning kelishilgan holda valyuta nazoratini amalga oshirishlarini ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar majmuini tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

— ichki valyuta bozori ahvolini tahlil qilish, valyutani tartibga solishga doir qonunlar va me'yoriy hujjatlarning tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalda qo'llanilishi tajribasini o'rganish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

— respublikaning birja va birjadan tashqari valyuta bozorlarida operatsiyalarni samarali ravishda amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

— ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularga ajratilgan maqsadli valyuta mablag'laridan boshqa shartnomalar bo'yicha to'lov uchun foydalanish, shuningdek, ularni aynan shu maqsadlar uchun o'z xorijiy valyutasi hisobidan ilgari sarflagan miqdorda joriy valyuta hisob raqamlariga o'tkazishga ruxsat berishga doir iltimosnomalarini ko'rib chiqadi va qarorlar qabul qiladi;

— O'zbekiston Respublikasi Valyuta birjasining hisob-kitob muddatlari belgilanmagan operatsiyalarini nihoyasiga etkazish to'g'risida qaror qabul qiladi;

— zaruriyat tug'ilganida hokimliklar, vazirliklar, idoralar va vakolatli banklarning tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va valyuta operatsiyalarini

amalga oshirish sohasidagi faoliyatlari natijalari to'g'risidagi hisobotlarini tinglaydi, ular yuzasidan tegishli xulosa va takliflar tayyorlaydi.

- Pul-kredit siyosati va pul emissiyasini qisqartirish sohasida:

- «Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari» bajarilishini ta'minlashga qaratilgan takliflarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli qarorlar qabul qiladi;

- yagona davlat pul-kredit va moliya siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi;

- pul muomalasini barqarorlashtirish, kreditlash va hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, moliyaviy tizimlar faoliyatini rivojlantirish yuzasidan Hukumatga takliflar kiritadi;

- pul qadrsizlanishi jarayonlarining pasayishini ta'minlash, bank ssudalari bo'yicha qarzlar o'sishini cheklashga doir takliflarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

- markazlashtirilgan moliya mablag'lari, shu jumladan iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltiriladigan markazlashgan kreditlarni ajratish shartlari va qaytarish muddatlariga taalluqli masalalarni ko'rib chiqadi hamda ular bo'yicha tezkor qarorlar qabul qiladi;

- pul bozori va qimmatli qog'ozlar bozorining joriy ahvoli to'g'risidagi axborot, ularni rivojlantirishga doir takliflarni ko'rib chiqadi va o'z vakolati doirasida tegishli qarorlar qabul qiladi;

- to'lov intizomi ahvolini yaxshilash, hisob-kitoblar tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tezkor qarorlarni qabul qilishga doir takliflarni ko'rib chiqadi va Hukumatga taklif kiritadi;

- naqd pul massasi muomalasini tartibga solish va naqd puldagi, shuningdek mayda ulgurji operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishga doir masalalarni ko'rib chiqadi hamda qarorlar qabul qiladi;

— pul muomalasini tahlil qilish, pul-kredit siyosati va hisob-kitoblar sohasidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni amalda qo'llash tajribasini o'rganib chiqish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

— zarurat tug'ilganida to'lov va kassa intizomining belgilangan qoidalariga rioya qilish, ajratilayotgan bank kreditlari va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish yuzasidan hokimliklar, vazirliklar, idoralar, uyushmalar va konsernlar rahbarlarining hisobotlarini tinglaydi;

— zaruratga qarab tijorat banklari va boshqa moliya-kredit muassasalari rahbarlarining samarali kredit va depozit siyosati o'tkazish, qonunlar va me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan kredit, depozit, sug'urta operatsiyalarini bajarish qoidalariga rioya qilishning ahvoliga doir hisobotlarini tinglaydi va ular bo'yicha tegishli qarorlar qabul qiladi.

- Investitsiya dasturlari sohasida:

— qulay investitsiyaviy iqlimning ta'minlanishiga, ichki investitsiyaviy faollikning o'sishiga va xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishiga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qiladi;

— davlatning maqsadli va investitsiyaviy dasturlarini amalga oshirishga jalb qilinuvchi tijorat banklari ro'yxatini tuzadi va tasdiqlaydi;

— ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, birgalikda moliyalash va kreditlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishni davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashga doir takliflarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlaydi;

— qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish yo'li bilan sarmoyalarning iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri jalb qilinishini oshirishga doir takliflarni ko'rib chiqadi va qarorlar qabul qiladi;

— xorijiy texnologiyalar, «nou-xau», asbob-uskunalar, va maxsus materiallar qo'llaniladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan buyurtmachilar va bosh pudratchilarning shaxsiy va qarzga olingan

mablag'larini ayirboshlab berish mexanizmini yaxshilash yuzasidan tahlil o'tkazadi va tavsiyanomalar ishlab chiqadi;

— ichki nodavlat va xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, sarmoya solig'iga dotatsiyalar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar berishni qisqartirishga yo'naltirilgan takliflarni ko'rib chiqadi, tegishli xulosalar va tavsiyanomalar tayyorlaydi;

— jalb etilayotgan xorijiy kreditlarning samaradorligi va o'zini-o'zi qoplashi masalalarini ko'rib chiqadi;

— xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga jalb qilish va ulardan foydalanishga doir takliflarni ko'rib chiqadi;

— sarmoyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish sohasidagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, investitsiya siyosatiga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlarning tegishli vazirliklar va idoralar tomonidan amalda qo'llanilishini o'rganib chiqish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

— zaruratga qarab hokimliklar, vazirliklar, idoralar hamda vakolatli banklarning investitsiya siyosatini rivojlantirish sohasidagi faoliyati natijalari to'g'risidagi hisobotlarini tinglaydi, ular yuzasidan tegishli xulosalar va tavsiyanomalar tayyorlaydi.

- Iste'mol bozorini ta'minlash va uning balansi sohasida:

— xalq iste'moli mollarini ishlab chiqaruvchi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta korxonalar sektorini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlashga yordam beradi;

— iste'mol mollari importi tarkibini tahlil qilish, ular hajmi va sifatining ichki bozor talablariga mos kelishi asosida, shuningdek, iste'molchilar va ichki tovar ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilishni hisobga olgan holda xalq iste'moli mollarini import qilishni tartibga solish to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

— tegishli idoralar va hokimliklarning mintaqaviy tovar bozorlarini barpo etish va rivojlantirish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini yanada

takomillashtirish, savdo korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirishga doir takliflarini ko'rib chiqadi;

— Markaziy bankning so'mlarni markazlashtirilgan valyuta resurslari hisobidan erkin ayirboshlanadigan valyutaga imtiyozli ayirboshlash huquqini beruvchi litsenziyalari berilishining maqsadga muvofiqligi to'g'risida Komissiyaning maxsus ishchi guruhi xulosalari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

— iste'mol bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, uning faoliyat yuritishi va rivojlanishiga doir qonunlar va me'yoriy hujjatlarning amalda qo'llanilishini o'rganib chiqish asosida ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

— yangidan barpo etilayotgan yoki qayta tashkil qilinayotgan supermarketlarning belgilangan nizomlar va talablarga muvofiqligi to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlaydi;

— zaruratga qarab hokimliklar, vazirliklar va idoralarning joylarda iste'mol bozorlarini to'ldirish, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni oshirish, pullik xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish, kichik va o'rta korxonalar barpo etish va ularni rivojlantirish sohasidagi faoliyatlari natijalari to'g'risidagi hisobotlarini ko'rib chiqadi.

O'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish borasida tegishli natijalarga erishish maqsadida Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

— o'z faoliyati doirasiga kiruvchi masalalarga doir qonunlari va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

— amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish, hukumat qarorlarining bajarilishi sohasida Komissiya tomonidan aniqlangan kamchilik va tartibbuzarliklar haqida tegishli qarorlar qabul qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlariga materiallar taqdim etish;

— amaldagi qonunchilikka muvofiq Davlat hokimiyati va boshqa davlat va nodavlat muassasalardan uning vakolatiga kiruvchi masalalarga oid zarur ma'lumotlarni talab qilish.

Komissiya har chorakda respublika Hukumatiga o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

Komissiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, idoralar, konsernlar, korporasiyalar, assosiasiyalar, kompaniyalar, boshqa xo'jalik birlashmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, barcha korxonalar, tashkilotlar va banklar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

4.4.Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashning moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

Mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish, nazorat organlari tomonidan ularning faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tekshiruvlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida» 1996 yil 8 avgustdagi 1503-son Farmoni bilan Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mazkur Kengash xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish sohasidagi markaziy muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. Kengash qarorlari xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirishga vakolat berilgan barcha organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Kengash tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Kengash o'z faoliyatini "Respublika nazorat organlarining

faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi to'g'risida Nizom"ga asosan amalga oshiradi¹⁹.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va tumanlarda tegishli hududiy komissiyalar tuzilgan bo'lib, ularning tarkibi Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Kengash faoliyatining maqsadi, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishni tartibga solish va muvofiqlashtirish, ularning ish-faoliyatiga nazorat organlari tomonidan asossiz ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari qilib belgilangan:

1) nazorat organlarining xo'jalik yurituvchi subyektlar ish-faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

2) xo'jalik yurituvchi subyektlarning ish-faoliyati bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlarning umumiy sonini qisqartirish;

3) tekshiruvlar, shuningdek nazorat organlarining faoliyatini qaytarishga yo'l qo'yuvchi kompleks tekshiruvlarning muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;

4) tekshiruvlar o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya etilgan holda nazorat organlarining faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va Kengash bilan kelishilmay turib, rejadan tashqari, qarshi tekshiruv va nazorat tartibida tekshiruvlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik;

5) tekshiruvlarni qisqartirish va takomillashtirish maqsadida ularni tashkil etish tizimini tartibga solish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Kengash hududiy komissiyalarining asosiy funksiyalariga:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish bo'yicha hududiy muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar ishlab chiqish;

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 19 noyabrdagi UP № 2114—sonli Farmoni

- muvofiqlashtiruvchi reja-grafiklar bajarilishiga rioya etilishi ustidan monitoring o'rnatish kabi vazifalar kiradi.

Kengash o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi uchun hamda o'z maqomiga muvofiq ravishda quyidagi huquqlarga ega:

- respublika barcha vazirliklari va idoralaridan yaqinlashib kelayotgan davr uchun mo'ljallangan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshiruv rejalarini so'rash va olish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibga rioya etilishini ta'minlash talab qilingan ko'rsatmalarni, Kengash Raisi imzosi qo'yilgan holda, nazorat organlariga jo'natish;

- tekshiruvlarni muvofiqlashtirish to'g'risidagi qonunchilikni buzish yoki Kengash qarorlarini buzishda aybdor bo'lgan nazorat organlari rahbarlari va mansabdor shaxslarga ma'muriy choralar belgilanganligi to'g'risidagi taqdimnomalarni, Kengash Raisi imzosi qo'yilgan holda, jo'natish;

- nazorat organlarining rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi qarorlarini, agar ularni o'tkazish uchun yetarlicha asoslar bo'lmasa, bekor qilish.

Kengash nazorat organlari tomonidan nazoratni tartibga solish sohasidagi qonunchilikka qat'iy rioya etishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarning nazorat organlarining noqonuniy harakatlari ustidan tushgan arizalarini o'z vaqtida ko'rib chiqishi, ular yuzasidan qarorlar qabul qilishi hamda olib borilayogan ishlarning natijalari to'g'risida hukumatga muntazam ravishda axborot berib turishi shart.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday rol o'ynaydi?

2. Parlament nazorati qanday nazorat?

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati nazorat qilish sohasida qanday vakolatlarga ega?

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat?

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati tarkibida qanday qo'mitalar faoliyat yuritadi?

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday rol o'ynaydi?

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida qaysi organ va tashkilotlar bilan munosabatda bo'ladi?

8. Faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladigan masalalar nimalardan iborat?

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida qanday komissiyalar moliyaviy nazorat sohasida faoliyat yuritadi?


10. Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish Kengashi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday ahamiyat kasb etadi?

V bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB PALATASI VA UNING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI O'RNI

5.1.O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining maqsadi va tarkibiy tuzilmasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida" PF-3592-son Farmoniga muvofiq Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning maqsadli va samarali ijro etilishi, davlat aktivlari va passivlarining holati va harakati, oltin valyuta zaxiralari hamda tashqaridan qarz olishlarni amalga oshirish, boshqarish va tasarruf etish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan moliya nazoratining yuqori organi hisoblanadi.

Hisob palatasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni qonuniylik, xolislik, mustaqillik va oshkoralik qoidalari asosida amalga oshiradi.



25-rasm. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tarkibiy tuzilmasi

Davlat moliyaviy nazorati tizimida Hisob palatasiga katta rol ajratilgan bo'li, u mustaqil va obyektiv organ sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hisob beradi.

Hisob palatasining nazorat faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy masalalri va tashkiliy-nazorat masallari bo'yicha davlat maslaxatchilari bilan kelishilgan yarim yillik va yillik Nazorat ishlari dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda Hisob palatasining Nazorat ishlari dasturiga kiritilgan yuridik shaxslar (byudjet tashkilotlaridan tashqari) ro'yxati nazorat qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashi bilan kelishiladi.

Nazorat tadbirlarining yarim yillik va yillik dasturlari asosida tekshirishlarni amalga oshirayotganda Hisob palatasi vazirliklar va idoralarning ma'sul xodimlarini, shuningdek malakali mustaqil ekspertlarni jalb etgan xolda huquqbuzarliklarning turi va xususiyatini, huquqbuzarliklarni sabablarini aniqlaydi va ularni bir tizimga soladi.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining vazifa va funksiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 2 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF 3592 farmoniga muvofiq quyidagilar Hisob palatasining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- Davlat byudjeti loyihasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarini shakllantirish jarayonini chuqur va puxta o'rganish, ularni bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida o'tkazilayotgan siyosatning g'oyat muxim ustuvor yo'nalishlariga, respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish sohasida qabul qilingan maqsadli kompleks dasturlarga to'la-to'kis mos kelishi nuqtai nazaridan tanqidiy baholash;

- tarmoqlar va hududlar bo'yicha Davlat byudjetining daromad qismi shakllantirilishi va ijrosini moddama-modda, har tomonlama chuqur tahlil etish, byudjet daromadlarining asosiy moddalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining realligi va tig'izligiga baho berish, bunda yoqilg'i-energetika kompleksi, qazib chiqarish sanoati, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo, iqtisodiyotning daromad hosil qiluvchi boshqa tarmoq va sohalaridagi zaxiralarni aniqlashga alohida e'tibor qaratish;

- agrosanoat kompleksidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy xolati monitoringini amalga oshirish, qishloq va suv xo'jaligini rivojlantirishga ajratiladigan byudjet mablag'lari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilish;

- mahalliy byudjetlar shakllantirilishi va amalga oshirilishini, ularning balanslanishini muntazam tahlil etish va nazorat qilish, mahalliy boshqaruv va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish uchun ularga real moliyaviy mablag'lar ajratib berish vazifasini hal etish zarurligidan kelib chiqqan holda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi nisbatni maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- respublika darajasida ham, mahalliy darajada ham davlat byudjetining ijrosi va davlat mablag'larining sarflanishi ustidan nazoratni tashkil qilish va ta'minlash. Davlat xarajatlarini kamaytirish rezervlarini aniqlash. Markazda va joylarda byudjet mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanilishini, ulardan foydalanishda qonunbuzarliklar va suiiste'molchiliklarning oldini olish choralarini amalga oshirish;

- byudjetdan tashqari jamg'armalar - Respublika yo'l jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi, Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish jamg'armasi, Qishloq xo'jaligini avanslash jamg'armasining davlat byudjeti tarkibida yig'iladigan mablag'lari to'liq tushishi, ulardan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishi ustidan qattiq nazoratni amalga oshirish;

- o'tkazilayotgan pul-kredit siyosatini, milliy valyutani mustahkamlash, uning xarid qobiliyatini oshirish, pul massasi va pul agregatlarini maqbul holga keltirish, bankdan tashqari pul aylanishini keskin qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish va baholash;

- respublika tashqi savdo oborotining ahvolini chuqur tahlil qilish, respublika to'lov balansini shakllantirish va undan foydalanishni baxolash. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksporta prognozi bajarilishi, mahsulot importi

maqbullashtirilishining ta'minlanishi, eksport tushumlari va xorijiy valyutani sotish to'la-to'kis va o'z vaqtida bo'lishi monitoringini amalga oshirish. Ichki valyuta bozorida valyutaga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, ayirboshlash kursi dinamikasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish, milliy valyutaning erkin almashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- tashqaridan olinadigan qarzlarning hajmlari va maqsadga muvofiqligini tanqidiy baholash, olinadigan xorijiy kredit va grant mablag'laridan samarali va oqilona foydalanilishini, shuningdek Hukumat tomonidan yoki Hukumatning kafolati bilan olingan tashqi kreditlarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishini qattiq nazorat qilish;

- oltin-valyuta zahiralarining holati va uning xarakati ustidan nazoratni amalga oshirish, tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ularni xorijiy banklarda samarali joylashtirish va qayta joylashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, oltin-valyuta zaxiralari, shu jumladan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi nazorat-taftish, ekspert- taxlil va axborot berish funksiyalarini bajaradi.

Ko'rsatilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun Hisob palatasiga quyidagi huquqlar berilgan:

- 1) davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, qo'mitalar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar, banklardan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha axborot, ma'lumotlar va hujjatlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

- 2) zarur bo'lgan hollarda o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun tekshiruvlar tashkil etish va ularning natijalari bo'yicha ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni jo'natish;

3) o'z vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazish vaqtida davlat organlari va ularning vakillari, nodavlat auditorlik xizmati va ayrim mutaxassislarni ularda ishtirok etish uchun jalb etish;

4) Hisob palatasi bilan oldindan kelishilishi zarur bo'lgan barcha masalalar yuzasidan tegishli xulosalar berish;

5) qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini yaxshilash maqsadida nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha takliflar kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat moliyaviy nazoratining yuqori organi sifatida Davlat byudjeti ijrosi va Davlat maqsadli jamg'armalari nazoratini amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

-Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari loyihalarini ko'rib chiqadi, ma'qullanganda u bo'yicha tegishli xulosa beradi;

-Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg'armalari ijrosi natijalari bo'yicha hisobotni ko'rib chiqadi, ma'qullanganda u bo'yicha tegishli xulosa beradi;

-Davlat byudjeti, davlatning maqsadli jamg'armalarini bajarilishini, shu bilan birga, soliq va bojxona organlarini, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlar faoliyatining monitoringini amalga oshiradi;

-Byudjet mablag'larining harakati to'g'risida qonunchilik doirasida bankdan ma'lumot oladi;

-Moliya organlari, g'aznachilik bo'limlari, byudjetdan mablag' oluvchilar va xo'jalik subyektlari moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiradi hamda taftish o'tkazadi;

-Qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa vakolati doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Nazorat- taftish funktsiyasi	• Davlat byudjetining daromad va xarajatlari qismlari, asosiy parametrlari va moddalarining ijrosi ustidan nazorat oʻrnatish
	• Mintaqalar, tarmoqlar va korxonalar boʻyicha tasdiqlangan parametrlar xisobidan davlat mablagʻlarini xarajat qilish boʻyicha chetga chiqishlar aniqlangan xollarda tekshiruvlar oʻtkazish xamda ulardan foydalanishda tartibbuzarliklarning olidini olish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish
	• Byudjet daromad qismining ijrosi ustidan xamda mintaqalar boʻyicha manbalar soliq va bojxona organlaridan toʻlovlarning kelib tushishi toʻliqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish
	• Davlat tashqi qarzlarini boshqarish ustidan monitoring oʻrnatish va kafolat ostida olingan kreditlar boʻyicha oʻz vaqtida xizmat koʻrsatilishini nazorat etish
Ekspert- taxlil funktsiyasi:	• Makroiqtisodiy koʻrsatkichlar byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarining shakllanish jarayonlarini tizimli oʻrganib borish xamda qonunchilik talablariga muvofiqligini kuzatib borish
	• Davlat byudjetini ijro etish xamda soliq tushumlari boʻyicha tasdiqlangan parametrlarni tuzatish boʻyicha takliflarning asoslanganligini koʻrib chiqish
	• Byudjet jarayonida chetga chiqishlarni taxlil qilish va oʻrganish, ularni bartaraf etish va byudjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash
	• Milliy valyutani mustaxkamlash, inflyasiyani pasaytirish xamda iqtisodiy oʻsish va narxlar barqarorligi koʻrsatkichlarining optimal birligiga erish boʻyicha takliflarni koʻrib chiqish va baxolash;
	• Eksportni rivojlantirish, tovarlar eksporti prognozlarinmi bajarish xamda tashqi savdo va tshlov balansilari ijobiy qoldigʻini taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishni nazorat qilish;
	• Oʻzbekiston Respublikasi xukumati yoki uning kafolati ostida chet el kreditlarini jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini taxlil qilish;
Axborot berish funktsiyasi	• Xisob palatasi zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqadigan masalalar boʻyicha taxlili ishlanmalarni tashkil etish va oʻtkazish , ularning asosida xisobot va takliflar tayyorlash xamda ularni koʻrib chiqish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga taqdim etish

26-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasining funksiyalari²⁰

5.3. Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan tekshirishlarni tashkil etish va oʻtkazish tartibi

²⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Hisob palatasi Nizomi”i asosida tayyorlandi

Hisob palatasining tekshirishlari Hisob palatasining raisi, u bo'lmagan taqdirda Hisob palatasi raisining o'rinbosari imzosi qo'yilgan Hisob palatasining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi.

Nazorat tadbiri o'tkazilayotganda Hisob palatasi tomonidan Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi hamda boshqa vazirliklar va idoralarning mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Hisob palatasining tekshirishlari davomida davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summalari aniqlanadi va byudjetga qaytariladi.

Hisob palatasining tekshirishlari natijalari bo'yicha tekshirishning yig'ma dalolatnomasi tuziladi, unda tasdiqlangan dasturga ko'ra izchil, hujjatlar bilan tasdiqlangan dalillarning tizimlashtirilgan bayoni berilishi kerak.


Tekshirishning yig'ma dalolatnomasida davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summalari aks ettirilib, birlamchi buxgalteriya hujjatlariga va ko'rsatilgan dalillarning mavjudligini tasdiqlaydigan boshqa isbot-dalillarga havola qilgan holda huquqbuzarliklar turi, ularni sodir etish usuli va holatlari aniq bayon etiladi.

Hisob palatasining tekshirish yig'ma dalolatnomasi Hisob palatasi inspektorlar guruhining rahbari va guruh a'zolari tomonidan imzolanadi hamda tanishish va imzolash uchun tekshirish obyektining rahbari va bosh buxgalteriga taqdim etiladi.

O'tkazilgan tekshirish natijalariga qo'shilmagan taqdirda tekshirish obyektining rahbari va bosh buxgalteri mulohazalarini qayd etgan holda tekshirishning yig'ma dalolatnomasini imzolaydi. Tekshirish obyektining yig'ma dalolatnomaga doir mulohazalari imzolangan tekshirish dalolatnomasi olingan kundan boshlab o'n kun mobaynida taqdim etilishi kerak.

Yig'ma dalolatnoma bo'yicha tekshirish obyektidan olingan mulohazalarga javoban tekshiruvchi shaxslar tomonidan besh kun ichida tekshirish obyektining e'tiroz bildirgan vajlari asosiligi xususida xulosa tuziladi.

Tekshirish obyekti tomonidan bildirilgan mulohazalarni qo'shimcha ko'rib chiqish uchun Hisob palatasi vakolatli organlarning malakali mutaxassislarini jalb etishi va ulardan tegishli xulosani talab qilishi mumkin.



27-rasm. Hisob palatasining tomonidan aniqlangan davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summolari²¹

²¹ O'zR MV, DSQ va Hisob palatasining 2006 yil 11 dekabrda 101, 2006-52, 11-133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tayyorlandi

5.4. Hisob palatasi tomonidan tekshirish materiallarining topshirish va tekshirish natijalari bo'yicha davlat organlari tomonidan chora ko'rish tartibi


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining topshiriqlari bo'yicha tekshirishlarni amalga oshirish chog'ida Hisob palatasi tomonidan tekshirish natijalari bo'yicha tahliliy yozuvlar tayyorlanib, ularda aniqlangan dalillar va davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summalari ko'rsatiladi, mazkur yozuvlar tekshirishni tayinlagan organga taqdim etiladi.

Hisob palatasi yig'ma dalolatnoma imzolangan kundan boshlab yigirma kun mobaynida tekshirish obyekti yoki uning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvidagi yuqori organiga ko'rsatma yuboradi, u nazorat tadbiri davomida aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq harakatlar va tadbirlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Hisob palatasi tekshirishlarining jinoyat tarkibi alomatlarini o'z ichiga olgan materiallari tekshirish obyektlari mansabdor shaxslarining harakatlariga huquqiy baho berilishi uchun huquqni muhofaza qilish organlariga topshiriladi.

Hisob palatasi materiallari bo'yicha aniqlangan etkazilgan zararining ixtiyoriy tartibda qoplangan, belgilangan tartibda yoki sudning hal qiluv qarori bo'yicha undirilgan summalari tegishli byudjet hisobvaraqlariga yoki byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning hisobvaraqlariga qayd etiladi hamda Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlarini tasniflashning alohida paragrafi sifatida hisobga olinadi.

Hisob palatasining o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha aniqlangan mablag'larni qayd etish uchun Moliya vazirligi Davlat byudjeti va yudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlari tasnifida qo'shimcha paragraflar ochadi.




28-rasm. Davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summasini undiruvchi davlat organlari²²

Davlat organlari har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha Hisob palatasini qabul qilingan choralarning natijalaridan xabardor qilib, zarar summasini undirish to'g'risida tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiladi.

Davlat organlari yo'llagan ko'rsatmalar, Hisob palatasi tekshirishlarining materiallari bilan aniqlangan iqtisodiy zarar summasini undirish bo'yicha ko'rilgan choralar ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunigacha 1ilovada keltirilgan shakl bo'yicha ko'rish natijalarini o'zaro solishtirish amalga oshiriladi.

²² O'zR MV, DSQ va Hisob palatasining 2006 yil 11 dekabrda 101, 2006-52, 11-133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tayyorlandi



29-rasm. Davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summasini undirish tartibi va yo'llari²³

Ularning aybiga ko'ra Hisob palatasi ko'rsatmalarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishi ta'minlanmayotgan tekshirish obyektlari hamda Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo'mitasi hamda Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ijrochi direksiyalarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llanadi, jinoyat tarkibi alomatlari mavjud bo'lganida esa - tegishli materiallar ko'rsatilgan mansabdor

²³ O'zR MV, DSQ va Hisob palatasining 2006 yil 11 dekabrda 101, 2006-52, 11-133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tayyorlandi

shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish masalasini ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasiga topshiriladi

Nazorat uchun savollar:

1.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etishning maqsadi nimalardan iborat?

2.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qanday organ hisoblanadi?

3.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining nazorat faoliyati nima asosida amalga oshiriladi?

4. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tarkibida qanday bo'limlar faoliyat yuritadi?

5.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining vaziflari nimalardan iborat?

6.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qanday funksiyalarni bajaradi?

7.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qanday huquqlarga ega?

8.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan tekshirishlar qanday tartibda tashkil etiladi?

9.Hisob palatasining tekshirishlari davomida aniqlangan davlatning iqtisodiy manfaatlariga etkazilgan zarar summalariga nimalar kiradi?

10.O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan olib borilgan tekshirish natijalari bo'yicha davlat organlari tomonidan qanday tartibda chora ko'riladi?

VI bob. MOLİYAVIY NAZORAT OLIB BORUVCHI ORGANLAR VA ULARNING MOLİYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISHDAGI O'RNI

6.1.O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning moliyaviy nazoratni tashkil etishi

Davlat moliyaviy nazorati tizimida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi tashkilotlari alohida o'rin tutadi. Moliya-kredit tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlarning mazmuni va maqsadi belgilangan vakolat doirasidagi amaliy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Moliya organlarining ko'p qirrali nazorat faoliyati byudjetni rejalashtirish, moliyaviy rejalar va smetalar loyihalarini ko'rib chiqish, byudjet barcha daromadlarini to'plash, davlat byudjeti bilan tegishli moliya yili uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish jarayonida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 23.11.1992 yilgi N 553 Qaroriga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida» Nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqisodiy organi sifatida O'zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta'minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta'minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo'yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari va tuman(shahar)lar hokimliklari moliya bo'limlari, davlat sug'urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo'yicha quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklangan:²⁴

- O'zbekiston Respublikasi hududida yagona moliya, soliq va narx qo'yish siyosatini shakllantirish va o'tkazish, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning va aholini ijtimoiy himoya qilishning barqaror moliyaviy negizini barpo etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

- moliya organlari, ularning tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, ularga o'z vazifalarini amalga oshirishda metodik va amaliy yordam ko'rsatish;

- respublika byudjetini tuzish va bajarish, daromadlarni safarbar qilish, xalq xo'jaligi tarmoqlari va ijtimoiy-madaniy sohaning respublika va mintaqaviy maqsadli kompleks dasturlarini moliyaviy ta'minlash, respublikaning yig'ma moliyaviy balansini tuzish ishlarini tashkil etish;

- davlatning moliyani boshqarishini, moliya-kredit mexanizmini, moliya va byudjetni rejalashtirish usullarini, soliq olish va narx belgilash tizimlarini takomillashtirish, uzoq muddatli moliyaviy normalar va normativlardan keng

²⁴ "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida» Nizom. O'zR VM 23.05.2012 y. 143-son Qarori asosidagi o'zgartirishlar bilan.

foydalanish, byudjet resurslari va boshqa moliyaviy resurslardan foydalanishning xarajatlarning o'sishiga qarshi qaratilganligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- moliya tizimining, soliq va narx-navo siyosatining O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatishini, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishini, milliy daromadning, korxonalar va tashkilotlar daromadlarining va boshqa moliyaviy resurslarning o'sishini ta'minlash;


- moliya-kredit vositalarining xo'jalik mexanizmining boshqa elementlari bilan aloqalarini mustahkamlash;

- respublikaning moliyaviy resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va fan-texnika taraqqiyotining ustivor yo'nalishlariga jamlash, ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirish, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan yaxlit xalq xo'jaligi dasturlarini mablag' bilan ta'minlash, zarur moliya, valyuta rezervlarini tashkil etish;

- rahbarlikning iqtisodiy usullari, uzoq muddatli me'yorlar va normativlardan keng foydalanish, ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanish, moliyaviy resurslarni rejalashtirish va ulardan foydalanish masalalarini hal etishda markazlashtirilgan asoslarni mintaqalarning o'zini o'zi boshqaruvi, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning mustaqilligi bilan qo'shib olib borish asosida moliya, sug'urta, narx belgilashning davlat tomonidan boshqarilishini takomillashtirish;

- moliya va narx mexanizmining aksilxarajat yo'nalishini oshirish, uni resurslarning barcha turlaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish tomon yo'naltirish, nobudgarchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarish va muomala chiqimlarini kamaytirish, foyda (daromad)ni ko'paytirish;

- moliya, byudjet, valyuta va soliqni rejalashtirish va mablag' bilan ta'minlash usullarini takomillashtirish;



-auditorlik tashkilotlari tomonidan lisenziya bitimlarida nazarda tutilgan lisenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qilish;

-korxonalar, vazirliklar, idoralar, banklar va davlat sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish sohasida mahalliy moliya organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;

-soliq solish, narx belgilash, sug'urta, valyuta-moliya auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, shuningdek, soliq maslahati bo'yicha faoliyatni qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashish;

-moliya, soliq narx belgilash, sug'urta, valyuta auditorlik va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida, shuningdek, soliq maslahati bo'yicha faoliyatni ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- respublika yig'ma moliya balansining moliyaviy resurslarini shakllantirishning uzoq muddatli va qisqa muddatli istiqbolni belgilashlarini tuzish ishida, shuningdek, umumrespublika maqsadli byudjetdan tashqari pul jamg'armalarini shakllantirishda qatnashadi, ularni tashkil etish, foydalanish va miqdorlari tartibi, O'zbekiston Respublikasi mintaqalari tomonidan mazkur pul jamg'armalariga mablag' ajratish kvotalari to'g'risidagi takliflarni tayyorlaydi;

- respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirishning yangi usullari asosida hududiy moliya-byudjetni, soliqni rejalashtirishni takomillashtiradi;

- moliya-byudjetni va soliqni rejalashtirish, narx belgilash, xalq xo'jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag' bilan ta'minlash sohasida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, respublika va mahalliy byudjetlardan sarflanayotgan xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etishning umumiy qoidalarini belgilaydi;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetni tuzish va ijro etish ishlarini tashkil etadi;

- respublika vazirliklari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika byudjetining ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va respublikaning boshqa banklari tomonidan byudjetning kassa ijrosi qoidalariga rioya qilinishini, shuningdek, banklar tomonidan kapital sarmoyalarni mablag' bilan ta'minlashni va byudjet mablag'lari hisobidan ro'yobga chiqariladigan boshqa tadbirlarni nazorat qilishni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishgan holda respublika byudjeti ijrosiga tegishli masalalarni hal qiladi;

- moliya-valyuta siyosatining asosiy qoidalarini shakllantirish, respublikaning valyuta rejasini (to'lov balansini) tuzish va ijro qilish, valyuta resurslarini ko'paytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, ularni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat o'rnatish;

- joriy yilda respublika byudjeti va valyuta rejasining bajarilishi yuzasidan hisobot tayyorlaydi va uni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

- mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarning Moliya vazirligiga biriktirilgan nomenklaturasi bo'yicha chegaraviy narxlari va tariflarini tasdiqlaydi; xalq xo'jaligi tarmoqlarida narxlar va tariflarning to'g'ri belgilanishi va qo'llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda narxlar ustidan davlat, idoraviy va jamoatchilik nazorati darajasini oshirish choralarini ko'radi;

- qimmatbaho qog'ozlar bozorini shakllantirish hamda qimmatbaho qog'ozlar emissiyasi va harakati ustidan nazoratni amalga oshiradi, moliyaviy bozorni shakllantirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

- auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni, shuningdek, auditorlik faoliyatining milliy standartlarini o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qiladi;

- da'vogarlariga auditor malaka sertifikatini olishlari uchun malaka talablarini belgilaydi;

- solliq maslahatchisi va aktuariy malaka sertifikatlarini olish uchun malaka imtihonini tashkil etish va o'tkazish tartibini, shuningdek, respublika auditorlar birlashmasi bilan kelishgan holda - auditor malaka sertifikatini olish uchun o'qitish dasturini va malaka imtihonlarini topshirish tartibini tasdiqlaydi;

- solliq maslahatchisi va aktuariy malaka sertifikatlarini olish huquqi uchun malaka imtihonlarini, shuningdek, respublika auditorlar birlashmasi ishtirokida auditor malaka sertifikatini olish huquqi uchun malaka imtihonini o'tkazadi;

- auditorlik faoliyatini litsenziyalashni belgilangan tartibda amalga oshiradi;
- auditor, aktuariy va solliq maslahatchisi malaka sertifikatlarini beradi, ularning amal qilishini to'xtatib qo'yadi va ularni bekor qiladi;

- tegishli malaka sertifikatlariga ega bo'lgan auditorlar, aktuariylar va solliq maslahatchilari reestrlari va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari hisobini yuritadi;

- aksionerlik jamiyatlari va cheklangan mas'uliyatli jamiyatlarning yagona reestrini yuritadi, korxonalarining qimmatbaho qog'ozlarini ro'yxatga oladi;

- respublika moliya-valyuta siyosatining asosiy prinsiplarini, shakllantirishda qatnashadi, respublikaning valyuta rejasini (to'lov balansini) tuzadi va ijro etadi, valyuta resurslarini ko'paytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi, ularni oqilona taqsimlashni hamda ajratilgan valyuta mablag'laridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanishni nazorat qilishni ta'minlaydi;

- O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy investorlarning investisiya faoliyatini moliyaviy va soliqlar bilan tartibga solishini amalga oshiradi, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoya kelishi uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

- respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash uchun respublika Hukumati tomonidan xorijiy kreditlar jalb qilish

zarurati bo'yicha ekspertiza o'tkazadi, hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etadi, respublika Hukumati tomonidan olingan xorijiy kreditlarning kelib tushishini hisobga olish va nazorat qilishni amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzi o'z vaqtida to'lanishi va tashqi qarz bilan bog'liq ishlar amalga oshirilishini nazorat qiladi;

- turli darajadagi byudjetlarning ijrosi, byudjetdagi muassasalar xarajatlar smetasining ijrosi bo'yicha buxgalterlik hisobini yuritish tartibini belgilaydi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda byudjetlarning kassa ijrosi bo'yicha hisob-kitob va hisobotlar shakllarini belgilaydi;

- balansning hisob-kitob moddolari, qimmatbaho narsalarni qayta ro'yxatdan o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi, schyotlarning namunaviy rejalarini, buxgalteriya hisobi va hisobotining namunaviy shakllarini, ularni qo'llash va to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni tasdiqlaydi;

- respublika va mahalliy byudjetlardan mablag' bilan ta'minlanadigan korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalarning moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi, respublika byudjetini tuzish va ijro etish bo'yicha moliya idoralari ishini yaxlit taftish qiladi, zarurat bo'lganda vazirliklar idoralar moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi;

- tugallangan taftish va tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar beradi;

- fuqarolarning Vazirlik vakolatiga tegishli xat, taklif, mulohaza va shikoyatlarining o'z vaqtida va diqqat bilan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi, shuningdek, fuqarolar tomonidan ma'lum qilingan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda qimmatbaho metallar bozorining ahvolini tahlil qiladi;

- qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, ichki iste'mol qilish va eksport qilish prognozlarini hamda balanslarini ishlab chiqishda qatnashadi

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi tomonidan mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan harid qilinadigan mahsulotlar narxlarini belgilash hamda davlat tomonidan harid qilinadigan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun hisob-kitob qilish tartibi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi

Moliya vazirligi quyidagi huquqlarga egadir:

- respublika vazirliklari va idoralaridan, boshqa boshqaruv organlaridan, korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlardan respublika byudjeti istiqbolini belgilash, valyuta rejasini tuzish va ularning ijrosini nazorat qilishni amalga oshirish uchun materiallarni, buxgalteriya hisob-kitoblari va balanslarni, moliya-byudjet, valyuta va soliq rejalashtirishi, byudjetdan va valyuta jamg'armasidan sarflanadigan xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash uchun boshqa materiallar va hisobotlarni, narx belgilashga oid materiallarni olish;

- mablag'larni qonunsiz ravishda sarf qilganliklari yoki ilgari berilgan mablag'larni sarflaganlik to'g'risidagi hisobotlarni va boshqa hisobotlarni taqdim etmaganligi uchun tegishli vazirliklar va idoralar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning rahbarlarini xabardor qilgan holda korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlarni byudjetdan va valyuta jamg'armasidan mablag' bilan ta'minlashni cheklab qo'yish, zarur hollarda umuman to'xtatish hamda vazirlik huquqi doirasida amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa jazolarni qo'llash;

- xalq xo'jaligi tarmoqlarini va ijtimoiy sohani rivojlantirishning byudjetni ijro etish davomida paydo bo'luvchi ayrim masalalarini hal qilish uchun respublika byudjetida zahira tashkil etish;

- byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil qilish;

- amaldagi qonunchilikka muvofiq korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar uchun qimmatbaho metallar va qimmatli toshlarni olish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;

- qimmatbaho metallar va qimmatli toshlarni ularning barcha turlari bo'yicha va har qanday maqsadda (eksport ham shu jumlagi kiradi) qazib oluvchi, izlab topuvchi, qayta ishlovchi va ulardan foydalanuvchi istisnosiz barcha korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarda taftish va tekshirishlar o'tkazish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq metall va toshlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar ana shu metall va toshlardan qanday foydalanayotganliklarini nazorat qilishni amalga oshirish;

- taftish va tekshirishlar davomida naqd pullarni, qimmat-baho qog'ozlarni, buxgalteriya hisobi reestrlarini, hisobotlar, smetalar va rejalarni ko'rsatishni talab qilish; sohtaliklar va boshqa suiste'molliklar aniqlangan hollarda hujjatlar yig'ma jildida hujjatni olganlik to'g'risidagi qaydnoma yoki ana shu hujjatning nusxasini, olib qo'yilgan hujjatlarning reestrini qoldirgan holda zarur hujjatlarni olib qo'yish; boshqa muassasalar, korxonalar va tashkilotlardan tekshirilayotgan ob'ektlarning a'zollari bilan bog'liq ma'lumotlarni va hujjatlarning nusxalarini olish, moliyaviy faoliyatning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ularning rahbarlariga bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

- vazirliklar va idoralar, korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlarning hisobotlari va balanslariga zarur tuzatishlar kiritish yuzasidan takliflar berish, shuningdek, ana shu takliflarni bajarish uchun ko'rilgan chora-tadbirlarni tekshirish;

- maxsulotlarni sotish hajmlari va soliq stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq daromadlar va daromad manbalari bo'yicha viloyatlar bo'yicha o'zgarishlar kiritish;

- auditorlik tashkilotlarida litsenziya bitimlarida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini tekshirish;

- hududlar bo'yicha undirilishi lozim bo'lgan barcha soliqlar va to'lovlarning to'liq tushumidan, shuningdek, Davlat byudjetining birinchi navbatdagi xarajatlarini (hisoblangan qo'shimchalar bilan birga ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va ularga tenglashtirilgan to'lovlarni) so'zsiz moliyalashtirish zarurligidan kelib chiqqan holda, daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun tegishli byudjetlarga ajratiladigan dotatsiyalar, maqsadli subvensiyalar va byudjet ssudalari miqdorlarini aniqlash;

- respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga hamda Andijon, Samarqand va Xorazm viloyatlari mahalliy byudjetlariga beriladigan daromadlarning tasdiqlangan miqdorlariga ushbu mintaqalarda shakllanadigan soliq tushumlarini hisobga olgan holda, o'zaro hisob-kitoblar orqali daromadlar va xarajatlar o'rtasida yuzaga keladigan kassa uzilishlarini tartibga solgan holda aniqliklar kiritish.

- Moliya vazirligi hay'ati muntazam o'tkaziladigan o'z majlislarida moliyaviy mexanizmni takomillashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etishning, respublika byudjeti loyihasi va ijrosini tuzishning asosiy masalalarini hamda Vazirlik faoliyatining boshqa masalalarini, Vazirlik tizimidagi muassasalar, korxonalar va tashkilotlarga amaliy rahbarlik qilish masalalarini, muhim buyruqlar, qoidalar, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy aktlarni ko'rib chiqadi.

Hay'at qarori, odatda, Vazirning buyrug'i bilan hayotga tatbiq etiladi. Vazir bilan hay'at o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan holda Vazir o'z qarorini hayotga tatbiq etadi, paydo bo'lgan kelishmovchiliklar haqida Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi, o'z navbatida hay'at a'zolari ham o'z fikr-mulohazalarini Vazirlar Mahkamasiga bildirishlari mumkin.

Moliya-byudjetni rejalashtirish va respublika xalq xo'jaligini mablag' bilan ta'minlash metodikasini, buxgalteriya hisobi va hisoboti, nazorat-taftish ishlari, soliq maslahati narx belgilash masalalari metodologiyasini takomillashtirish borasidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun tegishli masalalar bo'yicha yuqori

malakali mutaxassislar, ilmiy muassasalarning hodimlari, boshqa tashkilotlarning vakillaridan iborat metodologik va boshqa kengashlar tuzilishi mumkin. Bu kengashlarning tarkibi va ular haqidagi nizom Vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi moliya, narx, kredit, pul muomalasi, tovar-pul munosabatlarining butun jami sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning nazariy darajasini, sifatini va amaliy ahamiyatini oshirish chora-tadbirlarini ko'radi, xalq xo'jaligini boshqarish amaliyotida iqtisodiy vositalar va rag'batlarning butun majmuidan samaraliroq foydalanishga qaratilgan aniq takliflarni ishlab chiqish uchun iqtisodiy ixtisosdagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Moliya vazirligining markaziy apparati tuzilmasi, hodimlari soni, mehnatga haq to'lash fondi miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi markaziy apparatining shtat jadvali, shuningdek, uning mustaqil tarkibiy bo'linmalari haqidagi nizom Moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o'z nomi yozilgan muhrga ega.

6.2.Moliya vazirligi huzuridagi Bosh nazorat – taftish boshqarmasi va uning xududiy boshqarmalari tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari

Moliya vazirligi huzurida Bosh nazorat-taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bosh nazorat-taftish boshqarmasi

va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari to'g'risida nizom²⁵ga asosan faoliyat yuritadi.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining asosiy vazifasi byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilishdir.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining boshqa vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- moliya organlari va byudjet muassasalari tomonidan byudjet va moliya qonunchiligiga rioya etilishini, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyruqlari va yo'riqnoma ko'rsatmalari, byudjet majburiyatlari ijrosi bilan bog'liq boshqa qonunchilik hujjatlari bajarilishi ta'minlanishini nazorat qilish;
- respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash;
- moliya organlari va tijorat banklarining birinchi navbatdagi sarf-xarajatlar navbatiga, mablag' bilan ta'minlash hamda byudjet muassasalari hodimlariga ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarni to'lash muddatlariga va to'liqligiga rioya qilish, shuningdek, byudjet muassasalariga ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun naqd pul berish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish;

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qarori, O'zR VM 01.04.2011 y. 100-son, 11.11.2010 y. 250-son, 03.02.2012 y. 30-son Qarorlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

- ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida mablag' bilan ta'minlanishini va ularni kam ta'minlangan oilalarga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali berilishini nazorat qilish;
- paxta xom ashyosini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, paxta mahsuloti ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha statistika hamda buxgalteriya hisobot ma'lumotlarining to'g'riligi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- paxta tozalash korxonalari tomonidan qabul qilinadigan, saqlanadigan va qayta ishlanadigan paxta xom ashyosining miqdori va sifati bo'yicha ma'lumotlar nazorat va taftish qilinishini, xom ashyoni qayta ishlash chog'ida olinadigan paxta tolasi, paydo bo'ladigan kuyindilar hamda boshqa chiqindilarning belgilangan me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash;
- navlarni joylashtirishning belgilangan tartibiga rioya etilishi, belgilangan standartlarga va seleksiya navlari joylashtirilishiga muvofiq urug'lik chigitlar tayyorlanishi hamda paxtakor xo'jaliklarning ular bilan ta'minlanishi monitoringini amalga oshirish;
- paxta xom ashyosi hamda undan ishlab chiqariladigan paxta mahsulotlarining miqdori va sifatini hamda ularning hisobotda aks ettirilishini baholash bo'yicha tekshirishlarni tashkil qilish va o'tkazish metodologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- investisiya dasturlarini amalga oshirishga ajratiladigan markazlashtirilgan byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanilishini nazorat qilish;
- byudjet mablag'larini kommunal xizmatlar va elektr energiyasiga sarflash limitlariga rioya etilishini muntazam ravishda tekshirib borish;
- byudjet muassasalari tomonidan shtat-smeta intizomiga rioya etish ta'minlanishini nazorat qilish;
- hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlari va mansabdor shaxslari tomonidan byudjet jarayoniga noqonuniy aralashish hollarining oldini olish;

- davlat valyuta mablag'larining to'g'ri va belgilangan maqsadda sarflanishini nazorat qilish;
- fuqarolarning moliya va byudjet intizomining buzilishi hollari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish;
- yangidan tayinlangan pensiya va nafaqalarni hisoblab chiqishning, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llashning to'g'riligini, shu jumladan, fuqarolarning pensiya yig'majildlaridagi boshlang'ich hujjatlarning to'liqligi va ishonchliligini tekshirish yo'li bilan yalpi tekshirishlarni amalga oshirish;
- mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar tomonidan ishlayotgan pensionerlarga pensiya va nafaqalarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini rejali ravishda tekshirish;
- fuqarolarga pensiya va nafaqalar, shu jumladan, bank va pochta muassasalari tomonidan o'z vaqtida va to'liq to'lanishining tizimli monitoringini olib borish, qonun buzilishlari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralar ko'rish;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan ko'rikdan o'tkazish dalolatnomalarini va xulosalarni, zarurat bo'lganda, mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda qayta ekspertizadan o'tkazish;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimi mutaxassislarini jalb etgan holda doimiy ravishda tekshirish;
- o'tkazilgan tibbiy-ekspert tekshirish komissiyalarning to'g'riligi va asoslanganligini, shu jumladan, davolash-profilaktika muassasalari tomonidan berilgan boshlang'ich tibbiy hujjatlarning to'liqligi va ishonchliligini o'rganish yo'li bilan tekshirish;

- byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish;
- davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) savdolari o'tkazilishining to'g'riligini nazorat qilish.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun ularga quyidagi huquqlar berilgan²⁶:

- mahalliy byudjetlar ijrosi bo'yicha hududiy moliyaviy organlar faoliyatini taftish qilish va tekshirish (monitoring);
- barcha darajalardagi byudjet muassasalarini xarajatlar smetasi bajarilishi va byudjet intizomiga rioya qilinishi bo'yicha taftish qilish va tekshirish;
- barcha darajalardagi hududiy moliya organlari va byudjet muassasalarida pul va buxgalteriya hujjatlarini, hisobotlar, smetalar va boshqa hujjatlarni, moddiy boyliklar mavjudligini tekshirish;
- byudjet ssudalaridan, Hukumat tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb etilgan mablag'lar va kreditlardan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning maqsadli foydalanishini tekshirish;
- tijorat bank muassasalaridan, soliq organlaridan, boshqa idoralardan taftishlar va tekshirishlarni o'tkazish paytida paydo bo'luvchi masalalar bo'yicha zarur ma'lumotlar va axborotlarni olish;
- qurilish, montaj, tuzatish ishlarini, boshqa ishlarni nazorat tartibida o'lchash va boshqa tekshirishlar uchun mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb qilish;

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qarori, O'zR VM 10.11.2006 y. 235-son, O'zR VM 24.03.2010 y. 52-son Qarorlariga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

- barcha darajalardagi hududiy moliyaviy organlar va bank muassasalari, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar rahbarlari va mansabdor shaxslaridan taftishlar va tekshirish davomida paydo bo'luvchi masalalar, moliya va byudjet intizomi buzilishi hollari bo'yicha tushuntirishlar berishni, shuningdek ma'lumotnomalar, taftishlar va tekshirishlar dalolatnomalarini imzolashni talab qilish;
- zarur hollarda kassa va kassa binolari, omborlar, arxivlar muhrlanishini, qalbaki, sohtalashtirilgan hujjatlar va boshqa suiste'molliklar aniqlangan taqdirda esa hujjatlarni olib qo'yish, tekshirilayotgan ob'yektlar rahbarlaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblar xatlanishini talab qilish;
- paxta xom ashyosini tayyorlash va qayta ishlashning butun davri mobaynida Moliya vazirining topshirig'i va u tasdiqlagan jadval bo'yicha paxta tozalash korxonalarini tayyorlanayotgan, qayta ishlanayotgan va saqlanayotgan paxta xom ashyosi miqdori va sifati masalalari yuzasidan tekshirish va taftish qilishni o'tkazish;
- standartlar va normativ hujjatlarning bajarilishini ta'minlamayotgan, qo'shib yozishlar, suiste'molliklar va hisobotlar buzilishi uchun shart-sharoitlar vujudga keltirayotgan paxta tozalash korxonalari va ularga qarashli bo'linmalar ishini to'xtatib qo'yish;
- "O'zpaxtasanoat" uyushmasi, paxta tozalash korxonalari va hududiy birlashmalar mansabdor shaxslariga kamomat faktlarini hujjatlar bo'yicha aniqlagan tekshirishlar va taftishlar asosida paxta xom ashyosi va uning mahsulotlari miqdorini hisobotdan chiqarib tashlash to'g'risida yozma buyruqlar berish;
- taftishlar va tekshirishlar materiallari bo'yicha moliyaviy va byudjet intizomi buzilishlarini bartaraf etish, moddiy zararni undirish, aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan tegishli takliflar kiritish;

- moliya va byudjet intizomi buzilishi aniqlangan taqdirda taftishlar va tekshirish materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga berish;
- tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan berilgan ko'rikdan o'tkazish dalolatnomalarini va xulosalarni qayta ekspertizadan o'tkazish uchun mustaqil ekspertlarni jalb etish.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi quyidagi tashkiliy tuzilmaga egadir²⁷:

1. Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish boshqarmasi, uning tarkibiga:

- hududiy moliya organlari tomonidan byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limi;
- respublika byudjet muassasalari tomonidan byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limi kiradi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g'azna ijrosini nazorat qilish bo'limi;
- investisiya dasturlariga ajratiladigan markazlashtirilgan mablag'lardan va Hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish bo'limi;
- davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) o'tkazilishini nazorat qilish bo'limi;
- byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish sho'basi.

2. Paxta tozalash sanoati korxonalarida hisob va hisobotning to'g'riligini nazorat qilish boshqarmasi, uning tarkibiga:

- paxta tozalash sanoati korxonalarini taftish qilish bo'limi;
- axborot-tahlil sho'basi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qarori, O'zR VM 11.11.2010 y. 250-son, 01.04.2011 y. 100-son, 03.02.2012 y. 30-son Qarorlari bilan o'zgartirishlar kiritilgan

3. Moliya vazirligi huzuridagi Jamg'armalar mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish boshqarmasi.

4. Quyidagi tarkibdagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish boshqarmasi:

- pensiyalar, nafaqalar va kompensasiyalarning tayinlanishi va to'lanishini taftish qilish bo'limi;
- TMEK xizmati faoliyatini nazorat qilish bo'limi;
- axborot-tahlil sho'basi.

5. Tashkiliy-uslubiy ishlar bo'limi.


6. Muruvvat yordamidan va texnikaviy ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish sho'basi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalari quyidagi tashkiliy tuzilmaga egadirlar²⁸:

- Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limlari.
- Tashkiliy-uslubiy ishlar bo'limlari.
- Investisiya dasturlariga ajratiladigan markazlashtirilgan mablag'lardan va Hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish bo'limi.
- Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish bo'limi.
- Davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) o'tkazilishini nazorat qilish va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g'azna ijrosini nazorat qilish bo'limi.
- Moliya vazirligi huzuridagi Jamg'armalar mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish bo'limi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qarori, O'zR VM 11.11.2010 y. 250-son, 01.04.2011 y. 100-son Qarorlari bilan o'zgartirishlar kiritilgan

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bosh nazorat – taftish
boshkarmasining tashkiliy TUZILMASI**




Bosh nazorat –taftish boshqarmasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi.

Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi. Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i ayni vaqtda Bosh nazorat –taftish boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi. Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limlari boshliqlari ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari hisoblanadi.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalari o'z ish-faoliyatini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejalariga asosan amalga oshiradi. Ular, zarur bo'lgan hollarda, moliya organlari va byudjet muasasalari faoliyatini rejadan tashqari taftish va tekshiruvdan o'tkazishadi, maxsus vakolatli organ ruxsati bilan esa, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish va nazorat qilishadi.



30-rasm. Bosh nazorat –taftish boshqarmasining asosiy vazifalari

6.3. Moliya vazirligi G'aznachiligining byudjet ijrosini nazorat qilishdagi faoliyatining xususiyatlari

Moliya organlari orasida g'aznachilik tizimi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.

G'aznachilik tizimini monitoring, pul mablag'larini boshqarishni takomillashtirish va byudjet operatsiyalari samaradorligiga erishishga yo'naltirilgan tamoyillaridan biri – byudjet ijrosini nazorat qilishni kuchaytirish bo'yicha yagona g'azna hisob varag'ini tashkil etish hisoblanadi.

O'zbekistonda g'aznachilikning asosiy vazifalari va funksiyalari O'zbekiston Respublikasining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunida aniqlangan. Ushbu Qonunda Davlat byudjetining g'azna ijrosining asosiy prinsiplari belgilangan: buxgalteriya hisobi va hisobotini va kassani tashkil etishning yagona tizimi belgilangan (Qonun 1 yanvar 2006 yilda kuchga kirgan).

G'aznachilik tizimi to'liq hajmda (Moliya vazirligi G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalari) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594 – son qarori qabul qilingandan keyin rivojlandi.

Mazkur Nizom "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi Qonunga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594–son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi.

Bu tizimda byudjetlar ijrosini tashkil qilish, byudjetlarning schyotlarini va byudjet mablag'larini boshqarish mamlakatning Moliya vazirligining maxsus g'aznachilik organlariga yuklatiladi. Maxsus g'aznachilik organlari barcha byudjet mablag'larini tasarruf qiluvchilar va byudjet mablag'lari oluvchilar uchun kassir vazifasini bajaradi va ularning topshiriqlari bo'yicha ular nomidan tegishli to'lovlarni amalga oshiradi.

G'aznachilik o'zining hududiy bo'linmalari bilan birgalikda Davlat byudjetining g'azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi.

G'aznachilik o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va

farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda o'z faoliyatiga tegishli bo'lgan boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga amal qiladi.

G'aznachilik o'z faoliyatini davlat boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklari, boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bevosita va o'zining hududiy bo'linmalari orqali amalga oshiradi.

Davlat byudjetining g'aznachilik tizimi joriy etilishi quyidagi ijobiy natijalarga erishishga imkoniyat beradi:

- davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor va muntazam ravishda axborotlarni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish;
- davlat byudjetining daromad va xarajat qismlarini kassa ijrosini har kungi aniqlashtirilgan monitoringini o'tkazish;
 - tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarini qabul qilish bosqichida dastlabki nazoratni amalga oshirish;
- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va adresli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilari tomonidan suiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat olib borish;
- byudjet tashkilotlari majburiyatlarni olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisob raqamidan to'g'ridan-to'g'ri tovar yetkazib beruvchilar hisob raqamiga o'tkazish orqali pul oqimlari xarakatini tezlashtirish va o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish orqali ta'minotchilarni moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash;
- g'aznachilik tizimining bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'lari o'tkazishni tezlashtirish orqali byudjet mablag'larini tezkor xarakat

qilinishini ta'minlash va boshqalar.

Demak, g'aznachilikni joriy etishdan asosiy maqsad, davlatning moliyaviy resurslarini samarali boshqarishga ta'sir ko'rsatishdir.

G'aznachilik organlari davlat moliyasini boshqarishga taalluqli turli vazifalarni bajaradilar.

G'aznachilik tizimini joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar quyidagilardan tashkil topadi:

- kelgusida byudjet daromadlari va xarajatlari bo'yicha barcha operatsiyalar turli banklarda ochilgan ko'plab byudjet hisob raqamlari o'rniga Markaziy bankda ochiladigan Moliya vazirligi g'aznasining Yagona hisob-varaqasiga jamlantiriladi;

- byudjet tashkilotlari xarajatlarini hisobga olish va byudjet mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish hamda hisobotlar tayyorlash uchun ularning shaxsiy hisob-varaqalari g'aznachilikda ochiladi;

- bank o'rniga g'azna tomonidan byudjet kassa ijrosini amalga oshirilishi va byudjet jarayoni barcha bosqichlari ya'ni daromad tushimi, byudjet mablag'lari ajratishdan tortib byudjet ijrosi hisobotini tayyorlashgacha bo'lgan ishlar birlashtiriladi;

- zamonaviy axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni qo'llagan holda g'aznachilikning yagona axborot tizimi yaratiladi hamda u banklarning elektron to'lov tizimiga ulanadi. Bu esa Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari kassa ijrosini kunlik monitoringini ta'minlaydi hamda barcha darajadagi byudjetlar ahvoli haqida ma'lumotlarni tezkor yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilishni ta'minlaydi.²⁹

G'aznachilik tizimida byudjetlar ijrosini tashkil qilish, byudjetlarning schyotlarini va byudjet mablag'larini boshqarish mamlakatning Moliya vazirligi maxsus g'aznachilik organlariga yuklatiladi. Maxsus g'aznachilik organlari

²⁹Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B., Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma .
– Toshkent, 2009 – 56 bet.

barcha byudjet mablag'larini tasarruf qiluvchilar va byudjet mablag'lari oluvchilar uchun kassir vazifasini bajaradi hamda ularning topshiriqlari bo'yicha ular nomidan tegishli to'lovlarni amalga oshiradi.

1. Moliya organi byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini ro'yxatga oladi. Bunda qandaydir darajada dastlabki nazorat amalga oshiriladi.

2. Moliya organi byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini bir nusxasiga imzo chekib va muhr bosib tegishli g'aznachilik organiga beradi.

3. Byudjet mablag'larini sarflanishi ustidan joriy nazoratni g'aznachilik organlari olib boradi.

4. Jurnal, smetaga muvofiq to'lash, yuridik majburiyat, moliyaviy majburiyat, xarajatlarni to'lash, narx monitoringi, tender va tanlov, xarajatlarni to'lashga ruxsatnoma, yurist imzosi yoki yozma xulosasi, naqd pul berish, cheklarni rasmiylashtirish, to'lov topshiriqnomalarini rasmiylashtirish va boshqalar.

G'aznachilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Davlat byudjetining kassa ijrosi;
- Davlat byudjeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- Davlat byudjeti mablag'larini boshqarish;
- Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish;
- byudjet tashkilotlarining tovarlar yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) uchun tuzadigan shartnomalarini, shuningdek, buyurtmachilarning Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan kapital qurilish uchun tuzadigan shartnomalarini ro'yxatga olish;
- Davlat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobini yuritish;
- Davlat byudjeti ijrosining qanday borayotganligi to'g'risidagi axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va taqlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat

ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish.

Mavjud g'aznachilikda to'lovlar uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Yuridik majburiyatlar: shartnomalar, bitimlar, qarorlar (sud organlari, imtiyozlar), bir taraflama qarorlar.

2. Moliyaviy majburiyatlar: hisob-fakturalar, ish haqi vedomostlari, boshqalar.

3. To'lovni amalga oshirish.


G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish byudjet mablag'lari oluvchilarning yuridik majburiyatlarni olishi asosida moliyaviy majburiyatlarni bajarish deb tushuniladi.

G'aznachilik amaldagi xarajatlar bo'yicha dastlabki va joriy nazoratni o'rnatishi lozim. Bitimga erishilgandan keyin esa nazoratni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish boshqarmasi va boshqa organlar vazifasiga kiritiladi. G'aznachilikning nazorat vazifasi esa aynan dastlabki nazoratdan iborat bo'ladi. Tuzilgan shartnomalar taqdim etilganda va ularning tasdiqlangan smetalariga mosligi aniqlangandan so'ng g'aznachilik organlari tomonidan ushbu hujjatlarning byudjetga qat'iy mosligi sinchiklab tekshiriladi.

Joriy nazoratni olib borish uchun ishning haqiqatda bajarilganligi va unga haq to'lash byudjetda ko'zda tutilganligi haqida hujjatlar taqdim etilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi hududida davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik tizimini amaliyotga joriy etish masalalarini qarab chiqadigan bo'lsak, ma'lum natijalarga erishilganligini ko'rish mumkin.

Bular jumlasiga:

- shartnomalarni ro'yxatga olish,
- schyot-fakturalar,
- byudjet tashkilotlarining to'lov topshiriqlari hisobi kabilar g'aznachilik tizimini amaliyotga joriy etishning elementlari hisoblanadi.



31-rasm. G'aznachilikning asosiy vazifalari

Ushbu qadam byudjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish bilan bog'liq muammolarning bir qismi joriy etilganligidan dalolat beradi. G'aznachilikda shartnomalarni ro'yxatga olish amalga oshirilishi uchun ularning summasi tegishli xarajatlar smeta moddasidan oshib ketmaydi va maqsadli foydalanishga mos kelsa, ro'yxatga olinadi.

Ro'yxatga olingandan keyin ushbu shartnoma bo'yicha schyot-faktura va to'lov topshiriqnomalari ham amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlari bilan tovar (ish va xizmatlar) bo'yicha mol yetkazib beruvchilarni shartnomalarining g'aznachilikda ro'yxatga olinishi ushbu byudjet tashkiloti bo'yicha to'lovga qobiliyatli ekanligini anglatadi va shartnoma shartlari bajarilganda mol yetkazib beruvchi uchun to'lov kafolatlanganligini bildiradi .

Eng muhimi byudjet tashkilotlarining bank schyotlari yopilib, ular hududlar bo'yicha g'aznachilik schyotlarida jamlanadi (respublika byudjeti uchun respublika g'aznachilik schyotlari). Bu tadbir natijasida byudjet mablag'larini turli bank schyotlarida bo'lishining oldi olinadi va byudjet daromadlari va xarajatlarini kassa ijrosidagi bo'shliqni tugatish imkoniyatini beradi.

6.4. Davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda soliq organlari roli

Davlat moliyaviy nazoratni amalga oshirishda *soliq organlari* muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi 1997 yil 29 avgustdagi qonuni³⁰ soliq nazoratining asoslari, uni amalga oshirish bo'yicha soliq organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.


Soliq nazorati soliq solish sub'yektlari va ob'yektlari hisobini yuritish hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidir. U davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliqqa tortiladigan sub'yektlar va ob'yektlar hisobini yuritish, soliq tekshiruvlarini o'tkazish, soliq to'lovchilar, boshqa shaxslarni so'roq qilish va qonunchilik bilan nazarda tutilgan boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliq qonunchiligi, soliqlar hamda O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarning o'z vaqtida hisoblab yozilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat etish;
- soliq qonunchiligiga rioya etilishining zaruriy shartlarini ta'minlash, soliq

³⁰ O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. O'R OMA, 1997 y., №9,

to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko'rsatish, soliq bo'yicha qoidabuzarliklarni aniqlash, ogohlantirish va to'xtatib qo'yish.



32-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi tuzilishi


Davlat soliq xizmati organlari o'z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- soliq to'lovchilarda (jumladan, soliq to'lovchilar bilan bog'langan qarshi sub'yektlarda) O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarning o'z vaqtida hisoblab yozilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy hujjatlarni, shuningdek, eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni tekshirish,

tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur bo'lgan tushuntirish, ma'lumotnoma va ma'lumotlarni olish;

- qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yuridik shaxslar hamda jismoniy shaxslarning banklardagi va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish.

Quyidagilar Davlat soliq qo'mitasining soliq nazoratini olib borishdagi vazifalari hisoblanadi:



33-rasm. Davlat soliq qo'mitasining soliq nazoratini olib borishdagi vazifalari

Davlat soliq xizmati organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni boshqa davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari,

fuqarolarning o'zini o'zi boshqaruv organlari, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro birgalikda bajaradilar. Ko'rsatilgan organlar va tashkilotlar soliq xizmati organlariga soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliq qonunbuzarligiga qarshi kurashda yordam berishlari shart.

Ko'rsatilgan qonunchilik hujjatida nazarda tutilgan soliq nazoratini tashkil etish *Davlat soliq qo'mitasi* va uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida nizom³¹ ga muvofiq u davlat soliq xizmatining soliq qonunchiligiga rioya etilishi, davlat iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoyalashning ta'minlanishi sohasidagi nazorat bo'yicha markaziy organi hisoblanadi.

Davlat soliq qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida quyidagilarga haqlidir:

1) Respublika nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi tomonidan tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq boshqa tekshiruv va nazorat organlarini jalb etgan holda, mulkchilikning barcha shakllaridagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish;

2) soliq to'lovchilarda (jumladan, soliq to'lovchilar bilan bog'langan qarshi sub'yektlarda) moliyaviy hujjatlar, shartnomalar, smetalar, soliqlarni hisoblab yozish va to'lash hamda eksport-import bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarni hujjatlar asosida tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo'yicha zarur bo'lgan tushuntirish, ma'lumotnoma va ma'lumotlarni olish;

3) savdo, tovarlarni sotish va xizmat ko'rsatish, aksiz spirtli ichimlik va tamaki mahsulotlarini realizasiya qilish va markalash qoidalariga rioya etilishi, naqd pul mablag'larining to'liq kirim qilinishi, nazorat-kassa apparatlarini qo'llash qonunchiligiga rioya etilishi va boshqalarni nazorat qilish.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-sonli qarori bilan tasdiqlangan

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tizimida *Bosh nazorat-taftish boshqarmasi*³² tuzilgan bo'lib, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'linmalari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasining soliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini soliqqa oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi yuzasidan hujjatlar asosida tekshirish (taftish)larni hamda Hukumat qarorlari bilan nazorat soliq organlariga yuklangan masalalar bo'yicha nazorat tartibidagi tekshirishlari belgilangan tartibda tashkil etish va o'tkazish;

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlardan undiriladigan soliqlar va yigimlarni hisoblab chiqarishda, undirishda qonuniylikka rioya qilinishi, to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va byudjetga o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

soliqqa doir huquq buzishlarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish;

Davlat soliq qo'mitasining boshqa bo'linmalari bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni kompleks tekshirishlarning istiqboli rejalarini tayyorlash, tekshirishlar o'tkaziladigan ob'yektlarni aniqlash va ularni amalga oshirish;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan tekshirishlar materiallari bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qarorlar qabul qilinishi va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishi ustidan nazorat o'rnatish;

xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan hujjatlar asosida va nazorat tartibidagi tekshirishlar yakunlari bo'yicha byudjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishi (qo'shimcha hisoblangan summalar, moliyaviy sanksiyalar, ma'muriy jarimalar va shu kabilarning undirilishi) ustidan nazorat o'rnatish;

34-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasining soliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari

³² Hukumatning «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida» 2000 yil 13 martdagi 87-sonli qarori bilan tuzilgan. Ushbu organ to'g'risidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yil 5 maydagi 180-sonli qaror bilan tasdiqlangan.

Davlat soliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni hal etish va funksiyalarini bajarishi uchun quyidagi huquqlarga ega:

- yuridik va jismoniy shaxslardan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar (soliq to'lovchilar) faoliyatiga tegishli ma'lumot, axborot, ma'lumotnoma, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

- banklar va boshqa kredit-moliya muassasalaridan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar (soliq to'lovchilar)ning hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlarida amalga oshirilgan operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish.

Davlat moliyaviy nazorat bo'yicha funksiyalarni *bank tizimi* ham bajaradi. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» 1995 yil 21 dekabrda qonuniga muvofiq u bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoyalashni ta'minlash maqsadida bank nazoratini va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi.

Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bankka quyidagi huquqlar berilgan:

- 1) Banklardan hisobotlar va boshqa hujjatlarni olish va tekshirish, ularning faoliyati, jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot, ma'lumotlarni so'rash va olish;

- 2) Olingan axborot, ma'lumotlar bo'yicha tushuntirishlar talab qilish;

- 3) Banklarning ichki auditi bo'yicha talablar belgilash;

- 4) Bank aktivlarini sifat bo'yicha tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun shunday zaxiralar tuzishni talab qilish;

5) Banklarga ular faoliyatida aniqlangan tartibbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan yozma buyruqlar, ko'rsatmalar jo'natish.

Tekshiruvlar Markaziy bank tomonidan belgilanadigan vakolatli vakillari va auditorlar tomonidan o'tkaziladi. Davlat moliyaviy nazoratning ayrim funksiyalarini boshqa organlar ham bajaradi. Bu, xususan, *O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish markazi*³³ ga taalluqli bo'lib, uning zimmasiga barcha davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining funktsiya va vazifalari nimalardan iborat?

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qanday huquq va majburiyatlarga ega?

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibi va tuzilishini aytib bering.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya tizimida nazoratni tashkil qilishdagi roli va ahamiyati qanday?

5. Mahalliy moliya organlarining hududiy moliyani boshqarishdagi o'rnini izohlang.

6. Mahalliy moliya organlari tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari nimada?


³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 26 martdagi №UP-1414-sonli farmoni bilan tuzilgan.

III bo'lim. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TURLARI

VII bob. SOLIQ NAZORATI

7. 1. Soliq nazoratining asoslari va amalga oshirish shakllari

Soliq nazorati soliq solish subyektlari va obyektlari hisobini yuritish hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidir.



35-rasm. Soliq nazoratining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida" 1997 yil 29 avgustdagi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida

Nizom” hamda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to‘g‘risida Nizom”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 apreldagi PQ–311-son qaroriga muvofiq qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti to‘g‘risida Nizom” soliq nazoratining asoslarini va uni amalga oshirish bo‘yicha soliq organlarining huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o‘tilishi munosabati bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish bo‘yicha soliq nazoratini bojxona organlari o‘z vakolatlari doirasida Soliq Kodeksga va bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.


Quyida soliq nazoratining shakllarini ko‘rib chiqamiz.

Davlat soliq xizmati organlari *soliq to‘lovchilarning hisobini* yuritadi. Soliq to‘lovchilarning hisobini yuritish ularni hisobga qo‘yish va ular to‘g‘risidagi hisob ma‘lumotlarini yuritish orqali amalga oshiriladi.

Soliq to‘lovchi hisobga qo‘yilayotganda unga soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami beriladi hamda soliq to‘lovchi to‘g‘risidagi hisobga qo‘yish ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestriga kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reestri O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to‘lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki soliq to‘lovchi bir vaqtning o‘zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo‘yilgan holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan taqdirda, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.



36- rasm. Solliq nazorati shakllari³⁴

Solliq solish obyektlarini va solliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish davlat solliq xizmati organi tomonidan har bir solliq to'lovchi bo'yicha hamda u to'layotgan barcha solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha, solliq solish obyektlari hamda solliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Solliq Kodeksi, 2008 yil, 12-bob, 67-modda

ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi³⁵.

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarining ma'lumotlari, tegishli organlar, tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar, shuningdek davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to'plagan, shu jumladan soliq tekshiruvlari vaqtida to'plagan axborotlar asosida shakllantiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari *byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini* yuritishi kerak.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar hisobini soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning, shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to'langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning har bir turi bo'yicha ochiladi.

Kameral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir³⁶.

Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi.

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2007 yil 25 dekabr, 68-modda

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2007 yil 25 dekabr, 70-modda

Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yohud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchining *naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji* xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruq soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafovutlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda xronometraj o'tkaziladigan soliq to'lovchi, xronometrajni o'tkazish joyi va muddati, xronometraj o'tkaziladigan davr, xronometraj o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga sabab bo'lgan tafovut, shuningdek davlat soliq xizmati organining xronometraj o'tkazadigan mansabdor shaxslari albatta ko'rsatiladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan

kuzatish va qayd etish orqali o'tkaziladi. Xronometrajni o'tkazishga boshqa shaxslarni, shu jumladan ekspertlarni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o'tkazishga, soliq to'lovchidan biron bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to'lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bundan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan xronometraj o'tkazilayotgan vaqtga doir ma'lumotlarni olish mustasno.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalaridan faqat taqdim etilayotgan soliq hisoboti to'g'riligini tahlil etish uchun, shuningdek soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog'liq obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish uchun foydalaniladi. Xronometraj natijasi soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan *fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari* majburiy qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno.

Faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli naqd pul bilan hisob-kitob qilishni nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llashda quyidagilar majburiy hisoblanadi:

1) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlarida fiskal xotirali nazorat-kassa

mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilgan holda ro'yxatdan o'tkazish;

2) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

3) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining chekini iste'molchiga berish;

4) davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini tekshirishiga ruxsat etish.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishga haqli.

Tamaki va alkogolli mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda hamda shartlarda aksiz markasi bilan tamg'alanishi kerak, pivo bundan mustasno.

Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni *tamg'alash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni* davlat soliq xizmati organlari va davlat bojxona xizmati organlari amalga oshiradi.

Aksiz solig'ini to'lovchi korxonalarda va boshqa ayrim korxonalarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya inspektori lavozimi joriy etilishi mumkin. Moliya inspektori lavozimi joriy etiladigan korxonalar ro'yxati va uning faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat soliq xizmati organlari *davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishi ustidan nazoratni* amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda byudjetga va *davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni* amalga oshiradi.

7.2. Soliq tekshiruvlarining mohiyati va turlari

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.


Soliq tekshiruvlari quyidagi turlarga bo'linadi³⁷:

rejali soliq tekshiruvi;

rejadan tashqari soliq tekshiruvi;

muqobil tekshiruv.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2008 yil ,14-bob, 86-modda.



37-rasm. Soliq tekshiruvining turlari

Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog'liq bo'lgan, soliq to'lovchi o'tkazgan operatsiyalar soliq bo'yicha hisobga olishda to'g'ri aks ettirilganligi haqida qo'shimcha ma'lumot olish zaruriyati kelib chiqsa, o'tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o'tkaziladi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilaridir. Soliq tekshiruvlarida soliq to'lovchining vakili ishtirok etishi mumkin.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda soliq tekshiruviga soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo'lmagan ekspert, tarjimon va xolislar jalb etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining a'zosi bo'lgan soliq to'lovchilarning soliq tekshiruvida uning vakillari ishtirok etishga haqli.

Rejali soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan ko'chirma. Bunda ko'chirma uning asliga to'g'ri ekanligi ko'rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

- tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida davlat soliq xizmati organining tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i.

Rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan obyektning nomi, tekshiruvning maqsadlari, tekshiriladigan davr (taftish uchun), tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatilgan tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

- davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr ko'rsatilgan holdagi buyrug'i.

Muqobil tekshiruv o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan obyektning nomi, tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari, shuningdek o'zaro munosabatlarning tekshirilishi lozim bo'lgan predmeti ko'rsatilgan holdagi muqobil tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

- davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan

tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan holdagi buyrug'i.

Muqobil tekshiruv tekshirilayotgan soliq to'lovchi bilan faqat o'zaro munosabatlarga taalluqli qism yuzasidan amalga oshirilishi mumkin.

Muqobil tekshiruvlar o'tkazilayotganda soliq to'lovchilarning huzuriga kirish va ulardan tekshiruv predmetiga taalluqli bo'lmagan moliya-buxgalteriya hujjatlarini yoki boshqa hujjatlarni talab qilib olish taqiqlanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni rejadan tashqari soliq tekshiruvidan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- tugatilayotgan yuridik shaxsning arizasi yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yuridik shaxsning tugatilishi to'g'risidagi bildirishi;
- davlat soliq xizmati organining tekshiruv maqsadlari, tekshiruv o'tkaziladigan muddatlar va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i.

Soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi kerak. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvi muddatlarini uzaytirish davlat soliq xizmati organining qo'shimcha buyrug'i bilan rasmiylashtirilib, unda oldingi buyruqning ro'yxatdan o'tkazish raqami hamda sanasi, tekshiruv o'tkazishga ilgari jalb qilingan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak va muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) bir yilda ko'pi bilan bir marta, belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'liq hajmda rioya etayotgan soliq to'lovchilar moliya-

xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari esa, ikki yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) esa, to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) esa, uch yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

Shu davrga qadar yangi tashkil etilgan mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran dastlabki ikki yilda rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmas edi, bu muddat 2012 yildan 3 yilga uzaytirildi.


Soliq tekshiruvi o'tkazilishi soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'ymasligi kerak, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan boshqa tumanlarda (shaharlarda) davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazish, ularning ishlab chiqarish binolari, savdo nuqtalari va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) joyi qayerda joylashganligidan qat'iy nazar, takrorlashga yo'l qo'yilmagan holda, tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tegishli davlat soliq xizmati organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organi rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan soliq tekshiruvi o'tkazish dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturini tuzish qoidalari nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining tekshiruv o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi ko'pi bilan besh kalendar yildagi faoliyatini qamrab olishi mumkin.



38-rasm. Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturida ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari Soliq kodeksida belgilangan tartibda soliq to'lovchining hududi va joylarini tekshirishga, mol-mulkni inventarizasiya qilishga, hujjatlarni talab qilib olishga, hujjatlar va predmetlarni olib qo'yishga, soliq to'lovchidan, shuningdek soliq to'lovchining rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruvini amalga oshirayotgan shaxslardan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirishlar olishga, bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish choralarini ko'rishga, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlashga, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilishga, Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.


Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to'lovchi tomonidan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

7.3. Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslariga soliq to'lovchining hududiga va joyiga (turar joy binolari bundan

mustasno) kirishiga to'sqinlik qilganlik, xuddi shuningdek davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikka tortilganlik soliq tekshiruvini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.



39-rasm. Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi soliq tekshiruvi tugallanganiga qadar bajarishi lozim bo'lgan vazifalar

Soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari, zarurat bo'lganda, soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoki soliq solish obyektlari bilan bog'liq hududlarni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini hamda boshqa binolar, shu jumladan

joylarni ko'zdan kechirishi, shuningdek soliq to'lovchining mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazishi mumkin. Ko'zdan kechirish o'tkazilayotganda soliq tekshiruvi qaysi shaxsga nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs yoki uning vakili qatnashishga haqli. Ko'zdan kechirish o'tkazilayotganda zarur hollarda foto va kinosuratga olinishi, videoyozuvga tushirilishi, hujjatlardan ko'chirma nusxalar olinishi mumkin, bu haqda bayonnomada ko'rsatiladi.

Soliq tekshiruvlarini o'tkazish vaqtida mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tekshirilayotgan soliq to'lovchidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish hamda to'lash bilan bog'liq hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar va huquqbuzarlik predmetlari soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida olib qo'yilishi mumkin, ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hujjatlar va predmetlar bundan mustasno.

Soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'yishga olib keladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va predmetlarni tungi vaqtda — soat 23-00 dan 6-00 gacha — olib qo'yish ma'n etiladi.

Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish aniqlangan hollar bundan mustasno.

Soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilingan yohud davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining soliq to'lovchi

tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoki soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq hududlar, binolar, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun kirishi rad etilgan, shuningdek soliq hisoboti taqdim etilmagan hollarda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Zarur hollarda, soliq tekshiruvlarini o'tkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi va ekspertiza tayinlanishi mumkin.

Yuzaga kelgan masalalarni tushuntirish uchun fan, san'at, texnika va boshqa sohalar bo'yicha maxsus bilim talab etilgan taqdirda ekspertiza tayinlanadi. Shaxsni ekspert sifatida jalb etish davlat soliq xizmati organi va ekspert o'rtasida ekspertiza o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzish asosida amalga oshiriladi. Ekspert ekspertiza predmetiga taalluqli soliq tekshiruvi materiallari bilan tanishishga, o'ziga qo'shimcha materiallar taqdim etilishi to'g'risida iltimosnomalar berishga haqli. Ekspert, agar unga berilgan materiallar etarli bo'lmasa, xulosa berishni rad etishi mumkin.

Ekspert xulosani o'z nomidan yozma shaklda beradi. Ekspert xulosasida uning o'zi o'tkazgan tekshirishlar, shu tekshirishlar natijasida qilingan xulosalar hamda o'rtaga qo'yilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi.

Qo'shimcha ekspertiza xulosa etarlicha aniq yoki to'liq bo'lmagan taqdirda tayinlanadi va o'sha ekspertning o'ziga yoki boshqasiga topshiriladi.

Takroriy ekspertiza ekspertning xulosasi asoslanmagan yoki uning to'g'riligiga shubha bo'lgan taqdirda tayinlanadi va boshqa ekspertga topshiriladi.

Zarur hollarda soliq tekshiruvida ishtirok etish uchun tarjimon jalb etilishi mumkin. Ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoxud kar yoki soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan shaxs tarjimondir.

Soliq tekshiruvi doirasidagi harakatlar amalga oshirilayotganda xolislar jalb etiladi. Soliq tekshiruvining natijasidan manfaatdor bo'lmagan har qanday voyaga etgan jismoniy shaxslar xolislar sifatida jalb etilishi mumkin.


Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining xolislar sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Xolislar o'z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning holati, mazmuni va natijalarini bayonnomada tasdiqlashlari shart. Ular sodir etilgan harakatlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga haqli, bu fikr-mulohaza bayonnomaga kiritib qo'yilishi kerak.

Harakatlarning amalga oshirilishida ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan barcha shaxslar bayonnomani o'qib chiqadilar. Mazkur shaxslar o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga haqli va bu fikr-mulohazalar bayonnomaga kiritilishi yoki soliq tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yilishi lozim. Bayonnomada davlat soliq xizmati organining bayonnomani tuzgan mansabdor shaxsi, shuningdek harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomaga fotosuratlar va negativlar, kinolentalar, videoyozuvlar hamda harakatlar amalga oshirilganda bajarilgan boshqa materiallar ilova qilinishi mumkin.

Agar soliq tekshiruvi tugallanganida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan bo'lmasa, bu haqda soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasining barcha nusxalari davlat soliq xizmati organlarining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga topshiriladi. Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olganda dalolatnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko'rsatgan holda imzo qo'yishi shart. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining davlat soliq xizmati organida qolgan nusxalari soliq tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi.



40-rasm. Dalolatnomada aks etishi lozim bo'lgan ma'lumotlar³⁸

Soliq to'lovchining soliq tekshiruvi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq tekshiruvi natijalaridan rozi ekanligini anglatmaydi.

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2008 yil, 14-bob, 101-modd.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu haqda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi. Mazkur holda soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va u jo'natilgan kundan e'tiboran uch kun o'tgach, soliq to'lovchiga topshirilgan hisoblanadi.


Soliq tekshiruvi dalolatnomasi soliq to'lovchiga topshirilgan kun soliq tekshiruvi tugallangan kun hisoblanadi.

Soliq tekshiruvi materiallari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi belgilagan tartibga binoan soliq to'lovchi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organida soliq tekshiruvi tugallangan kundan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.

Soliq tekshiruvi materiallari davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan soliq tekshiruvi tugagan kundan e'tiboran o'n ish kuni o'tgach, biroq o'n besh ish kunidan kechiktirmasdan ko'rib chiqiladi.

Soliq tekshiruvi materiallari ko'rib chiqilayotganda hisoblangan yoki ortiqcha to'langan soliq va boshqa majburiy to'lovlar miqdori, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi alomatlari mavjudligi, qo'llanilayotgan moliyaviy sanksiyalarning miqdori va xususiyati, sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni engillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar, ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlarining mavjudligi, shuningdek soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlar aniqlanadi.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish bayonnomasi soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqqan mansabdor shaxs, shuningdek ularni ko'rib chiqishda ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi.




41-rasm. Soliq tekshiruvi materiallari ko'rib chiqilayotganda bayonnoma aks etilish lozim bo'lgan ma'lumotlar³⁹

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasi bo'yicha o'zining yozma tushuntirishlarini yoki e'tirozlarini soliq tekshiruvi tugagan kundan e'tiboran 10 ish kuni ichida taqdim etishga haqli. Mazkur holda soliq tekshiruvi materiallari soliq to'lovchining mansabdor shaxslari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Davlat soliq xizmati organi tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish sanasi, vaqti va joyi to'g'risida soliq to'lovchini ko'rib chiqishdan kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi.

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2008 yil ,14-bob, 102-modda.

Agar soliq to'lovchi soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqishga uzrli sabablarga ko'ra kela olmasligi to'g'risida davlat soliq xizmati organini xabardor qilgan bo'lsa, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqishni uch ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatga kechiktirish to'g'risida qaror qabul qiladi, bu haqda soliq to'lovchi xabardor qilinadi. Agar soliq to'lovchi takroriy xabarnomaga qaramasdan soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqishga kelmasa, mazkur materiallar, shu jumladan soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan tushuntirishlar va e'tirozlar uning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Soliq tekshiruvi materiallari soliq to'lovchining ishtirokida ko'rib chiqilganda bayonnoma soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqqan mansabdor shaxs, soliq to'lovchi, shuningdek ularni ko'rib chiqishda ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi. Soliq to'lovchi bayonnomani imzolashdan bosh tortganda yoxud soliq tekshiruvi materiallari uning ishtirokisiz ko'rib chiqilganda bu haqda bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.



42-rasm. Davlat soliq xizmati organining rahbari tomonidan qaror qabul qilish tartibi

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarorida quyidagilar ko'rsatiladi:

- hisoblangan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya, shuningdek qo'llanilgan jarima summasi;
- o'tkazilgan tekshiruvda aniqlangan soliq to'lovchi tomonidan soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etilganligi holatlari, mazkur holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa ma'lumotlar;
- soliq to'lovchini soliqqa oid muayyan huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi, ushbu Kodeksning muayyan huquqbuzarlikni va qo'llaniladigan javobgarlik choralari nazarida tutuvchi moddalari ko'rsatilgan qaror;
- soliqqa oid huquqbuzarlikni bartaraf etish hamda hisoblangan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penyani to'lash muddati;
- soliq to'lovchi belgilangan muddatlarda soliqqa oid huquqbuzarlikni bartaraf etgan hamda hisoblangan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penyani to'lagan taqdirda, uning jarima to'lashdan ozod etilish huquqi.

Soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organining qarori qabul qilingan kundan e'tiboran ikki ish kunidan oshmaydigan muddatda qarorning nusxasi tilxat olish orqali yoki soliq to'lovchi tomonidan olingan sanani tasdiqlovchi boshqa usul orqali soliq to'lovchiga topshiriladi. Agar soliq to'lovchiga qaror nusxasini topshirishning imkoni bo'lmasa, u pochta orqali buyurtma xat bilan jo'natiladi va jo'natilganidan e'tiboran uch kun o'tgach, topshirilgan hisoblanadi.

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organi qarorining nusxasi olingan kundan e'tiboran o'ttiz kun ichida qarorda ko'rsatilgan soliqqa oid huquqbuzarliklarni bartaraf etishi hamda hisoblangan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar va penya summasini to'lashi shart.

Agar davlat soliq xizmati organining qarori byudjetga hamda davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning

tushmasligiga olib kelmagan soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun soliq to'lovchiga nisbatan jarima qo'llanilishini nazarda tutsa, soliq to'lovchi qaror nusxasini olgan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmasdan davlat soliq xizmati organiga mazkur huquqbuzarliklardagi aybini tan olganligi va ixtiyoriy ravishda jarima to'lashi to'g'risida yoki uni rad etishi to'g'risida yozma bildirish taqdim etishi (yuborishi) shart.

Soliq to'lovchi soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etganlikdagi aybini tan olgan taqdirda, davlat soliq xizmati organiga jarimani (aniq muddatni ko'rsatgan holda) ixtiyoriy ravishda to'lash uchun zarur bo'lgan muddat berish to'g'risida murojaat qiladi. Jarima qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgan davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari arizani olgan kundan e'tiboran ikki ish kunidan kechiktirmasdan soliq to'lovchi tomonidan so'ralgan muddatni berish to'g'risida qaror qabul qiladi. Muddat jarimani ixtiyoriy ravishda to'lash uchun muddat berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kundan oshmasligi shart. Mazkur qarorning nusxasi soliq to'lovchiga tilxat olish orqali yoki soliq to'lovchi qaror nusxasini olgan sanani tasdiqlovchi boshqa usul orqali topshiriladi. Agar soliq to'lovchiga qarorning nusxasini bunday usullar orqali topshirish imkoni bo'lmasa, u pochta orqali buyurtma xat bilan jo'natiladi va jo'natilganidan uch kun o'tgach, topshirilgan hisoblanadi.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq soliq to'lovchi sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybini tan olganligi va jarimani ixtiyoriy ravishda to'lash to'g'risidagi yoki uni rad etganligi to'g'risidagi yozma bildirishni taqdim etmagan taqdirda, shuningdek ushbu moddaning beshinchi qismiga muvofiq berilgan muddat ichida jarima to'lanmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchiga nisbatan jarima qo'llash to'g'risidagi da'vo arizasi bilan sudga murojaat qiladi.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ushbu bob qoidalariga rioya etilmaganligi davlat soliq xizmati organining qarori davlat

soliq xizmatining yuqori turuvchi organi yoki sud tomonidan bekor qilinishi uchun asos bo'lishi mumkin.

Soliq tekshiruvi jarayonida aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llash O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvini o'tkazishda davlat soliq xizmati organlari yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari orqali etkazilgan zararlarning, shu jumladan boy berilgan foydaning o'zni davlat soliq xizmati organlari tomonidan to'liq hajmda qoplanishi kerak. Sud qaroriga binoan zararlarning o'rnini qoplash davlat soliq xizmati organlari qaysi mansabdor shaxslarining aybi bilan zarar etkazilgan bo'lsa, o'sha mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkin.

Davlat soliq xizmati organlari va ularning mansabdor shaxslari g'ayriqonuniy harakatlar sodir etganligi natijasida soliq to'lovchiga etkazilgan zarar uchun qonunda nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7.4. Davlat organlarining soliq nazoratini olib borishdagi vazifa va funksiyalari

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizom"⁴⁰da belgilanishicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi soliq haqidagi qonun xujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlarini himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat soliq xizmatining markaziy organi hisoblanadi.

Davlat soliq qo'mitasining soliq nazoratini olib borishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 27 yanvardagi . 32-son Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan

- Nazorat qiluvchi organlar tomonidan olib borilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini barcha tekshirishlar va taftishlarni muvofiqlashtirish

- solliq xaqidagi qonun xujjatlariga rioya etilishi, soliqlar, yig'implar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazzorat qilish;

- soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va ularga barxam berish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat solliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida" 2000 yil 13 martdagi 87-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tashkil etilgan. Bosh boshqarma O'zbekiston Raslublikasi Davlat solliq qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosariga bo'ysunadi.


Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to'g'risida Nizomiga⁴¹ muvofiq ushbu boshqarma solliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 apreldagi PQ-331-sonli "Moliya-iqtisodiy, solliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatidan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Solliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Solliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi. Ushbu organ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza

⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 noyabrdagi 235-son Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

qilish organi hisoblanib, soliq, valyutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terroristik faoliyatni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni undirib olish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Soliq va valyutaga oid jinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha jinoiy ish qo'zg'ashdan boshlab uni sudda ko'rib chiqishgacha bo'lgan prosessual harakatlarning uzviyligi va izchilligi Departament va uning hududiy bo'linmalarining iqtisodiyot, soliq va valyutaga oid, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga hamda terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoiy ishlarni ko'rib chiquvchi, sudda ular bo'yicha davlat aybnomasini quvvatlovchi barcha darajadagi prokuratura organlari bilan o'zaro uzviy hamkorligi va harakatlarning muvofiqlashtirilishi natijasida ta'minlanadi.



43-rasm. Departamentning soliq nazoratiga oid asosiy vazifalari

Departament o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Soliq sohasidagi jinoyatlar va huquq buzilishlariga qarshi kurashish sohasida:

- ishlab chiqarish, foyda (daromad) hajmlarini yashirish, sotilgan mahsulot, tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlarini pasaytirish mexanizmlarini o'rganish va aniqlash, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan hisobga olinmagan

- (tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lmagan) mahsulotlar (tovarlar) sotilishi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq inspeksiyalarida hisobga turishdan bo'yin tovlashi mexanizmlarini o'rganish va aniqlash;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan byudjetga soliqlar va to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini tekshirish.

2. Surishtiruv olib borish sohasida:

- jinoiy ishlar qo'zg'atish, moliya-iqtisodiyot, soliq sohasida jinoyatlar va huquq buzilishlarini sodir etish hollari, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish holatlari bo'yicha tergovoldi tekshiruv va surishtiruv ishlarini tashkil qilish va olib borish.

3. Faoliyatni tashkiliy-nazorat jihatdan ta'minlash va muvofiqlashtirish sohasida:

- soliq va iqtisodiyot sohasidagi, shu jumladan, xorijiy valyutadagi operatsiyalarni amalga oshirishdagi huquq buzilishlarining, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish holatlarini aniqlash, oldini olish va payini qirqishga yo'naltirilgan rejali, rejadan tashqari va boshqa tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishiga doir tashkiliy chora-tadbirlarni bajarish.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi 98-son qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risida" Nizomi qabul qilingan bo'lib, unda Davlat soliq qo'mitasi Bozorlar va savdo

komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasining vazifalari va huquqlari belgilangan.



44-rasm. Davlat soliq qo'mitasi Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasining vazifalari


Bosh boshqarma o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- banklar va boshqa kredit-moliya tashkilotlaridan bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi boshqa tadbirkorlik subyektlarining bank hisob-raqamlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda olish;
- tekshirilayotgan, soliq haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'ygan xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliq haqidagi qonun hujjatlarining sodir etilgan buzilishlari to'g'risida dalolat beradigan hujjatlarni, shuningdek huquq buzilishlari predmetlarini belgilangan tartibda olib qo'yish;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining kassalari va kassa xonalari, omborlari, arxivlarini zarur hollarda muhrlab qo'yish;
- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o'tkazishni talab qilish;
- tahlillar, tekshirishlar va ekspertizalar o'tkazish uchun tovarlar, buyumlar, xom ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar namunalari, shuningdek hujjatlarni olib qo'yish;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari hududlarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquq buzilishlari sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovgacha bo'lgan tekshiruvlarni o'tkazish, ular bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'ash va surishtiruv o'tkazish;
- tekshiruvlarda qatnashishga ichki ishlar organlari, sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari hamda boshqa vazirliklar va idoralar xodimlarini belgilangan tartibda jalb etish;

- Bosh boshqarmaga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat soliq xizmati organlari xodimlarini belgilangan tartibda jalb etish;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylaridan, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlaridan qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishni talab qilish;
- Bosh boshqarma vakolatiga kiradigan masalalarni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisiga va hay'atiga ko'rib chiqish uchun kiritish;
- Bosh boshqarma vakolatiga kiradigan materiallarni umumlashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rahbariyatiga uning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish.

Bosh boshqarma o'z ishlarini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan yillik va joriy ish rejalari asosida olib boradi. Bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlarining tekshiruvlarni tashkil etish, xodimlarning funksional vazifalarini taqsimlash, ishlarni yuritish tartibi, tekshiruvlarni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha ichki masalalari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan tasdiqlanadigan Bosh boshqarma reglamentida belgilanadi.

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini qisqa muddatli tekshirishlar Bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlari boshliqlarining buyruqlari asosida o'tkaziladi, keyinchalik bu haqda Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi yoki uning hududiy komissiyalari qisqa muddatli tekshirish o'tkazilgan kundan boshlab bir ish kuni mobaynida xabardor qilinadi.



45-rasm. Bosh boshqarma va uning hududiy bo'limlari xodimlarining javobgarligi

Bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ularning hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini soliq bo'yicha tekshiruvlarning boshqa turlari belgilangan tartibda Bosh boshqarma va uning hududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh boshqarma choraklik, yarim yillik, 9 oylik va yillik ish yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tahliliy hisobot tuzadi hamda uni O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rahbariyatiga taqdim etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Soliq nazorati deganda qanday nazoratni tushunasiz?
2. Soliq nazorati qanday me'yoriy-huquqiy xujjatlarga asosan amalga oshiriladi?
3. Soliq nazorati qanday shakllarda amalga oshiriladi?
4. Soliq tekshiruvi qanday tekshiruv va u qanday shakllarda amalga oshiriladi?
5. Soliq tekshiruvining qanday turlari mavjud?
6. Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturida qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak?
7. Soliq tekshiruvlari qanday tartibda o'tkaziladi?
8. Soliq tekshiruvi bo'yicha dalolatnoma qanday tartibda rasmiylashtiriladi?
9. Davlat organlari soliq nazoratini olib borishda qanday vazifa va funksiyalarini amalga oshiradilar?
10. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining soliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifa va funksiyalari nimalardan iborat?

VIII bob. BANK NAZORATI

8.1. Bank nazoratining mohiyati va zarurligi

Bank nazorati - bu hukumatning moliyaviy tizimni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari yig'indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Mazkur tizim oldida ikkita asosiy vazifa mavjud bo'lib, birinchisi, nazorat jarayonlarini amalga oshirayotgan paytda banklar manfaatini, ikkinchisi, mazkur banklarga o'z omonatlarini joylashtirgan mijozlar manfaatdorligini ko'zlab ish yuritishdan iborat.

Bundan tashqari nazorat qilinayotgan banklar joriy faoliyati bilan bog'liq risklar darajasini aniq baholab berish talab qilinadi. Zero, bank mijozlari banklarning ommaviy chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlari axborotlari asosida moliyaviy koeffitsientlardan foydalangan holda bank faoliyatiga mustaqil baho berishlari mumkin. Bunda bank tizimidagi biron-bir bank faoliyatiga salbiy baho berilishi bank tizimi mijozlarida boshqa banklarga bo'lgan ishonchga ham putur etkazishi mumkin. Shuning uchun ham bank tizimini to'la-to'kis sog'lom ishlashini ta'minlash maqsadida tegishli nazoratlar o'tkazib turish juda muhim hisoblanadi.

Bank nazoratining yana bir vazifalaridan biri bank sektorida ichki raqobatni rivojlantirish va shu asosda mijozlarga ularning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutanosib ravishda xizmat ko'rsatishni ta'minlash hisoblanadi.

Bank nazorati 100 yildan ortiq muddat davomida AQShda va G'arbiy Evropa davlatlarida shakllanib va rivojlanib kelgan. So'nggi 15-20 yil atrofida rivojlanayotgan mamlakatlar ham bank nazoratini bank-moliya tizimini barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini anglab yetdilar va o'z milliy bank tizimlariga joriy qila boshladilar.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rivojlangan davlatlarda, xususan Evropa Ittifoqi davlatlarida, AQSh, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib o'z aksini topdi, ya'ni rivojlangan davlatlar bank nazoratini faqat moliyaviy sektorda emas, balki, umuman iqtisodiyotda asosiy rol o'ynashini tan oldilar. Natijada bank nazorati bo'yicha xalqaro tashkilot "Bazel qo'mitasi" tashkil etildi. Banklarning tizimli riskni keltirib chiqarishi, bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan davlatlarni ham iqtisodiy inqiroz yoqasiga olib kelishi mumkin ("kapalak effekti" nazariyasi, Braziliyada qanot qoqqana kapalklar Texasda tarnadoni vujudga keltirish mumkin).

Bazel qo'mitasi butun dunyo mamlakatlari uchun bank nazorati tamoyillarini ishlab chiqadi va mintaqaviy bank nazoratida banklar faoliyati, ularning nazorat qilish tamoyillari ishlab chiqilib, davlatlar uni o'zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda bank nazorati bo'yicha standartlariga muvofiqlashtiradi.

Qo'mita tomonidan belgilangan xalqaro bank nazoratining tamoyillari:

- Chet mamlaktlar banklari tomonidan boshqa davlatlarda tashkil qilingan bank muassaslari faoliyatini nazorat qilish ikkala davlat nazorat organlariga yuklatildi.
- Likvidlik bo'yicha nazorat xorijiy bank muassasasi ochilgan davlat nazorat organlarining vazifasi hisoblanganligi sababli, likvidlikni boshqarishda xorijiy banklar mahalliy me'yorlarga rioya qilishlari lozim.
- Xorijiy banklarning to'lovga layoqatliligini nazorat qilish ushbu bank joylashgan davlatning nazorat organlariga yuklatiladi.

Amaliy xamkorlik xorijiy bank joylashgan va uning muassasasi ochilgan davlatlarning nazorat organlari o'rtasida ma'lumot almashish hisobidan ta'minlanadi.

Bank nazoratini amalga oshirish uchun bank tizimidagi mavjud muammolarni yechimi sifatida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-mamlakat bank tizimini barqarorligini ta'minlash uchun turli xil iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqishni talab etadi (masalan, hisob siyosati, kredit siyosati, investitsiya siyosati va h.k.);

-bank tizimini nobarqarorligi banklarni bankrot bo'lishiga va shu tarzda bank mijozlarida banklarga bo'lgan ishonchni susayishiga olib kelish muammosini bartaraf etish uchun davriy tekshiruv nazoratlarini o'tkazib turish talab qilinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilmasligi quyidagi makroiqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi:

-pul massasini qisqarishi;

-pul tizimini buzilishi va natijada hukumatning yirik hajmdagi ko'zda tutilmagan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmay qolishi.


Amaliyotda jahonda 2 pog'onali bank tizimi mavjud bo'lib, Markaziy bank birinchi pog'onasi hisoblanib u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimi samarli faoliyat ko'rsatishiini yo'lga qo'ymasdan turib, davlat iqtisodiyotini yuqori darajaga ko'tarish mumkin emas. Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi, va albatta nazoratning maqsadi aholini, qolaversa, mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir.

Bozor iqtisodiyoti qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;
- iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorlikka barham berish;
- banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;

- bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Quyida bank nazoratini amalga oshirish sabablari keltirilgan.




46-rasm. Bank nazoratini amalga oshirish sabablari

Banklar tomonidan o'z kapitalining yetarliligini ta'minlanishi Markzauiy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishi, risklarning

oqilona diversifikatsiyalanishini ta'minlanishi, bank-kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilishdir.

Bank nazoratining asosini banklarning o'zlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi haqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy xujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Hozirgi kunda bank nazorati tizimini quyidagi turlarga bo'lish mumkin⁴²:



47-rasm. Bank nazorati tizimi

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida 2 ta muhim vazifa turadi:

- Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishga hamkorlik qilish;
- Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

Bank nazorati oldida turgan asosiy vazifa butun bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'lsada, lekin alohida olingan bank duch kelishi mumkin bo'lgan

⁴² Norqobilov S., Dadaboeva X., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati, T." Iqtisod-moliya" 2007 yil.

jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo'ldir. Omonotchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilishdan maqsad, ular o'z mablag'laridan foydalanayotgan banklar tomonidan qanday xavf-xatarli operatsiyalar bajarilayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega emaslar.

Bu borada mamlakamizda amalga oshirilgan ishlardan biri 1997 yil martdan boshlab jahon andozalariga mos keladigan va banklar faoliyatini oydinlashtirish imkonini beradigan tijorat banklari hisobvaraqlari yangi rejasi amalga oshirilishi joriy qilinganligi bo'ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasini joriy qilinishi banklar faoliyati "oshkoraligini"(shaffoflik, ochiq-oydinlik) sarmoyadorla, bank mijozlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun ochiqqligini ta'minlash imkonini berdi.

Respublikamizda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko'rish emas, balki bank faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

1995 yil 9 noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishning kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 427 qarorida aholi omonotlarini himoya qilish ko'zda tutilgan va 1998 yilda "Omonot-himoya" sug'urta fondi tashkil etilgan edi. Ammo, fondga a'zo bo'lish ixtiyoriy bo'lganligi unga ayrim banklar a'zo bo'lmasligiga olib keldi. Bu esa o'zining samarali natijasini bermadi.

O'zbekiston Reppublikasi Prezidentining 2000 yil 21 martdagi Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2002 yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilinishi bilan respublikamizda aholi omonatlarini kafolatlash tizimi tashkil etildi. Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Reppublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 19 sentyabrdagi

326 sonli qarori bilan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi.

Ushbu Fonda barcha tijorat banklari va xorijiy banklarning sho'ba banklari tomonidan jalb etilgan omonatlar sug'urtalanadi. Bunda banklar Fond bilan yozma bitim tuzishlari kerak bo'ladi va majburiy badal to'lovlarnini amalga oshirib boradilar.

Majburiy badallar 2 xil bo'ladi:

- bir yo'la to'lanadigan badalni banklar Fondga a'zo bo'lib kirganda to'laydi va u bank ustav kapitlining 0,1 % miqdorida bo'ladi.

- kalendar tartibda to'lanadigan badalni banklar yilning har choragida to'lab borishadi. Bu badal bankdagi omonatlarning yil choragidagi o'rtacha miqdorining 0,5% miqdorida bo'ladi. Bu ikkala badallarning umuiy summai omonatlar qoldig'ining 5%ga etganda kalendar tartibda to'lanadigan badallarni to'lash to'xtatiladi.

Fond faoliyatining maqsadi bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olinganda, tijorat banklari o'z majburiyatlarini bajara olmay qolganda omonatchining omonati:

- minimal ish haqining 100 barobarigacha bo'lsa 100% ini;
- minimal ish haqining 100 barobaridan 250 barobarigacha bo'lsa 90% ini to'lab berishdan iborat.

Umuman olganda barcha davlatlarda omonatlarning sug'urtalash tizimida omonatlarni to'lash bo'yicha limitlar mavjud.

Masalan, AQShda omonatlarning 100 ming AQSh dollari, Kanadada 60 ming Kanada dollari, Yaponiyada 10 mln ienasi, Evropa Ittifoqida 20 ming evroga teng bo'lgan qismini sug'urtalash tavsiya etilsa, Buyuk Britaniyada esa 70%ini to'lash nazarda tutilgan.

Fond o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirish uchun tijorat banklaridan ma'lum darajada hisobotlar talab qiladi va bugungi kunda ushbu

hisobotlarni tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti orqali olmoqda.

8.2. Bank nazoratini amalga oshirish usullari

*Bank nazoratining usullari*⁴³:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini masofadan turib nazorat qilish (moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish orqali).

2. Banklarni joylarga chiqib inspeksiya qilish (barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar tijorat banklarining o'zida tekshirish o'tkazish jarayoni orqali aialaga oshiriladi).

3. Masofadan turib va joylarda tekshirish usullaridan bir vaqtda foydalaniladi.

Masofadan turib banklarni nazorat qilish usuli Evropa mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Bunda Markaziy bankning nazorat departamentlari tashqi audit firmalari bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Har yili tugashidan oldin setifikatlangan tashqi audit firmalariga audit tekshirishlarida faoliyatning qaysi tomonlariga e'tibor berish kerakligi ko'rsatiladi. Ayrim hollarda tashqi audit firmalarining ishchi materiallariga, garchi ularning xususiy mulki bo'lsada, ushbu materiallardan foydalanish talab qilinadi.

Tijorat banklarini joylarga borib tekshirish AQShda keng qo'llaniladi. AQSh banklarning soni 11 mingtadan ortiq bo'lib, bank nazorati departamentida ko'p sonli inspektorlar ishlashadi. Ular joyga chiqib, tijorat banklari xujjatlarini bevosita tekshirib, bank boshqaruviga baho beradilar. Keyingi yillarda AQSh va Evropa bank nazorati amaliyotida uchunchi, ya'ni aralash usuldan foydalanilmoqda.

Masofadan turib nazorat qilish bank faoliyatiga oid moliyaviy va boshqa hisobotlarni tahlil qilish hamda tekshiruvdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Hisobotlar balans, foyda va zararlar haqidagi hisobot, faoliyat turi, kreditlar, qo'yilmalar,

⁴³ Norqobilov S., Dadaboeva X., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati, T." Iqtisod-moliya" 2007 yil.

majburiyatlar, kapital, likvidlik, ssudalar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi zaxiralar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, masofadan nazorat qilish yoki uzoqlashtirilgan monitoring bank holatini so'nggi ma'lumotlar asosida baholash imkonini beradi. Ya'ni masofadan nazorat etish bank faoliyati samradorligiga xalal berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab, kelgusida ular bilan bog'liq xarajatlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, yil yakuni bo'yicha tijorat banklari chet el tashqi auditorlar xizmatidan foydalanadiki, uning asosida bankning moliyaviy holati to'g'risida hamda ehtimoliy to'lovga layoqatsizligi yoki nolikvidliligi haqida masofadan nazorat qilish tizimiga axborot beriladi.

Masofadan nazorat qilishda quyidagilar tekshiriladi:


■ Bank aktivlari va passivlari holatini, bank kapitali likvidliligi, foyda va zararlar hisoboti, bank tushumlari to'liq tahlil qilib chiqiladi;

■ Tahlil jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar to'g'risida banklar faoliyatini tahlil qilish Boshqarmasi xodimlari tomonidan rahbariyatga ma'lumotnoma jo'natiladi;

■ Takrorlangan kamchilik yuzasidan bankka nisbatan jarima chorlaari ko'riladi.

Masofadan nazorat qilish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- banklar faoliyati ustidan monitoring o'rnatish;
- monitoring natijasida bank faoliyatidagi keskin o'zgarishlarni aniqlash;
- bank faoliyatidagi keskin o'zgarishlar shubha uyg'otgan taqdirda inspeksiya va tematik tekshirishlar tayinlash;
- «tartibbuzar» banklarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida»gi qonunida beligilangan choralarni qo'llash.




48-rasm. Masofadan nazorat qilishning qulayligi va samaraliligi

Joyga chiqib tekshirishlarni tashkil qilishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- masofadan nazorat qilish jarayonida aniqlangan holatlarni bevosita joyida o'rganish;
- masofadan nazorat uchun taqdim etilgan hisobotlarni birlamchi hujjatlar bilan taqqoslash orqali ularni haqqoniyligini aniqlash;
- bank aktivlari sifatini tasniflash va shu yo'l bilan tavakkalchilik darajasini aniqlash va baholash;

- tavakkalchilik darajasidan kelib chiqib kapitalning etarliligini aniqlash va baholash;
- bankning joriy likvidlilik darajisini aniqlash va baholash;
- bankning korporativ boshqarish qobiliyatini aniqlash va baholash.



49-rasm. Joyga chiqib nazorat o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik bosqichlari

Joyga chiqib (inspeksiya qilish) tekshirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- Ustav kapitalidagi aksiyadorlar ulushining dinamikada o'zgarish sabablari;
- Aksiyadorlar ulushidagi o'zgarishlarga MB tasdig'i talab qilingan bo'lsa, uning mavjud yoki mavjud emasligi;
- Bank kapitalini Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talablarga javob berishi;
- Bank tushumining kapital o'sishiga ta'siri;
- Kapitalni o'stirish rejasining tahlili;
- Yuqoridagilar qatorida aktivlarning sifati, tushumlarning o'zgarishi va foydaning sifatiga alohida e'tibor berilishi kerak.

Joyga chiqib tekshirishda natijalarni solishtirish va ma'lumotlardan xalqaro amaliyotda keng foydalanish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

Reyting tizimi bo'yicha *KAPITAL* nazorat jarayonining birinchi komponenti bo'lib, bunda bank kapitalining etarlilik darajasi, kapitalning ko'paytirish borasida olib borilayotgan faoliyat va dividendlarni to'lash siyosati tahlil qilinadi.

Tijorat banklari *AKTIVLAR*ning *SIFAT*ini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri - aktivlarning daromadliligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Aktivlar daromadliligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri aktivlar tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi.

Inspektor *BOSHQARISH QOBILIYATI* punktida bank rahbariyatining tarkibi, bank kengashi va boshqaruvining bank to'loviga qobilligi va ishonchli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasidagi ish tajribasini baholaydi.

Bank faoliyatining asosiy maqsadi *DAROMAD* olishdir. Inspektorlar daromad va xarajatlarni tekshirish jarayoniga oqilona yondoshishi lozim. Bunda

moliyaviy hisobotlarni shu jumladan, balans hisoboti, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'lari oqimi hisobotlarini tekshirilishi talab qilinadi.

Bank tomonidan *LIKVIDLIKNI BOSHQARISH* orqali uni etarli darajada saqlab turish foyda olishga qaratilgan harakat bilan muvozanatlashgan holda amalga oshirilishi darkor, ya'ni ko'proq foyda olish maqsadida aktivlarning samarasiz joylashtirilishi likvidlik holatini yomonlashuviga olib keladi.

Joylarda nazorat o'tkazishning afzalliklari

- Joylarda nazorat o'tkazishning afzalliklari shundan iboratki, inspeksiya xodimi nafaqat kamchilikni topadi, balki uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib beradi va ayrim xollarda bu jarayonda o'zi ham ishtirok etadi. Nazorat obyekti faoliyati qoniqarsiz deb topilganda MB o'z otalig'iga olgan holda kuzatuvchisin bank faoliyatini joyida doimiy nazorat qilib borilishini ma'qul topadi.

Shuni xulosa qilish mumkinki,

- Inspeksion-joyida nazorat qilish bank faoliyatini oydinlashtiradi;
- Bank hisobotlari to'g'riligi tasdiqlaydi;
- Obyektni xalqaro auditning kiritilishiga tayyorlaydi.


8.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank nazoratini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» 1995 yil 21 dekabrda qonuniga muvofiq u bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanihini ta'minlash maqsadida bank nazoratini va banklar faoliyatini tartibga solishni amalga oshiradi. 1995 yil 25 aprelda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning 44-moddasida "Markaziy bank qonun xujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi" deb belgilab qo'yilgan.

Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan bank operatsiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi.

1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan⁴⁴ O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risidagi Qonunining VIII bobi "Banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini, shuningdek qimmatbaho qog'ozlar baltaklarini ishlab chiqarishni tartibga solish hamda nazorat qilish" deb nomlanib, 50- moddasida Markaziy bankning tartibga solish hamda nazorat qilish borasidagi vazifalari keltirilgan.

Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, mikrokredit tashkilotlari va garovxonalar faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi.



50-rasm. Markaziy bankning nazorat qilish obyektlari

Markaziy bank banklarni ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, banklar faoliyatini va qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi.

⁴⁴ O'zR 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan.

Banklarni ro'yxatga olish, shuningdek banklarga hamda qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga litsenziyalar berish haq evaziga amalga oshiriladi.

Markaziy bankning nazorat vazifalarini bajarishga doir vakolatlari quyidagilardan iborat⁴⁵:

- banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarning hisoboti va boshqa hujjatlarini olish va tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot so'rash hamda olish;

- olingan axborot yuzasidan izoh talab qilish;

- banklar va kredit uyushmalarining, ularning filiallari va ular bilan uzviy bog'langan shaxslarning, shuningdek garovxonalarning faoliyatini tekshirish, qoidabuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo'llash;

- banklarning ichki auditiga doir talablarni belgilash;

- bank aktivlari sifatini tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar o'rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar yaratishga doir talablarni belgilash;


- ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va taomilini aniqlash;

- banklar, kredit uyushmalari va garovxonalarga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborish;

- bank aksiyadorlari ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiqroq qismini sotib olgan taqdirda ularning moliyaviy ahvoli hamda obro'-e'tibori haqida axborot so'rash va olish;

- banklarning va ular filiallarining rahbarlari, boshqaruv a'zolari hamda bosh buxgalterlariga, kredit uyushmalari ijro organlarining rahbarlariga nisbatan malaka talablarini qo'yish.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunining VIII bobi 51-moddasi.



51-rasm. Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qoidalar

Tekshirishlar Markaziy bankning vakolatli vakillari va Markaziy bank belgilaydigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bank aksiyalarini sotib olish uchun oldindan Markaziy bankning roziligini olish talab qilinadi. Markaziy bank aksiya sotib oluvchilarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi aniqlangan taqdirda bank aksiyalari xarid qilinishi va sotilishiga rozilik bermaslik huquqiga ega. Markaziy bank o'z qarori to'grisida ariza beruvchiga iltimosnoma olingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay yozma ravishda xabar beradi.

Markaziy bank auditorlardan Markaziy bankning normativ hujjatlariga, shu jumladan tartib va uslubiyotlariga rioya etishlarini talab qilishga, shuningdek ulardan bank auditori bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni bevosita olishga haqli.

Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni belgilaydi va bu normativlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon

qiladi.


Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

Bank filiallari to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazmagan va ularning vakillik hisobvaraqlari qoniqarsiz ahvolda bo'lgan hollarda Markaziy bank bank filiali ushbu harakat natijasida olgan daromadini qat'iy tartibda undirib oladi, shuningdek shunday miqdorda jarima soladi.

Agar yo'l qo'yilgan tartib buzilishlar yoki bank o'tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug'dirgan bo'lsa, Markaziy bank quyidagilarga haqli:

- banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan summada jarima undirishga;
- bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, shu jumladan aktivlar tuzilmasini o'zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aksiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini ko'rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini shu jumladan bank kengashi rahbarlari va a'zolarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilishga;
- bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirishga;
- bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo'lgan muddatga, shuningdek filiallar ochishni ham shuncha muddatga taqiqlab qo'yishga;
- bankni moliyaviy sog'lomlashtirish yoki Markaziy bank ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davrda mansabdor shaxslar va aksiyadorlar ega bo'lgan barcha vakolatlarni vasiyga berib, bankka vasiylik qilish tartibini belgilash to'g'risida qaror qabul qilishga;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani

qaytarib olish.




52-rasm. Markaziy bank belgilaydigan banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlar

8.4. Tijorat banklarini litsenziyalash va davlat ro'yhatidan o'tkazish orqali nazorat qilish

Bank nazoratining asosiy maqsadi va vazifalari tijorat banklarini nazorat qilish tarkibini yaratadi. Unga muvofiq, mamlakatimizda tijorat banklari

faoliyatini nazorat qilish Markaziy bankda tashkil qilingan uch departament tomonidan olib boriladi.



53-rasm. O'zbekiston Respublikasida bank nazoratini tashkil etish tizimi

Tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti masofadan turib nazoratni amalga oshirsa, tijorat banklarini nazorat qilish departamenti banklar faoliyatini joyida tekshirish bilan

shug'ullanadi. Tijorat banklari ustav fondini tashkil etishni nazorat etish departamenti esa banklarning ustav fondini tashkil etishda bank kapitali adekvatligini nazorat qiladi.

Bank faoliyatini litsenziyalash nazoratning dastlabki bosqichi bo'lib, u bank tizimining barqarorligini saqlash, bozorga yangi, moliyaviy barqaror banklar kirib kelishini nazorat qilish vositalaridan biri hisoblanadi.

Banklar, shu jumladan chet el banklari, O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Litsenziyada bank bajaradigan operatsiyalar ro'yxati ko'rsatiladi. Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati gayrikonuniy deb xisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib ko'yilishi lozim⁴⁶.

Markaziy bankning 1998 yil 2 noyabrdagi "Banklarni ro'yhatga olish va ularga litsenziyalar berish tartibi to'g'risida"gi Nizomiga muvofiq yangitdan tashkil etilayotgan banklar faoliyatini litsenziyalash 2 bosqichni o'z ichiga oladi: bank ochish uchun ruxsatnoma berish va asosiy litsenziya berish, ya'ni bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

Birinchi bosqichda bank faoliyati uchun dastlabki ruxsatnoma berilib, bank muassislariga bankni yaxshi tashkil etish uchun ma'lum muddat beriladi va shu davrda Markaziy bank tomonidan to'liq kuzatish ishlari amalga oshiriladi. Dastlabki ruxsatnomani berilishi asosiy litsenziyani kafolatlamaydi va uning amal qilish muddati olgan kundan boshlab 6 oy muddatgacha yuridik kuchga ega.


Dastlabki ruxsatnoma olingandan so'ng muassislar asosiy litsenziyani olish va bankni ro'yhatdan o'tkazish uchun kerakli tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshiradilar.

Litsenziyalash – bank operatsiyalarini amalga oshirishni chegaralsh maqsadida faqat vakolatli banklar tomonidan yuridik shaxslarga ularni amalga

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonuni, 1996 yil, 5 -modda

o'shish uchun ruxsat berishdir. Banklar Markaziy bankda davlat ro'yhatidan o'tkazilgandan so'ng yuridik shaxs maqomini oladi.

Markaziy bank tomonidan 1 oy muddat ichida qaror qabul qilinadi. Litsenziya berisht bo'yicha masalani ko'rishda nazorat organlari tomonidan yangi bank filiallarini tashkil etish sharoiti, raqobat tufayli ularning moliya-kredit sektoriga ta'sir etishi kabi masalalarga ham alohida e'tibor beriladi.



54-rasm. Litsenziya olish uchun banklar qo'yilgan talablar

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro'yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

- bankni ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan xujjatlar topshirilmaganligi;
- ta'sis xujjatlarining qonun xujjatlariga nomuvofiqligi;
- bir yoki bir necha muassisning moliyaviy axvoli qoniqarsizligi;
- muassislarning moliyaviy mablag'larining manbalari e'lon qilinmaganligi;
- bankni ro'yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to'lanmaganligi;

- bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

- bank to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolganida, passivlar aktivlardan ko'payib ketganida;

- litsenziya berishga asos bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi aniqlanganda;

- bank o'z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmaganida;

- hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda buzib ko'rsatilganda;

- qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;

- litsenziya berilgan paytdan e'tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;

- O'zbekiston Respublikasida o'z sho'ba bankini tashkil etgan chet el bankidan litsenziya chaqirib olinganda;

- bankning bankrot deb e'lon qilinishida.

Nazorat uchun savollar:

1. Bank nazoratining mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Bank nazoratini vujudga kelish sabablarini ayting.

3. Bank nazoratining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Bank faoliyatini rivojlanishida bank nazorati qanday aamiyatga ega?
5. Bank nazoratini amalga oshirish usullarini ayting.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi vazifalari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank nazoratini amalga oshirishda qanday funksiyalarni bajaradi?
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bank nazoratini amalga oshirishda qanday huquqlarga ega?
9. Bank nazorati qanday usullarda amalga oshiriladi?
10. Bank nazorati usullarining afzallik va kamchiliklarini ayting.

IX bob. SUG'URTA NAZORATI

9.1. Sug'urta faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach moliya tizimining ajralmas bo'g'ini sifatida milliy sug'urta bozorini rivojlantirishga ahamiyat qarata boshladi. Dastlab 1993 yilning 6 mayida "Sug'urta to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda sug'urta faoliyatini tartibga solish maqsadida huquqiy bazani mustahkamlashga erishilmoqda.


O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonunining 3-moddasida ko'rsatilishicha "Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi".

Sug'urta faoliyati deganda esa sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat tushuniladi.

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

■ hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini qamrab oladi);

■ umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).



55-rasm. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirishning huquqiy asoslari

Sug'urta bozori bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va yuridik shaxslarni mulkiy mafaatlari sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir.

Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir.

Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy aspektlari bo'yicha bo'linishi mumkin.

Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksioner, birgalikdagi, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi.

Xududiy jihatdan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari *sug'urta faoliyatining subyektlari* hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti *sug'urta vositachilari* hisoblanadilar.

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs *sug'urta brokeri hisoblanadi*.

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs *sug'urta agenti* hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs *sug'urtalovchi* deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunda sug'urtalovchiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq

sug'urta tovonni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi".⁴⁷

Ushbu qonunda keltirilishiga ko'ra, sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomalari tuzish;
- o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug'urta qilish;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- sug'urta (qayta sug'urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog'liq faoliyatni, shuningdek sug'urta agenti sifatida sug'urta vositachiligini amalga oshirish;
- sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;
- sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;
- sug'urta tovonni miqdorini belgilash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so'rash va olish;
- sug'urta agentlari, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari, sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;
- sug'urta tovonni to'lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" gi Qonun. 6-modda.

- sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishni, sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

- chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;
- ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijaraga berish;

- O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;

- o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.


9.2.Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning maqsad va vazifalari

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xo'jalik subyektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda yetkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

Masalan, Buyuk Britaniyada sug'urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bo'limi, AQShda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug'urta va qayta sug'urtalash

kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining obyektlari hisoblanadi.



56-rasm. Davlat sug'urta nazoratining maqsadi


Davlat sug'urta nazoratining asosiy vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- Sug'urtachilarni moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- Sug'urta bozorida tenglik va raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- Sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarni xaq-huquqlarini himoya qilish;
- Sug'urta bozorini rivojlanishida ko'maklashish.

Sug'urta nazorati orqali quyidagi funksiyalar amalga ohriladi:

- O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini yuritishda to'lay olish qobiliyati ko'rsatkichlar va boshqa moliyaviy barqarorliklarni mavjudligi, faoliyat davomida qonun hujjatlariga rioya qilishni tekshirish;

- Sug'urta faoliyati va sug'urta brokerlarini litsenziyalash;
- O'zining komponenti doirasida, sug'urta ishchilarini ish bilan ta'minlash;
- Respublika sug'urta faoliyati rivojlanishi tendensiyasini tahlil qilish;
- Matbuot orqali sug'urta faoliyati haqida tushuntirish ma'lumotlari olib borish;
- O'zbekiston vakolatlari doirasida fuqarolarning murojaatlari va taliflarini ko'rib chiqish.



57-rasm. Sug'urta nazoratining qamrab olish doirasi

Sug'urta tashkiloti faoliyati ustidan amalga oshiriladigan davlat nazoratining samaradorligi quyidagilarga bog'liq:

- aniq va to'g'ri moliyaviy, buxgalterlik va boshqa ma'lumotlardan foydalanish;
- nazoratni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish;

- davlat tomonidan qo'llaniladigan sanksiyalarni o'z vaqtida va tez bajarilishi.

Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

9.3. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan sug'urta faoliyatini nazorat qilish tartibi

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmaslik kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

Sohalar	Klasslar	
Hayot sug'urtasi	I klass	Hayot va annuitetlar sug'urtasi;
	II klass	Nikoh va tug'ilish sug'urtasi
	III klass	Hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish;
	IV klass	Sog'liqni sug'urta qilish
Umumiy sug'urta	1 klass	Baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish;
	2 klacc	Kasallikdan sug'urta qilish;
	3 klass	Er usti transport vositalarini sug'urta qilish;
	4 klass–	Harakatlanadigan temir yql tarkibini sug'urta qilish;
	5-klass	Aviasiya sug'urtasi;
	6-klass	Dengiz sug'urtasi;
	7-klass	Yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish;
	8-klass	Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish;
	9-klass	Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish;
	10-klass	Avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish
	11-klass	Aviasiya sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish;
	12-klass	Dengiz sug'urtasi doirasidagi javobgarlikni sug'urta qilish;
	13-klass	Umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish;
	14-klass	Kreditlarni sug'urta qilish;
	15-klass	Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish;
	16-klass	Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish;
	17-klass	Huquqiy himoya bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish.

57-rasm. Sug'urta faoliyatining klassifikatori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga muvofiq sug'urta faoliyatining klassifikatori berilgan bo'lib, unga muvofiq hayotni sug'urta qilish sohasi 4 ta klassga va umumiy sug'urta sohasi 17 ta klassga ajratilgan.


Sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq majburiy sug'urta amalga oshiriladi. Majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga davlat sug'urta tashkilotlari ega bo'lib kelganlar, biroq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq ustav kapitali hajmini 500 ming AQSh dollariga teng miqdorga etkazgan har qanday sug'urta kompaniyasi litsenziya asosida majburiy sug'urta bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Sug'urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to'xtatib turilishi uning yangi sug'urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug'urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo'ladi. Bunda sug'urtalovchi ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e'tiboran 5 kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi.



58-rasm. Sug'urta tashkilotlari litsenziya olishlari qo'yilagn talab va shartlar

Muvaqqat ma'muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo'lgan davrda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug'urtalovchini tugatish to'g'risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo'llangan sudga taqdim etiladi.

Sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyati o'z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug'urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma'muriy xarajatlari), sug'urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga

yozish va ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalari yuz berganda sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash bilan bog'liq hollar bundan mustasnodir.

Sug'urtalovchi muvaqqat ma'muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Sug'urtalovchilarni qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug'urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- muassislarning (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;
- tuzilayotgan sug'urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;
- qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasi (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishni o'tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

- sug'urtalovchini qayta tashkil etish natijasida yangitdan tashkil qilinadigan sug'urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo'lsa;

- sug'urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;
- sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so'rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar bo'lsa yoxud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo'lsa;
- sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo'lsa.

Qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchi (sug'urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilarga litsenziyalarni berish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan davri uchun hamda yangitdan tuzilgan sug'urtalovchilar litsenziya olgunga qadar bo'lgan davrda ular yangi sug'urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug'urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emaslar, ilgari tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha o'z zimmlariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o'zlariga o'tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasnodir.

Qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o'ziga boshqa sug'urtalovchi qo'shilayotgan sug'urtalovchi, agar qo'shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o'zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

Sug'urtalovchi o'zining muassislari (ishtirokchilari) yoki sug'urtalovchining ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Muassislar (ishtirokchilar) yoxud sug'urtalovchining ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi tomonidan tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan keyin sug'urtalovchi maxsus vakolatli davlat organiga tugatishga ruxsatnoma olish uchun ariza bilan yozma ravishda murojaat etgan holda quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror;

- majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- sug'urtalovchini tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanagacha bo'lgan, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan balans hisoboti;
- sug'urtalovchini tugatish muddatlari va shartlari ko'rsatilgan holdagi tugatish rejasi.

Sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma olish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar olingan kundan e'tiboran 10 kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urtalovchini tugatish uchun ruxsatnoma berish bilan bir vaqtda sug'urtalovchining taqdim etilgan tugatish rejasiga o'zgartishlar kiritishga haqli.

Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug'urtalovchining asosiy vazifalarini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to'langanidan so'ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

birinchi navbatda - hayotni sug'urta qilish sohasida majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilarning talablari;

ikkinchi navbatda - sug'urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha talablari;


uchinchi navbatda - boshqa sug'urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;

to'rtinchi navbatda - byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni nazarda tutuvchi to'lov (ijro) hujjatlari bo'yicha talablar. Ko'rsatilgan talablar to'liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug'urta bo'yicha talablar hamda jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga etkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablari qanoatlantiriladi;

beshinchi navbatda - sug'urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. Ya'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.



59-rasm. Sug'urtalovchini tugatishga ruxsatnoma berishni rad etish holatlari

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 20 noyabrdagi 107-sonli «Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'i xamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-sonli «Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi buyrug'i bilan sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta rezervlarini tashkil qilish va investitsiyalashning tartiblari belgilangandir.

Sug'urtalovchi sug'urta zaxiralari mablag'lari qiymatiga ekvivalent bo'lgan summadagi aktivlarni ajratishi shart. Ajratilgan aktivlar, ularni ajratish vaqtida sug'urtalovchining hisob va hisobot registrlarida aniq belgilangan bo'lishi shart.

Ajratilgan aktivlarning umumiy qiymati sug'urta zaxiralari mablag'larining jami miqdoridan kam bo'lmasligi lozim. Ajratilgan aktivlar qiymati sifatida ularning balans qiymati tushuniladi.

Ajratilgan aktivlar diversifikasiya, qaytarilish, foydalilik va likvidlik talablariga javob berishi lozim.

Ajratilgan aktivlar mablag'lari sug'urtalovchi tomonidan faqat tegishli sug'urta zaxiralarning shakllantirish maqsadiga muvofiq holda ishlatilishi mumkin. Ajratilgan aktivlar garov predmeti yoki kreditorga kafilning majburiyatlari bo'yicha pul mablag'larini to'lash manbai sifatida xizmat qila olmaydi.

Sug'urta zaxiralari xorijiy valyutada belgilangan holatlarda, aktivlar sug'urta zaxiralari belgilangan valyutaga ekvivalent valyutada yoki erkin konvertasiya qilinadigan valyutada ajratiladi.

Ajratilgan aktivlar quyidagi aktivlardan iborat bo'lishi mumkin emas:

- sug'urtalovchining ta'sischilari, aksiyadorlari va xodimlariga berilgan qarzlar, shuningdek ular bo'yicha jamg'arilgan foizlar;
- debitor — bog'liq shaxslarning qarzlar;
- sug'urta (qayta sug'urta qilish) shartnomasida belgilangan to'lov sanasidan uch oydan ko'p muddat mobaynida sug'urta qildiruvchilar (qayta sug'urta qildiruvchilar) tomonidan to'lanmagan sug'urta mukofotlari;
- soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha debitorlik qarzlar;
- kafolat bo'yicha summalar;
- majburiyat predmeti bo'lgan aktivlar (qabul qilingan majburiyatlar doirasida).

Sug'urta zaxiralarini joylashtirish tartibiga quyidagi talablar qo'yilgan.

Ajratilgan aktivlarning 70% dan kam bo'lmagan qismi quyidagilardan (yoki ularning ba'zilaridan) tarkib topishi lozim:

- O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari;
- bank omonatlari (depozitlar);
- kassadagi yoki hisob (valyuta) raqamlardagi va o'zga bank raqamlardagi pul mablag'lari, shuningdek ularga tenglashtirilgan mablag'lar;
- xorijiy davlatlarning davlat qimmatli qog'ozlari (Davsug'urtanazorat bilan kelishgan holda);
- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarish va muomalaga kiritishga ruxsat berilgan, yoki tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan qimmatli qog'ozlar bozorida savdoni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga (ruxsatnomaga) ega bo'lgan xorijiy emitentlar tomonidan chiqarilgan, hamda qimmatli qog'ozlar bozorida muomalaga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari Nizomga asosan ajratilgan aktivlarning hisobot sanasiga mavjudligini va qiymatini tekshirib ko'rishi, shuningdek aktivlar ajratilgan sug'urta zaxiralari summasi bilan ularni taqqoslab ko'rishi shart va bunday huquqqa har qanday boshqa vaqtda ham ega.

Ajratilgan aktivlar qiymati sug'urta zaxiralari summasidan kam bo'lgan holatda, sug'urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymatini sug'urta zaxiralari summasidan kam bo'lmagan qiymatga oshirish va sug'urta zaxiralari hajmining 105 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ko'paytirish uchun etarli miqdordagi qo'shimcha aktivlarni ajratishi shart.

Ajratilgan aktivlar summasi sug'urta zaxiralari summasining 105 foizidan ortiq bo'lgan holatda, sug'urtalovchi ajratilgan aktivlar qiymati sug'urta zaxiralari miqdoridan kam bo'lmagan va sug'urta zaxiralari miqdorining 105% idan ko'p bo'lmagan summagacha qisqargunga qadar, ajratilgan aktivlarning ortiqcha bo'lgan qismini ajratilmagan aktivlarga o'tkazishi shart.

Sug'urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son qarori bilan tasdiqlangan «Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida»gi Nizomning 10-bandi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi PQ-872-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorining 1-bandiga muvofiq sug'urtalovchi ustav fondining kamida to'qson foizi muassislarning (ishtirokchilarning) pul mablag'laridan shakllantiriladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislardan tomonidan shakllantirilgan bo'lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Sug'urta faoliyati turlari	2012 yil 1 iyuldan	2014 yil 1 iyuldan
Umumiy sug'urta sohasi	1 125,0	1 500,0
Hayotni hayotni sug'urtalash sohasi	1 500,0	2 000,0
Majburiy sug'urtalash sohasi	2 250,0	3 000,0
Faqat qayta sug'urtalash sohasi	5 000,0	6 000,0

60-rasm. Sug'urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo'yilgan talablar⁴⁸ (ming yevro ekvivalentida)

2008 yil 21 may PQ-872 son O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi PQ 1544-sonli qaroriga ilova


qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori e'lon qilindi. Ushbu qarorda sug'urta faoliyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investision jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining quyidagi sohalarda faoliyatni amalga oshiradigan sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini belgilash to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

9.4. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining vazifalari, funksiyalar, huquqlari

Sug'urta nazorati olib boruvchi tashkilot Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi hisoblanadi.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi Moliya vazirligi huzurida bo'lib, sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi. O'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 8 iyuldagi 286-son qarorining 2-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi to'g'risida"gi Nizomga amal qiladi.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi sug'urta faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish bo'limi hamda sug'urta faoliyati uslubiyoti bo'limlaridan iborat bo'lib, umumiy shtati 15 kishini tashkil etadi.



61-rasm. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi apparati tuzilmasi

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari:

- ijro etilishi majburiy bo'lgan to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jamining yo'l qo'yiladigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

- sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

- sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari mablag'larini shakllantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek bunday mablag'lar hisobini yuritish hamda ular bo'yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

- sug'urtalovchining ijro etuvchi organi rahbarlariga va bosh buxgalteriga qo'yiladigan ijro etilishi majburiy bo'lgan malaka talablarini belgilaydi;

- sug'urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va e'lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek uni taqdim etish hamda e'lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

- qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritadi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to'liq yoki ayrim sug'urta turlariga (klasslariga) nisbatan to'xtatib qo'yadi, shuningdek ularning faoliyatini tugatish to'g'risida sudga murojaat qiladi;

- har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug'urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to'g'risida yillik hisobotlarni , shuningdek sug'urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to'g'risida statistika ma'lumotlarini e'lon qiladi;

- sug'urtalovchilarning investitsiya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek sug'urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini sug'urtalovchilar tomonidan moliyalashtirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi;

- aktuar xizmatlari ko'rsatish tartibini belgilaydi;

- aktuariy malaka sertifikatini olish uchun o'quv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihoni o'tkazadi;

- belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikati beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega bo'lgan aktuariylar reestrini yuritadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.



62-rasm. Sug'urta nazorati Davlat inspeksiyasining asosiy funksiyalari

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining huquqlari:

- sug'urtalovchilardan sug'urta faoliyati to'g'risida belgilangan hisobot va ularning moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni, shuningdek, korxonalar,

muassasalar, tashkilotlar, banklardan (kichik korxonalar, mikrofirmalar bundan mustasno), fuqarolardan o'ziga yuklangan funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida sug'urtalovchilar faoliyatini tekshirish;
- davlat ijro etuvchi organlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot va statistika hisobotini tekin olish va h.

Nazorat uchun savollar:

1. Sug'urta nazoratini amalga oshirishda davlat sug'urta nazorati qanday ahamiyatga ega?
2. Sug'urta munosabatlarining turlari bir-biridan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi?
3. Sug'urta munosabatlarini tekshirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Sug'urta nazoratining zarurligi nimada?
5. Sug'urta nazoratining obyektlarini ko'rsating.
6. Sug'urta nazoratining subyektlarini ko'rsating.
7. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan sug'urta faoliyatini nazorat qilish tartibi tushuntiring.
8. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining vazifalari, funksiyalar, huquqlari nimalardan iborat?

X bob. BYUDJET NAZORATINI TASHKIL ETISH

10.1. Moliya organlarida nazorat- iqtisodiy ishlarni tashkil etish

Davlat byudjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyot rivojlanishini turli bosqichlarida byudjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini asosiy manbai hisoblanadi. Davlat byudjeti, davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari vazifalarini ham hal etishda katta ahamiyatga egadir.

Byudjet uch tarkibiy qismdan — xarajat, daromad qismlari va ular balansidan iborat ,ya'ni daromadlarning xarajatlarga muvofiqligi qoidasiga amal qilishi lozim. Byudjetni shakllantirish avvalo uning xarajat qismini tuzish yo'li bilan yuz beradi, chunki davlat o'zida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqibgina xarajatlarni qilishi mumkin emas. Davlat avvalo jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur mablag'lar hajmini belgilashi va shundan keyingina o'z qo'lida bo'lgan byudjet daromad qismini to'ldirishning asosiy vositasi - soliqlar va boshqa manbalar yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jalb etishi kerak.

Davlat byudjeti pul resurslarining markazlashtirilgan jamg'armasi (fondi) bo'lib mamlakat hukumati davlat apparati, qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek, iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun uni tasarruf etadi.

Hozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatish shuningdek, krizisga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Hozirgi davlat byudjeti uning butun xilma-xil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, ko'p ko'rinishli xujjat hisoblanadi. Avvalo byudjetda davlat xarajatlari va daromadlari tartibi o'z aksini topadi. Xarajatlarni byudjet qurollarining sarflanish yo'nalishlari va maqsadlarini ko'rsatadi.

Xarajat moddalarining ahamiyati juda muhim, chunki ularning qanchalik maqsadga muvofiqligiga mazkur davlat soliq to'lovchilari zimmasiga yuklatiladigan soliq yukiga bog'liq bo'ladi. Bundan shu narsa ravshanki, mazkur aniq davrda amal qiladigan soliqlar tizimi (soliq miqdori, ularni stavkalari, soliq solinadigan baza) davlat byudjetida xarajatlarning qanday moddalari ko'zda tutilganiga va ularni qoplash uchun qancha miqdorda mablag'lar zarurligiga to'la ravishda bog'liqdir.

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish sektorlari faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlar davlat xarajatlarining eng muhim moddalari qatoriga kiradi.

Byudjet tizimi va byudjet jarayonida yuzaga keladigan barcha bosqichlarda byudjet tizimining asosiy tamoyillariga, byudjet tizimi to'g'risidagi me'yoriy xujjatlarga, yo'riqnoma va tartiblarga amal qilinishi *byudjet intizomi* tushunchasini belgilaydi⁴⁹.

Quyidagilar budjet intizomini buzishdir:

Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;

mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;

budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek, pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini

⁴⁹ Turabov B. "Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalari". Nomzodlik dissertasiyasi, -2007 y

banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktish⁵⁰.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida byudjet nazoratining ahamiyati o'sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

Byudjet nazoratini amalga oshirishdan maqsad byudjet mablag'larini hosil qilish va ishlatishda maqsadlilik, samaradorlik, tartiblilik, qonuniylikning ta'minlanishiga erishish zarurligidan iboratdir.

Nazorat iqtisodiy ishlarni tashkil qilishda etakchi rolni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bajaradi.

Har yili mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi va o'tgan yillar bilan solishtiriladi

Hududiy moliya organlarini nazorat qilish ularda kompleks taftish va tekshirishlar o'tkazish Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasining yillik ish rejasiga asosan amalga oshiriladi.

Mahalliy byudjetlar ijrosini taftish va tekshirishlardan o'tkazish Moliya vazirining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi va vazirlikning barcha soha mutaxassislari jalb qilinadi.

Bundan tashqari, moliya organlarida Hukumat topshiriqlari va Moliya vazirligi rahbariyati topshiriqlariga asosan ma'lum bir yo'nalish, soha bo'yicha mavzuli tekshirishlar ham o'tkazilishi mumkin.

Yana shuni e'tirof etish lozimki, o'tgan yilni muvaffaqiyatli yakunlash va joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlari ijrosi jarayonida byudjet intizomiga qat'iy rioya etilishini hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining kelgusi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida har yili Moliya vazirligining 1-2 sonli

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, 2013 yil 26 dekabr

buyruqlari chiqariladi va shu buyruqga asosan moliya organlari ustidan nazorat ishlari amalga oshirilib boradi.

Davlat byudjeti parametrlari ijrosi jarayonida byudjet intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilanadi:

1. O'tgan yil uchun Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni o'z vaqtida va sifatli shakllantirilishini ta'minlash maqsadida, Davlat byudjeti bosh boshqarmasi va Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi, Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari, hududiy moliya idoralari belgilangan muddatda byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solinishini ta'minlashlari;

2. Byudjet tashkilotlarining joriy yil uchun xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro'yxatga olish tugallangunga qadar, quyidagilar ma'lumot va ijro uchun qabul qilishlari:

a) xarajatlarni moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish) O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga (ro'yxatga olish raqami №2157, 2010 yil 19 noyabr) muvofiq amalga oshiriladi;

b) respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

- respublika byudjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar bo'yicha – joriy yil I chorak uchun dastlabki (vaqtinchalik) xarajatlar yoyilmalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) lar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar bo'yicha – joriy yil I chorak uchun vaqtinchalik xarajatlar smetalari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Moliya vazirligining hududlarni moliyalashtirish boshqarmalari boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari, shuningdek, tuman (shahar) moliya bo'limi mudirlari:

- xarajatlar yoyilmasini tuzish hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro'yxatdan o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga, shuningdek, amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini;
- birinchi navbatda I va II guruh xarajatlariga, IV guruh xarajatlari bo'yicha esa tegishli byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlar parametrlari doirasida kommunal xizmatlar, ko'mir sotib olish va yetkazish, yoqilg'i va YoMM, dori-darmon va oziq-ovqat mahsulotlariga zarur mablag'lar rejalashtirilishini;
- o'tgan yilda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni, byudjet mablag'lari oluvchilar sonining o'zgarishini har tomonlama tahlili asosida, shuningdek, xarajatlarning mavsumiyligini hisobga olgan holda byudjet mablag'lari oluvchilariga byudjet mablag'larini taqsimlanishini.
- byudjet daromadlari va xarajatlari yoyilmasini belgilangan muddatda va tartibda tayyorlanishini;
- byudjet tashkilotlarining joriy yilgi shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangandan boshlab 40 kundan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalarida qayd etilgan ma'lumotlarni "G'aznachilik-4" dasturiy majmuasiga o'z vaqtida kiritish choralari ko'rilishini;

- joriy yil uchun byudjet xarajatlari yoyilmasiga indeksasiya mablag'larini belgilangan ilovadagi koeffisientlarga muvofiq kiritish hamda ularni belgilangan tartibda faqatgina O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan ishlatilishini ta'minlashlari lozim.

4. Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy yilgi xarajatlar smetalarini "G'aznachilik-4" dasturiy majmuasiga kiritish hamda respublika byudjeti xarajatlari yoyilmasini Davlat byudjeti bosh boshqarmasiga taqdim etish muddatlari belgilangan ilovadagi jadvalga muvofiq belgilanishi lozim.

"G'aznachilik-4" dasturiy majmuasiga byudjet mablag'lari oluvchilarining xarajatlar smetasi muddatidan kechikib (noto'g'ri) kiritilishi sababli byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlari to'lovini kechiqishi holatlari bo'yicha Moliya vazirligining hududlarni moliyalashtirish boshqarmalari boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, shuningdek, tuman (shahar) moliya bo'limlari rahbarlari shaxsan javobgardirlar.

5. Davlat byudjetining muvozanatliligini va joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlarida ko'zda tutilgan mablag'lar hisobiga maqsadli tadbirlarni moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadida, Davlat byudjeti bosh boshqarmasi respublika byudjeti xarajatlar yoyilmasining indeksasiyasida belgilangan ilovaga muvofiq mablag'larni ko'zda tutishi lozim.

Bunda, ko'rsatilgan mablag'lardan foydalanish qat'iyan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6. Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi o'n kunlik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi vazirligi bilan kelishilgan kelgusi yilga maktabgacha bolalar ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik liseylar va kasb-hunar kollejlariida bir o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) bazaviy

me'yorlarini aniqlash va tartibga soluvchi koeffisientlarni qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomni vazirlik rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritishi lozim.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tegishli byudjetlardan moliyalashtiriluvchi byudjet tashkilotlarining joriy yil uchun xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish jadvalini tasdiqlab, besh kun muddat ichida Hududlar moliyasi bosh boshqarmasiga taqdim etishi lozim.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari mahalliy byudjetlariga hududlar bo'yicha hisoblangan barcha soliq va majburiy to'lovlar tushumi prognozi hisobga olinib, hajmi aniqlashtirilgan holda quyidagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet subvensiyalari ajratiladi:

- xalq ta'limi muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to'lovlari;
- ijtimoiy nafaqalar (bola 2 yoshga to'lguncha uni parvarishlash uchun onalarga beriladigan oylik nafaqalar, 14 yoshgacha bolali oilalarga oylik nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam).

Bunda Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent, Farg'ona viloyatlari va Toshkent shahri bo'yicha zarur hollarda tuman (shahar) lar mahalliy byudjetlariga yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun subvensiyalar ko'zda tutilishi mumkin.

9. Moliya vazirligi G'aznachiligi:

a) Moliya vazirligi Axborot hisoblash markazi bilan birgalikda Davlat byudjeti g'azna ijrosining Yagona g'aznachilik hisob-raqamidan foydalanishga o'tishini ta'minlash uchun kerakli tadbirlarni amalga oshirishi lozim;

b) Moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari barcha hodimlarining o'z xizmat vazifalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, boshqa qonunchilik hujjatlari, Moliya vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari talablarini qat'iy va so'zsiz bajarishga qaratilgan javobgarligini kuchaytirish choralarini ko'rishi lozim;

v) quyidagilarni:

- g'aznachilik operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ichki nazoratni hamda tavakkalchilik, tartib buzilish va kamchiliklarni minimallashtirish, tezkor aniqlash va bartaraf etish bo'yicha mavjud mexanizmni mustahkamlashni;
- hodimlarining malakalarini doimiy oshirishni;
- G'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari hamda tuman va shahar G'aznachilik bo'linmalarining faoliyati ustidan qattiq nazorat o'rnatilishini ta'minlash lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari boshliqlari, tuman va shahar G'aznachilik bo'linmalari rahbarlari o'z hodimlari tomonidan Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat'iy va so'zsiz rioya qilinishi yuzasidan shaxsan javobgar ekanligi belgilanishi lozim.

10. Moliya vazirligining G'aznachiligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha G'aznachilik boshqarmalari, tuman va shahar G'aznachilik bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq joriy moliya yilida byudjet muassasalarining birinchi darajali

xarajatlari to'lovini amalga oshirishning quyidagi ketma-ketligini ta'minlash lozim:

- ish haqi, ish haqidan ajratmalar (YaIT), ijtimoiy nafaqalar, pensiya va stipendiyalar;
- oziq-ovqat, dori-darmon;
- kommunal xizmat xarajatlari, yoqilg'i va boshqa YoMMLari;
- kapital qo'yilmalar;
- boshqa xarajatlar.

G'aznachilik hisob raqamlaridagi mablag'lar qoldig'i miqdori:

- tegishli byudjet bo'yicha I va II guruh xarajatlarini to'lash uchun mablag'larga bo'lgan talabni to'liq qoplagan taqdirda, III gurux xarajatlarini, shuningdek, I va II guruh xarajatlarini to'liq amalga oshirib bo'lgan byudjetdan mablag' oluvchilarning IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi;
- oziq-ovqat xarajatlarini to'lanmagan qismidan oshgan taqdirda dori-darmon xarajatlarini (xuddi shunday boshqa turdagi xarajatlar bo'yicha ham) qoldiqdan oshgan qismi doirasida amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Bunda, byudjet tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya idoralari bilan kelishgan holda IV guruh xarajatlari uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan mavsumiy va favqulodda tadbirlarni (birinchi sinf o'quvchilari uchun o'quv qurollari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun qishki kiyim-bosh, epidemiologiyaga qarshi, dezinfeksion va boshqa tadbirlar) tezkor moliyalashtirishni amalga oshirishlari mumkin.

11. Davlat byudjeti bosh boshqarmasi va Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi mahalliy byudjetlarning birinchi darajali xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish maqsadida, respublika byudjetidan byudjet subvensiyasi va o'tkazib beriladigan daromadlarni belgilangan choraklik reja doirasida:

- ish haqi (har oyning 1-5 sanasida 60% miqdorida va 15-20 sanasida 40% miqdorida);
- yagona ijtimoiy to'lov (har oyning 1-5 sanasida);
- ijtimoiy nafaqalar to'lovi (har oyning 1-25 sanasida) xarajatlari uchun moliyalashtirilishini amalga oshirishlari lozim.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, tuman (shahar) moliya bo'limi rahbarlari Respublika kitob jamg'armasi hisobidan joriy o'quv yilida umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan o'z vaqtida to'liq ta'minlanishi, shuningdek, darsliklarni ijaraga berishdan tushadigan to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq tushishining doimiy nazoratini ta'minlashlari lozim.

13. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, byudjet ijrosi monitoringi va tahlili natijalari asosida, shuningdek, birinchi darajali xarajatlarni (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, yagona ijtimoiy to'lov, ijtimoiy nafaqalar) so'zsiz moliyalashtirish (to'lash) zaruriyatini hisobga olgan holda byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalarini (daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik kassa farqini qoplashga) mahalliy tuman (shahar) byudjetlariga ajratishlari lozim.

14. Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoqlarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmalari bilan birgalikda yil davomida mahalliy byudjetlar xarajatlarining to'g'ri taqsimlanishi, byudjet tashkilotlari xarajat smetalari va shtat jadvallarini to'g'ri tuzilishi hamda ro'yxatdan o'tkazilishi yuzasidan tekshirishlar tashkil etilishini ta'minlashlari lozim.

15. Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari:

- moliya, g'aznachilik idoralari va byudjet tashkilotlarida byudjet ijrosi bo'yicha qonunchilik talablari bajarilishini ta'minlanishi ustidan har tomonlama, kuchaytirilgan va ta'sirchan nazorat o'rnatishni ta'minlashi lozim;
- belgilangan muddatda moliya idoralarida byudjet tashkilotlari shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazilishi o'z muddatida va belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazishlari lozim. Bunda, xarajatlarni asossiz markazlashtirish, xarajatlar va shtatlarni ortiqcha rejalashtirish, lavozim razryadlarini yuqori qo'llash kabi holatlarga, shuningdek, xizmat avtomobillarini saqlash uchun hamda byudjet tashkilotlari tomonidan joriy yil yakuni bo'yicha iqtisod qilingan hamda rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilgan xarajat turlari bo'yicha mablag'lar rejalashtirilishi asoslilikiga alohida e'tibor qaratishlari lozim;
- har 10 kunda tekshirishlar jarayonida aniqlangan kamchiliklar haqida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga axborot taqdim etilishi lozim;
- birinchi darajali xarajatlarni, shu jumladan ish haqi va barcha turdagi ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida moliyalashtirilishi, shuningdek, ularni naqd pul bilan ta'minlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya, shuningdek, hududiy nazorat-taftish boshqarmalari boshliqlarini qayta tekshirish vaqtida smeta-shtat intizomiga amal qilmaslik yoki ushbu holatlarni yashirish, byudjet mablag'larini maqsadsiz va noo'rin xarajat qilish, kamomad va o'zlashtirishlarga yo'l qo'yish holatlar aniqlansa, ularga nisbatan

qonunchilikda ko'zda tutilgan choralar ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilishlari lozim.

10.2. Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish amaliyoti

Taftish moliyaviy nazoratni o'zining maqsadi va ob'yektlari nuqtai nazaridan ham, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan ham eng muhim nazorat usuli hisoblanadi. Taftish – korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining, shuningdek, moliya organlarining byudjetni tuzish va ijro etish bo'yicha ishlarining o'zaro bog'langan tekshiruvlari majmuidir

Qonunchilikda taftishning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yilgan. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining davlat nazorati to'g'risidagi qonuniga muvofiq taftish xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliya va soliq masalalari bo'yicha qonunchilikka rioya etishlari, soliq organlari, davlat statistika organlari va banklarga taqdim etiladigan hisob yuritish va hisobotlari to'g'riligini nazorat etish maqsadida ularning buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirishdan iboratdir.

Taftish yordamida davlat va xo'jalik organlari moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan to'liq foydalanganlik to'g'risida, taftish qilinayotgan korxona faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida ishonchli ma'lumot oladi, bu esa o'z navbatida operativ va to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga olib keladi. Taftishning ahamiyati xo'jalik faoliyatini yuritishning ijobiy tajribalarini umumlashtirish va targ'ib qilishda, qonunbuzarlik va suiste'molliklarning oldini olishda, byudjet- soliq intizomini tartibga solishda, moliyaviy huquqning anglash hissi paydo bo'lishiga ko'maklashishda ham namoyon bo'ladi

Moliya vazirligi huzurida Bosh nazorat-taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Bosh nazorat-taftish

boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari to'g'risida "gi Qarorga asosan faoliyat yuritadi.

Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalarining asosiy vazifasi byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilishdir.

Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etishdan maqsad:

- Byudjet tashkilotlari moliya-byudjet intizomi buzilishlarini oldini olish;
- birinchi darajali mablag'larni o'z vaqtida berilishini ta'minlash;
- aniqlangan kamchiliklarni yana yuz bermaslik uchun taklif va tavsiyalar berish;

- byudjet mablag'larini o'zlashtirish va suiste'mol qilinishini oldini olish.

Taftishning asosiy vazifalari tekshiruv ob'yektiga qarab farqlanadi.

Taftish obyektlari:

- davlat va hududiy hokimiyat va boshqaruv organlari, ularning tarkibiy bo'linmalari;

- ishlab chiqaruvchi tijorat va aksiyadorlik korxonalari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar;

- byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan yoki dotasiya, subvensiya, transfert, ssuda ko'rinishida davlatdan yordam oluvchi har qanday mulk shaklidagi korxona, tashkilot va muassasalar;

- nodavlat jamoat tashkilotlari va muassasalari;

- byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalar;

- davlat tomonidan manzilli moliyaviy yordam, soliqlar to'lash va davlat tomonidan boshqariladigan faoliyatni amalga oshirish borasidagi tadbirkorlik tuzilmalari va jismoniy shaxslarning faoliyati.

Taftishning asosiy vazifalari:

- moliyaviy intizomga rioya qilish;

- byudjet mablag'larini tejamli va maqsadli ishlatish;


-byudjetning daromadlar bazasi va soliqlar yig'ilishining o'sish imkoniyatlarini aniqlash;

-moddiy va moliyaviy resurslarning saqlanishi va samarali ishlatilishi;

-byudjet jarayonining va smetali moliyalashtirishning barcha bosqichlari o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini ta'minlash;

-buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

-xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish.



63-rasm. Moliya organlarining ish-faoliyatini taftish qilish vaqtida tekshiriladigan vazifalar

Byudjet muassasalari taftish qilinayotgan vaqtda smeta belgilash hisob-kitoblarining asoslanganligi, smetalarning ijrosi va mablag'larning maqsadli ishlatilishi, mablag'larning tejimli sarflanishi va saqlanishini ta'minlash, moliya-byudjet intizomiga rioya etilishi, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish to'g'riligi, byudjetdan tashqari maxsus mablag'larni hosil qilish va ularni to'g'ri xarajat qilish qonuniyligi masalalari va b. tekshiriladi. Taftish o'tkazish vaqtida xo'jalik boshqaruvining barcha darajalarida ko'p tomonlama faoliyatning tekshirilishi munosabati bilan taftish turlarini aniq tasniflash, tasnif belgilarini ilmiy asoslangan holda tanlash zarurati tug'iladi.

Taftishni tasniflashning quyidagi turlari va belgilari mavjud:

- taftish qilinayotgan organlarning idoraviy mansubligi;
- taftish qilinayotgan ob'yekt faoliyatini qamrab olish darajasi;
- taftishni o'tkazishning chuqurligi;
- ma'lumotlarni qamrab olish darajasi;
- materialning xususiyati;
- taftishni o'tkazish rejasiga munosabat;
- bir xil hujjatlarni tekshirish tartibi.

Mazmuni bo'yicha taftishlar hujjatli va faktik taftishlarga bo'linadi.

Hujjatli nazorat birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari va unga qo'shimcha hisob-kitoblar va boshqalar asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy usuli hujjatlarni formal va arifmetik tekshirish;

- hujjatlar va yozuvlarning qarama-qarshi tekshiruvi;
- amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini yuridik, iqtisodiy va moliyaviy baholash;
- yalpi va tanlab nazorat qilish;
- teskari hisoblash usuli;
- iqtisodiy tahlil usullari (taqqoslash, balansli bog'lash va boshqalar);
- texnik-iqtisodiy hisoblar.

Hujjatli taftishning yetakchi usuli – hujjatlarni formal va arifmetik tekshirishda blanklar va hisob registrlarining aniq to'ldirilishi, ularda zarur bo'lgan rekvizitlarning mavjudligi va summalar hisoblanadi, ya'ni hujjatlarning va ularda aks ettirilgan xo'jalik operatsiyalarining to'g'riligi aniqlanadi. Taftish davrida formal-arifmetik nazoratdan so'ng noaniqliklar va operatsiyalarning qonuniyligiga shubha tug'ilish hollari ham yuzaga kelishi mumkin. Shunda hujjatlarning qarama-qarshi tekshiruv amalga oshiriladi.

Bunda tekshirilayotgan tashkilotning hujjatlaridagi ma'lumotlar ushbu tashkilot xo'jalik faoliyatiga kirishgan boshqa tashkilotlardagi hujjatlarning ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Byudjet nazoratida me'yoriy tekshiruv hujjatli taftishning asosiy usullaridan biridir. Uning asosiy mag'zi faktik xarajatlarni me'yoriy (rejada belgilangan) xarajatlari bilan solishtirishdan iboratdir. Bu usul moddiy va pul me'yorlarini, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini, jamlanma tarmoq smetalari asosida xarajatlar smetalarining tuzilishini, xarajatlar moddalari bo'yicha xarajatlarni hisobdan chiqarishning to'g'riligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Teskari hisoblash usuli taftish davrida korxona hisobida va omborida majud bo'lgan mablag'larni asossiz ravishda hisobdan chiqarish maqsadida moddiy va moliyaviy xarajatlarni ekspertiza usulida baholashga asoslanadi.

Yuridik, iqtisodiy va moliyaviy nuqtai nazardan amalga oshirilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarni baholash, umumiy iqtisodiy va statistik tahlil usullari va o'tkazilgan operasilarni va taftish qilinayotgan korxonaning taftish davridagi faoliyatining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, oqilonaligi va samaraliligini baholash masalalarining butun bir majmuini qamrab oladi. Hujjatli nazoratning bu usuli eng murakkab va o'ta mehnattalab hisoblanadi, lekin

faqatgina taftish organi uchun emas, balki birinchi navbatda (bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida) korxona va tashkilotning o'zi uchun muhim va zarurdir.⁵¹

Faktik taftishda nafaqat hujjatlar, balki pul mablag'lari va moddiy boyliklarning mavjudligi ham tekshiriladi.

Faktik nazorat usullariga quyidagilar kiradi:

- tovar-moddiy zaxiralarini va pul mablag'larini inventarizasiya qilish;
- mutaxassislar tomonidan bajarilgan ish va xizmatlarning faktik hajmi va sifatini, xom ashyo, material va pul mablag'lari hisobdan chiqarilishining to'g'riligini, moddiy va pul mablag'lari kirimini rasmiylashtirishni ekspertiza usulida baholash;

- nazorat o'lchovi (ekspertiza usulida baholashning tarkibiy qismi sifatida);
- bino va ishlab chiqarish bo'linmalarini ko'z bilan kuzatib tekshirish (masalan, maktabda isitilayotgan maydonning nazorat o'lchovi va boshqalar);

- mehnat va moliyaviy intizomga rioya qilinishini tekshirish. Faktik nazoratning muhim jihati kutilmaganlik (to'satdan amalga oshirish) bo'lib, u kamchiliklarni va tashkilot moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi qoidabuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashga yordam berishdan tashqari, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklarining kamomadi va o'zlashtirilishini aniqlashga ham yordam beradi.

Belgilash usuliga ko'ra taftishlar rejali va rejadan tashqari bo'lishi mumkin. Rejali tekshiruvlar ikki yilda bir marta reja-grafiklar asosida o'tkaziladi. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish va tasdiqlangan reja-grafiklarga tuzatishlar kiritish to'g'risidagi takliflar nazorat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Respublika Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etiladi. Nazorat organlari ob'yektlarni, ular faoliyatining mezonlari va o'ziga xos tomonlari hisobga olingan holda, ishlab chiqilgan tekshiruvlar reja-grafigiga kiritish uchun ularni sinchiklab tanlab oladilar. Ushbu

⁵¹ Sirojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi: Darslik ,Toshkent,2010y

takliflar asosida tekshiruvlarning yillik (choraklik) reja-grafiklari, ularda kompleks tekshiruvlar ajratilgan holda, ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Rejadan tashqari tekshiruvlar (jumladan qisqa muddatli tekshiruvlar) nazorat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat nazorat etish to'g'risida"gi qonuni 12-moddasiga muvofiq ravishda quyidagi hollarda o'tkaziladi:

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlaridan kelib chiqqan holda tekshiruvlarni o'tkazish zarurati tug'ilganida. Bunda, agar Hukumat qarorida tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektning nomi aniq belgilangan bo'lsa, Respublika Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash yoki uning viloyat komissiyasidan rozilik olish talab qilinmaydi;

- nazorat organiga xo'jalik yurituvchi subyektning qonunlarni yoki qonuchilikning boshqa hujjatlarini buzganligi faktlari to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar kelib tushgan holda. Korxona, tashkilot, muassasalar va fuqarolardan kelib tushgan, tartibbuzarlik faktlari aniq asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan holda ko'rsatilgan ma'lumotlar qo'shimcha ma'lumotlar bo'lib xizmat qilishi mumkin;

- favqulodda hodisalar yuzaga kelishining oldini olishda;

- sanitariya-epidemiologiya sharoitlari yomonlashganida hamda qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar olib kelinishi va tarqalish ehtimoli yuzaga kelgan hollarda.

Respublika Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash va uning viloyatlardagi komissiyalari ishchi organlari taqdim etilgan buyurtmalarga asosan tegishli nazorat organlari bilan birgalikda mazkur tekshiruvlarning asoslanganligini o'rganib chiqadi, muvofiq ravishda Kengash va uning viloyat komissiyalariga tegishli o'zgartirishlar kiritadi, ular esa, rejadan tashqari tekshiruvni o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Rejadan tashqari tekshiruvni o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risidagi qaror, ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki haftalik muddatdan

kechiktirilmagan holda qabul qilinadi va qaror yoki xat shaklida rasmiylashtirilib, muvofiq holda Kengash raisi (yoki uning topshirig'i bo'yicha o'rinbosari) yoki viloyat komissiyasi raisi tomonidan imzolanadi hamda nazorat etuvchi organga jo'natiladi.


Sanitariya-epidemiologiya sharoitlari yomonlashganida hamda qo'shni davlatlardan yuqumli kasalliklar olib kelinishi va tarqalish ehtimoli yuzaga kelgan hollar bilan bog'liq ravishda rejadan tashqari tekshiruvlarni o'tkazish to'g'risidagi qaror sanitariya va ekologik nazorat organlari tomonidan qilingan murojaat asosli bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazish uchun buyurtma tushgan kunning o'zida zudlik bilan qabul qilinadi.

Taftishlarni nazorat dasturi mazmuni bo'yicha tasniflash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Bu belgi bo'yicha taftishlar kompleks (yalpi) va mavzuviy taftishlarga bo'linadi.


Kompleks taftishlar ayniqsa keng tarqalgan va samarali bo'lib, bunda taftish etilayotgan korxona (tashkilot) faoliyatining barcha jabhalari va tomonlari tekshiriladi.

Korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, texnologiyalar va tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning butligi va ishlatilish samaradorligi, buxgalteriya hisobining holati va hisobotning ishonchliligi, soliq va moliya intizomiga rioya qilinishi va boshqa masalalar taftish qilinadi. Zarurat holda maxsus masalalarni tekshirish uchun tegishli mutaxassislar: muhandislar, texnologlar, menejerlar va boshqalar jalb etiladi. Bu nazorat ob'yektini to'liq va har tomonlama tekshirishni amalga oshirishga va taftish samaradorligining oshishiga olib keladi.


Ayni bir masalalarni o'rganish navbatiga qarab taftishlar dastlabki va qayta bo'ladi. Dastlabki taftish rejaga binoan birinchi navbatda o'tkazilayotgan taftishdir.




- **To'la taftish**
- **qisman taftish**
- **kompleks taftish**
- **tematik taftish**




- **To'liq taftish**
- **tanlanma taftish**
- **aralash taftish**



- **xujjatlar asosida taftish**
- **faktik taftish**



- **rejali taftish**
- **rejadan tashqari taftish**



- **dastlabki taftish**
- **qayta taftish**

Taftish qilinuvchi organlarning mahkamaviy taaluqligiga ko'ra	taftish turlari - mahkamalararo taftish - mahkama ichida taftish - xo'jalik ichida taftish
Taftishning qamrovligiga ko'ra	nashr etilgan hujjatlar, ularning asl nusxalarini olib, ularning samaradorligi va a'zoliklarini taftish qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning ko'pchiligi bu taftishni o'tkazishda foydalaniladi. Bizning fikrimizcha bunday mezon bir vaqtda ikki va undan ko'prog'i taftish o'tkazilishi hisoblanadi.
Ma'lumotlardan foydalanish darajasiga ko'ra	taftish turlari va taftishchi guruhlar tarkibi har bir taftish qilinayotgan muassasalarning o'ziga xosligiga bog'liq bo'lgan, oldinda turgan ishlar hajmini hisobga olinadi.
Materialning xarakteriga ko'ra	xo'jalik faoliyatini taftish etishni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taftish organi buyrug'i va bir martalik tekshirish uchun taftishchi guruhlariga taqdim etiladi.
Rejalashtirishiga ko'ra	taftish o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taftish organi buyrug'i va bir martalik tekshirish uchun taftishchi guruhlariga taqdim etiladi.
Bir ob'yektni takror (qayta) taftish qilinishi	taftish o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taftish organi buyrug'i va bir martalik tekshirish uchun taftishchi guruhlariga taqdim etiladi.

ko'rsatmalar berish ;

-taftish qamrab oladigan muddat bo'yicha byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatiga tegishli bo'lgan barcha hujjatlarni talab qilish va uni taftishchi uchun ajratilgan xonaga olib kirish.

Kassa operatsiyalarini to'g'ri yuritilishini tekshirish

Kassaga naqd pullarni kirimini tekshirish:

-chek daftarchasi bilan kassa kitobini solishtirib tekshirish;

- kassa kitobi bilan kassa hisobotini taqqoslab tekshirish;
 - chek daftarchasi bilan kassa kirim orderlaridagi imzolar mavjudligini tekshirish;
 - chek daftarchasi bilan kassa kirim orderlaridagi ko'rsatilgan maqsadlarning mosligini tekshirish;
 - kassa kitobidagi kirim qilingan naqd pullarni jamisini birlamchi hujjatlarga mosligini tekshirish;
 - kassaga mahsulot sotish va xizmatlardan tushgan mablag'larni kirim qilinish asosini tekshirish;
 - kassaga kirim qilingan mablag'larni bosh kitob va balans bilan mosligini tekshirish.
- Kassaga naqd pullarni chiqimini tekshirish:
- kassa kitobidagi summalarni qo'shib chiqib jamisini to'g'riligini tekshirish;
 - kassa chiqim orderlarini mavjudligini va imzolanganligini tekshirish;
 - kassa chiqim orderi bilan to'lov qaydnomalari summalarini bir-biriga mosligini tekshirish;
 - to'lov qaydnomalari mavjudligi va imzolanganligini tekshirish;
 - to'lov qaydnomadagi summalarini qo'shib chiqib jamisini to'g'ri kelishini tekshirish;
 - to'lov qaydnomada ko'rsatilgan maqsadlarini va summalarini berilishi asosini tekshirish;
 - naqd pullarni kirim qilinishida ko'rsatilgan maqsadlar bo'yicha chiqim qilinishini tekshirish;
 - kassaga mahsulot sotish va xizmatlardan tushgan mablag'larning bankga to'liq va o'z vaqtida topshirilishini tekshirish;
 - kassadan chiqim qilingan mablag'lar bo'yicha buxgalteriya pravodkasining to'g'ri berilishini tekshirish;

-kassadan chiqim qilingan mablag'larning bosh kitob va balans bilan mosligin tekshirish;

-kassadagi mavjud naqd pullarning sanoqdan o'tkazish.

Taftishlar va tekshiruvlar o'tkazish muddati chegarasi 30 kun miqdorida belgilangan.

Taftishni o'tkazishda dasturga binoan taftishning asosiy masalalari ro'yxati aniqlanadi, u nazorat-taftish organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Taftish dasturida taftish ob'yekti va o'tkaziladigan davri qayd etiladi. Taftish dasturi tuzilishidan oldin tayyorgarlik davri bo'lib, unda taftish ishtirokchilari taftish qilinishi rejalashtirilayotgan tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, hisobotlar, statistik ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni o'rganishlari majburiydir.

Tashkilot moliyaviy-xo'jalik faoliyatining taftishini o'tkazishda ta'sis, ro'yxatdan o'tkazish, reja, hisobot, buxgalteriya va boshqa hujjatlarni shakl va mazmun jihatidan tekshirish moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi va to'g'riligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Bunda blankalarni to'ldirishda aniqlik nazorat qilinadi, barcha zarur rekvizitlarning mavjudligi tekshiriladi, hisobot ko'rsatkichlari buxgalteriya hisobining birlamchi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi, birlamchi hujjatlarning arifmetik tekshiruvi amalga oshiriladi, amalga oshirilgan operatsiyalarning boshlang'ich hujjatlarga mosligi, shu jumladan, pul mablag'lari, moddiy boyliklar, tugallanishi yaqin qolgan ishlar va xizmatlar bo'yicha mablag'larni olish nazorat qilinadi.

Taftish guruhi ishtirokchilari tekshiruv dasturidan kelib chiqib u yoki bu taftish faoliyati, usullari va metodlarini qo'llash imkoniyatlari va zaruratini aniqlaydilar. Bundan tashqari axborot olish usullari, tahlil tadbirlari, jami ma'lumotlardan dalil bo'la oladiganlarini ajratib olish masalalari hal etiladi.

Taftish natijasida aniqlangan moliya intizomini buzishlar va ishdagi kamchiliklar to'g'risida dalolatnoma tuzilib, unga guruh rahbari, tekshirilayotgan muassasa rahbari va bosh hisobchi imzo chekadilar.

Dalolatnoma taftish davomida aniqlangan barcha kamchiliklar va qonunbuzarliklarni aks ettiruvchi asosiy hujjat bo'lib, uning asosida taftish qilingan tashkilotning faoliyati to'g'risida xulosalar chiqariladi, tegishli moliyaviy, ma'muriy-huquqiy qarorlar qabul qilinadi. Unga qo'yiladigan asosiy talablar – ob'yektivlik, aniqlik va ravonlik.

Taftish dalolatnomasi uch qismdan iborat: kirish (muqaddima), tavsifiy (asosiy) va yakuniy qism (xulosa).

Dalolatnomaning kirish qismi tarkibi: taftish mavzusining nomi; taftish dalolatnomasining tuzilish vaqti va joyi; taftish kim tomonidan va nima asosida o'tkazilganligi; tekshiruv davri va taftish o'tkaziladigan muddat; tashkilotning to'liq nomi; yuqori turuvchi tashkilotning nomi; kredit muassasalarida ochilgan barcha hisob raqamlarining hamda g'aznachilikda ochilgan shaxsiy hisob varaqlarning ro'yxati va rekvizitlari; tekshirilayotgan davrda kim birinchi imzo huquqiga ega bo'lganligi va kim bosh buxgalter bo'lganligi, avvalgi taftish kim tomonidan va qachon o'tkazilganligi va uning natijalari bo'yicha qanday choralar ko'rilgani haqida ma'lumotlar.

Taftish dalolatnomasining tavsifiy qismi taftish dasturida ko'rsatilgan savollarga javoblar tizimli ravishda va oldinma-ketin yoritilgan matndan iborat.

Dalolatnomani tuzishda ob'yektivlik va asoslilik shartlariga rioya qilinishi, matn aniq, lo'nda, sodda va izchil bayon qilinishi lozim.

Taftish natijalari hujjatlar, qarama-qarshi tekshiruvlarning natijalari, ekspertiza ma'lumotlari va boshqa hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar va faktlar asosida dalolatnomada yoritiladi.

Qonunbuzarlik faktlarining tavsifi quyidagi axborotni o'z ichiga olishi shart: qaysi qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar buzilgan; qonunbuzarliklar va kamchiliklar kim tomonidan, qaysi davrda amalga oshirilgan va ular nimada namoyon bo'lgan; keltirilgan zararning hujjat bilan isbotlangan summasi.

Dalolatnoma bo'yicha e'tiroz yoki boshqa fikrlar yuzaga kelgan holda, uni imzolagan rahbar va bosh buxgalter imzo yonida o'z fikri, qo'shimcha tushuntirishini yozishadi hamda dalolatnoma imzolangan kundan boshlab besh kundan kechiktirilmagan holda yozma ravishda tushuntirish xatini taqdim etishadi.

Dalolatnoma bo'yicha tekshirilayotgan tashkilotning taftish bilan aniqlangan faktlarida bevosita aybdor deb hisoblangan boshqa mansabdor shaxslari ham, zarur bo'lgan hollarda esa, ushbu tashkilotda ilgari ishlab ketgan rahbar va bosh hisobchi ham *(aniqlangan tartibbuzarlik ular ishlagan davrga tegishli bo'lsa) tushuntirish xati beradilar. Tushuntirish xatlarida bayon etilgan faktlarning to'g'riligi tekshirilishi va ular bo'yicha yozma ravishda xulosa berilishi kerak.

Aniqlangan faktlar bo'yicha tartibbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan, taftish muddati tugashini kutmasdan, zudlik bilan qaror qabul qilish yoki suiste'mollikda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish zarur, bunda alohida dalolatnoma tuziladi, mansabdor shaxslar esa, aniqlangan faktlar bo'yicha zarur bo'lgan tushuntirish xatlarini berishlari shart.⁵²

Oraliq dalolatnomalar kassalarni taftish qilish natijalari bo'yicha ham tuziladi. Bu dalolatnomalar tekshiruvchilar va tegishli mansabdor shaxslar hamda pul mablag'lari va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi. Oraliq dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan tashkilotning dalolatnomaga imzo chekkan mansabdor shaxsiga beriladi. Oraliq dalolatnomada bayon etilgan faktlar taftish umumiy dalolatnomasiga kiritiladi.

Taftish dalolatnomasi bayonida aniqlangan faktlar qat'iy holisona bo'lishi, tushunarli va aniqligiga rioya etilishi shart. Tekshirilayotgan tashkilot moliyaviy faoliyati to'g'risida hujjatlar bilan tasdiqlanmagan turli xulosa va taxminlar

⁵² LI A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi, darslik, T. 2006 yil

taftish dalolatnomasiga kiritilishiga ruxsat berilmaydi. Taftish natijalari oshkor etilib, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va muassasalarga ular haqida axborot beriladi.

Davlat moliya intizomi bo'yicha jiddiy tartibbuzarliklar aniqlangan yoki davlat mablag'lari o'g'irlangan hamda boshqa suiste'molliklar sodir etilgan hollarda, taftish materiallari tergov organlariga topshiriladi va ayni vaqtda tegishli organ rahbari oldiga javobgar mas'ul shaxslarning bundan keyin egallab turgan lavozimlarida qolish-qolmasligini ko'rib chiqish to'g'risidagi masala qo'yiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Moliya organlarida nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil etishni aytib bering va tavsiflang.
2. Mahalliy byudjetlar daromadlarining hududiy iqtisodiyotning holatiga bog'liqligini tushuntiring.
3. Byudjet istiqbolini belgilashning mazmuni, vazifalari va ahamiyatini ayting.
4. Byudjetni rejalashtirish asoslari. Byudjet istiqbolini belgilashni amalga oshiruvchi organlar, ular faoliyatini muvofiqlashtirishning mohiyatini tushuntiring.
5. Byudjet nazoratining mazmuni va ahamiyati qanday?
6. Byudjet nazoratini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vazifasi va funksiyalarini tushuntirib bering.
7. Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilishdan maqsad nima?
8. Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish o'tkazish bosqichlarini ayting.
9. Taftish o'tkazish tartibi qanday?
10. Taftish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirishni tushuntiring.

XI bob. BYUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLAR SMETASINI REJALASHTIRISH VA BYUDJETDAN MOLİYALASHTIRISHDAGI MOLIYAVIY NAZORAT

11.1. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasining mohiyati va ahamiyati

Davlat byudjetidan xarajatlar tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida va tashkilotlarning xarajatlar smetasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasi - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan uchun byudjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot muassasalari, davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlari va ayrim boshqa muassasalar va tashkilotlar smeta tartibida moliyalanadi.

Xarajatlar smetasi asosida moliyalashning muhim tamoyili byudjet tashkilotlari tomonidan tarmoq, shtat va kontingent bo'yicha rejani bajarish darajasi hamda ilgari berilgan mablag'larning amaldagi foydalanilishi hisobga olingan holda ularga mablag'lar berilishi hisoblanadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplash byudjetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan tashkilotlar ham byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzadilar.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi.

Davlat byudjeti xarajatarining iqtisodiy tayinlanishi va to'lovlarni aniq turlarini ifodalaydigan qismi xarajatlar moddasidir.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi - tashkilotlarning xarajatlar smetasi

tasdiqlangunga va ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo'lib, unda byudjet tashkilotlari uchun ko'zda tutilgan, qonunchilikka o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag'larning uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdorlardagi byudjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi.

№	Smeta turi	Iqtisodiy mazmuni va qo'llanilishi
1	Individual	Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari muassasalarida qo'llanadi. Individual smeta xarajatlar smetalari guruhlari bo'yicha tuzilib, alohida tashkilot uchun qullaniladi.
2	Umumiy	Tuman, shahar, shaharga qarashli tumanlar budjetlari hisobida bo'lgan va markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar bo'yicha ayrim hollarda xarajatlarning umumiy smetalari tuzilishi mumkin. Ular quyidagi tashkilotlar xarajatlari uchun tuziladi: a) bir turdagi kichik budjet tashkilotlari b) bir turdagi yirik budjet tashkilotlariga – ularga xo'jalik xizmati ko'rsatish xo'jalik xizmati ko'rsatishning maxsus guruhlari orqali markazlashtirilgan ravishda amalga oshirilayotgan bo'lsa; v) tegishli hokimiyatlar va ularning bo'limlari apparatini saqlash bo'yicha xarajatlar.
3	Markazlashtirilgan tadbirlar uchun mo'ljallangan xarajatlar smetasi	Markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetalari muvofiq ravishda vazirliklar, idoralar, hokimiyatlar boshqarmalari bo'limlari tomonidan har bir tadbir bo'yicha alohida tuziladi.
4	Jamlama	Jamlama smetalar individual va umumiy smetalar hamda markazlashtirilgan tadbirlar uchun xarajatlar smetalari to'plangan yagona moliyaviy-reja hujjatidan iborat

65-rasm. Xarajatlar smetasi turlari

Davlat byudjetidan mablag' oladigan tashkilotda tasdiqlangan xarajatlar smetasi, byudjetdan tashqari mablag'lar mavjud bo'lganda esa, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bo'lishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini moliyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999 yil 3 sentabrdagi 414-sonli qarori bilan 2000 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashning yangi tartibi amalga kiritilgan bo'lib, u maxsus me'yoriy hujjatda mustahkamlab berilgan.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashning yangi tartibi Davlat byudjeti hisobidan moliyalanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan aniq belgilangan yo'nalish bo'yicha samarali foydalanish maqsadida o'rnatilgan bo'lib, quyidagilarni ko'zda tutadi:

- byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish, byudjet mablag'larini tejab, samarali va aniq belgilangan maqsadda ishlatilishi hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun mas'uliyatini oshirish;

- byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini soddalashtirish va mavjud mablag'lardan foydalanishda eng ko'p natijalarga erishish maqsadida ularni to'g'ri yo'naltirish imkoniyatlarini yaratish;

- faoliyat turlariga qarab, normativlar bo'yicha bir satr bilan moliyalash, chegaralangan ajratilgan mablag'larni ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun guruhlariga ajratib, ish haqi, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar uchun hisoblab, byudjet tashkilotlarini moliyalashning yangi tartibini joriy etish;

- byudjetdan moliyalashni ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va byudjet tashkilotlarining faoliyati yo'nalishi bo'yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizasiya qilish bilan birgalikda olib borish;

- byudjet tashkilotlari hodimlarining mehnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarni mustahkamlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratish.

Byudjet tashkilotlarini moliyalash tegishli moliya yili uchun tasdiqlangan byudjet parametrlari hamda byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasiga muvofiq ravishda, byudjetni ijro etish jarayonida ro'yxat va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, tuzilgan byudjet xarajatlarning yillik ro'yxatini choraklar bo'yicha taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarini Davlat byudjeti hisobidan yangi tartibda moliyalash faoliyat yo'nalishi turlariga qarab, normativlar bo'yicha xarajatlarning quyidagi guruhlar bo'yicha bir satrda moliyalash usuli bilan amalga oshiriladi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar (bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga - moddiy yordam, stipendiyalar va b.);

II. Ish haqiga hisoblab, yoziladigan xarajatlar;

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investision dasturida ko'zda tutilgan adress ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining I va II guruhlar bo'yicha xarajatlari moliyalanadi. Bunda I guruh xarajatlari, II guruh bo'yicha tegishli mablag'larni ajratmasdan turib, amalga oshirish taqiqlanadi.

Respublika va mahalliy byudjetlardan I va II guruhlar bo'yicha xarajatlarni moliyalash har oyda smetalar va xarajatlar ro'yxatiga muvofiq ravishda, ularga kiritilgan o'zgartirishlar hisobga olingan holda, amalga oshiriladi. Ayni vaqtda oldingi hisobot yili uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishi ham hisobga olinadi.

III guruh xarajatlari moliyalash byudjet tashkilotlari tomonidan joriy moliya yili uchun Respublika investision dasturida belgilangan limitlar doirasida amalga oshiriladi.

IV guruh “Boshqa xarajatlar” bo’yicha belgilangan limitlar doirasida ajratilgan moliyaviy mablag’larni xarajat qilish quyidagi navbatga rioya etilgan holda amalga oshiriladi: 1) ovqatlanish; 2) dori-darmonlar; 3) kommunal xizmatlar; 4) boshqa xarajatlar.

Byudjet tashkilotlari O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya tashkilotlari bilan kelishuv bo’yicha IV guruh mablag’lari hisobidan mavsumiy va shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o’quvchilari uchun maktabga kerak narsalar, kam ta’minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyim sotib olish, epidemiya qarshi, dezinfeksion va boshqa tadbirlar)ni moliyalash uchun operativ xarajatlar qilishi mumkin.

Ko’rib chiqilayotgan xarajatlar guruhi hisobidan avtomobillar va boshqa transport vositalari (maxsus transportdan tashqari), uyali telefonlar va boshqa predmetlar (import ofis mebeli, audio- va videotexnika⁵³) sotib olishga faqat

Xarajat guruhlari	Xarajat turi
I guruh	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar
II guruh	Ish haqiga hisoblab yozilgan qo’shimchalar
III guruh	Kapital qo’yilmalar
IV guruh	Boshqa xarajatlar

66-rasm. Xarajatlar smetasining guruhlari

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holdagina yo’l qo’yiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjet tashkilotlari hisobvaraqlarida qolgan, tejalgan (foydalanilmagan) byudjet mablag’lari (kapital qo’yilmalarni moliyalash uchun ko’zda tutilgan mablag’lardan tashqari) hisobot choragi oxirgi ish kuni tugayotganida olib qo’yilmaydi. Ular Byudjet tashkilotini rivojlantirish

⁵³ O’quv, ilmiy va tibbiy jarayonlarda foydalaniladigan jihozlar va shu turdagi texnika vositalaridan tashqari.

fondi hisobiga o'tkaziladi va belgilangan tartibda sarflanadi. Byudjet tashkilotlarini keyingi chorakka moliyalash hajmi hisobot choragida tejalgan (foydalanilmagan) byudjet mablag'lari summasi miqdorida kamaytirilmaydi.

Tashkilotlar, agarda qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, mustaqil ravishda xarajatlar smetasini, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetani, shuningdek, shtatlar jadvalini tasdiqlangan tashkiliy tuzilma, shtat birliklari, namunaviy shtatlar va byudjetdan moliyalashtirish me'yorlariga muvofiq ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

Xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlar ularga berilgan tegishli huquq va vakolatlar doirasidagi qarorlari va farmoyishlarida ko'zda tutilgan xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bir yillik muddatga - 1 yanvardan 31 dekabrni ham qo'shgan holda, mavsumiy yoki joriy yilda ishga tushiriladigan tashkilotlar bo'yicha esa, ularning mazkur moliya yilidagi faoliyat ko'rsatish muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo'lsa, u holda Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar bo'lgan davrda xarajatlar tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetani tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi va tariflari quyidagicha hisobga olinadi:

-mavsumiy tashkilotlar yoki joriy yilda ishga tushirilgan tashkilotlar bo'yicha - ushbu tashkilotning faoliyat ko'rsatishi boshlangan oyning birinchi sanasi holatiga;

-qolgan tashkilotlar bo'yicha - mazkur smetalar tuzilayotgan tegishli

yilning 1 yanvariga bo'lgan amaldagi shartlarda.

Byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo'shimcha xarajatlarga tashkilotlarning xarajatlar smetalariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shuningdek, shtatlar jadvali, qoida tariqasida, ming so'mda tuziladi.

Xarajatlar smetasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlar bo'yicha, 4 guruh xarajatlarining to'liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o'z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo'lib, smetasining prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo'yicha ishlarni tashkil etish davomida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga bo'ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to'g'risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo'yicha ko'rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida ko'rsatmalar beradilar.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo'limlari o'zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli hodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo'yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko'rsatmalar

beradilar, shuningdek, xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to'ldirish texnikasi masalalari bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatadilar.

Bir vaqtning o'zida o'zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida (sinflar, o'quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo'yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag'larga bo'lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat'iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

11.2. Xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni nazorati

Xarajatlar smetasini tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

-byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlariga;

-tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Jumladan:

-xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag'lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo'shimcha to'lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me'yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar

smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

- pedagog hodimlar ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o'quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo'shimcha haq to'lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifkasiyalardan kelib chiqilishi lozim;

- tibbiyot hodimlari ish haqi uchun mablag'larni ajratishda, ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to'lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyot hodimlari tarifkasiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limda ta'lim oluvchilarni stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta'minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;

- mehnatga haq to'lash jamg'armasidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to'lov to'lanadigan barcha to'lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotini to'lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha hodimlarining o'tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

- xo'jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

- telefon va boshqa telekommunikasiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so'zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo'yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli

moliya organlari bilan kelishilgan holda o'zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo'lgan talabdan kelib chiqib ko'zda tutiladi;

-davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o'rtacha yillik sonidan va natural me'yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

-dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me'yoriga qarab:

-stasionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga har bir kirishga belgilanadi;

-ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar, moddiy ta'minotning me'yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag'lar doirasida hisoblanadi;

-suv, o'rmon xo'jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

-inspeksiya va qo'riqlash faoliyati bilan bog'liq xizmatlar to'lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

-tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek, boshqa davlat mulklari ijarasi bilan bog'liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

-xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek, qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

-epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan

ehtiyotlar, shuningdek, bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.⁵⁴

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar, shuningdek, Davlat byudjeti xarajatlarning iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda jamlanma xarajatlar smetasi tuzilishi mumkin:

- bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo'yicha;

- bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik xizmatlarini ko'rsatish xo'jalik xizmatlarni ko'rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bo'yicha;

- ozodlikdan mahrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari bo'yicha.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larni taqsim qiluvchilar bo'lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 29.10.2010 y. N 92

“O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug'i

rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan hisob va hisobot, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo'limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko'rsatkichlar ro'yxati bo'yicha xarajatlarning guruhlari bo'yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

-isitish, yoritish, suv ta'minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko'rsatkichlar;

- sotib olish uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro'yxati;
- kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha asosiy ishlar ro'yxati;
- o'rmon xo'jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;
- qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo'yicha ishlar hajmi va boshqa ko'rsatkichlar hisobi;

- bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

- byudjetdan mablag'lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko'rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.⁵⁵

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 29.10.2010 y. N 92

“O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug'i

va tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi uch nusxada tuzilib, tashkilotning rahbari yoki uning o'rinbosari (birinchi imzo huquqiga ega shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o'rinbosari (ikkinchi imzo huquqiga ega shaxs), shuningdek, moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda belgilangan tartibda moliya organida ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng:

birinchi nusxasi - tashkilotda qoladi;

ikkinchi nusxasi - tegishli moliya organiga taqdim qilinadi;

uchinchi nusxasi - yuqori tashkilotga taqdim qilinadi (zarur hollarda).

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini chuqurroq o'rganish maqsadida tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularning qo'shimcha hisob-kitoblarini talab qilishga haqli.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo'yicha ularning o'zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari,

idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari va xarajatlar smetalarini tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar, " O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi"ga muvofiq ularga yetkazilgan ajratilgan mablag'lar hajmlari, belgilangan tartibda rejalashtirilgan yil uchun tasdiqlangan Davlat byudjeti parametrlari doirasida o'z qaramog'idagi tashkilotlarning kelib tushgan xarajatlar smetalarini sinchiklab ko'rib chiqishni ta'minlaydilar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalari zarur hollarda tegishli tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bunda, xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlar quyidagilarga majbur:

- qonunchilik talablariga, shuningdek, kelgusi yil smetalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy amal qilishni ta'minlash;

- iqtisod qilish tartibiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablag'lar ajratishga yo'l qo'ymaslik;


- alohida tadbirlarni o'tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirish imkonini ta'minlashni hisobga olgan holda xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilgan mablag'larni chorak (oy)larga taqsimlashni ta'minlash;

- hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Agar tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ko'rib chiqish natijasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirligi, idorasi bo'yicha, hokimiyatning boshqarma, bo'limi bo'yicha jami xarajatlar summasi yoki ish haqi, ish haqiga ajratmalar, kapital qo'yilmalar va xarajatlarning boshqa turlari bo'yicha xarajatlar summasi qabul qilingan byudjet va tegishli moliya organlari tomonidan ularga yetkazilganiga nisbatan ortiq bo'lsa, vazirlik, idora, hokimiyatning boshqarma va bo'limi rahbari alohida tashkilotlarning xarajatlar smetalari bo'yicha xarajatlarini tegishincha qisqartirishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari taqdim etilgan materiallarni jamlangan xarajatlar smetasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat

byudjeti tasdiqlanayotganda belgilanadigan umumiy xarajatlar hajmiga, belgilangan ish haqi, ish beruvchining ajratmalari, kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar turlari bo'yicha amal qilinganligini, shuningdek, Davlat byudjetini tuzish bo'yicha qonunchilik talablarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiradilar.



67-rasm. Xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlarning majburiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar tasdiqlanganidan keyin, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tashkilotlarga ularning umumlashtirilgan smetalari bo'yicha choraklar kesimidagi taqsimotini, shuningdek, ish haqiga, ish beruvchilarning ajratmalariga, kapital qo'yilmalarga va boshqa xarajatlar summasiga byudjetda belgilangan eng yuqori miqdorlarini ajratib ko'rsatgan holda xabar beradilar.

Shahar moliya bo'limlari bundan tashqari shaharga bo'ysunadigan tuman hokimiyatlarining bo'limlariga, yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan ularning byudjetlari hajmlari doirasida ajratib ko'rsatib, xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining byudjet haqidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa) va tegishli byudjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo'yicha bo'lingan holda amalga oshiriladi hamda smetalarni tasdiqlagan tashkilot rahbari (yoki rahbar o'rinbosari) imzosi bilan, tasdiqlangan kuni ko'rsatilgan holda, shuningdek, ushbu tashkilotning muhri smetaning barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o'zida xarajatlar smetasi bo'yicha umumiy summasini yuqori o'ng burchagida shtatdagi hodimlarning mehnatga haq to'lash jamg'armasining umumiy summasini ajratib ko'rsatgan holda rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tomonidan umumlashtirilgan xarajatlarni va alohida xarajatlar smetalarini tasdiqlangan byudjetga, shuningdek, byudjetni tuzish bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq kelishi tekshirib ko'riladi.

Alohida va umumiy xarajatlar smetalarining bir nusxasi vazirliklar, idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo'limlarida qat'iy hisob

hujjatlari tariqasida saqlanadi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo'ladi, bunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan xarajatlar summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

11.3. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining tasdiqlanishi hamda ro'yxatdan o'tkazishning rasmiylashtirilishini to'g'riligini tekshirish

Yuqori tashkilot moliya organiga xarajatlar guruhleri bo'yicha xarajatlar yig'ma smetasini, xarajatlarning to'liq yoyilmasini va xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarni ilova qilgan holda, shuningdek, qaramog'idagi barcha tashkilotlar bo'yicha esa, ro'yxatdan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlarni ham taqdim etadi:

- Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhleri bo'yicha xarajatlar yoyilmasini ilova qilgan holda xarajatlar smetasini;
- xarajatlar smetasining barcha moddalari bo'yicha hisob-kitoblarni;
- byudjet hisobidan saqlanuvchi lavozim va tarif stavkalari bo'yicha shtatlar jadvalini.

O'zining tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan bo'linmalarga ega bo'lgan tashkilotlar ularning ro'yxatini joylashgan joyi, hodimlar sonini tasdiqlangan shtat hodimlari miqdoridan chiqmagan holda taqdim etadi.

Yuqori tashkilot tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalarini va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish paytida moliya organlari quyidagilarni tekshirishi lozim:

byudjet tashkilotlari hodimlariga ish haqi to'lovi uchun xarajatlar smetasi bo'yicha tasdiqlangan summalarining shtatlar jadvali (bunda, xarajatlar smetasidagi ish haqi jamg'armasi, hodimlar to'liq to'ldirilmaganligi tufayli mehnatga haq to'lash jamg'armasi bo'yicha tejab qolingan mablag'lar

summasiga shtatlar jadvalidagidan kam miqdorda tasdiqlanishi mumkinligini ko'zda tutish lozim) bo'yicha tasdiqlangan ish haqi summalariga muvofiqligi;

- ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shtatlar jadvalini belgilangan namunaviy shtatlar jadvali va shtatlar normativlariga muvofiqligi;

- shtatlar jadvalida belgilangan lavozimlar bo'yicha maoshlar hamda ularga qo'shimchalarning to'g'ri belgilanganligi;

- byudjet tashkilotlari va muassasalari hodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus jamg'armasining to'g'ri tashkil qilinishi;

- umumta'lim, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining Direktor jamg'armasi to'g'ri tashkil qilinishi;

- xarajatlar smetasi bo'yicha tasdiqlangan stipendiyalar uchun xarajatlar summasini xarajatlar smetasi bo'yicha hisob-kitoblarga muvofiqligi;

- “Boshqa xarajatlar” guruhi xarajatlari summasining xarajatlar smetasida tasdiqlangan summasiga muvofiqligi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish paytida moliya organlari o'z vakolatlari doirasida ortiqcha shtatlarni yo'qotishlari lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish lozim.

Yangidan tashkil qilinayotgan (jumladan, qayta tashkil etish natijasida) tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish ushbu tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tegishli qaror ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Yangidan tashkil qilinayotgan mahalliy tasarrufdagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish mazkur tashkilotlarning belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi.

Tashkilotlar xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan

tashkilotlarga beriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, boshqa tashkilotning tuzilmaviy bo'linmasi bo'lgan tuzilmalar o'zlari qarashli bo'lgan tashkilotlar bilan birga bitta ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi.

Bunda, zarur hollarda ro'yxatdan o'tkazish kartochkasida shtatlar bo'yicha ko'rsatkichlar tashkilotlar va ularning tuzilmalari bo'yicha alohida beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxatdan o'tkazish kartochkalari, smetalar va shtatlar jadvali) quyidagi tarzda: smetalar va shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladigan tashkilotlar bo'yicha - moliya vazirining o'rinbosari, sohalarni moliyalashtiruvchi boshqarma va bo'lim boshliqlari tomonidan, hududiy moliya organlarida - moliya organlari boshliqlari (mudirlari) yoki ularning o'rinbosarlari hamda moliya organlari byudjet bo'limlari boshliqlari tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi xalq ta'limi muassasalari (tashkilotlari) bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish haqidagi hujjatlar moliya organi boshlig'ining (mudirining) o'rinbosari - xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish bo'limi boshlig'i va moliya organi byudjet bo'limining tegishli mutaxassisi tomonidan imzolanadi.

Ishlatilmay qolgan joriy yilning o'tgan oy (chorak) rejadagi ajratilgan mablag'lar qoldig'i joriy yilning keyingi oyi (choragi)ga xarajatlar smetasiga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazilmasdan amalga oshiriladi.

Tashkilotlar boshqa shahar yoki tumandan belgilangan tartibda o'tkazilgan holda yuqori tashkilotlar rahbarlari o'n kunlik muddatda yangi joylashgan joydagi moliya organiga avval ro'yxatdan o'tkazilgan smeta, shtatlar jadvali va ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini taqdim etishlari lozim.

Bir vaqtning o'zida moliya organi tashkilotlarni saqlash xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlarni oldingi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi moliya organidan talab qiladi hamda mazkur

ma'lumotlar olinganidan so'ng Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hisobining jurnaliga "hisobga qabul qilindi" deb yozadi. Bunda, ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi tegishli o'zgartirishlar bilan yangisiga almashtiriladi.

Tashkilotlar rahbarlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha arizalari mazkur hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgan hududiy moliya organining rahbari tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazgan hududiy moliya organining qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi arizalar yuqori moliya organida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Byudjet intizomiga rioya qilinishining nazorat etilishini ta'minlash maqsadida, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir haftalik muddatda byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralarning rahbarlari tomonidan vazirliklar va idoralarda, shuningdek, ularga bo'ysunuvchi tashkilotlarda byudjet intizomiga rioya etilishini ta'minlovchi buyruqlar chiqariladi. Buyruqlarda quyidagilar tartibga solinadi:

- byudjet intizomiga rioya qilish, xarajatlarni tasdiqlangan mablag'lar doirasida amalga oshirish;

- bo'ysunuvchi tashkilotlar rahbarlarining quyidagilar bo'yicha majburiyatlari:

- byudjet intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish;

- byudjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarni qo'llash;

- byudjet intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish.

Kommunal xizmatlar (issiqlik va elektr energiyasi, gaz, issiq va sovuq suv,

kanalizasiya) bo'yicha tashkilotlar uchun belgilangan pul va naturadagi limitlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida buyruqlarda, shuningdek, quyidagilarga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ko'rsatiladi:

- kommunal xizmatlar iste'mol qilish limitlarini tasarruflaridagi tashkilotlarga yetkazish;

- belgilangan limitlar doirasida kommunal xizmatlar ta'minotchilari bilan shartnomalar tuzishni ta'minlash;

- kommunal xizmatlar iste'moli hisobini o'lhagich asboblarini o'rnatish va ularning ishlashi ustidan nazorat o'rnatish;

- belgilangan limitlardan ortiqcha xarajatga yo'l qo'ygan quyi tashkilotlarning bosh hisobchilari va rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan choralar ko'rish;

- kommunal xizmatlar ta'minotchilarini, shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlardan va mablag'lardan ortiqcha xizmat ko'rsatayotgan xizmatlar uchun haq to'lanmasligi to'g'risida ogohlantirish;

- ko'rsatilgan buyruqlarni bajarish.⁵⁶

Buyruq chiqarilgandan so'ng uch kun muddat ichida uning bir nusxasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Buyruqlar bilan quyidagilar bir haftalik muddat ichida imzo qo'ydirib tanishtiriladilar:

- byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralar rahbarlarining o'rinbosarlari;

- ushbu vazirliklar va idoralarning reja-iqtisod xizmatlari hodimlari;

- byudjet mablag'larining sarflanishiga mas'ul bo'lgan boshqa hodimlar;

- quyi tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari.

Har yili birinchi chorakda moliya organlari barcha tashkilotlarining

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 29.10.2010 y. N 92

“O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” buyrug'i

xarajatlar smetasi (byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta va vaqtinchalik xarajatlar smetasi)ning tuzilishi, tasdiqlanishining to'g'riligini va o'z vaqtida yetkazilishini tekshirishdan o'tkazishi, hududiy moliya organlari tomonidan mazkur ishlarning o'z vaqtida va sifatli olib borilganligini tizimli nazorat qilishi, tekshiruvlarni tashkillashtirishda va o'tkazishda ularga zarur yordamlarni ko'rsatishi lozim.

Tekshirish tasdiqlangan dasturga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan tekshirishlarni o'tkazishda quyidagilar zarur:

- smeta-moliya hujjatlarini, bunda byudjet mablag'laridan qonunchilikka va byudjet mablag'larining tejamli yo'naltirilishiga qat'iy rioya etilishiga erishgan holda, chuqur tahlil qilishni va har tomonlama o'rganishni amalga oshirish;

- O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning tegishli boshqarmalari va bo'limlarida xarajatlar smetasini ko'rib chiqish, tasdiqlash va o'z vaqtida tashkilotlarga yetkazish bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkillashtirishga erishish;

- daromadlarning to'liq hisobi, pul mablag'larining o'tuvchi qoldiqlari, bu mablag'lardan tejamli va samarali foydalanishni inobatga olgan holda, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining tuzilishining qonuniyligi va rejalashtirishning asoslanganligini e'tiborga olish;

- smetani rejalashtirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor holda chora-tadbirlarni qo'llash, smeta xarajatlari bo'yicha aniqlangan ortiqcha ajratilgan mablag'lar summasini bu haqda tashkilot rahbariga xabar bergan holda o'z vaqtida byudjetdan moliyalashtirish miqdorini qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, hokimiyatning boshqarmalari va bo'limlarida smetani rejalashtirish holatini tekshirish natijalari bo'yicha zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, tegishli hokimiyatlarga axborot berilishi, qoida buzilishlarni yo'qotish bo'yicha takliflar berilishi va aniqlangan ortiqcha ajratilgan mablag'lar summasini

xarajatlar smetasi bo'yicha tayinlash kamaytirilishi mumkin.

Tashkilotlarning smeta xarajatlarining to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida yetkazilishi bo'yicha tekshirish natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida muntazam umumlashtiradi va ko'rib chiqiladi hamda ushbu ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Tashkilotlarning smeta ijrosi bevosita ushbu tashkilot rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjet mablag'laridan tasdiqlanmagan xarajatlar smetasi, xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan tadbirlar, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetada yoki umumlashgan smeta va alohida xarajatlar smetasida tayinlanganidan ortiq summalarda xarajat qilish taqiqlanadi.

Vazirliklar va idoralar rahbarlari, shuningdek, ular tasarrufidagi tashkilotlar byudjet mablag'lari xarajatlari hisobi va hisobotini yuritishining belgilangan tartibi, byudjet intizomiga rioya etilishiga shaxsan javobgardirlar.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarda ko'rsatilgan tashkilotlarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (maydoni, hajmi, sarflanayotgan kommunal xizmatlari bo'yicha tabiiy ko'rsatkichlar hajmi hamda ular bo'yicha xarajatlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasiga va pasport ma'lumotiga, shartnomalar va boshqalarga mosligi)ning to'g'riligi va asoslanganligi uchun tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari, moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassis) shaxsan javob beradilar.

Moliya organlarining javobgar hodimlari tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan to'g'ri o'tkazilganligi uchun javobgar bo'ladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasining mohiyatini tushuntiring.
2. Xarajatlar smetasining turlari va mazmunini ayting.

3. Xarajatlar smetasini tuzishda nima e'tiborga olinishi kerak?
4. Xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlarning majburiyatlari nimadan iborat?
5. Xarajatlar smetasini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni nazorat qilish tartibi qanday?
6. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining tasdiqlanishi hamda ro'yxatdan o'tkazishning rasmiylashtirilishini to'g'riligini tekshirish qanday amalga oshiriladi.?
7. Yangidan tashkil qilinayotgan tashkilotlarning xarajatlar smetasi qanday tuziladi?
8. Tashkilotlarning xarajatlar smetasi necha nusxada tuziladi?

IV bo'lim. NODAVLAT MOLİYAVIY NAZORATI

XII bob. AUDITORLIK NAZORATI

12.1. Auditorlik nazoratining mazmun-mohiyati

Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor tizimiga o'tilishi va turli tijorat tizimlarining paydo bo'lishi bilan ularning moliyaviy ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini obyektiv baholashga nisbatan talablar keskin oshirildi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 mayda qabul qilingan bo'lib⁵⁷, unga 2009 yil 9 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining 216-son Qonuni bilan o'zgartirishlar kiritilgan. Mazkur qonunning 3-moddasiga binoan "Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi".

Auditorlik tashkilotlari quyidagi professional xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin⁵⁸:


- buxgalteriya xisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish;
- moliyaviy xisobotni tuzish;
- milliy moliyaviy xisobotni buxgalteriya xisobi xalqaro standartlariga o'tkazish;

⁵⁷ Avvalgisi 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan

⁵⁸ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 may, 17-modda

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini taxlil qilish;
- buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha xisob-kitoblar va deklaratsiyalarni tuzish.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatining milliy standartlarda nazarda tutilgan boshqa professional xizmatlarini xam ko'rsatishlari mumkin.



68 -rasm. Auditorlik faoliyatining asosiy prinsiplari

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarining roli va maqomini belgilash, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalari hisobini yuritishni ta'minlash maqsadida so'nggi vaqtlarda bizning mamlakatimizda auditorlik faoliyatini amalga oshirish tartibiga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi⁵⁹.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'g'risida» 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori.

Xususan, belgilab qo'yildiki, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish ishlari auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan mikrofirmalarning moliya-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan majburiy tarzda tegishli auditorlik tashkilotlari jalb etilgan holda tekshiriladi. Bunda moliyaviy hisobotning to'g'riligi uchun auditorlik tashkiloti javobgar hisoblanadi.

Auditorlik tashkiloti quyidagi huquqlarga egadir⁶⁰:


- auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis xujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot xujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil belgilash;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq xujjatlarni to'liq hajmda olish, shuningdek ushbu xujjatlarda hisobga olingan xar qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish xamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish;
- uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan axborotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olish;
- ishonchli auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish;

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 may, 6-modda

- auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olingan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga professional xizmatlar ko'rsatish, bundan buxgalteriya xisobini yo'lga qo'yish, tiklash, yuritish va moliyaviy xisobot tuzish mustasno;

- auditorlarning respublika jamoat birlashmasiga a'zo bo'lib kirish.

Auditorlik tashkiloti qonun xujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga xam ega bo'lishi mumkin.



69-rasm. Auditorlik tashkilotlari faoliyatini amalga oshirish shartlari

Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganlik yoki lozim darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga va auditorlik

tekshiruvining buyurtmachisiga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda, qonun xujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart.

Auditorlik tashkilotining majburiyatlari

→	auditorlik faoliyatini amalga oshirayotganida ushbu Qonun xamda boshqa qonun xujjatlarining talablariga rioya etishi
→	auditorlik tekshiruvini o'tkazilishga doir shartnoma tuzishdan oldin buyurtmachining talabiga binoan auditorlik faoliyatini o'tkazish xuquqini beruvchi tegishli lisenziyani, auditorlarning malaka sertifikatini taqdim etishi
→	Xo'jalik yurituvchi sub'ektning so'roviga binoan auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha qonun xujjatlarining talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlari asoslanilgan qonun xujjatlarining normalari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi
→	auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan axborotning maxfiylikiga rioya etishi
→	auditorlik xisobotida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi buzilishi faktlarining xamda ularni bartaraf etish vuzasidan takliflarni aks ettirishi
→	o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijalariga doir auditorlik xulosalari va auditorlik xisobotlarining nusxalari auditorlik tashkilotida mavjud bo'lishini xamda ularning qonun xujjatlarida belgilangan tartibda saqlanishini ta'minlashi
→	auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishlarini ta'minlashi
→	auditorlik tashkilotlarini majburiy reyting baxolash uchun auditorlarning respublika jamoat birlashmasi so'roviga ko'ra axborot taqdim etishi
→	xo'jalik yurituvchi sub'ektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari zarar yetkazganligini aniq tasdiqlab turgan faktlarni aniqlagan taqdirda bu xaqda xo'jalik yurituvchi sub'ektning raxbariyatiga (mulkdoriga) ma'lum qilishi xamda auditorlik xisobotiga tegishli qaydni kiritishi shart

70- rasm. Auditorlik tashkilotining majburiyatlari

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir⁶¹. Auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

Auditorlik tashkilotlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari xamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonun xujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotlarining muassislari bo'la olmaydilar.

Auditorlik tashkilotlari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ko'rinishidan tashqari, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin.


12.2. Auditorlik tekshiruvining mohiyati va shakllari

Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi va qonun xujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini xamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Auditorlik tekshiruvi 2 xil shaklda o'tkaziladi.

⁶¹ O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 may, 5-modda

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo'jalik yurituvchi subyekt bo'ladi. Auditorlik tashkilotini tanlash xo'jalik yurituvchi subyekt mulkdori, shuningdek qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishi bilan kelishib olinadi.



71-rasm. Auditorlik tekshiruvining shakllari

Quyidagilar xar yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari xamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar xamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag'larining xosil bo'lish manbalari qonun xujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish byudjetdan tashqari fondlar;
- ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar.

Hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o'tkazilmasligi hamda auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyekt oldingi yil uchun o'z yillik moliyaviy hisobotini hisobot yilining 1 mayigacha auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi tamom bo'lgandan keyin 15 kun mobaynida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi.

Auditorlik xulosasi nusxasi soliq organiga belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyekt soliq organiga auditorlik xulosasi mavjud emasligining sababini aks ettiruvchi tushuntirishni yozma shaklda taqdim etishi kerak.

Qonun hujjatlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yintovlash xo'jalik subyektining mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanishiga olib keladi. Xo'jalik subyektining mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llangandan keyin kalendar yil oxirigacha majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlash xo'jalik subyektidan quyidagi jadvalda keltirilgan miqdorda jarima undirilishiga olib keladi. Bunda majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yintovlangan taqdirda xo'jalik subyektiga sud tartibida jarima solinadi, xo'jalik subyekt sodir etilgan huquqbuzarlikda aybini tan olgan hamda jarimani ixtiyoriy ravishda to'lagan taqdirda esa - jarima soliq organi tomonidan solinadi.

Jarima Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-son qaroriga 2-ilova, "Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga⁶² muvofiq undiriladi. Bunda xo'jalik subyektining oxirgi hisobot

⁶² Mazkur Nizomga O'zbekiston Respubliasi Prezidentining 02.07.2008 y. PQ-907-son Qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

sanasidagi joriy aktivlarining 20%idan ortiq bo'lgan yalpi jarima xo'jalik subyektiga jarima solish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab undiriladigan summani 6 oy mobaynida har oyda bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berilgan holda undirib olinadi.

Jarima stavkalari tabaqalashtirilgan va majburiy tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi subyektning hisobot yili oxirida mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi tushumi miqdoriga qarab belgilanadigan miqdorlarda undirib olinadi. To'lanadigan jarimalar to'liq miqdorda respublika byudjetiga o'tkaziladi.

Jarima miqdori*	Bir yilda maxsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan yalpi tushum miqdori (QQS ham shu jumlagi kiradi)**
Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 50 baravari	Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 500 baravarigacha
Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 75 baravari	Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 500 baravaridan 15 ming baravarigacha
Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 100 baravari	Eng kam oylik ish xaqi miqdorining 15 ming baravaridan ortiq

72-rasm. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bo'yin tovlaganlik uchun jarima miqdori⁶³

Soliq organlari:

- majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar bo'yicha auditorlik tekshiruvi o'tkazgan auditorlik tashkilotini ko'rsatib o'tgan holda majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;

⁶³ Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida NIZOM, 2008 y

- majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yintovlagan xo'jalik yurituvchi subyektlar;
- majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yintovlagan xo'jalik yurituvchi subyektlarga va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan qo'llanilgan jarima sanksiyalari to'g'risida ma'lumotlar bazasini olib boradi.

Davlat soliq qo'mitasi har yili 20 fevralgacha va 20 iyulgacha litsenziya beruvchi organga ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlar va ularga nisbatan o'tgan yil va joriy yilning 1-yarmi uchun qo'llanilgan jarima sanksiyalari to'g'risida umumlashma axborot taqdim etadi. Bunda har bir majburiy auditorlik tekshiruidan o'tkazilgan xo'jalik yurituvchi subyekt bo'yicha mazkur tekshiruvni olib borgan auditorlik tashkiloti ko'rsatib o'tiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jazo choralari qo'llamaganligi uchun soliq organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muxofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi xamda unga mazkur shartnoma asosida xaq to'lanadi. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishlarga xaq to'lash auditorlik tekshiruvini belgilagan organ xisobidan amalga oshiriladi. Aynan bir xil asoslarga ko'ra aynan bir auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik

yurituvchi subyektning faoliyatini tekshirishga takror jalb etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini qo'zg'atuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt, uning mulkdori, shuningdek ustav kapitalida qonun xujjatlarida belgilanganidan kam bo'lmagan miqdordagi ulushga ega qatnashchilar va aksiyadorlar, nazorat qiluvchi yoki huquqni muxofaza qiluvchi organlardir.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi quyidagi huquqlarga ega:

- auditorlik tashkilotini mustaqil tanlash;
- tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda auditorlik tekshiruvining yo'nalishi va xajmini belgilash;
- auditorning e'tirozlari asoslanilgan qonun xujjatlarining normalari to'g'risidagi zarur axborotni auditorlik tashkilotidan olish;
- auditorlik xisoboti va auditorlik xulosasini olish.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi qonun xujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir shartnomaga muvofiq auditorlik xizmatlarining xaqini o'z vaqtida to'lashi shart.

12.3. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi va nazorati

Auditorlik faoliyati (professional xizmatlar bundan mustasno) maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya maxsus vakolatli davlat organi tomonidan beriladi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik

tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida"gi Qaroriga⁶⁴ muvofiq auditorlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha maxsus vakil qilingan davlat organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga bir qancha funksiyalar yuklatilgan.

Auditorlik tashkilotining arizasiga ko'ra litsenziya auditorlik tekshiruvlarining quyidagi turlarini amalga oshirish uchun beriladi:

- faqat o'z tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga;
- xo'jalik subyektlarini o'z tashabbusiga ko'ra va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga, ustav kapitali 500 mln so'mdan ortiq bo'lgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlari bundan mustasno;
- barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarni auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga.

⁶⁴ O'zR Prezidentining 02.07.2008 y. PQ-907-son Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan.



73-rasm. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining auditorlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha funksiyalari

Litsenziyalovchi organning auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berish, berishni rad etish, uning amal qilishini to'xtatish, uni bekor qilish, amal qilishini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib turish yoki litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

- ta'sis hujjatlarning notarial tasdiqlangan nusxalari va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma;

- shtatdagi auditorlarning, shu jumladan buxgalterlik xalqaro sertifikatiga ega bo'lgan auditorlarning, ularning Nizomda belgilangan eng kam soniga muvofiq bo'lgan shtatdagi auditor malaka sertifikatlari hamda buxgalter xalqaro sertifikatlarining tasdiqlangan nusxalari;

- mehnat daftarchalarining notarial tasdiqlangan nusxalari va asosiy ish joyi bo'yicha shtatdagi auditorlarni Nizomda nazarda tutilgan shtatdagi auditorlarning eng kam soniga to'g'ri keladigan miqdorda ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqlarning tasdiqlangan nusxalari;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaning tegishli turi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan miqdordagi ustav kapitalining to'liq shakllantirilganligini tasdiqlaydigan hujjat nusxasi;

- arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bankning to'lov hujjati.

Litsenziya olish uchun topshirilgan ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqiladi. Auditorlik tashkiloti hujjatlarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish muddati litsenziya olish uchun ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab 15 kalendar kunni tashkil etadi.

Hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun (to'lov kunidagi) eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida yig'im to'lanadi. Arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi. Auditorlik tashkiloti hujjatlarni ko'rib

chiqish davrida bergan arizasini qaytarib olgan holda yig'im qaytarib berilmaydi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya amal qilish muddati cheklanmasdan beriladi. Litsenziyalovchi organ litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida auditorlik tashkilotiga qaror qabul qilingandan so'ng uch kun mobaynida bildirish xati yuborishi kerak.

Litsenziya berish to'g'risidagi bildirish xati litsenziya bitimi loyihasi ilova qilingan holda yozma shaklda auditorlik tashkilotiga yuboriladi, unda davlat boji to'lanadigan bank hisobraqami rekvizitlari va davlat bojini to'lash muddati ko'rsatib o'tiladi. Auditorlik tashkiloti tomonidan davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda va litsenziya bitimi imzolanganidan so'ng litsenziya beriladi. Litsenziya berganlik uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida davlat boji respublika byudjetiga undiriladi.

Litsenziyalovchi organ auditorlik tashkiloti tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganligi, hujjatlarda ishonchsiz yoki chalkash ma'lumotlar bo'lganligi, shuningdek, auditorlik tashkiloti litsenziya talablari va shartlariga muvofiq emasligi sababli auditorlik tashkilotiga litsenziya berilishini rad etishga haqlidir. Litsenziya berishni rad etish to'g'risidagi qaror asoslangan bo'lishi va auditorlik tashkilotiga yozma shaklda yuborilishi kerak, unda rad etish sabablari va auditorlik tashkiloti ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etib hujjatni takroran ko'rib chiqish uchun auditorlik tashkilotiga ko'pi bilan 15 kun muddat beriladi.

Hujjatlarni qayta ko'rib chiqish litsenziyalovchi organ tomonidan auditorlik tashkilotining barcha zarur hujjatlar bilan birga arizasi olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotining arizasi qayta ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilish muddati tugagunga qadar 2 oy oldin litsenziyalovchi organga litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida quyidagi hujjatlar ilova qilingan arizani taqdim etadi:

- ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxalari (litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilgan sanada ularga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda);
- auditorlik tashkiloti tarkibida auditorlik tekshiruvlarni amalga oshiruvchi auditorlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- moliyaviy ahvol to'g'risida belgilangan shakldagi ma'lumotnoma;
- arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat.

Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun auditorlik tashkiloti tomonidan eng kam ish haqi miqdorida yig'im to'lanadi va litsenziyalovchi organning maxsus hisobraqamiga o'tkaziladi. Litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uzaytirishni rad etish to'g'risidagi qaror auditorlik tashkilotining arizasi olingan kundan boshlab 10 kun muddatda qabul qilinadi. Litsenziyaning amal qilish muddati tegishli davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so'ng 3 kun muddatda 5 yilgacha muddatga uzaytirilishi mumkin.

Quyidagilar auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari hisoblanadi:


- "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga, Auditorlik faoliyatining milliy standartlari, shuningdek boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;
- litsenziya olinayotganda belgilangan miqdorda to'liq shakllantirilgan ustav kapitaliga ega bo'lish;
- faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;
- fuqarolik mas'uliyatini sug'urta qilish polisiga ega bo'lish;

- auditor tomonidan auditorlik faoliyatini faqat bitta auditorlik tashkilotida amalga oshirish;
- shtatda auditorlar sonining nazarda tutilgan miqdorda bo'lishi;
- litsenziya turiga muvofiq shtatdagi auditorlarda xalqaro buxgalter sertifikatining bo'lishi;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida olingan axborotning sir saqlanishini ta'minlash;
- auditorlik tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat auditorni tayinlash;
- auditorlik tashkiloti rahbarining 3 yilda bir marotaba litsenziyalovchi organda attestatsiyadan o'tishi;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida mustaqillikni ta'minlash;
- ishonchli auditorlik hisoboti tuzish va auditorlik xulosasi berish;
- auditorlik tashkilotlarida auditorlar ish sifatining ichki standartlari mavjudligi;
- o'z pochta manzili o'zgargani to'g'risida 10 kun muddatda litsenziyalovchi organni xabardor qilish;
- auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yarim yilda 1 marta belgilangan shaklda litsenziyalovchi organga taqdim etish, shuningdek auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq boshqa axborotlarni litsenziyalovchi organ talabi bo'yicha taqdim etish.

Litsenziyalovchi organ auditorlik tashkilotlari tomonidan litsenziya shatnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Litsenziyalovchi organ tomonidan auditorlik tashkilotlarining litsenziya talablari va shartlariga rioya qilishini tekshirish har uch yilda kamida bir marta amalga oshiriladi. Auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va

shartlari buzilgan taqdirda litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga to'xtatib turishga yohud o'n ish kunidan ortiq muddatga to'xtatib turish yoki to'xtatish to'g'risida sudga murojaat qilishga haqlidir.



74-rasm. Auditorlik tashkilotlariga qo'yilgan qo'shimcha litsenzion talablar

Auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida ellik foizi muassislar (ishtirokchilar)ning pul mablag'laridan, qolgan qismi esa auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan moddiy boyliklardan shakllantiriladi.

Ko'rsatkichlar	Ustav kapitali hajmi	Shtatdagi auditorlar	Xalkaro buxgalterlik sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar soni
Fakat tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 1500 EKIX	kamida 2 ta	shart emas
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda (ustav kapitali 500 mln so'mdan ortiq bo'lgan ochiq turdagi aksiyadorlik kompaniyalari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashkari) tashabbus va majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 3000 EKIX	kamida 4 ta	kamida 1 ta
Barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 5000 EKIX	kamida 6 ta	kamida 2 ta

75-rasm. Auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziya talablarining tabaqalanishi⁶⁵

⁶⁵ 2000 yil 22 sentyabrdagi Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to'g'risida NIZOM, 2008 yilda o'zgartirishlar kiritilgan

Litsenziyaning amal qilishi auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va shartlarining buzilganligi aniqlangan, shuningdek litsenziyalovchi organning aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to'g'risidagi qarori auditorlik tashkiloti tomonidan bajarilmagan taqdirda to'xtatib turilishi mumkin.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori u qabul qilingan kundan boshlab uch kundan kechikmay yozma shaklda auditorlik tashkilotiga yetkaziladi. Sudning litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Litsenziyalovchi organ yoki sud litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun auditorlik tashkilotiga muddat belgilaydi. Bunda litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni bartaraf etish uchun sud qarorida belgilangan muddat 6 oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatib qo'yilgan davrda auditorlik tashkiloti tomonidan faoliyatni amalga oshirish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni auditorlik tashkiloti tomonidan bartaraf etishda litsenziyalovchi organ yoki litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan sud ko'rsatib o'tilgan holatlarning bartaraf etilganligi to'g'risidagi tasdiqnoma olingan kundan boshlab 10 kun muddatda litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi shart.

Basharti auditorlik tashkiloti ko'rsatib o'tilgan holatlarni belgilangan muddatda bartaraf etmagan bo'lsa, litsenziyalovchi organ litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida sudga murojaat qiladi.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi hollarda ham to'xtatiladi:

- auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganda;
- auditorlik tashkiloti tugatilganda;
- auditorlik tashkilotining faoliyati qayta tashkil etish natijasida to'xtatilganda, u qayta o'zgartirilgan hollardan tashqari;
- auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya talablari va shartlari muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;
- litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlar auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziyalovchi organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etilmaganda;
- litsenziyalovchi organning litsenziya berish to'g'risidagi qarorining noqonuniyligi aniqlanganda.

Litsenziyalovchi organning litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qarori auditorlik tashkilotiga yozma shaklda, asosli sababi ko'rsatilgan holda, u qabul qilingan kundan boshlab 3 kundan kechikmay yetkaziladi. Sudning litsenziyaning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

Litsenziya uning amal qilishini to'xtatish to'g'risidagi qaror auditorlik tashkiloti tomonidan olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida litsenziyalovchi organga va yo'q qilish uchun qaytariladi.

Litsenziyaning amal qilishi to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab to'xtatiladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo'pol ravishda buzishga quyidagilar kiradi:

- faoliyatning auditorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqa turlarini amalga oshirish;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta'minlamaslik;
- ishonchsiz yohud shak-shubhasiz yolg'on auditorlik xulosasi tuzish;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida olingan mahfiy axborotni auditorlik tekshiruvi buyurtmachisining ruxsatisiz oshkor qilish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

- auditorlik tekshiruvlarni o'tkazishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklanishlarga rioya qilmaslik;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda fuqarolik mas'uliyati sug'urta polisining yo'qligi;

- litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini litsenziyalovchi organning tekshiruvlaridan bo'yin tovlash.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- auditorlik tashkiloti litsenziyani bekor qilish to'g'risida ariza bilan murojaat qilsa;

- litsenziya qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi aniqlansa;

- litsenziyalovchi organning litsenziya berish to'g'risidagi qarori noqonuniyligini aniqlasa;

- agar auditorlik tashkiloti litsenziya berish uchun qaror qabul qilinganligi to'g'risida bildirish xati yuborilgan (topshirilgan) paytdan boshlab 3 oy davomida litsenziyalovchi organga davlat boji to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etmagan bo'lsa, yohud litsenziya bitimini tasdiqlamagan bo'lsa.

Litsenziyaning amal qilishini bekor qilish to'g'risidagi qaror auditorlik tashkiloti tomonidan olingan kundan boshlab litsenziya 10 kun davomida litsenziyalovchi organga qaytarilishi va yo'q qilinishi kerak. Bekor qilish to'g'risidagi qaror litsenziya berilgan sanadan boshlab amal qiladi.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish, yangilash, to'xtatish, litsenziyani bekor qilish to'g'risidagi qarorlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi kerak.

Litsenziyalovchi organning qarori ustidan auditorlik tashkiloti tomonidan belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

12.4. Auditorlik hisoboti va xulosalari

Auditorlik xisoboti - auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan xujjatdir. Auditor hisobotida aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar mavjud bo'lishi kerak.

Agar auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashchilari (aksiyadorlari) yoki nazorat qiluvchi va huquqni muxofaza qilish organlari topshirig'iga binoan auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvi topshirig'iga binoan o'tkazilayotgan shaxsga ham taqdim etiladi.

Auditorlik hisobotidagi axborot mahfiy hisoblanadi va oshkor qilinishi mumkin emas. Ushbu axborotdan foydalangan shaxslar axborotni oshkor qilganlik uchun qonun xujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik hisobotining har bir beti auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditor (auditorlar) tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Auditorlik hisobotining shakli va mazmuni auditorlik faoliyatining milliy standartlari bilan belgilanadi.

Auditorlik xulosasi - moliyaviy xisobotning to'g'riligi va buxgalteriya xisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy xisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

Auditorlik xulosasi auditorlik xisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muxri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.


Auditorlik xulosasining shakli va mazmuni auditorlik faoliyatining milliy standartlari bilan belgilanadi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazmay tuzilgan yohud auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilsa-da, lekin auditorlik tekshiruv davomida auditor (auditorlar) tomonidan olingan va o'rganilgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'lmagan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilgan xisoblanadi.

Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilganligi auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaning amal qilishini belgilangan tartibda tugatishga, shuningdek aybdor shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Auditorlik xulosalarini "Soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risida"gi Nizomga⁶⁶ muvofiq auditorlik xulosasi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

⁶⁶ Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-qaroriga 1-ILOVA



76-rasm. Auditorlik xulosasining turlari

Xo'jalik yurituvchi subyektlar auditorlik tekshiruvi o'tkazilgandan keyin 15 kun mobaynida auditorlik xulosasi nusxasini o'zi joylashgan joydagi soliq organiga taqdim etadi.

Mavjud auditorlik xulosalarini umumlashtirish natijalari bo'yicha yig'ma axborot soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlarni nazorat organlari tomonidan tekshirishning kelgusi yildagi reja-jadvalini tuzish uchun Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashiga joriy yilning 1 oktyabrigacha taqdim etiladi.

Quyidagilar oxirgi tekshirish o'tkazilgandan keyin kamida 24 oydan oldin soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati tekshirilmaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar ro'yxatga kiritishning shartlari hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektda oldingi 2 yil uchun har yilgi ijobiy auditorlik xulosalarining mavjudligi;

- oxirgi 2 yil mobaynida byudjetga to'lovlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarning yo'qligi;

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan tekshirishdan ozod etilgan davrga ijobiy auditorlik xulosalarining taqdim etilishi.

Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirish reja-jadvaliga belgilangan tartibda kiritilishi kerak.

Soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkazilgan tekshirishda auditorlik xulosasining xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining natijalariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, ushbu auditorlik xulosasi oldindan noto'g'ri deb hisoblanadi, auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq organlari tegishli auditorlik tashkilotlari tomonidan amaldagi qonun hujjatlari qoidalarining buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini xabardor qilishlari shart.

Noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzganlikda aybdor bo'lgan auditorlik tashkiloti va shaxslarning javobgarlikka tortilganligi xo'jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashning belgilangan tartibini buzganlik uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jarimalardan ozod etmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1. Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Auditning asosiy tamoyili nimadan iborat?
3. Auditorlik tashkiloti qanday huquqlarga ega?
4. Auditorlik tekshiruvining qanday shakllari mavjud?

5. Auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bo'yin tovlaganlik uchun jarima qanday tartibda kim tomonidan undiriladi?

6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha qanday funksiyalarni bajaradi?

7. Auditorlik tashkilotlariga litsenziya auditorlik tekshiruvlarining qanday turlarini amalga oshirish uchun beriladi?

8. Auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziya talablari qanday tabaqalanadi?

9. Auditorlik hisoboti va xulosasi deganda nimani tushunasiz?

10. Auditorlik xulosasining qanday turalari mavjud?

XIII bob. ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI MOLIYAVIY NAZORATNI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

13.1. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni tashkil etish

Ichki nazorat - bu xo'jalik yurituvchi sub'yektning rahbariyati tomonidan tashkil etilgan moliyaviy-xo'jalik faoliyati nazorati hisoblanadi.

Nazorat usullarini yangi shakllaridan foydalanishning zaruriyati shundaki, nazorat organlari byudjet mablag'lari xarajatlarining to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini, tashkilot asosiy faoliyati xarajatlarini samarali foydalanish nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Ushbu vazifalarni yechish uchun har bir tashkilot yoki tashkilotlarda ichki nazorat va ichki auditni yo'lga yo'yilgan mexanizmi ishlashi lozim.

Ichki nazorat tizimi rahbariyatga qonunda belgilangan me'yorlarga muvofiq tarzda korxonalarni yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Ichki moliyaviy nazorat tizimi aniq xo'jalik yurituvchi sub'yektlar hamda byudjet tashkilotlari va muassasalarining rahbarlari va funksional tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan kundalik ish-faoliyatning ajralmas qismidir. Ushbu tizimning mohiyati asosan korxonalar, ularning ayrim tuzilmaviy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini xo'jalik yurituvchi sub'yektning o'z buxgalteriyasi, moliya bo'limi va ayrim iqtisodiy xizmatlari tomonidan tekshirishdan iborat deb, u "ichki xo'jalik nazorati" atamasi bilan belgilangan.⁶⁷

"Ichki nazorat – bu jarayon, kompaniya direktorlar kengashi, menejment va boshqa hodimlar tomonidan amalga oshiriladi va quyidagi vazifa va maqsadlarga erishish uchun yo'naltiriladi:

- kompaniya operatsiyalarining samaradorligi va natijaviyligi;
- moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi;

⁶⁷ LI A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik .2006 yil.69 bet.

Tegishli qonunchilik, qonun osti akt va reglamentlariga rioya qilinishi.”⁶⁸

Odatda nazorat tadbirlari maqsadlariga erishishi uchun tekshirilayotgan sub'yektning buxgalteriya hisobi tizimi uning xo'jalik faoliyatini to'g'ri aks ettirishiga yetarlicha to'liq ishonch hosil qilish zarur. Ichki nazorat tizimi, uning miqyosi, rasmiylashtirish va tekshirilayotgan sub'yektning tarkibiga va uning faoliyati xususiyatlariga muvofiqligi darajasini o'rganish bunday ishonchni shakllantirishga ko'maklashishi mumkin. Ichki xo'jalik nazorati xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning turli resurslari va potensialini saqlab qolish va ulardan samarali foydalanishda, ularning moliyaviy faoliyatida qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi

Bu nazorat xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, umuman byudjet tashkilotlari va muassasalari va ularning ayrim tuzilmaviy bo'linmalari moliyaviy faoliyati ustidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar, byudjet tashkilotlari va muassasalarining o'z maxsus xizmatlari (buxgalteriya, moliya bo'limlari) tomonidan moliyaviy munosabatlarda qonunchilik va intizomga rioya etilishi masalalari bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvdan iborat.⁶⁹

Ichki nazorat xizmati tashkilot yoki muassasaning ichida tashkil qilinsa, tashqi tekshiruv xizmati tekshirilayotgan muassasaning tashkiliy tarkibiy qismi hisoblanmaydi. Oliy nazorat organi tashqi nazorat organi hisoblanadi.

Ichki nazorat xizmati qaysi tashkilotda tashkil etilgan bo'lsa, o'sha idora rahbariga bo'ysunishi kerak. Ba'zida, u tashkiliy struktura tarkibida funksional va tashkiliy jihatidan mustaqil bo'lishi mumkin.

Oliy nazorat organi tashqi tekshiruv xizmati sifatida ichki nazorat tizimini samaradorligini tekshiradi. Agar ichki nazorat xizmati samarali deb baholansa, ichki nazorat xizmati va oliy nazorat organi o'rtasida vazifalarni taqsimlash va hamkorlik qilish uchun oliy nazorat organi qolgan tekshiruvlarni o'tkazmasligi mumkin.

⁶⁸Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B., Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma –

⁶⁹ LI A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik .2006 yil.70 bet

Ichki moliyaviy nazorat tizimida asosiy bo'g'in bosh hisobchi hisoblanadi. Bosh buxgalter kamomad hosil bo'lishi, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy sarflanishi hamda moliyaviy va xo'jalik qonunchiligi buzilishining oldini olishga doir chora-tadbirlarni tayyorlashda faol ishtirok etish lozim.

Pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo'lgan hujjatlar hamda kredit va hisob-kitob hujjatlari rahbar va bosh buxgalter yoki buning uchun vakolat berilgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bosh buxgalter qonunchilikda belgilangan operatsiyalar va pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar va boshqa boyliklarni qabul qilish, saqlash va xarajat qilish bo'yicha belgilangan tartibga zid bo'lgan hujjatlarni ijro uchun qabul qilishi va rasmiylashtirishi man etiladi.

Bosh buxgalter o'ziga qarashli hodimlarning xizmat vazifalarini belgilaydi. Boshqa bo'linmalar va xizmatlarning buxgalteriya hisobi, hisob yuritish va hisobot masalalari bilan shug'ullanuvchi hodimlari bosh buxgalterga bo'ysunadilar.

O'z funksiyalarini bajarish uchun bosh buxgalterga tegishli huquqlar berilgan. Xususan, u bank rahbaridan buxgalteriya hisobi va nazoratning to'g'ri tashkil etilishini ta'minlash, tarkibiy bo'linmalarda pul mablag'lari, tovar-moddiy boyliklar va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, kirim qilish, saqlash va sarflash bo'yicha belgilangan tartibga rioya etilishini tekshirish va h.k. yuzasidan choralar ko'rilishini talab qilishi mumkin.

Shunday qilib, bosh buxgalterga qonunchilik va moliya intizomining buzilishini o'z vaqtida aniqlash, ogohlantirish va bunga yo'l qo'yilmasligi uchun yetarli bo'lgan vakolatlarni berilgan.

Tashqi tekshiruvchilar uchun ichki nazorat natijalaridan foydalanish ham yaxshi asos bo'lishi mumkin. Biroq, uning samaradorligi va natijaviyligini to'g'ri baholash, shaxsiy nazorat tadbirlarini rejalashtirishda, zaruriy tekshiruvlarning turi, vaqti va hajmini aniq belgilash uchun ular tekshirilayotgan


ob'yektda ichki nazorat tizimining ishini, uning natijalarini hisobga olishni etarli darajada tushunishi zarur.

Tekshirilayotgan ob'yektning ichki nazorat tizimini baholash muayyan nazorat tadbirlarini baholashga yoki ijobiy, yohud salbiy ta'sir etish mumkin. Masalan, ichki nazorat tizimining samarasizligi isboti ma'lum moliyaviy hisobotni baholashda shubha uyg'otishi mumkin. Va aksincha, ichki nazoratning samaradorligi tashqi tekshiruv ob'yektlarining sonini kamaytirishi mumkin.

Birinchi navbatda kelgusi tekshiruv uchun ichki nazoratning asosiy sohasini o'rganish zarur.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ichki nazorat tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:⁷⁰

- nazorat muhiti;
- buxgalteriya hisobining mavjud tizimi;
- aktivlarning saqlanganligi ustidan nazorat;
- qonun va me'yoriy xujjatlarga rioya qilish ustidan nazorat.



⁷⁰ Родионова В.М., Шлейников В.И., Финансовый контроль. Учебник.-М.:ИД. ФБК.-PRESS, 2002

77-rasm. Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ichki nazorat tizimi

Nazorat muhiti, ichki nazorat tizimini belgilash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tekshirilayotgan ob'yektning rahbariyatining amaliy harakati va ma'lum qilish tushuniladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari;
- tashkiliy tuzilma;
- mas'uliyat va vakolatni taqsimlash;
- hodimlar siyosati;
- tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash;
- ichki hisobotning ichki boshqaruv hisobi va tayyorlanishi;
- amaldagi qonunchilik talablariga xo'jalik faoliyatining muvofiqligi.

Nazorat tadbirlari maqsadlari uchun ichki nazoratning ahamiyatini aniqlashda, xususan tekshirilayotgan sub'yektning nazorat vositalari quyidagi maqsadlarga erishiga ishonch hosil qilish zarur:

- xo'jalik operatsiyalari butun hamda muayyan vaziyatlarda rahbariyatni ma'qullash bilan bajariladi;

- barcha operatsiyalar buxgalteriya hisobida to'g'ri summalarda, buxgalteriya hisobining tegishli hisoblarda, to'g'ri davrda, xo'jalik yurituvchi sub'yektda qabul qilingan hisob siyosati bilan muvofiqlikda belgilanadi va to'g'ri buxgalteriya hisoboti tayyorlash imkoniyatini ta'minlaydi;

- aktivlardan foydalanish muvofiq rahbariyatning ruxsati bilangina mumkin;

- buxgalteriya hisobida belgilangan va haqiqatda mavjud aktivlarga muvofiq holda rahbariyat tomonidan belgilangan davriylikda va rahbariyatning tafovuti holatlarida tegishli harakatlar qabul qilinadi.

Undan tashqari, tekshirilayotgan ob'yektda bunday tadbirlarni qo'llashda quyidagilarga ishonch hosil qilish kerak:

- buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini arifmetik tekshirish;
- hisob-kitoblar qiyosini o'tkazish;



78-rasm. Ichki nazorat tizimini belgilash va qo'llab–quvvatlashga qaratilgan choralar

- rahbar hodimlarning hujjat aylanmasi to'g'riligi va ruxsat yozuvlarini mavjudligini tekshirish;
- belgilangan davriy rejalar tartibiga muvofiq holda va kassadagi naqd pullar, jiddiy hisobot blanklari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va haqiqiy

naqd pullarning muvofiqligini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar va tovar-moddiy boyliklarni tasodifiy inventarizasiyasini o'tkazish;

- mazkur xo'jalik sub'yektidan tashqarida joylashgan manbalardan ma'lumotlardan nazorat maqsadlari uchun foydalanish.

Biroq, ichki nazorat tizimini tahlil qilishda u ma'lum ehtimoliy daraja bilan yaratilgan va unga erishilgan maqsadlarni tasdiqlash mumkin. Buning sababi ichki nazorat tizimining quyidagi mavjud cheklovlari hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi sub'yektning rahbariyati, ichki nazoratga xarajatlari ular keltirgan iqtisodiy foydadan kam bo'lishi uchun tabiiy talab;

- ichki nazoratning ko'pgina mablag'larining maqsadi noodatiy hisoblanganlarini emas, balki zarur bo'lmagan xo'jalik operatsiyalarini aniqlashdir;

- parishonxotirligi, noto'g'ri fikrlashi yoki instruktiv materiallarni tushunmasligi tufayli parvosizligi bo'yicha adashishi ishchining xususiyatlaridir;

- ichki nazoratga mas'ul bo'lgan rahbariyat vakillari tomonidan suiste'mollikka yo'l qo'yish oqibatida ichki nazorat tizimini buzish.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektning ichki nazorat tizimini baholash uch bosqichda o'tkazilishi lozim:

- ichki nazorat tizimi bilan umumiy tanishish;

- ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash;

- ichki nazorat tizimini baholashning to'g'riligini tasdiqlash.

Nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichida tekshirilayotgan sub'yekt faoliyatining o'ziga xosligi va miqyosi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish bilan bir vaqtda ular tomonidan tatbiq etilgan ichki nazorat tizimi va uning buxgalteriya hisobi tizimi bilan umumiy tanishuv o'tkazish kerak. Bunday dastlabki tanishuv natijalari bo'yicha nazorat tadbirlarini o'tkazish jarayonida tekshiriladigan ichki nazorat tizimi sub'yektiga tayanish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Agar tekshiriladigan ichki nazorat tizimi sub'yektiga umuman tayanish shart emasligi to'g'risida qaror qabul qilinsa, uning xulosalariga ushbu tizimga ishonishga asoslanmaydigan tarzda nazorat tadbirlarini rejalashtirish zarur.

Agar tekshiriladigan ichki nazorat tizimi sub'yekti bilan tanishish natijalari bo'yicha nazorat tadbirlarini o'tkazish davomida unga tayanishga harakat qilish qarori qabul qilingan, bo'lsa, uning ishonchliligi bo'yicha dastlabki baholash o'tkazish zarur.

Ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash tadbirini o'tkazish nazorat guruhlarini ishtirokchilari mustaqil ishlab chiqadigan usul va uslublarga asoslangan.

Bunda ular quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

- butun hisobot davri uchun tekshirilayotgan ob'yektning buxgalteriya va xo'jalik hujjatlarini nazorat qilish vositalarining ishonchliligini tekshirish kerak;
- tekshirishda butun davr uchun xos bo'lgan faolyaitga nisbatan xususiyat yoki farqlarga ega bo'lgan faoliyat davrlariga katta e'tibor qaratish zarur;
- butun ichki nazorat tizimi yoki alohida nazorat vositalarining ishonchliligini baholash o'rta yoki yuqori sifatida boshqa alohida nazorat vositalarining ishonchliligini baholash imkoniyatini istisno qilmaydi.

Agar ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash natijalari bo'yicha quyi sifatida baholanasa, buni kelgusida muvofiq tarzda nazorat tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirishni ta'kidlash zarur.

Agar dastlabki baholash tadbirlari natijalari bo'yicha ichki nazorat tizimi va (yoki) alohida nazorat vositalariga ishonch to'g'risida qaror qabul qilinsa, u holda nazorat tadbirlarini o'tkazish davomida ushbu baholashning to'g'riligi tasdiqlash tadbirlarini o'tkazish zarur.

Agar ishonchlilikni dastlabki baholanishi davomida butun ichki nazorat tizimi yoki biror bir uning alohida vositalarini baholash birlamchi baholash davomida olingandan past ekanligi ma'lum bo'lsa, muvofiq tarzda nazorat

tadbirlarini o'tkazish natijalari bo'yicha xulosalarning to'g'riligini oshirish uchun boshqa nazorat tadbirlarini bajarish qoidalarini tuzatish zarur.

Aktivlarning saqlanganligi nazorati. Ichki nazoratning muhim sohalaridan biri- aktivlarning saqlanganligi nazorati hisoblanadi (saqlanganlik ustidan nazorat). Ushbu nazorat xo'jalik yurituvchi sub'yektning aktivlariga ruxsatsiz ega bo'lish, foydalanish yoki taqsimlashni vaqtida aniqlash yoki bartaraf etishga qaratilgan.

Aktivlarning saqlanganligini nazorat qilish, tuzilmagan bitimlarni bartaraf etish yoki vaqtida aniqlash bilan hal etilmagan xarajatlar yoki investisiya qo'yilmalari qabul qilish, asoslanmagan majburiyatlar, tovar-moddiy zaxiralarini o'g'rilash yoki aktivlarni shaxsan foydalanishga berilishi bilan bog'liq.

Nazoratning bunday tizimi aktivlardan foydalanish rahbariyatning ruxsati bilan o'tkazilishini kafolatlash uchun yaratiladi. Ularga kreditlarni berish va nazorat qilish bo'yicha talablarga rioya qilish va belgilash, investisiyalar va shu bilan bog'liq hujjatlar bo'yicha qarorlar qabul qilish kiradi.

Aktivlarning saqlanganligini nazorat qilish tizimi yetishmovchiliklarni barataraf etish yoki aniqlash bilan cheklanmaydi. U aktivlardan ruxsatsiz foydalanish yoki ega bo'lish natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa muhim yo'qotishlarni bartaraf etish va aniqlashga yordam beradi. Ichki nazorat tashqi taftish organi tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdan farq qiladi. Bu nazoratning integrallashgan tizimi bo'lib tashkilotga moslashtirilmagan. Natijada, ichki nazorat ko'pincha boshqaruv nazorati sifatida tushuniladi.

Ichki nazorat tizimi hech qachon taftishning muhimligini pasaytirmaydi. Odatda taftish funksiyasi davlat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish, suiste'molchilik, kamomad, qallobliklarga qarshi samarali himoya vositasini bajaradi. Lekin ichki nazorat bilan rahbariyat tomonidan har qanday ichki audit o'rnini qoplash (kesishish)ni amalga oshirilishi mumkin emas.

13.2. Ichki audit xizmatini tashkil etish

Ichki nazorat asosan ichki auditdan farqli tomoni shundan iboratki, u rahbarlikning barcha darajasida amalga oshiriladi. Bundan farqli ravishda, ichki audit mustaqil auditorlar tomonidan amalga oshiriladi, ular faqat tashkilot rahbariga hisob beradi va ichki nazorat tizimini to'g'ri tuzilganligini ham tekshiradi.

Ichki nazorat tizimi samarali ichki audit funksiyasi uchun dastlabki shartlardan hisoblanadi.

Ichki audit funksiyasi organ (maxsus tuzilgan ichki tarkibiy bo'linma) tomonidan amalga oshiriladi, uning tomonidan rahbariyatga ichki nazorat tizimi samarali faoliyat yuritmoqda va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga nazorat tizimining hissi bo'yicha tavsiyalar beradi.

Ichki audit maqsadi – bu tavsiyalarni tuzish, rahbariyat tomonidan hisobga olinadigan majburiy tadbir hisoblanadi. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish rahbariyat javobgarligi hisoblanadi.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo'yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish.

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga egadir:

- ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxona mansabdor va mas'ul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

- ichki auditni o'tkazishga ko'maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:

- moliya va statistika hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;

- ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning mahfiyligiga rioya qilish;

- korxonaga uning mansabdor shaxslari va boshqa hodimlari tomonidan zarar yetkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol korxonaning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

- aktivlarni xatlovdan o'tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va korxonaning ta'sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ichki audit xizmati hodimlari quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lish;
- O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida, yohud O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga tengligi e'tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma'lumotga, oxirgi o'n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o'rindoshlik bo'yicha) ega bo'lish.

Ichki audit xizmati hodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo'lishi kerak:

aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so'mdan 10 mlrd. so'mgachani tashkil etadigan korxonalarda - kamida ikki nafar sertifikatsiyalangan auditor;

aktivlarining balans qiymati 10 mlrd. so'mdan 50 mlrd. so'mgachani tashkil etadigan korxonalarda - kamida uch nafar sertifikatsiyalangan auditor;

aktivlarining balans qiymati 50 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etadigan korxonalarda - kamida to'rt nafar sertifikatsiyalangan auditor.⁷¹

Quyidagilar ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari hisoblanadi:

-ichki audit xizmati rahbarini va uning hodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, korxona kuzatuvchi kengashining qarorlari bo'yicha ularga ish haqi miqdorini va boshqa to'lovlarni belgilash;

-korxona kuzatuvchi kengashiga bevosita bo'ysunish.

Ichki audit:

-tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;

⁷¹“Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida “NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrda 215-son qarori

- korporativ boshqarish prinsiplariga rioya qilinishini;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;
- solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;

- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;

- aktivlarning holatini;

- ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati hodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxona ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan hodim (hodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi.

Bunda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- uning bajarilishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;

- uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni;

b) korporativ boshqarish prinsiplariga rioya qilishni tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- korxona boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning qatnashchilari (muassislari)ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

- korporativ boshqarish sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta'sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig'ilishlar va korxona boshqaruv organlari majlislari o'tkazilishi, dividendlar to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi va hokazolar);

v) korxonaning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

- aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi;

g) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblanishi va to'lanishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to'lovlar hisob-kitobi to'g'riligini baholash;

- soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish;

d) moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda korxona tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

- ichki audit davomida aniqlangan korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligini bayon qilish;

e) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

- korxona tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq hodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda korxona ijro etuvchi organi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.

Yig'ma hisobot:

-tahliliy qismni;

-yakuniy qismni;

-tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobotning tahliliy qismi ichki audit hodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

Hisobotning yakuniy qismi:

-korxonaning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek likvidligiga umumiy bahoni;

-aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatining tavsiyalarini hamda korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqarishni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin 10 kun mobaynida tugallanishi zarur. Yig'ma hisobotlar bevosita korxonaning kuzatuvchi kengashiga uning ko'rib chiqishi va keyinchalik tasdiqlashi uchun taqdim etilishi kerak. Hisobotlar nusxalari tasdiqlangandan keyin korxona ijro etuvchi organiga taqdim etilishi kerak.

Ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish shart.

Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek, umuman faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarur darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.

Ichki audit faqat ichki audit xizmati hodimlari tomonidan tekshirish va monitoring o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati hodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ichki moliyaviy nazorat nima va uning moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishdagi ahamiyatini ko'rsating .
2. Bosh buxgalterni ichki moliyaviy nazoratni olib borishdagi rolini ayting
3. Tashqi tekshiruvchilar uchun ichki nazorat qanday ahamiyatga ega?
4. Ichki audit bilan ichki nazorat o'rtasida qanday farq mavjud?
5. Ichki audit natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
6. Yig'ma hisobot tarkibini ayting.

V bo'lim. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLİYAVIY NAZORAT

XIV bob. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLİYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI

14.1. Jahon hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish

BMTning taftish organini moliyaviy nazorat faoliyati jahonning turli davlatlarida joylashgan. Tashkilot faoliyatini tekshirishga ma'sul 3 kontenentning ishtirokchilarini o'z ichiga oladi.

BMT byudjetidan har yili 8 mlrd AQSh dollaridan ortiq mablag' turli dastur va loyixalarni moliyalashga ishlatiladi. Uning xarajatlari jahonda tinchlikni saqlash, ilmiy izlanishlarga, narkotik moddalarni tarqalishini oldini olishga, ma'muriy xarajatlarga to'g'ri keladi.

BMT personali maslahatchilari bilan birga 50 000 kishini tashkil etadi. BMTning byudjeti 180 dan ortiq davlatlarning reglament badallari hisobidan shakillanadi. BMTning tashqi nazorat tizimini birinchi galda taftish soveti tashkil etadi.

Taftish sovetiga BMT a'zosi bo'lgan 3 ta davlatning 3 a'zosi kiradi.

Ular 3 yillik muddatga Bosh Assanbelya tomonidan saylanadi.

Taftish sovetiga a'zolik davlatlar o'rtasida bir maromda taqsimlanishi kerak. Tashqi moliyaviy nazorat tizimiga Boshqaruv soveti bilan birga maxsus taftish bo'limlari kiradi.

Ular quyidagilar:

- Korxona va oziq – ovqat xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha BMT;
- YuNESKO;
- Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti;
- Butun jahon oziq – ovqat dasturi;

Sovetning moliya-xo'jalik faoliyatining ob'yekti bo'lib, uning tarkibidagi tashkilotlar va BMT bo'limlari kiradi:

- Nyu Yorkdagi BMTning sekretariati, hamda uning Jeneva va Venadagi bo'limlari;

- BMTning hududiy iqtisodiy komissiyalari;
- BMT personalining pensiya fondi;
- BMTning maxsus hamda tinchlikni saqlash missiyasi;
- BMTning rivojlantirish Dasturi;
- BMTning qochoqlar masalalari bo'yicha komissariati;
- BMTning bolalikni ximoya qilish Fondi;
- BMTning atrof – muhitni muhoofaza qilish Dasturi;
- Xalqaro savdo markazi;

Dunyo mamlakatlaridagi moliyaviy nazorat tizimlari tahlil etilganda, ularning aksariyati bir-biriga o'xshamaydigan ekanligini ko'rish mumkin. Ammo rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimlarini o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega. Sababi ulardagi iqtisodiy (moliyaviy) rivojlanishga moliyaviy nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligi, moliya mexanizmining amal qilishining samarali ekanligi ham aytish mumkinki o'z ta'sirini ko'rsatgan. Umuman olganda, moliyaviy nazorat tizimining ratsional (optimal) tashkil etilishi moliya tizimining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday ekan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun taraqqiy etgan mamlakatlar moliyaviy nazorat tizimini puxta o'rganish va ularning ilg'or tajribasini o'zlashtirish zaruriy ehtiyoj sanaladi.

Davlatlarda moliyaviy nazorat tizimida hal qiluvchi tashkilot shubhasiz, oliy nazorat organlari(ONO) hisoblanadi. ONO turli mamlakatlarda turlicha ataladi.

Yaponiya	Nazorat-taftish boshqarmasi	Nazorat-taftish bosh-
Mamlakatlar	Oliy moliyaviy nazorat organi	Mas'ul shaxs
KQShda	Kongressning bosh nazorat boshqarmasi	Bosh nazoratchi
Buyuk Britaniya	Milliy taftish kengashi	Bosh taftishchi

Hindiston	Davlat korxonalari, byudjet va davlat hisoboti bo'yicha parlament qo'mitasi	Qo'mita raisi
Belgiya	Hisob Palatasi	HP raisi
Fransiya	Hisob Sudi (Sud schetov)	Sud prezidenti

79-rasm. Ba'zi mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etishning oliy organlari

Rivojlangan davlatlar moliya tizimini o'rganish, ularning tashabbusi bilan qabul qilingan xalqaro moliyaviy nazorat qoidalari, umume'tirof etilgan tartiblar, tamoyil va me'yorlarni o'rganishni taqozo etadi. Moliyaviy nazoratning xalqaro amaliyotida ISSAI tushunchalari mavjud. ISSAI bu (International Standards of Supreme Audit Institutions) oliy nazorat organlari(ONO)ning (ular faoliyatining) xalqaro standartlaridir.

Moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyotida tub burilish INTOSAI tashkilotining tashkil etilishi va uning doirasida LIMA deklarasiyasining qabul qilinishi natijasida yuz berdi.

INTOSAI tashkiloti 1953 yilda mamlakatlar oliy nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun tashkil etilgan. A'zolari: 193 (188Q1Q4) ta bilib, ulardan 188 ta davlat (O'zbekiston INTOSAI a'ziligiga kirmagan) va 1 ta Evropa Auditorlar Sudi a'zo bo'lib, Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar oliy nazorat organlari tashkiloti, Portugal tilida so'zlashuvchi mamlakatlar oliy nazorat organlari tashkiloti, Ichki Auditorlar Instituti va Jahon Banki qo'shimcha a'zolar hisoblanadi. INTOSAI shtab-kvartirasi Venada joylashgan tashkilot bo'lib, yig'ilishlarini har uch yilda bir marta o'tkazadi. Tarkibida nazoratni rivojlantirish xalqaro markazi faoliyat yuritadi. INTOSAI ning Afrikada AFROSAI, Osiyoda ASOSAI, Karib dengizi havzasida CAROSAI,

Arab davlatlarini birlashtirgan ARABOSAI, Lotin Amerikasida OLACES, Evropada EUROSAI kabi mintaqaviy bo'limlari faoliyat ko'rsatadi.

Evropada moliyaviy nazorat tizimi samarali tashkil etilganligi e'tirof etiladi. Evropada umuman olganda quyidagi nazorat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi:

- Barcha darajadagi hukumatlar bo'lib, ular umumiy nazoratni olib boradilar, huquqiy bazani mustahkamlaydilar, nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradilar.

- EUROSAI, oliy nazorat organlari (ONO) faoliyatini mintaqada muvofiqlashtiradi.

- Xalqaro moliya institutlari. Ular ko'pincha moliya sektorini nazorat qilib, ular uchun me'yorlarni belgilaydilar.

- GRECO. Bu tashkilot xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash tashkiloti bo'lib, CPI (Corruption Perceptions Index) ko'rsatkichini e'lon qilib boradi. Bu moliyaviy chalkashliklar, korrupsiyani yo'qotish uchun nazorat olib boradi.

- Reyting agentliklari. Ular xo'jalik sub'yektlari yoki hukumatlarning faoliyatini nazorat qilib borib, ularni ma'lum ko'rsatkichlar asosida baholab boradi.

1977 yil Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI)ning Limada bo'lgan 9 kongressida deklarasiya qabul qilingan bo'lib, unda davlat nazorati uchun tekshiruv organlari faoliyatining tamoyillari ishlab chiqilgan. Quyida biz ushbu deklarasiya mohiyati bilan tanishib chiqamiz.

Oliy nazorat organi ishining maqsadi eng muhim hisoblangan pul va moddiy resurslarni boshqarishning qonuniyligi, to'g'riligi va tejamkorligi hisoblanadi.

Lima deklarasiyasida Oliy nazorat organi o'ziga yuklatilgan vazifalarni turli xildagi tekshiruv organlaridan mustaqil va ularning aralashuvlaridan

himoyalangan bo'lgandagina ob'yektiv va samarali amalga oshirishi mumkinligi keltirilgan.

Garchi umumiy hukumatning bir qismi sifatida oliy davlat organlari davlatdan mutloq mustaqil bo'lmasalarda, oliy nazorat organi o'z vazifalarini bajarish uchun tashkiliy va funksional mustaqillikka ega bo'lishi kerak.

Oliy nazorat organining mustaqilligi bevosita uning a'zolarining mustaqilligiga bog'liq. Oliy nazorat organlarining a'zolari qaror qabul qiluvchi va bu qarorlar uchun uchinchi shaxs oldida javobgar bo'lgan kimsalardir.

Oliy nazorat organlari a'zolarining mustaqilligi ham konstitutsiya bilan kafolatlangan bo'lishi kerak. Ayniqsa, ularning mustaqilligiga zarar yetkazmaydigan tarzda a'zolarini yollash jarayoni ham konstitutsiyada aniqlashtirilishi kerak. Oliy nazorat organi a'zolarining egallab turgan lavozimiga tayinlash yoki undan ozod qilish o'sha mamlakatning konstitutsion tuzilmasiga bog'liq.

Oliy nazorat organlari taftishchilarining xizmat lavozimlari bo'yicha harakati tekshiruv organlariga bog'liq bo'lmasligi kerak.

Oliy nazorat organlari o'z vazifalarini bajarishi uchun kerak bo'ladigan moliyaviy resurslari bilan ta'minlanishi kerak.

Oliy nazorat organi mamlakat byudjeti to'g'risida qaror qabul qiluvchi davlat tashkilotiga to'g'ridan-to'g'ri zarur moliyaviy resurslarni ajratish talabi bilan chiqishga haqli.

Oliy nazorat organi byudjetning alohida satrida o'zi uchun ajratilgan pul resurslarini o'z vakolatlari doirasida ishlatish huquqiga ega.

Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan oliy nazorat organining mustaqilligi unga parlament rahbarlariga chiqish va tekshirishlar o'tkazishda ham yuqori darajadagi tashabbusli va avtonom ishlashiga sharoit yaratadi. Oliy nazorat organi va parlament o'rtasidagi o'zaro aloqalar mamlakat talablari va sharoitlaridan kelib chiqib, milliy konstitutsiyada aniq belgilanishi kerak.

Oliy nazorat organi hukumat, uning organlari faoliyatini tekshiradi, ammo bu uning hukumatdan ustunligini bildirmaydi. Xususan, hukumat to'liq o'z faoliyati va kamchiliklari uchun javob beradi hamda oliy nazorat organlari ekspertlarining tekshiruv natijasidagi xulosalari oldida o'z javobgarligidan voz kecholmaydi.

Oliy nazorat organi maqsadli tekshirishlarni o'tkazishda qaysi tekshirish bevosita mahalliy tekshiruv organlari tomonidan va qaysi biri oliy nazorat organining o'zi tomonidan o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

Tekshiruvchi organlar oliy nazorat organiga tekshirish natijasida qabul qilingan chora-tadbirlarni ko'rsatgan holda, xulosalarini qonunda belgilangan yoki oliy nazorat organi tomonidan ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etilishlari shart.

Oliy nazorat organiga shakllantirilgan xulosalar rasmiy asoslangan ko'rinishda taqdim etilmasa, oliy nazorat organi kerakli zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish talabi bilan muqobil organlarga murojaat qilishi va aybdorlarni jazoga tortishi mumkin.

Oliy nazorat organi tekshiruvlarni ma'lum dastur asosida o'tkazishi kerak. Tekshirishlar kamdan-kam hollarda ob'yektni to'la hajmda qamrab oladi. Oliy nazorat organi qoida tariqasida, tanlanma usuldan foydalanadi. Odatda ob'yektni tekshirish muayyan model asosida olib boriladi. Moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning to'g'riligi va sifati haqida xulosa qilish uchun tanlanayotgan obyekt to'plami etarlicha katta bo'lishi kerak.

Oliy nazorat organlarining a'zolari va hamkorlari o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarini sifatli bajarish uchun kerak bo'ladigan malaka va haqqoniylikka ega bo'lishi shart.

Oliy nazorat organiga nazoratchini ishga yollash tanlovida uning nazariy tayyorgarligi, ishga qobilligi va mutaxassisligi bo'yicha ish tajribasiga e'tibor qaratilishi kerak.

Yuqori malakali kadrlarni tanlab olish uchun ularga to'lanadigan ish haqi ham ularga qo'yilgan malaka talablariga mos bo'lishi kerak.

Agarda oliy nazorat organining hamkorlari ma'lum tekshirishni o'tkazish uchun zarur bo'ldigan bilimlarga ega bo'lmasa, bunday tekshirishlarga boshqa ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

Oliy nazorat organlarining xalqaro tashkiloti doirasida g'oyalar va tajribalarni xalqaro almashish oliy nazorat organiga o'z vazifalarini bajarish uchun samarali yordam vositasi hisoblanadi.

Bu maqsadga BMT va boshqa tashkilotlarni jalb etgan holda kongresslar, seminarlar o'tkazish, mintaqaviy ishchi guruhlarining yig'ilishini o'tkazish va maxsus jurnal chop etish orqali erishiladi. Oliy nazorat organi har yili o'tkazilgan tekshirishlarning natijasi va xulosalarini o'z hisobotida parlament yoki boshqa muqobil davlat organiga yo'llashi kerak. Bu hisobot chop etilishi kerak. Bu keng ma'lumot hisoblanib muhokamaga sabab bo'ladi va shu tariqa oliy nazorat organining tavsiya va xulosalarini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratadi.

Oliy nazorat organi yillik hisobotlarni taqdim etish muddatlarini kutmasdan, alohida muhim ishlar va ularni yakunlash chora-tadbirlari to'g'risida parlamentga o'z hisobotlarini kiritishi kerak.

Yillik hisobot oliy nazorat organining barcha faoliyatini yoritib berishi kerak.

Hisobot aniq va ob'yektiv faktlar, ularning baholari va ishning ahamiyatli natijalarini o'z ichiga olishi kerak. Hisobot tili aniq va barchaga tushunarli bo'lishi kerak.

Oliy nazorat organining asosiy nazorat vakolatlari konstitusiyada belgilanishi kerak, boshqa masalalar qonun bilan mustahkamlanishi mumkin.

Nazorat vakolatlarining aniq holati davlatning sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

Davlat moliyasini boshqarishning barcha organlari davlat byutjetiga tegishliligidan qat'iy nazar, oliy nazorat organi nazoratining ob'yekti bo'ladi.

Davlat moliyasining respublika byudjetidan alohida bo'lgan qismlarini boshqarish oliy nazorat organi nazorati ostida degan xulosani bermaydi.

Soliqlarni to'lash ustidan nazorat

Oliy nazorat organi maksimal imkoniyat darajasida soliqlar to'lanishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lishi kerak.

Soliqlar to'lanishini nazorat qilish asosan, uning to'g'riligi va qonuniyligini tekshirish bilan bog'liq. Shuningdek, oliy nazorat organi soliqlarning yig'ish to'g'risidagi qonunni tekshirib, soliq xizmati ishini tashkillashtirishning va soliqlarni kelib tushish rejasi bajarilishining iqtisodiy samaradorligini o'rganishi kerak va zarur bo'lsa, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif kiritishi lozim.

Davlatdan subsidiya oladigan tashkilotlarni tekshirish

Oliy nazorat organi davlat fondlaridan taqdim etiladigan subsidiyalardan foydalanadigan tashkilotlarni tekshirish vakolatiga ega.

Agar subsidiya miqdori ahamiyatli hajmga ega bo'lsa, yoki subsidiyalangan tashkilot kapitali katta bo'lsa, bu korxonada moliyaviy resurslarni boshqarishga dahldor barcha masalalar tekshiriladi.

Subsidiyalardan noto'g'ri foydalanish aniqlangan taqdirda subsidiyani cheklash talab qilinadi.

Xalqaro va ko'pmillatli tashkilotlarni tekshirish

Xarajatlari a'zo mamalakatlarining a'zolik badallaridan qoplanadigan xalqaro va ko'pmillatli tashkilotlarni tashqi mustaqil tekshirishdan o'tkazish talab qilinadi.

Garchi tekshirish tashkilotlarning maqsadi va tuzilishini hisobga olib o'tkazilsada, tashkilotga a'zo mamlakatlarda yuqori darajadagi taftish o'tkaziladi.

Bunday tekshirishlarni mustaqilligini ta'minlash uchun tashqi nazorat komissiyasi a'zolari oliy nazorat organlarining asosiy shaxslari bo'lishi kerak.

14.2. Rossiya federasiyasi davlat moliyaviy nazorat organlari vakolatlari

Moliya sohasidagi nazorat funksiyasini Rossiya davlatida ko'pchilik vazirliklar va idoralar amalga oshiradi. Hozirgi paytda Rossiyada faqatgina federal darajada davlat moliyaviy nazorati masalalari bilan 10 tadan ortiq organlar shug'ullanadilar va bu organlar Hisob palatasidan tashqari Federasiya subyektlarida o'zlarining hududiy bo'linmalariga ega. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati tizimi – bu vazirliklar, idoralar, muassasalar majmuasidir. Har bitta nazorat organi boshqalariga qaram bo'lmagan holda nazorat chora-tadbirlarini mustaqil ravishda rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Ayni paytda Rossiya Federasiyasida 150 mingdan ortiq asosiy boshqaruvchilar, boshqaruvchilar va faqatgina federal byudjet mablag'larini oluvchilar mavjud. Turli mavqedagi byudjetlardan mablag' oluvchilar va o'z faoliyatida davlat mulkidan foydalanuvchi xo'jalik sub'yektlarining umumiy soni taxminan 3.5 mln.ni tashkil etadi. Aktiv iqtisodiy faoliyatni 2 mln.dan ortiq soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan iboratdir. Byudjetdan mablag' oluvchilar, davlat mulkini boshqaruvchilar va soliq to'lovchilarning bunchalik ko'p bo'lishi, shuningdek, mamlakat iqtisodiyoti uchun bir xil ahamiyatga ega emasligi nazorat organlarining miqdorini oqlaydi, biroq ana shu organlarning bir-birining ishini takrorlamagan holda birgalikda harakat qilishini va ularning funksiyasini chegaralashni taqozo etadi.

Har bitta organ o'zining muayyan vazifalarini bajarishi, o'zining tekshiriladigan ob'yektlariga ega bo'lishi va yagona uslubiy hamda tashkiliy tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bir paytning o'zida davlat moliyaviy nazorat tizimini yaratish ularning mustaqilligini ta'minlagan holda

barcha organlarning faoliyatini birlashtirishga va muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

RF BK sining 151 moddasiga ko'ra [2] davlat moliyaviy organlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: RF Hisob Palatasi (RF Federal Yig'ilishi tomonidan tashkil qilinadi); ijro etuvchi hokimiyatning nazorat va moliyaviy organlari; RF subyektlari qonun chiqaruvchi (vakolatli) organlarining nazorat organlariyu Ko'rib turibmizki, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish demokratik davlatda hokimiyatni tashkil qilishning bosh tamoyili hisoblanmish hokimiyatni taqsimlash tamoyiliga asoslanib quriladi, Rossiya esa Konstitutsiyaga asosan ana shunday davlat hisoblanadi.

Odatda, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan tashkil etilgan moliyaviy nazorat ichki, vakolatli hokimiyat tomonidan tashkil etilgan moliyaviy nazorat tashqi nazorat hisoblanadi. RF BK sining 268 moddasiga muvofiq RF Moliya vazirligi asosiy boshqaruvchilar, boshqaruvchilar va byudjet mablag'larini oluvchilar tomonidan byudjet mablag'larining sarf qilinishi ustidan ichki nazoratni amalga oshiradilar; RF BK sining 265 moddasida qonun chiqaruvchi organlari tomonidan tashkil etiladigan nazorat-hisobot organlarining byudjetning tashqi auditini olib borishi to'g'risida so'z yuritiladi; RF BK si 272 moddasiga muvofiq vakolatli organlarning nazorat qiluvchi organlari tomonidan byudjetning bajarilishi to'g'risidagi hisobotning tashqi audit olib boriladi; RF Hisob palatasi tomonidan federal byudjetning bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tashqaridan tekshirish to'g'risida RF BK sining 277 moddasida aytib o'tilgan.

1977 yilda oliy nazorat organlarining xalqaro tashkilotining IX Kongressida qabul qilingan nazoratning boshqaruvchi tamoyillarining Lima Deklarasiyasi deb nomlanuvchi xalqaro hujjat mavjud bo'lib (1 Ilova), unda ana shu ikki tushuncha aniq belgilab berilgan. "Ichki nazorat xizmatlari alohida idoralar va muassasalar ichida tashkil etiladi, shu bilan birgalikda tashqi taftish xizmatlari tekshiruvchi muassasalarning tarkibiy qismi hisoblanmaydi" (Deklarasiyaning 3 moddasi).

Demak, ichki nazorat – ijro etuvchi hokimiyat tomonidan davlat resurslarini boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati ustidan nazoratni anglatadi, ya'ni ijro etuvchi hokimiyat ichidagi amalga oshiriladigan nazoratni, o'z-o'zini nazorat qilishni anglatadi. Tashqi nazorat – davlat mablag'lari va davlat mulkini sarf qilish masalasida ijro etuvchi hokimiyatning faoliyati ustidan unga to'be bo'lmagan qonun chiqaruvchi organlarining nazoratini nazarda tutadi. Davlat moliyaviy nazoratining bunday tashkil etilishi davlat mablag'larini ob'yektiv baholashga imkon beradi va xalqaro tajribaga mos keladi. Nazorat organlari vakolat me'yorlari ularning huquqiy darajalarini aniqlash masalalarining kaliti hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, davlat moliyaviy nazorat organlarining vakolatlarini aniq yo'nalishlarga realizasiyasini tartibga solish ko'p darajada, boshqa masalalarga nisbatan huquqiy me'yorlardan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Ular mos davlat organining huquqiy faoliyat shakli va tartibini o'rganadi. Shu bilan birgalikda, ular bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan uchta vazifani hal etish uchun har qanday holatda ham uchta bosh maqsadni kuzatib boradi. Birinchidan, kam vaqt va mablag' sarflash orqali yuqori natijalarni ta'minlovchi, ularning maksimal mahsuldorligi to'g'risida ma'lumot beruvchi samarali shakllarni mos organlarga kiritish ishini tashkil etadi. Ikkinchidan, huquqiy kafolatlar va ularga rioya etishga sharoit yaratib, jarayonda qatnashuvchilarni huquqlari va qiziqishlarini ta'minlaydi. Uchinchidan, shunday tartib va shunaqangi ish shakllarini bog'lab qo'yiladiki, ular orqali ko'rilayotgan masalaning to'g'ri yechimi va tahlilini chuqur va har tomonlama biri ikkinchisini to'ldirib boruvchi shakllarini ta'minlash bilan birgalikda, bir tomonlama sub'yektivizmga asoslangan ko'rinishlardan hamda shoshilinch asoslanmagan qarorlarni qabul qilinishi holatlaridan ogohlantiradi.

Vakolat me'yorlari aloqalarida umumdavlat darajasida tashqi moliyaviy nazorat organi sifatida nazorat hisob organlari o'rnini alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Samarali moliyaviy nazorat uchun, nazorat-hisob organlariga to'la nazorat vakolati zarur hisoblanadi. Davlatning barcha moliyaviy faoliyati, uning davlat byudjetida yoritilishidan qat'iy nazar nazorat-hisob organlari tomonidan nazorat qilinishi kerak. Byudjet doirasida kiritilgan har qanday mablag' nazoratdan tashqarida qolmasligi kerak. Bundan tashqari davlatning o'ziga qarashli bo'lgan korxona va muassasalar (doimo davlat dotatsiyasiga qaram) ham, garchand ular davlat mablag'laridan foydalanishlariga qaramasdan mablag'lardan foydalanish va soliqlar masalasida nazoratdan chetda qolmaydilar.

Nazorat ob'yektlari ustidan umumiy boshqaruvni davlat amalga oshirar ekan, ko'p hollarda bu faoliyatda uning ijroiya organlaridagi mansabdor shaxslar ishtirok etadilar. Davlat moliyaviy nazorati, shuningdek, qonunda aniqlangan holatlarda prezident apparati tuzilmasi, huquq targ'ibot organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari moliyaviy faoliyatiga ham tadbqiq qilinadi. Nazorat ob'yekti bo'lib davlat mablag'laridan foydalanuvchi va ommaviy faoliyatni amalga oshiruvchi xususiy korxonalar ham bo'lishi mumkin.

Byudjet hisoblarini va byudjetni bajarilishini nazorati har doim nazorat-hisob organlarining asosiy vazifasi sifatida qarab kelinadi. Ko'p hollarda nazorat organlari to'g'risidagi qonunlar davlat mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatadigan hamda davlatdan qandaydir maqsadlarni amalga oshirish uchun mablag' oladiganlari uchun nazorat vakolatlarini aniqlaydi.

Rossiya federasiyasi Hisob palatasining moliyaviy nazoratni olib borishi.

RF Hisob palatasi nazorat vakolati Rossiya federasiyasining barcha davlat organlariga, jumladan, davlat apparati va muassasalariga hamda byudjetdan tashqari federal fondlariga ham tadbqiq etiladi.

Shuningdek, Hisob palatasining nazorat vakolati federal byudjet mablag'laridan foydalanuvchi, oluvchi va byudjetga mablag'lar o'tkazuvchi, federal mulkni boshqaruvchi, undan foydalanuvchi hamda federal qonunchilik asosida yoki davlatning federal organlari tomonidan soliq, bojxona yengilliklari hamda ustuvorliklar berilgan korxonalar, muassasalar, banklar, sug'urta

kompaniyalari va boshqa moliya-kredit muassasalariga mulkchilik shaklidan qat'iy nazar tadbiq etiladi.

Ushbu vakolat jamoatchilik birlashmalariga, nodavlat fondlariga va notijorat massasalariga Hisob palatasi tomonidan yuqoridagi holatlarda qo'llaniladi.

Hisob palatasi Rossiya federasiyasining ichki va tashqi qarzining holati, ichki va tashqi qarz uchun kredit resurslaridan foydalanish va uni boshqarish, RF davlati tomonidan olingan qarzlarning va chet el kreditlaridan foydalanish samaradorligi hamda qonuniyligini, davlat tomonidan joylashtirilgan markazlashgan moliyaviy resurslar va qaytarishlilik sharti bilan davlat tomonidan ajratilgan kreditlar, hamda qaytarib bermaslik sharti bilan chet mamlakatlarga va xalqaro fondlarga berilgan mablag'lar ustidan nazorat o'tkazishga vakolatlidir.

Hisob palatasi byudjetdan tashqari federal qoidalarni va RF hukumati ixtiyoridagi valyuta mablag'larini shakllantirilishini va ishlatilishini nazorat qiladi.

Mulkiy aloqalar sohasida Hisob palatasi davlat mulkidan (sh.j mulkni xususilashtirish va sotish) hamda federal mulk ob'yektlarini boshqarishdan federal byudjetga tushadigan mablag'larni nazorat qiladi.

Bank tizimi sohasida Hisob palatasi RF Markaziy banki, uning tuzilmaviy tashkilotlari va federal byudjetga xizmat qiluvchi hamda RF Markaziy Bankining RF davlat qarzigacha xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa bank va moliya-kredit muassasalari faoliyati ishi ustidan nazorat o'rnatadi.

Federal byudjetni bajarilishi nazoratning asosiy ob'yekti hisoblanadi. Byudjet Hukumat, Moliya vazirligi, Davlat Dumasida va RF Hisob palatasi tomonidan boshlang'ich, joriy va davomiylik asosida nazoratga olinadi.

Boshlang'ich nazorat bosqichi – byudjet jarayonining eng murakkab va muhimi hisoblanadi. Byudjet kodeksi Davlat Dumasida kelgusi moliya yili

uchun federal byudjet to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqish bo'yicha davlat organlari vazifalarini taqsimlaydi. Kelgusi moliya yili uchun federal byudjet loyihasi o'rnatilgan talablarga rioya qilingan holda RF Hukumatiga kiritilgan uch kun muddat ichida Davlat Dumasi Soveti tomonidan, agarda parlament ta'tilda bo'lsa Davlat Dumasi Raisi tomonidan Federasiya Sovetiga, Davlat Dumasi qo'mitalariga va kamchiliklar hamda takliflar kiritish xuquqiga ega bo'lgan boshqa qonunchilik sub'yektlariga, shuningdek, RF Hisob palatasiga xulosa uchun yuboriladi.

RF Hisob palatasi, RF Hukumati nazorat organlari va RF Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan nazoratlar natijasida federal byudjetda mablag'larni maqsadsiz va samarasiz foydalanishlari aniqlanganligi tasdiqlansa yoki federal byudjetni sub'yektlar tomonidan samarasiz va maqsadsiz yo'nalishlarga ajratilayotganligi aniqlansa, ushbu xarajatlarni qisqartirish yoki blokirovka qilish borasida takliflar kiritilsa, RF Konstitusiyasiga asosan federal byudjet loyihasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, tartibga soluvchi daromadlarni RF byudjet tuzilishi darajalari o'rtasida taqsimlash, shuningdek, RF federal byudjeti xarajatlari klassifikasiyasiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, byudjetni bajarilishini qanday bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar byudjetni bajaruvchi yoki davlat moliyasi nazorati organlari tomonidan byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlansa, byudjet xarajatlari blokirovka qilinadi, ya'ni byudjet limitlari qisqartiriladi yoki aniqlangan miqdordagi byudjet mablag'lari qabul qilingan byudjet ajratmalaridan kamaytiriladi.

Byudjet nazoratining yakunlovchi bosqichi bo'lib, byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tayyorlanishi, ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishini davomiy nazorati hisoblanadi.

RF Byudjet kodeksi byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqishda RF hukumatining ijroiya organlari sub'yektlarida va o'zini-o'zi boshqarish organlarida taqdim etilgan hisobotni ichki nazorati amalga

oshirilishi mumkin. Byudjetni bajarilishini ichki nazorati RF Moliya vazirligi tomonidan RF hukumatining ijroiya organlari sub'yektlari yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Vakil qilingan organ byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqishdan oldin tashqi tekshirish o'tkazadi. Byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tashqi nazorati mos nazorat organlari vakil qilgan organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vakillangan organ mos nazorat organi tomonidan o'tkazilgan hisobot nazorati natijalari olinganidan keyin byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot bo'yicha qaror qabul qiladi.

RF Hisob palatasi federal darajada federal byudjetni hisobot moliyaviy yili uchun bajarilishi to'g'risidagi hisobotini ko'rib chiqadi va tekshirilgan material va natijalardan foydalanib RF Hukumatidan tomonidan federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot taqdim etilgan vaqtdan boshlab 4,5 oy ichida Davlat Dumasiga hisobot bo'yicha xulosa tayyorlaydi.

RF Hisob palatasi RF Hukumatiga federal byudjetni bajarilishi bo'yicha xulosalar o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- Rossiya federatsiyasi byudjeti xarajatlari klassifikatsiyasi har bir bo'lim va paragraflari bo'yicha va federal byudjetning mablag'larini har bir bosh taqsimlovchisining byudjetning mablag'laridan aniqlangan maqsadsiz foydalanish summolari, byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish to'g'risida qaror qabul qilgan mansabdor shaxslar hamda federal g'aznachilik bo'limida yuqoridagi to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar to'g'risida xulosa;

- Rossiya federatsiyasi byudjeti xarajatlari klassifikatsiyasi har bir bo'lim va paragraflari bo'yicha va byudjet mablag'laridan o'rnatilgan me'yorlardan ortiqcha sarflagan yoki byudjet ajratmalaridan ortiq byudjet imzosini amalga oshirish bo'yicha qaror qabul qilgan har bir byudjet taqsimlovchisi bo'yicha davlat hokimiyat rahbarlarini yoki byudjet mablag'larini oluvchilar ko'rsatilgan

holda hamda ushbu to'lovlarni amalga oshirilishiga yo'l qo'ygan federal g'aznachilik bo'limidagi mansabdor shaxslar to'g'risida xulosa;

- Federal byudjet to'g'risidagi qonunda yoki byudjetda ko'zda tutilmagan xarajatlarni moliyalashtirish holatlari aniqlanganda, bunday moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilgan Davlat organi rahbarlari yoki byudjet mablag'i oluvchilar ko'rsatilgan holda va bu qarorlarni qabul qilinishida ishtirok etib yuqoridagi to'lovlarni amalga oshirgan federal g'aznachiligidagi mansabdor shaxslar to'g'risida xulosa;

- Byudjet kreditlari va byudjet ssudalarini ochish hamda yopish bo'yicha tahlil, byudjet kreditlari va byudjet ssudalarini ochish vaqtida qonunchilik talablari buzilishi bo'yicha aniqlangan faktlar bo'yicha xulosa;

- Davlat kafolatlari va ularni bajarilishi bo'yicha majburiyatlarni taqdim etilishi tahlili, davlat kafolatlarini taqdim etish vaqtida qonunchilik talablarini buzilishi bo'yicha aniqlangan faktlarga va byudjet mablag'lari hisobidan ta'minlangan davlat kafolatlarini bajarilishini har bir holati bo'yicha olib borilgan tekshirishlarga xulosa;

- Byudjet investisiyalarini taqdim qilish bo'yicha tahlil, davlat ahamiyatiga molik tuzilgan shartnomalarni ta'minlanishi tahlili, qonunchilik talablari buzilishi hisobiga amalga oshirilgan byudjet investisiyalari bo'yicha aniqlangan faktlarga xulosa;

- Davlat xizmatlarini taqdim qilish bo'yicha reja topshiriqlarini bajarilishi va davlat xizmatlarini taqdim qilish borasida moliyaviy sarflar va me'yorlarga rioya qilinishining tahlili.

Hisob palatasi xulosasi Davlat Dumasi yoki federasiya soveti aniqlagan qarorlar asosida yana qo'shimcha ma'lumotlardan ham iborat bo'lishi mumkin.

Federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot hukumat tomonidan Davlat Dumasi va RF Hisob palatasiga joriy yilning 1 iyunidan kechikmay taqdim etiladi. Hisobot bilan bir vaqtda federal g'aznachilikning federal byudjetni bajarilishi jarayonida ko'rib chiqilgan ishlari va byudjet qonunchiligi buzilganligi holatlari uchun ko'rilgan choralar to'g'risidagi hisoboti topshiriladi.

Davlat Dumasi RF Hisob palatasidan federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot xulosasini olganidan keyin 1,5 yil mobaynida ko'rib chiqadi. Davlat Dumasi federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi xisobotni ko'rib chiqish vaqtida majburiy tartibda Hisob palatasi Raisi xulosasi va RF Bosh prokurorini byudjet qonunchiligiga rioya qilinishi to'g'risidagi ma'ruzasini tinglaydi. Shuningdek, Davlat Dumasi Raisi taklifiga ko'ra yoki o'z tashabbuslari asosida RF Konstitusion Sudi Raisi, RF Oliy Arbitraj Sudi Raisi, RF Oliy Sudi Raisi moliya hisobot yilida byudjet me'yorlari va byudjet qonunchiligiga bog'liq ko'rib chiqilgan qoida buzarlilar tahlili to'g'risida ma'ruza qilishlari mumkin.

RF Byudjet Kodeksida Davlat Dumasiga ko'rib chiqish uchun federal byudjetni bajarilishi bo'yicha topshirilgan hisobotda noaniq bo'lgan faktlar va to'la bo'lmagan ma'lumotlar aniqlansa, ularning oqibati og'ir bo'lishi ko'rsatilgan. Agarda, RF Hisob palatasi auditorlari va rahbarlari aybi bilan xulosalarda ishonchli va to'la bo'lmagan faktlar aniqlangan holatlarda Davlat Dumasi yoki Federasiya Soveti tomonidan ular shu vazifalarga qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan Hisob palatasi to'g'risidagi RF federal qonuni talablari asosida vazifalaridan ozod qilinadilar. Boshqa mansabdor shaxslar Davlat Dumasiga byudjet jaryonida qatnashuvchi sifatida ishonchli va to'la bo'lmagan xulosalarni RF qonunchiliklari asosida federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot to'g'risida qaror qabul qilishi uchun topshirilganlikda ayblanib javobgarlikka tortiladilar.

Byudjetni daromad va xarajat qismlarini nazorat qilish o'rtasida katta farq mavjuddir.


Byudjet daromadlari soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida va to'la tushumiga hamda soliqsiz daromadlar bo'yicha rejali topshiriqlarni bajarilishiga asoslanib nazorat qilinadi. Soliqsiz daromadlar o'z navbatida davlat mulkini xususiylashtirish, sotish, ijaraga berish, xo'jalik jamiyatlarida davlat ulushini boshqarish, davlat unitar korxonalarini moliyaviy faoliyati natijalari asosida

davlat mulkini boshqarish jaryonida shakllanadi. Soliqli tushumlar bevosita soliqlar va yig'imlar Vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Soliqsiz tushumlar amaliyotida faqat RF Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Soliqlar to'lanishi nazorati asosan ularni qonuniyligi, to'g'riligi va muddatliligi bilan bog'liqdir. Shunga qaramasdan soliqqa tortishda qo'llaniladigan qonunlar iqtisodiy samaradorlikka va soliq xizmati ishini tashkil qilishga, shuningdek, byudjetga rejalashtirilgan daromadlarni haqiqiy tushumini ta'minlash bilan birgalikda zarur hollarda xarakatdagi qonunlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Byudjet xarajatlari yuqorida ko'rsatilgan organlardan tashqari federal g'aznachilik, Moliya vazirligining nazorat-taftish xizmati, joriy nazoratni amalga oshiradigan yuqori tashkilotlar tomonidan ham nazorat qilinadi. Tekshirishda boshqaruv organlari va boshqa muassasalar tomonidan byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligi va qonuniyligi, shuningdek, davlat dasturlari kesimi asosida hududiy tashkiliy tuzilmalarni moliyaviy faoliyati ko'rib chiqiladi.

Byudjet ustidan nazorat – moliyaviy nazoratning yuqori darajadagi ishlab chiqilgan shaklidir.





federal byudjet loyihasi va federal byudjet fondlar byudjetlari loyihasi, daromad va xarajat moddalari asoslanganligi ustidan nazorat.

80-rasm. Rossiya federasiyasi Hisob palatasining vazifalari

Qonun asosida Hisob palatasi federal byudjet va federal byudjet fondlari byudjetini o'rnatilgan ko'rsatkichlardan farq qilgan holatlari aniqlanganda ularni tahlil qiladi. Ularni aniqlashtirish borasida va byudjet jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. RF Markaziy banki hamda Rossiya federasiyasidagi vakillik banklari va boshqa moliya-kredit muassasalarida federal byudjet fondlari mablag'larini qonuniy va o'z vaqtida xarakat qilishi ustidan nazorat bo'yicha barcha vazifalar ham Hisob palatasi zimmasiga yuklatiladi.

Hisob palatasi o'tkazilgan nazorat, taftish va tekshiruvlar doirasida Federasiya Sovetiga va Davlat Dumasiga federal byudjet bajarilishi borasidagi va o'tkazilgan tadbirlar natijalari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib boradi.

Hisob palatasining dastlabki funksiyasi bo'lib, federal qonun loyihasi, shuningdek, federal byudjet mablag'lari hisobiga qoplanishi nazarda tutilgan yoki federal byudjetni va federal nobyudjet fondlarni shakllantirishi va ishlatilishiga ta'sir ko'rsatadigan davlat hokimiyati federal organlari me'yoriy-huquqiy aktlari bo'yicha moliyaviy ekspertiza o'tkazish hisoblanadi.

Hisob palatasining ko'plab vazifalari uning funksiyalarida aniqlashadi, ularga muvofiq Palata federal byudjetni bajarilishi yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi yagona nazorat tizimini ta'minlaydi:

- hisobot yilida federal byudjetni bajarilishi ustidan operativ nazorat tashkil qiladi va o'tkazadi;

- federal byudjet va federal nobyudjet fondlarning alohida bo'lim va moddolari bo'yicha kompleks taftishlar va tematik tekshiruvlar o'tkazish;

- federal byudjet loyihalari, Rossiya federasiyasining xalqaro shartnomalari, qonunlar va boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlar, RF moliyasi va federal byudjet masalalariga ta'luqli federal dasturlar va boshqa xujjatlar ekspertizasi;

- byudjet jarayonida qoida buzarliliklarni va o'zgarishlarni tadqiq va tahlil qilish, federasiya Sovetiga va Davlat Dumasiga ularni to'g'irlash hamda byudjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash va kiritish;

- federal byudjetni va federal nobyudjet fondlar byudjetini bajarilishi bo'yicha federasiya Sovetiga va Davlat Dumasiga xulosalar tayyorlash va taqdim etish.

O'z navbatida, Hisob palatasi anolitik-ekspert funksiyasini aniqlashda quyidagilar bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosa beradi:

- federal byudjet loyihasiga, uning daromad va xarajat moddalarini asoslanganligiga, federal byudjet kamomadiga, davlat ichki va tashqi qarzi miqdoriga;

- byudjet-moliya siyosati muammolariga va Rossiya federasiyasi byudjet jarayonini takomillashtirishga;

- Davlat Dumasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan byudjet-moliya masalalari bo'yicha qonunchilik loyihalari va me'yoriy huquqiy xujjatlarga;

- Federal byudjet uchun huquqiy ta'sir ko'rsatadigan, Rossiya federasiyasining xalqaro shartnomalar loyihalariga;

- Federal byudjet mablag'laridan foydalanish hisobiga moliyalashtiriladigan dastur loyihalariga.

Hisob palatasi o'tkazilgan nazorat tadbirlari natijalarini tizimli ravishda tahlil qilib boradi, federal byudjet daromadlarini shakllantirish va mablag'larni xarajat qilish jarayonida vujudga kelgan qoidabuzarliklar va aniqlangan chetga chiqishliklar sababi va oqibatini tadqiq qiladi hamda jamlaydi. Hisob palatasi olingan ma'lumotlar asosida Rossiya federasiyasi byudjet-moliya tizimini

rivojlantirish va byudjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqib, uni ko'rib chiqish uchun Davlat Dumasiga taqdim etadi.

“Rossiya federasiyasi Hisob palatasi to'g'risida”gi federal qonun va federasiya sub'yektlarida nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda byudjet doirasida kiritilgan mablag'lar va konsolidasiyalashgan nobyudjet fondlar ustidan nazorat ko'zda tutilgan. Shuning uchun ham byudjet munosabatlaridagi kabi, nobyudjet fondlar bo'yicha ham Hisob palatasi vazifalari mavjud bo'lib, ular:

- federal nobyudjet fondlar byudjetini daromad va xarakat moddalari bo'yicha o'z vaqtida bajarilishi, ularni hajmlari, tartibi va maqsadli yo'naltirilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;

- federal nobyudjet fondlarni federal mulkdan samarali va maqsadli foydalanishni aniqlash;

- federal nobyudjet fondlar byudjeti loyihasini daromad va xarajat moddalarini asoslanganligini baholash;

- federal nobyudjet fondlarni byudjetlarini shakllanishi va bajarilishiga ta'sir qiluvchi federal qonunlar loyihalarini, shuningdek, davlat hukumati federal organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini moliyaviy ekspertizasi;

- federal nobyudjet fondlarda o'rnatilgan ko'rsatkichlarga nisbatan aniqlangan chetlashishlarni tahlil qilish va ularni to'g'rilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- RF Markaziy banki va Rossiya federasiyasi vakillik banklari yoki boshqa moliya-kredit muassasalarida federal nobyudjet fondlarni byudjet mablag'larini qonuniyligi va muddatlilik xarakati nazorati hisoblanadi.

Shuningdek, Hisob palatasi federal nobyudjet fondlarini bajarilishi ustidan quyidagilarni nazarda tutadigan yagona nazorat tizimini ta'minlaydi:

- federal nobyudjet fondlarining alohida bo'limlari va moddalari bo'yicha kompleks taftish va tematik tekshirishlar o'tkazish;

- federasiya Sovetiga va Davlat Dumasiga federal nobyudjet fondlar bajarilishi bo'yicha xulosalar tayyorlash va taqdim etish.

“Rossiya federasiyasi Hisob palatasi to’g’risida”gi federal qonunning alohida moddasida Hisob palatasini federal nobyudjet fondlarini mablag’lardan va RF Hukumati ixtiyoridagi valyuta mablag’laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish ko’rsatib o’tilgan.

Nazorat ob’yektlari orasida asosiy e’tiborni davlat mulkini boshqarish va foydalanishdan tushadigan mablag’larga qaratish lozim, sababi daromadlarda ularning ulushi tobora ortib bormoqda, ular byudjetga va nobyudjet fondlarga tushumlarni ahamiyatli qismini tashkil etmoqda. Ushbu mablag’lar tushunchasiga xususiylashtirishdan, davlat mulkini ijaraga, garovga berishdan, davlat mulkini va federal mulk ob’yektlarini boshqarishdan tushumlar kiritiladi. Davlat daromadlarini ushbu qismini nazorat qilish yuridik jihatdan RF Hisob palatasiga biriktirilgan bo’lib, uni aniqlash vazifasi federal mulkdan foydalanishni samaradorligi va maqsadliligiga qaratilgan.

Qonunga asosan asosiy nazorat ob’yekti bo’lib qarz mablag’lari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu borada RF Hisob palatasi quyidagilar ustidan nazorat o’rnatadi:

- Rossiya federasiyasining ichki va tashqi qarziga xizmat qilish va boshqarish;

- RF hukumati chet el davlatlaridan olgan qarzlari hamda chet el kreditlaridan samarali foydalanishi va qonuniyligi;

- Qaytarib berish asosida berilgan markazlashgan moliyaviy resurslarni samarali joylashtirilishi;

- Xalqaro taqsimotlarga va chet el davlatlariga davlat kreditlarini berilishi, shuningdek, qaytarib bermaslik sharti bilan berilgan mablag’lar bo’yicha.

Hisob palatasi, shuningdek, davlatning ichki va tashqi qarzi hamda federal byudjet kamomadi miqdori bo’yicha ekspertiza o’tkazadi va xulosalar beradi. RF sub’yektlaridagi nazorat hisob organlari ham administrasiyaning kreditlar va boshqa qarz mablag’lari bilan ishlashni nazorat qiladi.

Nazorat hisob organlarining faoliyatini muhim va murakkab yo'nalishi bo'lib davlat mablag'larini banklarga joylashtirish va pul muomalasi ustidan nazorat o'rnatish hisoblanadi. Qonunga asosan RF Hisob palatasi RF Markaziy banki, uning tarkibiy tuzilmalari, boshqa banklar va moliya-kredit muassasalarining federal byudjetga ko'rsatilayotgan xizmatlari, shuningdek, RF Markaziy bankining Rossiya federasiyasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. Bunday yo'nalish Hisob palatasining federal byudjet mablag'larini va federal nobyudjet fondlarni RF Markaziy bankida, Rossiya federasiyasining vakillik banklarida va o'z vaqtida xarakatini nazoratini ta'minlashni belgilash zaruriyati qonun asosida o'rnatilgan vazifasi bilan shartlanadi.


RF sub'yektlariga transfertlar, dotasiya, subvensiya va kreditlar shaklida berilgan mablag'lar federal nazorat organlari hisoblangan RF Hisob palatasi, federal G'aznachilik, Moliya vazirligi va uning bo'limlari tomsonidan nazorat qilinadi.

Rossiya federasiyasining ko'pgina sub'yektlarida nazorat hisob organlariga ham bunday vakolat berilgan. Masalan, Moskvada yuqoridagi mablag'lar shahar byudjetlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni, nobyudjet fondlarni, investisiya yoki ijtimoiy tadbirlar nazorati shahar byudjet – moliya organlari va Moskva shaxrining bosh nazorat – taftish boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan.

Amaliyotda mahalliy byudjetni boshqarishni mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi vakil qilgan organ boshqaradi va ungi nazoratni qaysi shaklidan foydalanishini mustaqil hal qilishi huquqi berilgan bo'lishiga qaramasdan Rossiya Federasiyasining ba'zi hududlarida nazorat to'g'risidagi qonunlarda RF sub'yektlari moliyaviy aloqalari nazorati hududiy administrativ birliklarga va munisipal tuzilmalar zimmasiga yuklatilgan.

Rossiya federasiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishi.

Hukumatning ijro etuvchi moliyaviy organlari uchun byudjet nazorati ish faoliyatlarining muhim qismi hisoblanadi. RF Moliya vazirligiga bu vazifa yuklatilgan.



81-rasm. Rossiya federasiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi vakolatlari

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida RF Byudjet Kodeksi byudjetlararo aloqalarda va qarz siyosatida ham nazorat tizimini qo'llanishini aniqlaydi. Masalan, agarda byudjetni bajarish moboynda RF sub'yektlari davlat qarzini ko'zda tutilgan miqdoridan oshirishga yo'l qo'yishsa, yoki munisipal qarzni oshirishga yo'q qo'yilsa, shuningdek, RF sub'yektlari va munisipal qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari ko'zda tutilganidan ortib ketsa va RF sub'yektlari davlat qarzi bo'yicha majburiyatlarni xarajatlarini qoplash ta'minlash holatida

bo'lmalar bu xolda Rossiya Federasiyasini vakillik organi quyidagi choralarni ko'radi:

- RF subyektlari byudjetlariga yoki mahalliy byudjetlarga byudjetni bajarilishi bo'yicha tekshirish tayinlash;

- RF sub'yektlari byudjetini bajarilishni RF Moliya vazirligi yoki mahalliy byudjetlarni Rossiya Federasiyasining sub'yektlarini byudjetlarini bajaruvchi organ nazoratiga berish.

Rossiya Federasiyasi davlat kafolati berilgan vaziyatlarda RF Moliya vazirligi yoki RF Hukumati vakil qilgan hukumat ijroiya organi Rossiya Federasiyasi davlat kafolatini oluvchining moliyaviy holatini tekshiruvdan o'tkazishga majburlar. Davlat kafolati RF sub'yektlariga yoki munisipal kafolat berilgan holatlarda mos moliya organi bunday kafolat oluvchini moliyaviy holatini tekshirishga majburdir. Vakillik organi RF sub'yektlari yoki munisipal tuzilmalarda davlat kafolati yoki munisipal kafolat oluvchining moliyaviy holatini tekshirishni nazorat organiga topshirish mumkin.

RF Byudjet Kodeksiga asosan federal byudjetdan RF sub'yektlari byudjet ta'minotini minimal byudjet darajasiga tenglashtirish uchun moliyaviy yordam beriladi. Bunday yordamni amalga oshirish sharti bo'lib, RF Federal g'aznachiligi bilan RF sub'yektlari o'rtasida byudjetni bajarilishi bo'yicha tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Rossiya Federasiyasi vakillik organi federal byudjetdan moliyaviy yordam oluvchi RF sub'yektlari byudjetlarini tekshirish huquqiga ega. RF sub'yektlari o'z konsolidatsiyalashgan byudjetining xarajatlarining 50 foyizidan yuqori miqdorida moliyaviy yordam olsalar, unda RF sub'yektlari byudjetini majburiy tartibda tekshiruvdan o'tkazadi. RF sub'yektlari byudjetini Moliya vazirligi yoki RF Hisob palatasi tekshirishdan o'tkazishlari mumkin.

O'z navbatida RF sub'yektlari vakil qilgan davlat organi RF sub'yektlari mahalliy byudjetidan moliyaviy yordam olganlari tekshiruvdan o'tkazish huquqiga ega. Munisipal tuzilmalar byudjetini RF sub'yektlari hukumat ijroiya

organlari va nazorat organlari tekshirishdan o'tkazishlari mumkin. RF sub'yektlari nazorat organlari xulosasi RF sub'yektlari byudjet loyihasi qonunchilik organi tomonidan ko'rib chiqilayotgan vaqtda oshkora qilinadi. RF sub'yektlari davlat organlari RF sub'yektlari byudjetidan mahalliy byudjetga kelib tushgan mablag'larni xarajat qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

RF Byudjet Kodeksi davlat nobyudjet fondlarini daromadlari va bajarilishi ustidan nazorat to'g'risidagi umumiy tartibni o'z ichiga oladi. Davlat byudjet fondlargiga majburiy to'lovlarni yig'ilishi va ularni tushumi ustidan nazoratni, federal byudjetlarni yig'ish va tushumini ta'minlovchi hukumatning ijrochi organlari zimmasiga yuklatilgan. Davlat nobyudjet fondlari byudjetini bajarilishi ustidan nazoratni Rossiya Federasiyasi byudjet tizimini mos darajasi byudjetini bajarilishini nazoratini ta'minlaydigan organ tomonidan mos byudjet uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hisob palatasi tomonidan nazoratni tashkiliy-huquqiy shakli nuqtai nazaridan barcha organlar, tashkilot va muassasalar, agar ular davlatning moliyaviy va moddiy resurslaridan foydalansalar nazoratga tortiladilar, jumladan:

- byudjetdan moliyalashtirilganliklari sababli, davlat hukumati organlari;
- hukumatning tarmoqlar va hududiy tuzulmaviy ijroiya bo'limlari, ular byudjet va nobyudjet fondlar mablag'laridan, qarz mablag'laridan va davlat mulkidan foydalanganliklari uchun;
- byudjet sohasining barcha tashkilot va muassasalari, hukumatning tarmoqlarga bo'ysunuvchi va hududlardagi ijrochi organlari;
- xo'jalik yuritish asosida davlat mulkini boshqaradigan unitar korxonalar;
- davlat buyurtmasini, kreditlarini, ssudlarini oluvchi, soliq va boshqa yengilliklarda ustivor bo'lgan, davlat mulkini har qanday shaklda, jumladan, ajratilgan mablag'lardan va o'rnatilgan engilliklardan foydalanuvchi nodavlat xo'jalik birlashmalari, jamoatchilik birlashmalari;

- jamoatchilik birlashmalari, nodavlat fondlari va boshqa notijorat tashkilotlari yuqoridagi punktda ko'rsatib o'tilgan doirada va asosda;

- davlat moliyasidan foydalanib pul o'tkazmalar va pul qabul qilish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi, davlat mulkini boshqarish va undan foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlari muomalasi doirasidagi operatsiyalarni bajaruvchi banklar, moliya-kredit muassasalarini.

RF Byudjet Kodeksiga kiritilgan hukumatning ijrochi organlarining nazorat vakolatlari ular tomonidan qonunga qo'shimcha hujjatlarda yanada mukammalroq aniqlanmoqda va taqsimlanmoqda. Jumladan, Moliya vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq o'z vakolati doirasida federal byudjetni bajarilishini nazorat qiladi va uni bajarilishini ta'minlaydi. Rossiya Federasiyasini konsoldatsiyalashgan byudjetini va federal byudjetlarni bajarilganligi to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi. U shuningdek, federal byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatadi va federal mulkdan tushadigan daromadlarni aniqlashda qatnashadi va ularni tushumi ustidan nazorat o'rnatadi.

Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Departamenti o'z vakolati doirasida federal byudjet mablag'larini tushumli va xarajatini ishlatilishini kompleks tahlil qiladi va tematik tekshiruvlar o'tkazadi. U shuningdek, huquqtarg'ibot organlari topshiriqlariga asosan mustaqil RF sub'yektlari bo'yicha bosh nazoratchi taftishchilarni jalb qilgan holda, tashkilotlarni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hujjatli taftishdan o'tkazadilar. Bundan tashqari Departament RF sub'yektlari bo'yicha bosh nazoratchi -taftishchilarni jalb qilgan holda davlat hukumat organlari va mahalliy o'zi-o'zini boshqarish organlari murojaatlari bo'yicha mustaqil ravishda taftish va moliyaviy takshiruvlar tashkil etadi va o'tkazadi.

RF Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasi vakolatiga RF sub'yektlarida hamda hududlarda navbatdagi moliyaviy nazoratni amalga oshirish kiradi:

-federal byudjetni mablag'larini saqlanishi, o'z vaqtida maqsadli , samarali foydalanishi, shuningdek, davlat nobyudjet fondlari va boshqa federal mablag'larni navbatdagi nazoratini amalga oshiradi;


- o'z vakolati doirasida federal byudjet mablag'larini tushumi va xarajat qilinishi, nobyudjet mablag'laridan foydalanishi federal mulkdan olinadigan daromadlar bo'yicha taftish va tematik tekshiruv o'tkazadi;

- huquq targ'ibot organlari farmoyishlari asosida qanday mulkchilik shaklida bo'lishidan qat'iy nazar korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ustidan taftish va tekshiruvlar o'tkazadilar;

- RF sub'yektlari davlat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari murojaatlariga muvofiq, o'rnatilgan tartibda, shartnoma asosida mos byudjetlar va nobyudjet fondlarni tushumi, xarajati, ular mulkchiligidagi mulkdan daromadlar bo'yicha taftish va moliyaviy tekshirishlar o'tkazadilar.

- Bunday taftish va moliyaviy tekshirishlar xarajatlari RF sub'yektlari davlat hukumati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan qoplanadi.
- Ahamiyatli nazorat vakolati *Federal g'aznachilik organlariga* topshirilgan. Byudjet intizomini mustahkamlash maqsadida ularga vazirliklarda, korxonalarda, tashkilot va muassasalarda, banklarda va moliya-kredit tashkilotlarida barcha turdagi mulkchilik shakllarida, shu jumladan, qo'shimcha korxonalarda pul mablag'larini, buxgalteriya hisobi registrilarini, rejalarni, smeta va boshqa hujjatlarni agarda ular Rossiya Federasiyasi respublika byudjetiga pul o'tkazish va respublika byudjeti mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa tekshirish, hamda tekshiruv mobaynida paydo bo'lgan savollar bo'yicha ma'lumot olish huquqiga egadirlar.

RF Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasining RF sub'yektlarida hamda hududlarda moliyaviy nazoratni amalga oshirish vakolatlari



82-rasm. RF Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasining vakolatlari

RF Moliya vazirligi davlat federal g'aznachilik boshqarmasi o'ziga birlashtirilgan vakolatlar bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

- Rossiya federatsiyasi respublika byudjeti bilan davlat nobyudjet fondlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi:

- Rossiya federatsiyasi respublika byudjetini bajarilishi, davlat federal nobyudjet fondlarni moliyaviy bajarilishi, federal nobyudjet fondlarni tushumi, foydalanishi jarayonlarida g'aznachilikni hududiy organlarida Rossiya federatsiyasining xarakatdagi qonunlariga rioya qilinishi ustidan bevosita ishlarni tashkil etadi va o'tkazadi.

Hududiy g'aznachilik organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi kuchga egadirlar:

- Rossiya federasiyasi respublika byudjeti mablag'lari bilan, davlat federal nobyudjet fondlar va federal nobyudjet mablag'lari, shuningdek, Rossiya Federasiyasi respublika byudjeti fondlarini ishlanilishi bo'yicha bo'ladigan operatsiyalarni o'z muddatida amalga oshirilishini nazorat qiladi;

- Hukumatning ijroiya organlari, soliq, huquq targ'ibot organlari va banklar bilan hamkorlikda nazorat funksiyasini amalga oshiradi.

Barcha darajadagi byudjetlarning daromad qismlarini nazorat rejasida joriy va davomiy nazorat vakolati *soliq organlariga* birkirilgan. Rossiya federasiyasi soliq Kodeksi byudjetga va nobyudjet fondlarga majburiy to'lovlarni o'z muddatida, to'la va to'g'ri tushushini amalga oshirish mexanizmini o'rnatgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun soliq to'lovlari soliq organlariga zarur axborotlar va hujjatlarni taqdim etishga majburdirlar, soliq agentlari esa soliqlarni to'g'ri hisoblanishi, ushlanishi va o'tkazilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni o'zlari hisobda turgan soliq organiga taqdim etadilar.

Byudjet ob'yektlarini moliyaviy nazoratini, nazorat tadbirlarini tashkil qilishning alohidaligi va uni o'tkazishda foydalaniladigan usullar va chegaralar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin.

Dastlabki va navbatdagi nazoratni ob'yektlari bo'lib asosan xujjatlar hisoblanadi, jumladan:

- byudjet loyihalari, nobyudjet fondlar smetalari va ularni bajarilishi bo'yicha hisobotlar;

- moliyalashtirishda byudjet va nobyudjet fondlar mablag'lari foydalaniladigan davlat, tarmoqlar va hududiy dasturlar loyihalari va ularni realizasiya bo'yicha yakuniy hujjatlari;

- byudjet – moliya masalalari bo'yicha qonunchilik va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar loyihalari;

- davlat byudjeti va moliyaviy resurslarga tegishli bo'lgan shartnoma va kelishuvlar loyihalari.

Ko'rsatilgan holatlarda nazorat asosan iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi va natijasi ekspert xulosasi shaklida taqdim etiladi.

Joriy nazorat avval ko'rsatib o'tilgan barcha ob'yektlarda nisbatan moliyaviy xo'jalik qarorlari relizasiyasi mobaynida amalga oshiriladi. Joriy nazorat iqtisodiy tahlil bilan bir qatorda taftish, tekshirish va tadqiqotlarni nazorat ob'yektga chiqib amalga oshirishini nazarda tutadi. Bunday holatlarda nazorat tadbirlari natijalari dalolatnoma va ma'lumotnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

RF Markaziy Bankining huquqiy maqomi 2002 yil 10 iyulda chiqarilgan 86-F3 sonli "Rossiya Federasiyasi Markaziy banki to'g'risida"gi Federal qonuni bilan belgilangan. [14]. RF MB ning asosiy funksiyalaridan biri bo'lib tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari ustidan nazorat hisoblanadi. Ana shu funksiyani Rossiya Banki quyidagicha amalga oshiradi: kredit tashkilotlari va korxonalarining davlat qaydnomasiga o'tishi to'g'risidagi qarorni qabul qiladi, kredit tashkilotlariga bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyani taqdim etadi, ularning harakatini to'xtatib turadi va chaqirib oladi; kredit tashkilotlari va bank guruhlarining faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. (4-modda).

Rossiya Banki bank sohasidagi tartibga solishni va bank nazoratini amalga oshiruvchi organ hisoblanadi. (56 modda). Bank kredit tashkilotlari va bank guruhlari tomonidan bank qonunchiligining bajarilishini, Rossiya banki me'yoriy aktlariga, Rossiya banki tomonidan o'rnatilgan majburiy me'yoriy aktlariga amal qilish va ular tomonidan o'rnatilgan majburiy normativlarga amal qilishini doimiy nazorat qilib turadi. Bank tizimini tartibga solish va nazorat qilishning bosh maqsadi bo'lib Rossiya Federasiyasi bank tizimining turg'unligini saqlab turish omonatchilar hamda kreditorlarning manfaatlarini

himoya qilish hisoblanadi. Rossiya bankining nazorat va tartibga solish funksiyalari doimiy faoliyat ko'rsatuvchi organ – Bank nazorati Qo'mitasi yordamida amalga oshiriladi. Qo'mita uning nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi tuzilmaviy bo'linmalarini birlashtiradi.

Rossiya Banki kredit tashkilotlari va bank guruhlar uchun majburiy bo'lgan bank operatsiyalarini o'tkazish, buxgalteriya hisob-kitobini olib borish, ichki nazoratni tashkil etish, buxgalteriyaga oid va statistik hisobotlarni, shuningdek, federal qonunlar bilan ko'zda tutilgan boshqa ma'lumotlarni tuzish va taqdim etish qoidalarini belgilaydi. (57-modda).

O'zining bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshirish uchun Rossiya banki kredit tashkilotlarining tekshiruvlarini o'tkazadi, ularning faoliyatida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish to'g'risidagi bajarish uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalarni yuboradi va qonunbuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo'llaydi. (73-modda). Tekshiruvlar bankning vakolatli hodimlari tomonidan Direktorlar Kengashi yoki Direktorlar kengashi topshirig'i bilan auditorlik tashkilotlari tomonidan belgilangan tartib bo'yicha amalga oshiriladi.

Kredit tashkiloti tomonidan federal qonunlarini, me'yoriy hujjatlarini va Rossiya Banki ko'rsatmalarining bajarilishini buzish, ma'lumotni taqdim etmaslik, to'liq bo'lmagan yoki ishonchli bo'lmagan ma'lumotni taqdim etish hollari aniqlansa Rossiya Banki kredit tashkilotidan aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, ustav kapitalining minimal miqdoridan 0.1% gacha bo'lgan darajada jarima undirib olish yoki kredit tashkiloti tomonidan alohida operatsiyalarning o'tkazilishini olti oygacha bo'lgan muddatga ta'qiqlab qo'yishga haqi bor. (74-modda).

Belgilangan muddatda kredit tashkiloti faoliyatidagi qonun buzilishlarini bartaraf etish to'g'risidagi Rossiya Bankining ko'rsatmasini bajarilmagan holda, shuningdek, ana shu qonun buzilishlari yoki kredit tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan bank operatsiyalari hamda bank bitimlari uning kreditorlari

(omonatchilari) manfaatlari uchun haqiqiy xavfni keltirib chiqargan holda Rossiya Banki quyidagilarga haqqi bor: kredit tashkilotidan to'langan ustav kapitalining 1%igacha miqdorda, lekin ustav kapitalining 1%idan oshib ketmagan darajada jarima undirib olishga; kredit tashkilotidan kredit tashkilotining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirishni, shuningdek, uning aktivlari tuzilmasini o'zgartirishni, kredit tashkiloti rahbarlarini almashtirishnikredit tashkilotini qaytadan tashkil etishni talab qilishga; kredit tashkiloti uchun belgilangan majburiy normativlarni o'zgartirishga; kredit tashkiloti tomonidan bank operatsiyalarini amalga oshirish to'g'risidagi unga berilgan litsenziyada ko'zda tutilgan ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishni bir yilgacha muddatga, shuningdek, uning filiallarini ochishni bir yilgacha muddatga ta'qiqlab qo'yishga; kredit tashkilotini boshqarish uchun olti oygacha muddatga vaqtinchalik ma'muriyatni tayinlashga; agar kredit tashkilotini qayta tashkil qilish oqibatida kredit tashkilotining bankrotligi to'g'risida ogohlantirish bo'yicha federal qonunchilik tomonidan ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni o'tkazish uchun asos paydo bo'lsa, ana shu qayta tashkil etishni ta'qiqlab qo'yishga.

Rossiya Banki kredit tashkilotidan federal qonunchilikda ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirishga ruxsat beruvchi litsenziyani tortib olishga haqlidir. Rossiya Banki sudda murojaat etib, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida ko'rsatib o'tilgan ro'yxatdagi qonunbuzarliklar aniqlanganligi to'g'risidagi akt tuzilganidan boshlab olti oydan kechiktirmay kredit tashkilotidan jarimalar undirib olishi yoki federal qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa sanksiyalarni qo'llanilishini talab etishi mumkin.

Shuningdek Rossiya Bankining nazorat funksiyasi mamlakatning va hududlar bo'yicha umumiy iqtisodiyotining ahvolini, birinchi navbatda pul-kredit, valyuta-moliya va narx-navo munosabatlarini tahlil qilish va prognoz qilishda o'z ifodasini topadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, kredit tizimini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlarni amalga oshirish qonunchilik tomonidan RF Markaziy Bankiga yuklatilgan.

Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ) tomonidan boshqariladigan bojxona organlari (RF prezidentining 1991 yil 25 oktyabridagi 2014-sonli Farmoni "Rossiya Federasiyasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi" [36]) Rossiya Federasiyasining bojxona chegarasi orqali tovarlarning ko'chib yurishi vaqtida soliqlar va yig'imlarni undirib olish bo'yicha vakolatlarini bajarish jarayonida nazoratni amalga oshiradi. Bojxona qonunchiligida belgilangan tartib bo'yicha ular bojxona chegarasi bo'ylab tovarlarni ko'chirib yurish paytidagi soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortadilar.

Shunday qilib, xalqaro tajribadan va amaldagi Rossiya qonunchiligidan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkin: tashqi nazoratni RF Hisob Palatasi hamda RF sub'yektlarining nazorat-hisobchi organlari amalga oshiradi. Xalqaro tajribada byudjet jarayoni ustidan tashqi moliya nazoratini amalga oshirish vakolati kiradigan organni ajratib ko'rsatish uchun yagona nom qo'llaniladi – Moliya nazoratining Oliy organi. Rossiyada moliya nazoratining oliy organi to'g'risidagi masala hali ochiq turibdi va faqatgina ayni paytda RF Prezidenti ko'rsatmasi bilan ishlab chiqilayotgan davlat moliya nazoratining Yagona tizimi konsepsiyasi qabul qilinganidan keyingina hal bo'lishi mumkin.

Ular faoliyatining mukammal tahliliga o'tishdan oldin, turli mualliflar tomonidan tashqi va ichki nazoratni baholash borasida kelib chiqqan bahslar ustida to'xtalib o'tamiz. Bunda tashqi nazorat roliga ko'pincha yetarlicha baho berilmaydi. Ba'zilar uchun qonunchilik hokimiyatining nazorat organlari institutining ahamiyatini tushunish va uning zarurligi o'z-o'zidan ravshan bo'lib tuyulmaydi. Masalan, deputatlar ijrochi hokimiyat organlariga zaruriy tekshiruvlarni o'tkazish uchun topshiriq berishi mumkin (qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng). Agar ana shunday tekshiruvlarda nazorat

mustaqilligi tamoyili muhim bo'lsa, mustaqil auditorlik firmalarini jalb qilish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti INTOSAIning tashkil etishdan maqsad nima?
2. Lima deklarasiyaning mohiyati nimada?
3. Rossiya federasiyasi Hisob palatasining moliyaviy nazoratni olib borishidagi vakolatlarini ayting.
4. Rossiya federasiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi o'rnini izohlang.
5. Rossiya federasiyasi Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasi vakolatiga kiruvchi vazifalarni ko'rsating.
6. Rossiya federasiyasi Markaziy Bankining moliyaviy nazorat yuzasidagi vazifalarini ayting.
7. Jahon hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyotini ayting.
8. Hududiy g'aznachilik organlari vakolatlarini ayting.

GLOSSARIY

A

Auditorlik tekshirishi – iqtisodiy sub'yekt moliyaviy holatiga tegishli auditorlik dalillarini yig'ish, baholash va tahlili qilish hamda mavjud tekshiruv natijalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritishning to'g'riligi va buxgalteriya hisoboti ishonchliligiga fikr bildirish uchun zarur dalillarni yig'ish

Auditorlik hisoboti – auditorlik teshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorlik tekshiruv o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat

Auditorlik xulosasi - moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'rsida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi sub'yekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat

Auditning umumiy rejasi - mijoz faoliyati bilan tanishish, dastlabki rejalashtirish, tekshiriladigan xo'jalik yurituvchi sub'yektning ichki nazorat tizimini baholash, tanlash hajmi va jiddiylik darajasini aniqlash, audit dasturini tayyorlash, auditni bevosita o'tkazish jarayoni, bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq hamda umumiy hujjatlarni tayyorlash, tekshiruv natijalarini mijozga taqdim etish va hokozolarni o'z ichiga olgan holda audit o'tkazishning barcha bosqichlarini aks ettiruvchi hujjat

B

Bank - hisob-kitob, qarz olish va berish, moliyaviy xizmatlarning boshqa turlarini amalga oshiruvchi moliya muassasasi

Bank aktivlari hajmi - bankning o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarish uchun safarbar etadigan iqtisodiy resurslari miqdori

Bank kreditlari - yuridik va jismoniy shaxslarga maqsadlilik, to'lovlilik, foizlilik, qaytariluvchanlik va muddatlilik asoslarida beriladigan moliyaviy yordam

Banklar kredit portfeli - yuridik va jismoniy shaxslarga bank tomonidan berilgan jami kredit resurslari hajmi

Banklar likvidligi - banklarning o'z majburiyatlarini bajarish uchun to'lovga layoqatlik darajasi

Bank nazorati – hukumatning moliyaviy tizimni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora–tadbirlari yig'indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi.

Banklarning kapitallashuvi va investisiyaviy faolligi - nizom jamg'armasiga kiritish orqali bankning o'z sarmoyasi hajmining va investisiya maqsadlaridagi tadbirlarning jadal amalga oshirilishi

Bojxona nazorati — qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui

Byudjet jarayoni – Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar majmui

Byudjetni ijro etish byudjetning daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishi

Byudjetdan moliyalashtirish - rejada ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub'yektlarga byudjetdan mablag'larni taqdim etish tizimi tushuniladi

Byudjetdan mablag' ajratish - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag'lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag'lari

Byudjet tashkiloti - zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish ko'zda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti

Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi - bu byudjet tashkilotlari tomonidan bir moliya yili davomida davlat byudjetidan mablag' olish maqsadida tuzadigan va bevosita o'zi tegishli bo'lgan moliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladigan va tasdiqlanadigan moliyaviy reja hisoblanadi

Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari - qonunchilikda nazarda tutilgan byudjetdan tashqari manbalar hisobidan tashkilotlar ixtiyoriga kelib tushadigan mablag'lar

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi.

V

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi - tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo'lib, unda byudjet tashkilotlari uchun ko'zda tutilgan, qonunchilikka o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag'larning uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdordagi byudjetdan ajratilgan mablag'lar

(xarajatlar rejasi) aks ettiriladi;

D

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi- davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish

Dastlabki nazorat taxminlash, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, xo'jalik yoki moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan avval o'tkazilib, oqilona boshqaruv yechimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi

Davsug'urtanazorat — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi

J

Joriy nazorat - ichki xo'jalik nazoratining uzviy qismi, butun Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va uning ichki bo'linmalari ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tezkor boshqarish va tartibga solish jarayonining tarkibiy qismidir

I

Ichki audit xizmati - korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasi

Ichki audit - bank hodimlarining o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza. Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib Ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazaroti va natijalari bo'yicha ob'yektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishida ko'maklashish hisoblanadi

Ichki audit xizmati - bankda ichki nazorat holatini, jumladan moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligi, hisobning ishonchliligi va aniqligi, hisobotlarning to'liqligi va ob'yektivligi, O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligi hujjatlariga, ta'sis va ichki hujjatlarga, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari va tartiblariga rioya qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, shuningdek, bank operatsiyalarining samaradorligi va ishonchliligini oshirish bo'yicha bank Kengashiga maslahatlar beruvchi mustaqil tarkibiy tuzilma

L

Litsenziya – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo'jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, mahsulotning ma'lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilish, olish kirish, olib chiqish yoki o'tkazib ketishga davlat yoki mahalliy boshqaruv organlarining rasmiy ruxsati (roziligi).

M

Markaziy bank - yuridik shaxs hisoblanadi va u davlatning mutlaq mulkidir, o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir

Ma'muriy javobgarlik – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar javobgarligining shakllaridan biri.

Moliyaviy majburiyat – yuridik majburiyatga muvofiq tovarlar yetkazib berilgan (ishlar bajarilgan, xizmatlar ko'rsatilganidan) keyin vujudga keladi. Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi talab etiladi. Masalan, hisobvaraqa-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari, ish haqi qaydnomalari va boshqa shu kabi hujjatlar

Moliyaviy nazorat - davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat qilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat,

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarlar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir.

Moliyaviy nazorat tizimi - sub'yektlar (nazorat qiluvchilar), ob'yektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o'z ichiga oladi.

Moliyaviy nazoratning sub'yektlari - nazorat vazifalarini ifodalovchi organlarlar.

Moliyaviy nazorat ob'yektlari - moliya tizimi va iqtisodiy samaradorligini tekshirish lozim bo'lgan moliya-xo'jalik-tijorat tuzilmalari paydo bo'lganida nazorat sub'yektlari (taftishchilar)ni tashkil etish zarurati paydo bo'ladi

Muqobil tekshiruv — operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir

N

Nazorat - jamiyat iqtisodiy hayotidagi ob'yektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'ini bo'lib, u ko'p ming rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining sub'yektiv ijod sohasidir

Nazoratning maqsadi - tuzatish choralarini ko'rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzishlarning oldini olishdan iborat

Nodavlat moliyaviy nazoratining maqsadi - joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirish

S

Soliq to'lovchilarni hisobga olish (qayddan o'tkazish) - ularni xo'jalik yurituvchi sub'yektning identifikasiyalashuvini ta'minlaydigan soliq to'lovchining Davlat reestriga kiritish orqali amalga oshiriladi

Soliq nazorati – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash ustidan amalga oshiriladigan nazorat.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) — tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir

T

Tekshirish ob'yekti - belgilangan tartibda Hisob palatasining Nazorat ishlari dasturiga kiritilgan byudjet tashkilotlari, shuningdek boshqa yuridik shaxslar, shu jumladan ularning filiallari va vakolatxonalari

Tekshirishning yig'ma dalolatnomasi - Hisob palatasi inspektorlari tomonidan tuziladigan, nazorat tadbiri natijalarini umumlashtiradigan hujjat turi

Transport vositalari — yo'lovchilar va tovarlarni tashish uchun foydalaniladigan vositalar, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxslar — tovarlar va transport vositalarining mulkdorlari, ularning sotib oluvchilari, egalari yoxud ular bilan ushbu Kodeksda nazarda tutilgan harakatlarni o'z nomidan amalga oshirish uchun qonun hujjatlariga muvofiq yetarli bo'lgan boshqacha tarzda ishtirok etuvchi shaxslar

U

Umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari)

F

Faktlar bo'yicha nazorat usullar - ro'yxatga olish, ekspertiza, ko'z bilan kuzatish, nazorat o'lchovi, nazorat tariqasida ishga tushirish, vaqtni aniq o'lchash, ish kuni taqsimlanishini o'rganish, laboratoriya tahlili

Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi bankning bank operatsiyalarini o'tkazish huquqini beruvchi litsenziyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chaqirib olingan fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha xaq to'lanishini kafolatlovchi fond

X

Xarajatlar smetasi - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan byudjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarining davlat reestri – soliq to'lovchilarni soliq inspeksiyasida hisobga olish uchun qo'llaniladi va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi

Ch

Chet el banki - chet el bankining o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradigan shu'ba banki bo'lib, uning ustav kapitalining hammasi chet el banki tomonidan to'lanadi

Sh

Shartli chiqarib yuborish — shaxsning belgilangan cheklashlar, talablar yoki shartlarga rioya qilish majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi bilan bog'liq holda tovarlar va transport vositalarini chiqarib yuborish

Yu

Yuridik majburiyat - byudjet tashkiloti bilan kontragent o'rtasida ma'lum bir muddatdan so'ng, tovarlarni yetkazib berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida shartnoma imzolanganidan va bu shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin vujudga keladi

Ya

Yakuniy nazorat xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkazilib, tekshirilayotgan hujjatlarni va Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganish bilan farq qiladi

Q

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

H

Hisob palatasining nazorat tadbiri - O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning maqsadga muvofiq va samarali ijro etilishi, shuningdek, davlat mablag'lari sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida tekshirish ob'yektlarining buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirish

Hisob palatasining ko'rsatmasi - Hisob palatasining ijro etish majburiy

bo'lgan qarori turi, u nazorat tadbiri davomida aniqlangan qonun hujjatlarini buzishlarni bartaraf etish tadbirlari ro'yxatini o'z ichiga olib, tekshirish ob'yektiga va/yoki uning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvidan yuqori organiga, shuningdek, qonun hujjatlariga binoan Hisob palatasining tekshirishlari davomida aniqlanadigan zararni undirishni amalga oshirish vakolati yuklatilgan davlat organlariga yuboriladi

Hujjatlar asosidagi nazorat usullari: rasmiy va arifmetik tekshirish, yuridik baholash, mantiqiy nazorat, muqobil tekshirish, teskari hisob usuli, balans uyg'unligini tekshirish, qiyoslash, hisobotlarning sanoq bahosi

ADABIYOTLAR

Normativ hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, “O'zbekiston” nashriyoti, 2008 yil
2. “ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi”, 2007 yil 25 dekabr
3. O'zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”, 2013 yil 26 dekabr
4. O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi “Davlat byudjetining g'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-594 – son Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizasiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1257 sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdagi “Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-1604 sonli Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 26 martdagi “O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat etish markazini tashkil etish to'g'risida” №PF-1414-sonli Farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdagi “Tekshiruvlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida” №PF-1503 Farmoni

- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 19 noyabrdagi “Xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlarning tashkil etilishini tartibga solish to'g'risida” №PF-2114 sonli Farmoni
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 27 iyundagi “O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida” PF-3093 Farmoni
- 12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 4 apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida” gi PF-3592-sonli Farmoni
- 13.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 1 avgustdagi PF-1827-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Respublika pul-kredit siyosati komissiyasi to'g'risida Nizom”
- 14.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 19 noyabrdagi №UP-2114–sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Respublika nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish kengashi to'g'risida Nizom”
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 21 apreldagi PQ–311-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti to'g'risida Nizom”
- 16.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 23 noyabrdagi 553-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to'g'risidagi Nizom”
- 17.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi “Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida” PQ -414-son Qarori
- 18.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 13 martdagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida” 87-sonli Qarori

19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizom"
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to'g'risida Nizom"
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari to'g'risidagi Nizom"
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan "Korxonalaridagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom"
23. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi 98-son qaroriga bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risida Nizom"

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. , "O'zbekiston – iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida". T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 1995 yil
2. Karimov I.A. "Bank tizimi, pul muomilasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida" – T.: " O'zbekiston" nashriyoti, 2005 yil
3. Karimov I.A. "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir". T.: "O'zbekiston" nashriyoti , 2007 yil
4. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi." T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2009 yil

5. Karimov I.A., “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. – T.: “O’zbekiston” nashriyoti , 2010 yil
6. Karimov I.A., “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada oshirishdir”. – T.: “O’zbekiston” nashriyoti , 2010 yil
7. Karimov I.A., “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. T.: “O’zbekiston” nashriyoti , 2011 yil
8. Бочаров В.В., Леонтьев А.Л., Радковская Н.Р., Финансы, учебник для вузов, СПб: 2009
9. Бюджетное право. 7-е изд., перераб. Ремиханова Д.А, под рек. Поляка, М.: 2009
10. Вахобов А., Срожиддинова З., Государственный бюджет. Учебник.– Т.: Iqtisod- moliya. 2007 г.
11. Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. O’quv qo’llanma, 2008 yil
12. Ibragimov A., Sugirbaev B. Byudjet nazorati va auditi. O’quv qo’llanma – Toshkent, 2009 yil
13. LI A. O’zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o’quv yurtlari uchun darslik, 2006 yil
14. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda: o’quv qo’llanma.- Toshkent. Iqtisod-moliya, 2010 yil
15. Мусаев Б., Срожиддинова З., Контрольно-экономическая работа финансовых органов. Т.: Iqtisod-moliya, 2006
16. Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo’raev O’. Xalqaro amaliyotda bank nazorati, T. Iqtisod-moliya, 2007 yil
17. Родионова В.М., Шлейников В.И., Финансовый контроль. Учебник.- М.:ИД. ФБК.-PRESS, 2002

18. Романовский В.М. и др. Бюджетная система РФ. Учебник.: - М.: ЮНИТИ, 2003
19. Степашин С.В, Столяров Н.С., Шохин С.О., Жуков В.А. Государственный финансовый контроль. Учебник. - СПб.: Питер, 2004
20. Финансовое право: Учебник под редак. проф. О.Н. Горбунова.- М.: Юрист, 1996.
21. Haydarov N.H. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya 2001 yil
22. Haydarov N.H. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. T.: Akademiya., 2005 yil
23. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod – moliya. 2005 yil
24. Yaxshiboev G'.Q. “Moliyaviy nazorat”. Uslubiy qo'llanma T.: Iqtisod-moliya, 2007 yil
25. Юнити Г.Б. Учебное пособие для вузов, 2009 yil
26. Davlat moliyasi tizimi , Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami, 3 jildlik, T.: “O'zbekiston”, 2002y.
27. Byudjetnoma. “O'zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Davlat byudjeti loyihasi to'g'risida” gi masalaga doir materiallar.
28. Byudjetnoma. “O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi Davlat byudjeti loyihasi to'g'risida” gi masalaga doir materiallar
29. Byudjetnoma. “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi Davlat byudjeti loyihasi to'g'risida” gi masalaga doir materiallar
30. Internet saytlari:
http:// www.gov.uz, http:// www.mf.uz, uz., http:// www.edu.uz.